

**O'ZBEKISTON RESPULIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**



**“DINSHUNOSLIK” FANIDAN
O'QUV-USLUBIY MAJMUA**



TOSHKENT – 2018

**O'ZBEKISTON RESPULIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI



«IJTIMOIY FANLAR» KAFEDRASI

**“DINSHUNOSLIK” FANIDAN
O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

Bilim sohasi:	100000 - Gumanitar 200000 - Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta'lif sohasi:	230000 – Iqtisod.
Ta'lif yo'nalishlari:	5232100 -Korporativ moliya; 5230700 -Bank ishi; 5230600 –Moliya; 5230200 -Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha); 5230800 -Soliqlar va soliqqa tortish; 5230900 –Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha); 5231500 -Baholash ishi; 5232000 -Davlat byudjetining g'azna ijrosi; 5231200 -Sug'urta ishi; 5232700-Investitsion loyahalarni moliyalashtirish; 5232400-Iqtisodiy xavfsizlik; 5232800-Elektron tijorat.

TOSHKENT – 2018

**Shayakubov Sh. “Dinshunoslik” fanidan o‘quv-uslubiy majmua. – T.:
TMI, 2018.**

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 201 yil «__» da № ____ - raqami bilan tasdiqlangan “Dinshunoslik” fan dasturi asosida ishlab chiqilgan

Tuzuvchi:

Shayakubov Sh.. - TMI, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri, t.f.n.

Taqrizchilar:

Matyaqubov X. –TDPU, “Tarix o’qitish metodikasi” kafedrasi dotsenti, t.f.n.
Abdullayev A. –TMI, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o’qituvchisi.

O‘quv-uslubiy majmua 201 «__» _____ da “Ijtimoiy fanlar” kafedrasining №____ - sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va Moliya-iqtisod fakultetining Kengashida ko‘rib chiqish uchun tavsiya qilingan.

Kafedra mudiri

Sh.Shayakubov

O‘quv-uslubiy majmua 201 «__» _____ da Moliya-iqtisod fakulteti Kengashida muhokama qilingan va o‘quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya qilingan (bayonnomma № «__», 201 yil «__» _____).

Fakultet dekani

D. Rustamov

Kelishildi:

**O‘quv-uslubiy
boshqarma boshlig‘i**

T. Baymuratov

**O‘quv ishlari
bo‘yicha prorektor**

I. Qo‘ziev

O‘quv-uslubiy majmua 201 «__» _____ da institut O‘quv-uslubiy Kengashining №____ - sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlash uchun tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

KIRISH.....	5
O'QUV MATERIALLAR.....	9
Ma'ruza matnlari	
1-mavzu. Dinshunoslik faniga kirish.....	9
2-mavzu. O'zbekistonda davlatning din va diniy tashkilotlar bilan munosabati.....	18
3-mavzu. Markaziy Osiyo dinlari.....	26
4-mavzu. Islom ta'limoti asoslari.....	42
5-mavzu. Islomdagi mazhablar va yo'nalishlar.....	68
6-mavzu. Missionerlik va prozelitizm: tarix va bugun, targ'ibot usullari.....	82
7-mavzu. Diniy ekstremizm va terrorizm: mafkura va amaliyot, qarshi kurash strategiyasi.....	91
8-mavzu Yangi diniy harakatlar va sektalar.....	103
9-mavzu. Kibermakonda din omili.....	120
Seminar mashg'ulotlari uchun materiallar.....	131
1-mavzu. Dinshunoslik faniga kirish.....	131
2-mavzu. O'zbekistonda davlatning din va diniy tashkilotlar bilan munosabati.....	139
3-mavzu. Markaziy Osiyo dinlari.....	145
4-mavzu. Islom ta'limoti asoslari.....	151
5-mavzu. Islomdagi mazhablar va yo'nalishlar.....	155
6-mavzu. Missionerlik va prozelitizm: tarix va bugun, targ'ibot usullari.....	159
7-mavzu. Diniy ekstremizm va terrorizm: mafkura va amaliyot, qarshi kurash strategiyasi.....	164
8-mavzu. Yangi diniy harakatlar va sektalar.....	170
9-mavzu. Kibermakonda din omili.....	176
MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI.....	181
Talaba portfoliosini yaratish bo'yicha tavsiyalar	
O'quv portfoliosi.....	181
Talaba portfoliosining komponentlari.....	186
Talaba portfoliosining turlari.....	188

Talaba portfoliosini baholash mezonlari.....	192
Talabaning o‘quv portfoliosi (namuna).....	194
GLOSSARY.....	205
ILOVALAR.....	237
Fan dasturi.....	237
Fanning ishchi dasturi.....	245
Tarqatma materiallar.....	261
Testlar.....	303
Ishchi fan dasturiga muvofiq baholash mezonlarini qo’llash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar.....	322
O‘quv-uslubiy majmuaning elektron shakli (diskda)	

KIRISH

Jamiyatni ma’naviy yangilashdan ko‘zlangan bosh maqsad - yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik kabi ko‘p-ko‘p muhim masalalardan iborat. Endigi eng dolzarb vazifamiz - bu jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslarini, ularning yangi-yangi qirralarini mukammal olib berish, o‘quvchilarimiz, talabalarimizga, keng jamoatchilikka sodda, lo‘nda qilib tushuntirib berish va ularni yangi hayot, zamon talablariga javob beradigan jamiyat qurilishining faol va jo‘shqin ishtirokchilariga aylantirishdan iborat.

Mustaqillik yillarda dinga yangicha qarash va munosabat natijasida biz uchun nisbatan yangi bo‘lgan dinshunoslik fani vujudga keldi. SHu sababdan mazkur fan bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratish zaruriyati muhim masalaga aylandi.

Dinshunoslik fanini o‘qitishdan maqsad talabalarga dinning kelib chiqishi, evolyusiyasi, hozirgi davrdagi holati, insoniyat hayotida tutgan o‘rni haqida umumiy ilmiy tushunchalar berishdan iborat.

Milliy va diniy qadriyatlarning tarixan mushtarakligi, ularning umuminsoniy qadriyatlarga uyg‘unlashishi, hozirgi mustaqil O‘zbekiston sharoitidagi ahamiyati tushuntiriladi.

Dinshunoslik fanining mazmuni talabalarda din, uning turli shakllari, ta’limotlari, yo‘nalishlari, mazhablari haqida to‘g‘ri ilmiy xulosalar chiqara oladigan, diniylik va dunyoviylik munosabatlarini asosli tahlil qila oladigan ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat.

Bunga erishishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonun, Jinoyat, Fuqarolik, Oila kodekslaridagi din va vijdon erkinligi haqidagi ko‘rsatmalar, qoidalar dasturul amal bo‘lib xizmat qiladi.

Dinshunoslik fanini o‘qitish va o‘rganishning vazifasi quyidagilardan iborat:

- dinshunoslikni o‘qitish va o‘rganish jarayonida chuqur ilmiylik, tarixiylik, xolislik tamoyillariga amal qilinadi;
- talabalarning diniy ong darajasini hisobga olish, diniy his-tuyg‘ulariga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish talab etiladi. Dinni qo‘pol ateistik ruhda) tanqid qilish yoxud diniy va’zonlik qilish, bir dinni ikkinchi dindan ustun qo‘yish qonunga zid ekanligi e’tiborga olinadi;
- dinshunoslikdan ma’ruza, amaliy seminar) mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish jarayonida faqat o‘quv qo‘llanmasi, risolalarda muayyan mavzuga oid keltirilgan g‘oya, fikr-mulohazalar bilan chegaralanmasdan, balki diniy matnlar, birlamchi manbalar, mazkur din muqaddas kitoblari asosida tahlil qilinmog‘i maqsadga muvofiqdir;
- talabalar mazkur fan mazmunini chuqur o‘zlashtirishlariga erishish ularda din haqida ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi, olgan bilimlari asosida konkret voqealarga nisbatan ongli ravishda o‘z shaxsiy fikrlariga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi;

- ushbu fan talabalar yoki boshqa shaxslar muayyan xatti-harakatlarining davlat qonunlariga, vijdon erkinligi tushunchasiga mos yoki mos emasliklarini aniqlash imkoniyatini shakllantirishi lozim;

- Mustaqil O‘zbekistonda din, diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan, dinga e’tiqod qilish yoki qilmaslik har bir kishining shaxsiy ishi ekanligi talabalarga tushuntiriladi. Din ma’naviy madaniyatning tarkibiy qismlaridan biri sifatida uni siyosiylishtirishga yo‘l qo‘ymaslik lozimligini uqdirish kursning asosiy va muhim vazifalaridan biridir.

Dinshunoslik fani bo‘yicha talabalarning bilimiga, uquviga va ko‘nikmasiga qo‘yiladigan talablar:

- O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning o‘zbek xalqining ma’naviy merosi, dini, shu jumladan islam qadriyatları, milliy g‘oya, milliy mafkura haqida bildirgan fikr va xulosalari, ta’rif va tavsiyalarini dinshunoslik fanini o‘rganishda dasturul amal, nazariy asos bo‘lishi talab etiladi;

- dinshunoslik fan sifatida tiklanishi va o‘quv tizimiga kiritilishi, uning ilmiylik, tarixiylik, ob’ektivlik, shaxsiy va ijtimoiy hayot bilan bog‘liqlik tomonlarini chuqr idrok etishga erishiladi;

- dinshunoslikni asosiy fanlar qatori o‘qitilishi O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining sharofati ekanligi, din, dindorlar va diniy tashkilotlarga nisbatan davlat tomonidan adolatli siyosatning o‘rnatalishi, vijdon erkinligining fuqarolarga konstitusion kafolatlanishiga tushunib yetish zarur;

- dinning ta’rifi, tavsiyi, ta’limoti va ijtimoiy hayotdagi o‘rnini o‘rganishga ikki xil yondashuv mavjudligi: ilohiyot teologiya) fani jihatidan va ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Har ikkala nuqtai nazar natijasida to‘plangan ilmiy, amaliy, tarixiy, falsafiy ma’lumotlarning kishilik jamiyati uchun ulkan ahamiyatini e’tirof etish muhim;

- o‘zbek xalqining ilg‘or madaniy va ma’naviy merosini tiklash va yangi sharoitda yanada rivojlantirish O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining sharofati ekanligi, ayni vaqtida bu hududdagi ilk zamondan hozirgacha mavjud bo‘lgan dinlar tarixi, diniy tajriba tadjiriylara taraqqiyotini o‘rganish talabalarda Vatan tarixini chuqrroq tushunib yetish, uni sevish va faxrlanish his-tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qilishi lozim;

- talabalardan O‘zbekiston Konstitutsiyasi, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi Qonun va boshqa qonuniy hujjatlarda diniy masala yuzasidan belgilangan inson huquqlari, turli diniy jamoa huquqlari va majburiyatlarini bilish talab etiladi;

- din va qonun o‘zaro munosabatlarini yaxshi bilish Respublikada demokratik, huquqiy jamiyat qurish poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi. Binobarin, talabalardan qonunga hurmat hissini, o‘zinigina emas, balki boshqalarning ham diniy his-tuyg‘ulari bilan hisoblashish,

o‘z shaxsiy fikrlarini boshqa kishilarga tazyiq bilan o‘tkazish, turli norasmiy diniy mazhab va guruhlarga jalg etish g‘ayriqonuniy xatti-harakat ekanligi, jamoat joylarida diniy masalalarda zo‘ravonlik, mutaassiblikka, agressivlikka yo‘l qo‘ymaslikni chuqur tushunib yetish talab etiladi;

- O‘zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatiga kirib borayotgan bir sharoitda dinshunoslik fanini o‘qitish jarayonida talabalarda va ular orqali fuqarolarda turli konfessiyalar vakillari bilan muloqot etishning yuksak madaniyatiga erishish ruhida tarbiyalash juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dinshunoslik fani o‘quv rejasidagi ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan, rivojlangan va hozirda ham shu jarayon davom etmoqda.

Eng qadimgi zamonalardan boshlab falsafiy tafakkurda din masalasi faylasuf olimlar diqqatini o‘ziga jalg etib kelgan. Dinga ta’rif va tavsiflar berilgan. Falsafiy dunyoqarashda dinni g‘oyalar tizimi sifatida tahlil etuvchi din falsafasi yo‘nalishi shakllangan.

Psixologiya fani tarmoqlari murakkab hodisa bo‘lgan dinni inson ruhiyati bilan bog‘liq holda tahlil qilganlar. Buning natijasida din psixologiyasi fani shakllangan va rivojlangan. Dinshunoslik asoslarini o‘rganishda psixologiya fanining ko‘p sonli yutuqlariga suyanish muhimdir.

Muayyan jamiyatda diniy ta’limotning tarqalishi, uning kishilar ongiga ta’sir darajasi diniy ong darajasi), ijtimoiy va madaniy-ma’naviy hayotga ta’siri va rolini aniqlash maqsadida sotsiologik tadqiqotlar xulosalariga murojaat qilinadi. Keyingi 2 asr davomida dinni ijtimoiy hodisa sifatida o‘rganuvchi din sotsiologiyasi fani barq urib rivojlandi.

Bulardan tashqari dinshunoslikning din antropologiyasi, din fenomenologiyasi, din tarixi, din aksiologiyasi kabi tarmoqlari mavjudki, ularning yutuqlaridan ham dinshunoslik fanini o‘qitish va o‘rganishda foydalanish mumkin.

Hozirgi fan va texnika taraqqiyoti sharoitida dinshunoslik fanini faqat so‘z yordamida o‘qitish yaxshi samara bermaydi. Shuning uchun dasturning mazmunidan kelib chiqib texnik vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, audio, video, kinoapparatura va kompyuterlari bo‘lgan oliy o‘quv yurtlarida muayyan dinlarning kelib chiqishi tarixi, diniy yo‘nalishlar, mazhablar haqida hikoya qiluvchi o‘quv filmlari, slaydlarni namoyish etish, CD kompaktdisklar, xarita, sxema, fotografiya va boshqalardan foydalanish mumkin.

Din kishilarni hamisha yaxshilikka, ezgu ishlarga chorlab kelgan. Jumladan, ota-bobolarimizning muqaddas e’tiqodi bo‘lgan islom dini ham yuksak insoniy fazilatlarning shakllanishiga xizmat qilgan. U tufayli xalqimiz ming yillar mobaynida boy ma’naviyati va merosi, o‘zligini omon saqlab keldi.

O‘zbek xalqining ilg‘or madaniy va ma’naviy merosini tiklash va yangi sharoitda yanada rivojlantirish, bu hududdagi ilk zamondan hozirgacha mavjud dinlarning tarixi, hayotiy tajribasi

tadrijiy taraqqiyotini o‘rganish vatan tarixini chuqurroq tushunib etish, uni sevish va u bilan faxrlanish his-tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Din va Qonun o‘zaro munosabatlarini bilish respublikada demokratik huquqiy jamiyat qurish poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'QUV MATERIALLAR

Ma'ruza matnlari

1-mavzu: Dinshunoslik faniga kirish

Reja:

1. O'zbekistonda dinga yangicha qarash va munosabatlarning shakllanishi.
2. "Dinshunoslik" fanining maqsad va vazifalari.
3. Dinning ta'rifi va uning jamiyatdagi vazifalari.

Tayanch tushunchalar:

Din, jahon dirlari, milliy dinlar, e'tiqod, ishonmoq tuyg'usi, ibodat, kompensatorlik, regulyatorlik, integratorlik, yakkaxudolik va ko'pxudolik

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng dinga yangicha qarash va munosabat bildirish imkoniyati tug'ildi. Natijada nisbatan yangi bo'lgan dinshunoslik fani vujudga keldi. Bu fan ilgarigi ateizmdan farqli o'laroq, dinni tanqid qilish, uni jamiyatdan yo'qotish maqsadida emas, balki unga milliy ma'naviyatning bir bo'lagi sifatida yondashib, uni xolisona o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Mustaqillik ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, jumladan, ma'naviy hayotdagi yangilanish jarayoni va tub o'zgarishlar davrini boshlab berdi. Dinga bo'lgan munosabat ijobiy tomonga o'zgardi: sobiq sovet tizimining dinga ateistik hujumkorlik siyosatiga barham berildi, vijdon erkinligi qonun orqali kafolatlandi.

O'zbekiston rahbariyati mustaqillikning birinchi kunlaridanoq dinning jamiyat hayotidagi muhim o'rniga muvofiq, buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan qadriyatlarni qayta tiklash asosida aniq va prinsipial chora-tadbirlar ko'ra boshladi. Davlatning dinga yangicha munosabati "inson e'tiqodsiz yashay olmaydi" degan aniq ishonch asosida belgilandi. Bu tamoyil hozirgi kunga kelib "Alloh qalbimizda, yuragimizda" so'zlarida ifodasini topmoqda.

O'z navbatida, "dunyoviylik" tamoyilini to'g'ri anglash, jamiyat va din orasidagi munosabatlarda muvozanatni saqlash lozim bo'ladi. Zero, dinning jamiyatda o'ziga xos o'rn mavjud. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan aytilgan quyidagi so'zlarni keltirish muhimdir: "Dunyoviy va diniy qadriyatlар о'rtasidagi nozik munosabatlarning mohiyatini har tomonlama to'g'ri tushuntirishimiz lozim. Tarix va hayot tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoviy va diniy qadriyatlар bir-birini to'ldirmas ekan,

bugungi kunning og‘ir va murakkab savollariga to‘laqonli javob topish oson bo‘lmaydi. SHu ma’noda, biz muqaddas dinimiz arkonlari va qadriyatlarini doimo ulug‘lab, shu bilan birga, dunyoviy hayotga ham qat’iy ishonch bilan intilib yashagan taqdirdagina o‘z ezgu maqsadlarimizga eta olamiz”¹.

Din kishilarni hamisha yaxshilikka, ezgu ishlarga chorlab kelgan. Jumladan, otabobolarimizning muqaddas e’tiqodi bo‘lgan islom dini ham yuksak insoniy fazilatlarning shakllanishiga xizmat qilgan. U tufayli xalqimiz ming yillar mobaynida boy ma’naviyati va merosi, o‘zligini omon saqlab keldi.

O‘zbek xalqining ilg‘or madaniy va ma’naviy merosini tiklash va yangi sharoitda yanada rivojlantirish, bu hududdagi ilk zamondan hozirgacha mavjud dirlarning tarixi, hayotiy tajribasi tadrijiy taraqqiyotini o‘rganish vatan tarixini chuqurroq tushunib etish, uni sevish va u bilan faxrlanish his-tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Din va Qonun o‘zaro munosabatlarini bilish respublikada demokratik huquqiy jamiyat qurish poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Din va dunyoviy davlat orasidagi munosabat haqida so‘z ketar ekan, uning asosida eng avvalo, dinning davlatdan ajratilishi tamoyili yotishini ta’kidlash zarur. Bu haqda Konstitutsiyamizning 61-moddasida shunday deyiladi: “*Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarining faoliyatiga aralashmaydi*”.

Mazkur moddada muhim ahamiyatga ega qoidalar mustahkam qo‘yilgan. Birinchidan, diniy tashkilotlar qaysi konfessiyaga taalluqliligidan qat’i nazar, bir xil huquqiy maydonda faoliyat olib boradilar. Ikkinchidan, diniy birlashmalar faoliyatini tashkil etish ularning ichki ishi hisoblanadi va davlat nazoratidan xolidir.

SHu bilan birga, diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan bo‘lsa-da, bu dinning jamiyatdan ajratilganini anglatmasligini ta’kidlash zarur. Zero, biror dinga e’tiqod qiluvchi fuqarolar ham jamiyatning tarkibiy qismi va shu sababli din fuqarolik jamiyatida o‘z mavqeiga ega bo‘ladi.

Davlatning dinga munosabatidagi asosiy xususiyati – bu dinning siyosatga aralashmasligi. Zero, har qanday din, birinchi o‘rinda ma’naviy-axloqiy jihatni o‘z ichiga oladi.

Davlatning dinga bo‘lgan munosabatini ifodalovchi yana bir tamoyil shundan iboratki, davlat dinni xalq ma’naviyatining uzviy qismi sifatida tan oladi. Bundan kelib chiqib, uning rivoji uchun tegishli shart-sharoit yaratishga harakat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida bu masalalar o‘z echimini topgan va u dunyodagi rivojlangan mamlakatlardagi huquqiy-me’yoriy talablarga to‘la javob beradi. Har

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – Б. 96.

qanday dingga e'tiqod qiluvchi va hech qanday dingga e'tiqod qilmaydigan kishilar uchun bir xildagi shartlar qo'yilishini ta'minlovchi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida, jumladan, shunday deyiladi:

"Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dingga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dingga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi".

Mazkur qoidada dunyoviy davlatning dingga bo'lgan munosabatini ifodalaydigan asosiy tamoyillar o'z ifodasini topgan:

- dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish;
- diniy e'tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;
- diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik;
- ma'naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarining imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo'llarini izlash zarurati;
- dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmasligini e'tirof etish. O'zbekiston davlatining dunyoviylik, diniy bag'rikenglik, barcha dinlarga bir xilda munosabat, jamiyat taraqqiyotida din bilan hamkorlik qilish xususiyatlari ushbu tamoyil asosida amalga oshiriladi. CHunki, konstitutsiyaviy dunyoviy-ma'rifiy davlatda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunga asosan diniy e'tiqodi va dunyoqarashidan qat'i nazar, siyosiy xohishlarini bildirishda barcha fuqarolarning teng ishtiroki tamoyiliga rioya qiladi.

O'zbekistonning tashqi olam bilan har tomonlama – siyosiy, iqtisodiy, ilmiy aloqalari yanada mustahkamlanib borayotgan hozirgi kunda turli konfessiya vakillari bilan muloqot qilishning yuksak madaniyatiga erishish katta ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalqining ilg'or madaniy va ma'naviy merosini tiklash va yangi sharoitda yanada rivojlantirish, bu hududdagi ilk zamondan hozirgacha mavjud bo'lib kelgan dinlarning tarixi, hayotiy tadrijiy taraqqiyotini o'rGANISH, talabalarda Vatan tarixini chuqurroq tushunib etish, uni sevish va u bilan faxrlanish his-tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi.

"Dinshunoslik" fani talabalarda din, uning turli shakllari, ta'limotlari, yo'nalishlari, mazhablari haqida to'g'ri ilmiy xulosalar chiqara oladigan dunyoviylik va diniylik munosabatlarini asosli tahlil qila oladigan to'g'ri dunyoqarashni shakllantiradi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun, jinoyat, fuqarolik, oila kodekslaridagi din va vijdon erkinligi haqidagi ko'rsatmalar, qoidalar dasturulamal bo'lib xizmat qiladi. Din va qonun o'zaro munosabatlarini to'g'ri anglash, respublikada demokratik huquqiy jamiyat qurish poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda talabalarga “Dunyo dinlari tarixi” fanini o‘qitish muhim masalalardan biriga aylandi.

Dunyo xaritasida mavjud mamlakat borki, unda yashovchi xalqlarning o‘z dini, urf-odatlari va an’analari mavjud. Ana shu qadriyatlar xalqlarning yurish-turishi, kundalik faoliyati va umuman hayat tarzini belgilashda asosiy omil bo‘lib hisoblanadi. Dunyo xalqlari tarixini o‘rganishda ularning diniy qarashlari, e’tiqod va diniy amaliyotlarini e’tibordan chetda qoldirish mumkin emas. “Dinshunoslik” fani ana shu muhim omilni tadqiq etib, tarix bilan bog‘liq ravishda tahliliy o‘rganadi.

“Dinshunoslik” fanini o‘qitishdan maqsad – talabalarga buddaviylik, xristianlik, islom kabi jahon dinlari bilan bir qatorda urug‘-qabila dinlari va alohida millatlarga xos milliy dinlar tarixini zamonaviy ilmiy konsepsiylar asosida chuqurroq o‘rgatish. SHuningdek, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda dinga nisbatan munosabatning tubdan o‘zgarganligi, diniy qadriyatlarni tiklash, diniy bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish yo‘lida qilinayotgan muhim o‘zgarishlar, yangiliklar haqida ma’lumotlarni berish ko‘zda tutilgan.

Mustaqillik davrida milliy va diniy qadriyatlarning xalqqa qaytarilishi bilan birga jahonda mavjud xalqlarning dinlari haqida keng ma’lumot olish, ularning qadriyatlarni o‘rganish imkoniyati yuzaga keldi. Natijada dinshunoslik fani izchillikda rivojvana boshladi. Bunda alloma ajdodlarimiz qoldirgan boy ilmiy-ma’naviy merosni o‘rganish bilan birga shu kunga qadar chet ellarda amalga oshirilgan izlanish va tadqiqotlarning natijalaridan unumli foydalanish zarurati paydo bo‘ldi.

“Dinshunoslik” fani dinni tanqid qilish yoki ko‘r-ko‘rona maqtash maqsadida emas, balki dinni tarixiylik, xolislik asosida turli xalqlar hayatida tutgan o‘rnini ilmiy jihatdan, ma’naviy hayatning bir bo‘lagi sifatida yondoshib o‘rganadi.

“Dinshunoslik” fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

- dinning jamiyatga ijtimoiy, ma’naviy, ruhiy ta’siri haqida bilimlar berish;
- ibtidoiy diniy tasavvurlar, milliy va jahon dinlari ta’limotlari haqida ma’lumot berish;
- dinning mohiyati va uning kishilik jamiyatni taraqqiyotidagi turli tarixiy bosqichlarda tutgan mavqeい haqida tushuncha berish;
- jamiyatni ma’naviy jihatdan kamol toptirishda diniy qadriyatlarning ahamiyatini yoritish;
- dunyoviy davlat va dinning o‘zaro munosabatlarini yoritib berish;
- diniy aqidaparastlik, ekstremizm va fanatizm kabi salbiy illatlar mohiyatini yoritish va ularga qarshi g‘oyaviy immunitetni shakllantirish;
- O‘zbekiston Respublikasida dinga nisbatan munosabatning tubdan o‘zgarganligi, xususan, islom dini qadriyatlarni tiklash yo‘lida qilinayotgan ishlar haqida keng tasavvur hosil

qilish.

“*Dinshunoslik*” fanining amaliy ahamiyati shunda ham ko‘rinadiki, u talabalarda islam va boshqa dinlar qadriyatlariga hurmat bilan qarash, ularni qadrlash, boshqa dinlarga va ularning vakillariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni tarbiyalaydi.

“Dinshunoslik” fani bo‘yicha talabalarning bilimi, uquvi va ko‘nikmasi uchun quyidagi muhim talab, vazifalar qo‘yilgan:

birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o‘zbek xalqining ma’naviy merosi, dini, jumladan, islam dini qadriyatlari, milliy g‘oya, milliy mafkura haqida bildirgan fikr va mulohazalar, ta’rif va tavsiflarni mazkur fanni o‘rganishda nazariy asos qilib olish;

ikkinchidan, O‘zbekiston Konstitutsiyasi, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi qonun va boshqa qonuniy hujjatlarda din masalasi yuzasidan belgilangan inson huquqlari, turli diniy tashkilotlar huquqlari va majburiyatlarini bilish;

uchinchidan, “Dinshunoslik” asosiy fanlar qatorida o‘qitilishi, din, dindorlar va diniy tashkilotlarga nisbatan davlat tomonidan adolatli siyosat o‘rnatalishi, fuqarolar uchun vijdon erkinligining konstitutsion kafolatlanishi mustaqillik sharofati ekanligini tushunib etish;

to‘rtinchidan, qonunga hurmat hissini, faqat o‘zining emas, balki boshqalarning ham diniy his-tuyg‘ulari bilan hisoblashish lozimligini, o‘z shaxsiy fikrlarini boshqa kishilarga tazyiq bilan o‘tkazish, turli norasmiy diniy mazhab va guruhlarga jalb etish g‘ayriqonuniy xatti-harakat ekanligini, jamoat joylarida diniy masalalarda zo‘ravonlik, mutaassiblikka, agressivlikka yo‘l qo‘yish mumkin emasligini chuqur tushunib etish;

Beshinchidan, “Dinshunoslik” fanining boshqa gumanitar fanlar bilan birga rivojlanishini nazarda tutgan holda, o‘zi qo‘lga kiritgan soha yutuqlaridan ushbu fanni o‘zlashtirishda foydalanish.

Din – e’tiqod va u har bir kishining shaxsiy ishi hisoblanadi. Diniy nuqtai nazarga ko‘ra, din – muayyan diniy e’tiqodlarga, ya’ni ilohga, uning tomonidan insonlarga xabar etkazuvchilarining g‘ayrioddiy salohiyatga ega ekaniga (payg‘ambarlik), insonlar atrofida unga ko‘rinmaydigan ammo undan ancha yuqori darajada turuvchi mavjudotlar borligiga (farishtalar, jinlar) inson ideal hayot kechirishi uchun azaldan belgilangan qonuniyatlar mavjudligiga (muqaddas kitoblar), inson hayoti muntazam nazorat ostida ekaniga, qilingan barcha yaxshilik va yomonlik uchun mukofot yoki jazo muqarrarligiga (oxirat, hisob-kitob qilinish), inson qismati avvaldan belgilanishiga (taqdir) va shu kabi qarashlarga ishonish, ularni aqida sifatida qabul qilishdan iborat.

Din – tabiat, jamiyat inson va uning ongi, yashashdan maqsadi hamda taqdiri insoniyatning bevosita qurshab olgan atrof-muhitdan tashqarida bo‘lgan, uni yaratgan ayni

zamonda insonlarga to‘g‘ri, haqiqiy, odil hayot yo‘lini ko‘rsatadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash ta’limotdir. U muayyan ta’limotlar, his-tuyg‘ular, toatibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo‘ladi. U olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tariqasi, uni idrok etish usuli, olamda insoniyatning ilk tarixidan to bizgacha o‘tgan davrlarni ilohiy tasavvurda aks etishidir. Din komil insonni tarbiyalashda salmoqli tarbiyalovchi qudratga ega bo‘lgan ma’naviy-axloqiy kuchdir.

Din ishonmoq tuyg‘usidir. Ishonmoq tuyg‘usi insoniyatning eng teran va go‘zal ruhiy-ma’naviy ehtiyojlaridandir. Dunyoda dini, ishonchi bo‘lmagan xalq yo‘q. Xalq dinsiz, e’tiqodsiz biror-bir narsaga ishonchsiz holda yashay olmaydi. Sotsiologik nuqtai nazardan qaraganda din jamiyat uchun zaruriy narsa, ijtimoiy hayotning ajralmas qismidir. U ijtimoiy munosabatlarni yuzaga keltiruvchi va amalga oshiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa dinni jamiyatda bajargan vazifalariga ko‘ra o‘rganish mumkin demakdir.

Dinning vazifalari uning alohida shaxs va jamiyatga ta’siri va tabiatidan kelib chiqadi. Dinning vazifasi yoshlarga shaxs, oila, jamiyat hayotiga kirib borishi, madaniyat va ma’naviyatni boyitishga qo‘sghan hissasini ko‘rsatib berishdir.

Dinning ijtimoiy vazifalari haqidagi ta’limotni *funktzionizm* rivojlantiradi. Funksionizm jamiyatga ijtimoiy tizim sifatida qaraydi. Unda jamiyatdagi har bir element muayyan funksiyani bajaradi. Dinning jamiyatda bajaradigan ijtimoiy, ma’naviy, ruhiy vazifalari quyidagilardan iboratdir:

Birinchidan, har bir din o‘z e’tiqod qiluvchilari uchun to‘ldiruvchilik, tasalli beruvchilik – *kompensatorlik* vazifasini bajaradi. Masalan, insonda doimiy ehtiyoj hosil qilish hodisasini olaylik. Inson o‘z hayoti, turmush tarzi, tabiat va jamiyat bilan bo‘lgan munosabatlari jarayonida hayotiy maqsadlariga erishishi ilojsiz bo‘lib ko‘ringanida, unda qandaydir ma’naviy-ruhiy ehtiyojga zaruriyat sezadi. Bu diniy ehtiyoj bo‘lib, u ma’naviy-ruhiy ehtiyojni qondiruvchi, tasalli beruvchilik vazifasini bajargan va bajarmoqda.

Masalan, buddaviylik dini rohiblikni targ‘ib qiladi, xristianlikda esa, har bir xristian Iso masihning qaytishiga umid qilib, sabr-bardosh bilan hayot kechiradi. Islom dinida har bir musulmon dunyoda erishmagan moddiy yoki ruhiy orzu-istiklariga oxiratda erishishga ishongan holda yashaydilar.

Ikkinchidan, din o‘z ta’limot tizimini vujudga keltirgach, o‘ziga e’tiqod qiluvchilar jamoasini, shu ta’limot doirasida saqlashga harakat qilgan va hozir ham shunday. Bu dinning birlashtiruvchilik – *integratorlik* vazifasi deb ataladi. Din doimo ijtimoiy, etnik, ijtimoiy va ma’naviy hayotda uzviylik, muntazamlilikni ta’minlash maqsadida u xalqlarning ijtimoiy hayotiga, axloqiy munosabatlariga, adabiyoti va san’atiga bog‘langan. Masalan, yahudiylilikda

mazkur din vakillari bir mafkura atrofida bir millat va yagona maslak egalari bo‘lib, yagona xudo YAhvening sevimli bandalari ekanligi uqtiriladi.

Xristianlikda diniy me’moriy, tasviriy, musiqa san’atidan foydalanib ikona chizuvchilar maktablari faoliyat olib boradi.

Uchinchidan, har bir din o‘z qavmlari turmushini tartibga solib nazorat qiluvchilik – *regulyatorlik* vazifasini bajaradi. Dinlar o‘z urf-odatlari, marosim va bayramlarining qavmlari tomonidan o‘z vaqtida, qat’iy tartibda amal qilishini shart qilib qo‘yadi. Masalan, islomda kuniga besh mahal namoz o‘qilishi, har hafta juma namozini jome’ masjidlarida ado etish va hokazolar.

To‘rtinchidan, din aloqa bog‘lashlik – *kommunikativlik* vazifasini ham bajaradi, ya’ni har bir din o‘z qavmlarining birligi, turli dindagi kishilarning o‘zaro aloqalari, o‘zaro huquq va burchlarining borligi, urf-odat va ibodatlarni jamoa bo‘lib bajarilishi lozimligi nazarda tutiladi.

Beshinchidan, din qonunlashtiruvchilik – *legitimlovchilik* funksiyasini ham bajaradi. Dinning bu funksiyasi nazariy asosini amerikalik sotsiolog T.Parsons ishlab chiqqan. Uning fikricha, “har qanday ijtimoiy tizim muayyan cheklovlarsiz mavjud bo‘la olmaydi. Buning uchun u qonun darajasiga ko‘tarilgan axloq normalarini ishlab chiqishi kerak. Din bunday normalarni qonunlashtiribgina qolmay, ularga bo‘lgan munosabatni belgilaydi”.

Oltinchidan, din vazifalarining falsafiy, nazariy jihatlari mavjud. U insonga yashashdan maqsad, hayot mazmunini, dorulfano va dorulbaqo dunyo masalalariga o‘z munosabatlarini bildirib turishdan iboratdir.

Din insoniyatning ruhiy dunyosi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning ijtimoiy hayotida doimo u bilan birga bo‘ladi. Dinni o‘rganish bu insoniyatni o‘rganishdir. Din insoniyat bilan birga dunyoga kelgan.

Dinlar turli guruhlarga bo‘linadi:

- Urug‘-qabila dinlari – totemistik, animistik tasavvurlarga asoslangan, o‘z urug‘idan chiqqan sehrgar shomon qabila boshliqlariga sig‘inuvchi dinlar. Ular hozir Avstraliya, Janubiy Amerika va Afrikadagi ba’zi qabilalarda saqlanib qolgan;
- Milliy dinlar – ma’lum millatga xos bo‘lib, boshqa elat vakillari o‘ziga qabul qilmaydigan dinlar. Ularga yahudiylik, hinduiylik, konfutsiylik, sintoizm kiradi;
- Juhon dinlari – dunyoda eng ko‘p tarqalgan, kishilarning millati va irqidan qat’i nazar unga e’tiqod qilishlari mumkin bo‘lgan dinlar. Unga buddaviylik, xristianlik va islom dini kiradi.

Dinlar ta’limotiga ko‘ra, monoteistik – yakkaxudolik (yahudiylik, islom) va politeistik – ko‘pxudolik (hinduiylik, konfutsiylik) dinlariga bo‘linadi.

O‘tilgan mavzu bo‘yicha savollar

1. “Dinshunoslik” fanining asosiy maqsadi nimalardan iborat?

2. Dinga qanday ta’riflar berilgan?
3. Din jamiyatda qanday vazifa(funksiya)larni bajaradi?
4. Dinlar qanday omillar asosida tasnif qilinadi?
5. Dinlar qanday guruhlarga bo‘linadi?
6. Komil insonni tarbiyalashda din omilining o‘rni qanday?
7. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda vijdon erkinligi, din va diniy tashkilotlarga munosabat masalasida qanday o‘zgarishlar amalga oshirildi?

Mustaqil ish topshiriqlari

- 1.“Mustaqillik va din” mavzusida referat tayyorlang.
2. Dunyo dinlarining farqli va o‘xshash jihatlari haqida so‘zlab bering.
- 3.“Dinshunoslik” fanining maqsad va vazifalari haqida so‘zlab bering.
- 4.Turli olimlar tomonidan dinga berilgan ta’riflar haqida ko‘rgazmali slayd tayyorlang (MS Power Point).

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2008.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008
3. Gunnar Skirbekk, Nils Gilyo. Falsafa tarixi. –T.: SHarq, 2002.
4. Islom ziyosi o‘zbegin siyosida. – T: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2005.
5. Men A. Istoriya religii. – M.: 1994.
6. Peter Anters. Religii sovremennosti. Istoriya i vera. –M.: Progress-Traditsiya, 2001.
7. Radugin A.A. Vvedenie v religiovedenie: teoriya, istoriya i sovremennye religii. – M.: 1996.

2- mavzu: O‘zbekistonda davlatning din va diniy tashkilotlar bilan munosabati

Reja:

1. Din va davlat munosabatlari.
2. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonun mazmun-mohiyati.
3. O‘zbekistonda diniy tashkilotlarni ro‘yxatga olish tartibi.
4. O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatuvchi diniy tashkilotlar.

Tayanch tushunchalar:

E’tiqod, din, davlat, diniy tashkilot, vijdon erkinligi, konfessiya, YUNESKO, BMT.

Din va davlat munosabatlari. Mustaqillik ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, jumladan, ma’naviy hayotdagi yangilanish jarayoni va tub o‘zgarishlar davrini boshlab berdi. Dinga bo‘lgan munosabat ijobiy tomonga o‘zgardi: sobiq sovet tizimining dinga ateistik hujumkorlik siyosatiga barham berildi, vijdon erkinligi qonun orqali kafolatlandi.

Din kishilarni hamisha yaxshilikka, ezgu ishlarga chorlab kelgan. Jumladan, otabobolarimizning muqaddas e’tiqodi bo‘lgan islom dini ham yuksak insoniy fazilatlarning shakllanishiga xizmat qilgan. U tufayli xalqimiz ming yillar mobaynida boy ma’naviyati va merosi, o‘zligini omon saqlab keldi.

O‘zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatiga kirib borayotgan bir sharoitda turli konfessiya vakillari bilan muloqot qilishning yuksak madaniyatiga erishish katta ahamiyat kasb etadi. O‘zbek xalqining ilg‘or madaniy va ma’naviy merosini tiklash va yangi sharoitda yanada rivojlantirish, bu hududdagi ilk zamondan hozirgacha mavjud dinlarning tarixi, hayotiy tajribasi tadrijiy taraqqiyotini o‘rganish vatan tarixini chuqurroq tushunib etish, uni sevish va u bilan faxrlanish his-tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Din va Qonun o‘zaro munosabatlarini bilish respublikada demokratik huquqiy jamiyat qurish poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Din va dunyoviy davlat orasidagi munosabat haqida gap ketar ekan, uning asosida eng avvalo dinning davlatdan ajratilishi tamoyili yotishini ta’kidlash zarur. Bu haqda Konstitutsiyamizning 61-moddasida shunday deyiladi: “*Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirilar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi*”².

Mazkur moddada muhim ahamiyatga ega qoidalar mustahkam qo‘yilgan. Birinchidan, diniy tashkilotlar qaysi konfessiyaga taalluqliligidan qat’i nazar, bir xil huquqiy maydonda faoliyat olib boradilar. Bugungi kunda respublikamizda 15 ta noislomiy konfessiyaga mansub 186 ta tashkilot emin-erkin faoliyat olib borayotgani ham buning amaliy ifodasıdır. Ikkinchidan, diniy birlashmalar faoliyatini tashkil etish ularning ichki ishi hisoblanadi va davlat nazoratidan xolidir.

SHu bilan birga, diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan bo‘lsa-da, bu dinning jamiyatdan ajratilganini anglatmasligini ta’kidlash zarur. Zero, biror dinga e’tiqod qiluvchi fuqarolar ham jamiyatning tarkibiy qismi va shu sababli din fuqarolik jamiyatida o‘z mavqeiga ega bo‘ladi.

² Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2003. – Б. 13.

Davlatning denga bo‘lgan munosabatini ifodalovchi yana bir tamoyil shundan iboratki, davlat dinni xalq ma’naviyatining uzviy qismi sifatida tan oladi. SHundan kelib chiqib, uning rivoji uchun tegishli shart-sharoit yaratishga harakat qiladi.

I.A.Karimovning Oliy Majlisning o‘n to‘rtinchchi sessiyasida so‘zlagan nutqida bu tamoyil o‘zining yorqin ifodasini topgan: “Mamlakatimizni demokratik tamoyillar, ilm-fan yutuqlari, yuksak texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish bilan birga, muqaddas dinimizni, milliy o‘zligimizni asrab-avaylab yashashni maqsad qilib qo‘yganmiz”³. Bu fikrlar hayotiy voqelikka aylanmoqda.

Dunyoviy davlatning denga bo‘lgan munosabatida dindorlarning huquqiy maqomi va davlat tomonidan o‘tkazilayotgan tadbirlarda diniy konfessiyalar haqidagi qonunlarning hayotga tatbiq etilishidek ikki muhim jihat ham bor.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida bu masalalar o‘z echimini topgan va u dunyodagi rivojlangan mamlakatlardagi huquqiy-me’yoriy talablarga to‘la javob beradi. Har qanday denga e’tiqod qiluvchi va hech qanday denga e’tiqod qilmaydigan kishilar uchun bir xildagi shartlar qo‘yilishini ta’minlovchi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida, jumladan, shunday deyiladi:

*“Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan denga e’tiqod qilish yoki hech qaysi denga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi”*⁴.

Mazkur qoidada dunyoviy davlatning denga bo‘lgan munosabatini ifodalaydigan asosiy tamoyillar o‘z ifodasini topgan:

- dindorlarning diniy tuyg‘ularini hurmat qilish;
- diniy e’tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;
- diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta’qib qilishga yo‘l qo‘ymaslik;
- ma’naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo‘llarini izlash zarurati;
- dindan buzg‘unchilik maqsadlarida foydalanishga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligini e’tirof etish⁵.

Davlatning denga munosabatidagi asosiy xususiyati – bu dinning siyosatga aralashmasligi. Zero, har qanday din, birinchi o‘rinda ma’naviy-axloqiy jihatni o‘z ichiga oladi.

³ Каримов И.А. Ватанимизнинг тинчлиги ва хавфсизлиги ўз куч-кудратимизга, халқимизнинг букилмас иродасига боғлиқ. – Т.: Ўзбекистон, 2004. – Б. 8.

⁴ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2003. – Б. 8.

⁵ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, баркарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б. 43-44.

Hech qaysi din o‘zida xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatlarining barchasini qamrab olishga da’vogarlik qilmaydi. Aks holda u din bo‘lmay qoladi. Xuddi shu asosda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasida diniy-siyosiy partiyalar tuzish taqiqlangan⁶.

O‘zbekiston davlatining dunyoviylik, diniy bag‘rikenglik, barcha dinlarga bir xilda munosabat, jamiyat taraqqiyotida din bilan hamkorlik qilish xususiyatlari ushbu tamoyil asosida amalga oshiriladi. CHunki, konstitutsiyaviy dunyoviy-ma’rifiy davlatda vijdon erkinligi qonuni diniy e’tiqodi va dunyoqarashidan qat’i nazar, siyosiy xohishlarini bildirishda barcha fuqarolarning teng ishtiroki tamoyiliga rioya qiladi.

“Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonun. Ushbu qonun 1991 yilda qabul qilingan bo‘lib, 1993 yilda kiritilgan ba’zi qo‘srimcha va o‘zgartirishlar bilan 1998 yilga qadar amalda bo‘lib keldi.

1990-yillarning boshlarida hukumatimiz tomonidan berilgan imkoniyatlarning suiste’mol qilinishi, masjid qurish kampaniyaga aylanib ketishi oqibatida ularning soni 89 tadan 5000 tagacha etdi. Ularning aksariyati hujjatlari to‘liq rasmiylashtirilmagan, malakali imomlar bilan ta’minlanmagan (95,8% diniy ma’lumotsiz) va zarur sharoitlar bo‘limgan holda faoliyat yurgizib, turli “peshvo”lar masjidlarni o‘z uyalariga aylantirishga harakat qildilar.

Ba’zi diniy tashkilotlarning rahbarlari xorijiy fuqarolar bo‘lib, aslida hech qanday diniy ma’lumotga ega bo‘lmay, moliyaviy yordam ko‘rsatish hisobiga respublikamiz hududidagi diniy tashkilotlarga rahbarlik qilib olib, missionerlik faoliyati bilan shug‘ullanar edilar. Ularning asosiy maqsadi turli yo‘llar va usullar bilan bilan o‘z saflarini mahalliy millat vakillari hisobiga kengaytirishdan iborat edi.

Davr talablari asosida “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonunni tubdan o‘zgartirish zarurati tug‘ildi va 1998 yil 1 mayda u yangi tahrirda qabul qilindi.

Kiritilgan o‘zgartirishlar nimalardan iborat edi?

Jumladan, Qonunning 8-moddasiga asosan, diniy tashkilotlar 18 yoshga to‘lgan va respublika hududida doimiy yashayotgan 100 nafardan kam bo‘limgan O‘zbekiston fuqarolari tashabbusi bilan tuzilishi, muayyan konfessiyaga qarashli diniy tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va yo‘naltirib borish uchun ularning respublika bo‘yicha yagona markaziy boshqaruvi organi tuzilishi mumkinligi haqidagi qoida mutahkamlab qo‘yildi.

SHuningdek, tegishli diniy ma’lumotga ega bo‘lgan O‘zbekiston fuqarolari diniy tashkilotlarning rahbarlari etib saylanishlari, bunday lavozimga xorijiy fuqarolar nomzodlari

⁶ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2003. – Б. 12.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita bilan kelishib olinishi belgilab qo‘yildi⁷.

Qonunning 9-moddasiga muvofiq diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari ruhoniylar va o‘zlariga zarur bo‘lgan diniy xodimlar tayyorlash uchun diniy o‘quv yurtlari tuzishga haqlidir.

Qonunning 5-moddasida bir konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm), shuningdek, boshqa har qanday missionerlik faoliyati man etiladi.

Ushbu moddaning mazmuni va ahamiyatini tushunish uchun missionerlik va prozelitizm nima ekanini bilib olish kerak. Missionerlik – bu boshqa diniy e’tiqodga ega bo‘lgan aholini o‘z diniga og‘dirib olishlik bo‘yicha diniy tashkilotlar vakillari tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyat. Prozelit – bu o‘z dinidan kechib, boshqa dinga o‘tgan odam.

Qonunning 16-moddasiga asosan: “Diniy tashkilotlar uchun er ajratish hamda ibodat binolari qurish tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ruxsati bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi”.

Qonunning diniy adabiyotlarga tegishli bo‘lgan 19-moddasi ham bir qadar o‘zgartirildi: “Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari diniy maqsadlarga mo‘ljallangan buyumlar, diniy adabiyotlar va diniy mazmundagi boshqa axborot materiallarni O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishlab chiqarishga, eksport va import qilishga hamda tarqatishga haqlidir”. Mazkur qoida O‘zbekiston hududiga diniy adabiyotlarning olib kirilishini tartibga soladi.

O‘zbekistonda diniy tashkilotlarni ro‘yxatga olish tartibi. Respublikamiz fuqarolarining dinga e’tiqod qilish, ibodat, rasm-rusumlar va marosimlarini birqalikda ado etish maqsadida tuzilgan ko‘ngilli birlashmalari (diniy jamiyatlar, diniy o‘quv yurtlari, masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, monastirlar va boshqalar) diniy tashkilotlar deb e’tirof etiladi⁸.

Mamlakatimizda diniy tashkilotlarni tashkil etish, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish yoki faoliyatini tugatish Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 20 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi qaroriga asosan olib boriladi.

Diniy tashkilotlar O‘zbekiston Respublikasining 18 yoshga to‘lgan va respublika hududida doimiy yashayotgan 100 nafardan kam bo‘lmagan fuqarolari tashabbusi bilan tuzilishi mumkin. Tashkilot ustavi qabul qilingandan keyin bir oy muddatda barcha zarur ta’sis hujjatlari

⁷ Виждан эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида (янги таҳрири) Ўзбекистон Республикаси Қонуни. Т.: 1998. – Б. 8.

⁸ Виждан эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида (янги таҳрири) Ўзбекистон Республикаси Қонуни. 8-модда. Т.: 1998. – Б. 5.

Adliya vazirligi yoki uning joylardagi idoralariga taqdim etilishi zarur. Bir diniy tashkilotning a'zosi bir vaqtning o'zida boshqa diniy tashkilotning a'zosi bo'lishi mumkin emas.

Markaziy boshqaruв organi O'zbekiston Respublikasining kamida 8 ta hududiy tuzilmasi (viloyatlar, Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi)da faoliyat ko'rsatayotgan tegishli konfessiyalarining ro'yxatdan o'tkazilgan diniy tashkilotlari va diniy o'quv yurtlari vakillari ta'sis konferensiysi tomonidan tuziladi va Adliya vazirligi tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

Boshqa diniy tashkilotlar ustavi Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan, Din ishlari bo'yicha qo'mita yoki uning joylardagi vakili bilan kelishilgan holda, davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

Taqdim etilgan hujjatlar bir oy muddatda ko'rib chiqiladi hamda ustavni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda diniy tashkilotlarga Adliya vazirligi yoki uning joylardagi idoralari tomonidan guvohnoma beriladi.

Tegishli hollarda diniy tashkilot faoliyatini tugatish va tarqatib yuborish to'g'risidagi qaror uni ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan qabul qilinadi.

O'zbekistonda faoliyat ko'rsatuvchi diniy tashkilotlar. Tarixdan ma'lumki, har qanday davlatning barqarorligi undagi xalqlar, millat va elatlarning huquq va erkinliklari faqatgina qonuniy hujjatlarda belgilanishiga emas, balki ularning amalda qay darajada o'z tasdig'ini topishiga ham bog'liqdir. SHu nuqtasi nazardan qaraganda, mamlakatimizda fuqarolarning vijdon erkinligi bilan bog'liq huquqlari nafaqat qonunan mustahkamlab qo'yilganini, balki amaliyotda ham ushbu Qonundan kelib chiquvchi tamoyillarga qat'iy rioya qilinayotganini hayotiy dalillar ham ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda diniy tashkilotlar hech qanday tazyiqlarsiz, cheklashlarsiz, emin-erkin faoliyat ko'rsatishlari uchun barcha sharoitlar yaratilganini ta'kidlash lozim. SHu bilan birga, diniy tashkilotlarning soni o'sganini ham qayd etish zarur.

Xususan, 1990 yilda respublikamizda 119 ta diniy tashkilot (89 ta islomiy va 30 ta noislomiy) mavjud bo'lgan bo'lsa, 1991 yilda 179 taga (146 islomiy va 33 noislomiy) etdi, 2007 yilning yanvariga kelib esa, ularning soni 2227 tani (2046 ta islomiy, 181 ta noislomiy) tashkil etdi. Ulardan eng yirigi O'zbekiston musulmonlari idorasi, Rus Pravoslav cherkovining Toshkent va O'rta Osiyo Eparxiyasi, Evangel xristian-baptistlar cherkovi, Rim-katolik cherkovi, To'liq Injil xristianlari cherkovi, O'zbekiston Bibliya jamiyati. SHuningdek, 1987 ta masjid, 163 ta xristian cherkovi, 8 ta yahudiy sinagogalari, 6 ta Bahoiylar jamoasi, 1 ta Krishnani anglash jamiyati, 1 ta Budda ibodatxonasi fuqarolar emin-erkin ibodat qilishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Mustaqillikkacha bor-yo‘g‘i ikkita islomiy diniy o‘quv yurti (Toshkent islom instituti va «Mir Arab» madrasasi) bo‘lgan bo‘lsa, o‘tgan yillar davomida ularning soni 11 taga etdi. Boshqacha aytganda, Imom al-Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti, Buxorodagi «Mir Arab», Toshkentdagi «Ko‘kaldosh», Qoraqlopog‘istondagi «Beruniy», Namangandagi «Mulla Qirg‘iz», Xorazmdagi «Faxriddin ar-Roziy», Andijondagi «Sayyid Muhyiddin Maxdum», Qashqadaryodagi «Xoja Buxoriy», Toshkentdagi «Xadichai Kubro» va Buxorodagi «Jo‘ybori Kalon» xotin-qizlar o‘rta maxsus islom bilim yurtlari va Imom al-Buxoriy nomidagi hadis ilmi markazidan iborat yaxlit diniy ta’lim tizimi yaratildi.

2000–2001 o‘quv yilidan boshlab diniy ta’lim muassasalarida Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Kasb-hunar ta’lim markazining Davlat ta’limi standartlari bo‘limi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan ta’lim standartlari va o‘quv rejasi asosida o‘qitish joriy qilindi. Sodda qilib aytganda, o‘quv yurtlarida diniy va dunyoviy ta’limning uzviyligi ta’minlandi.

2000 yildan boshlab Toshkent islom instituti va o‘rta maxsus islom bilim yurtlari bitiruvchilarini O‘zbekiston musulmonlari idorasi yo‘llanmasi bilan rejali ravishda respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan masjidlarga ishga taqsimlash va 2001 yil yanvar oyidan boshlab, ilk marta diniy bilim yurtlari talabalariga stipendiya berish joriy qilindi.

YUqoridagi kabi o‘zgarishlarni boshqa konfessiyalar misolida ham ko‘rish mumkin. Xususan, 1998 yildan Toshkent Pravoslav hamda Samarqand Protestant seminariyalari faoliyat ko‘rsata boshladi, Rus pravoslav cherkovi Toshkent va O‘rta Osiyo eparxiyasining 125 yilligi va Evangel-Lyuteran jamoasining 100 yilligi nishonlandi.

Xulosa qilib aytganda, xalqimizning diniy va ma’naviy qadriyatlarining hozirgi demokratik jamiyat qadriyatlari bilan uyg‘unlashishi respublikamizning kelajakda yanada ravnaq topishi, jahon hamjamiyatiga qo‘shilishida muhim omillardan biri hisoblanadi.

O‘tilgan mavzu bo‘yicha savollar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida diniy e’tiqod erkinligiga qanday munosabat bildirilgan?
2. “Diniy tashkilotlar” deganda nimalar nazarda tutiladi?
3. Diniy tashkilotlarni tashkil etish, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish yoki faoliyatini tugatish O‘zbekiston Respublikasining qaysi qonun hujjatiga asosan olib boriladi?
4. Turli konfessiyalar orasida nizo chiqmasligi uchun davlat qanday tadbirlarni qo‘llaydi?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Vijdon erkinligining xalqaro hujjatlarda aks etishi haqida ma’lumot to‘plang va kursdoshlaringizga aytib bering.

2. Bag‘rikenglik tushunchasining turli talqinlari haqida referat tayyorlang.
3. “Diniy jamoa” va “diniy tashkilot” tushunchalari o‘rtasidagi farqni ajratib bering.
4. “Konfessiyalararo hamjihatlik – barqarorlik garovi” mavzusida ko‘rgazmali slayd tayyorlang (MS Power Point).

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2009.
2. Karimov I.A. YUksak ma’naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008
3. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (yangi tahriri) // O‘zbekistonning yangi qonunlari, 19-tom. -T., Adolat, 1998.
4. Karimov I. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari // Karimov I. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O‘zbekiston, 1998.
5. Karimov I. Alloh qalbimizda, yuragimizda. “Turkiston press” axborot agentligi muxbirining savollariga javoblar // Karimov I. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-tom. – T.: O‘zbekiston, 1999.
6. Bag‘rikenglik – barqarorlik va taraqqiyot omili / Mas’ul muharrir – A.Achilliev. – T., 2007.
7. Diniy bag‘rikenglik va mutaassiblik (yuz savolga yuz javob) / Achilliev A. va boshqalar. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2007.
8. Islom va hozirgi zamon / O‘quv qo‘llanma. Mas’ul muharrir SH.YOvqochev. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010.
9. O‘zbekistonda dunyoviy va diniy qadriyatlar uyg‘unligi. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009.
10. Hasanov A. Diniy bag‘rikenglik. O‘zbekiston – an’anaviy diniy bag‘rikenglik o‘lkasi // Ma’naviy va diniy etuklik – davr talabi / Mas’ul muharrir R.V.Abdullaev. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009.
11. Husnidinov Z. va boshqalar. Jaholatga qarshi ma’rifat – tinchlik va barqarorlik omili. -T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2003.
12. Husnidinov Z. O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik. T.: TIU, 2006.

3-mavzu: Markaziy Osiyo dinlari

Reja:

1. Markaziy Osiyo xalqlari qadimgi diniy e'tiqodlari: shomonlik.
2. Tangrichilik.
3. Zardushtiylik
4. Moniylik

Tayanch tushunchalar:

Shomonlik, Tangri, Erlik, Umay, Jumay, Olqish, Axuramazda, Axriman, Zardusht, Avesto, Fravashi, Yasna, Yasht, Videvdat, Visperad, Moniy, Dualizm, Kefalayya.

Markaziy Osiyo xalqlari qadimgi diniy e'tiqodlari: shomonlik. Markaziy Osiyo o'zining geografik va geosiyosiy joylashuvi tufayli turli madaniyatlar va sivilizatsiyalarning to'qnashuv nuqtasiga aylandi. Osiyo qit'asining Kaspiy dengizi va Orol-Irtish suv havzalaridan to hozirgi Pokiston va Hindistongacha bo'lgan katta qismini egallagan mintaqqa - Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy ildizlari uzoq o'tmishta borib taqaladi. Ushbu xalqlar haqidagi yozma ma'lumotlar yunon manbalari va miloddan avvalgi VI-IV asrlarga oid qadimgi eron va turk yozuvlarida uchraydi.

Mintaqa Evroosiyo qitasi markazida joylashgan bo'lib, SHarq bilan G'arbni bog'lovchi bo'g'inga, turli xalq va elatlarning, shuningdek, diniy tizim va e'tiqodlarning doimiy aloqa maydoniga aylandi. Bunday etnik va diniy turfaxillik natijasida shunday vaziyat yuzaga keldiki, u ko'plab dinlarning (zardushtiylik, buddizm, yahudiylik, xristianlik va moniy-lik) yo'qolib ketishiga qaramay, hozirgi paytda mintaqada yashovchi xalqlarning urf-odatlarida saqlanib qoldi. Mazkur diniy holatning o'ziga xosligi Markaziy Osiyo xalqlarining diniy bag'rikengligi asosiy vazifani o'tadi.

Markaziy Osiyo xalqlari qadimgi diniy e'tiqodlaridan biri sifatida shomonlikni qayd etish mumkin. SHomonlik e'tiqod va an'analari inson ongida g'ayritabiyylik to'g'risidagi tasavvurlar to'liq shakllangan vaqtda paydo bo'lgan. Ushbu e'tiqod oddiy insonning dahshatli va tushunarsiz, g'ayritabiyy va go'zal, sirli holatlarini tushunishi va aql kuchidan ustun turgan bir narsadir. SHomonlik bu omillar orqali jamoalar hayotining tashqi va ichki ziddiyatlarini qamrab oladi. SHomonlikning turli vazifalariga (emchilik, ruhlarni haydash, falokatlarning oldini olish, yomg'ir chaqirish, afsun qiyaish, kamlash va h.k.) kelsak, ular ushbu e'tiqodning asosiy mohiyatiga qo'shimchadir.

SHomonlikdagi asosiy, hal qiluvchi holat shomon tanasiga ruhlarning joylashishi to'g'risidagi tasavvurdir. Odamlar shomonning o'ziga xos trans holatini ko'rganlarida uni o'zi chaqirgan ruhlar egallab oldilar, deb o'ylaydilar. Bunda shomon ko'pincha o'z harakatlarida animistik obraz yoki shu obrazlarni eslatuvchi predmetlarni qo'llaydi. Ruhlarni chaqirish shomonlik harakatlarini ta'sirchan jamoaga yo'naltirib, ulardan o'z manfaatlari yo'lida

foydalanimishni taqozo etadi.

SHomonlik yovuz va yaxshi ruhlarni tan oladi. Bunda ayrim shomon jamoalari oddiy kishilar ruhi o‘ladi, shomon ruhi esa abadiy deb hisoblaydilar. Ruhlar tomonidan o‘g‘irlanib, shomonlar tomonidan topilib, inson tanasiga qaytarilgan jon haqidagi g‘oya faqat shomonlik doirasida tushuntirilishi mumkin. Bu ayniqsa, shomonlik davolash usullarida, kasal tanasidan yovuz ruhlarni haydashda yorqin namoyon bo‘ladi.

Markaziy Osiyo xalqlarida shomonlik reliktlari turli ko‘rinishlarda kuzatiladi. «CHilla yosin» davolash marosimi birinchi navbatda Qur’ondagi «YOsin» surasini qirq marta o‘qib, kasalni tol navdalari bilan «urish» orqali amalga oshiriladi. Bunda tol novdalari qirqta bo‘lishi kerak. SHomonlik marosimining yaa bir turi - «kinna», ya’ni bemor tanasidan kasalni haydashning alohida usulidir.

SHomonlik elementlari sifatida kuyovnavkarlik bilan bog-lik bo‘lgan odatni - kuyovning kelinnikiga jo‘ralari bilan jo‘-raboshi boshchiligidagi qiyqiriqlar bilan bazmga borish marosimini ko‘rsatib utish mumkin. Jo‘raboshi qo‘lida tol navdala-rini ushlagan holda navkarlar boshi uzra elpiydi, bunga javo-ban navkarlar jo‘r bo‘lishib qiyqirishadi. Bularnyng barchasi kuyovdan yovuz ruhlarni haydashga qaratilgan bo‘lib, shomonistik xarakterga ega. SHu bilan birga o‘zbek, tojik va boshqa xalqlarida biror kimsa uzoq vaqt kasal bo‘lsa, u yaqinlari, tanishlari yoki tabiblar maslahatiga ko‘ra, sog‘ayishning birdan bir yo‘li - bu ruhlar bilan aloqa qilish missiyasini bo‘yniga olish ekanligiga ishonadi. Bunday holat xalq orasida «odamli» deyiladi, ya’ni uning ketida qandaydir kuchlar bor deb hisoblanadi. Bunday odamlar astasekin insonlarni «davolash» bilan shug‘ullana boshlaydi.

Markaziy Osiyo xalqlari hayotidan keltirilgan mazkur misollar shomonlik an‘analarining nafaqat qoloq dunyoqarash shakllari sharoitida, balki madaniy-tarixiy rivojlangan jamiyatda ham yashovchanligini yaqqol namoyon etadi. An‘analar ko‘pincha o‘zgaradi, moslashadi, amaldagi rasmiy din talablarining u yoki bu jihatlariga ma’lum darajada birikadi. CHunonchi, islom sharoitida shomonlik harakatlari odatda musulmon an‘analariga ko‘ra fotiha bilan yakunlanadi, biroq ayrim shomonlar musulmonlikka to‘g‘ri kelmaydi deb fotiha qilmaydigan hollar ham uchrab turadi.

Tangrichilik. Tangrichilik osmon xudosi "Tangri"ga e’tiqod qilgan qadimiy turkiylarning dini bo‘lib, mil.avv. 2-ming yillik oxiri va 1-ming yillikda vujudga kelgan. Ko‘pchilik mutaxassislar oliy osmon xudosi shumerlarda – "Dingir", qadim xitoyliklarda - "Tyan" va xunnlarda - "CHenli" nomi bilan mavjud bo‘lganidan kelib chiqib, ularda aynan bir xudo - Tangri nazarda tutilgan, deb e’tirof etadi. Olimlar mazkur qiyosga tayangan holda tangrichilik eng qadimgi dinlardan biri ekanini ta’kidlaydilar.

Ayrim tadqiqotchilar fikricha, 5—6 ming yillar muqaddam qadimgi SHumerdan Oltoygacha bo‘lgan ulkan hududda protooltoy qabilalari yashagan. Qadimgi shumerlar qadimgi turk tiliga yaqin bo‘lgan protooltoy tili lahjasida so‘zlashganlar. SHu davrda Tangrichilik protooltoy xalqlarining eng qadimgi dini, insoniyat tarixidagi ilk monoteistik dinlardan biri sifatida shakllangan.

Tangrichilik qadim zamonda jahonda eng keng tarqalgan dinlardan biri bo‘lgan. Qadimgi oltoy xalqidan kelib chiqqan turkiy, mongol, tungus-manjur, koreys va yapon xalqlarida Tangrichilikning izlari hozirgacha saklanib qolgan.

Mil. av. 1-ming yillikdan boshlab oltoy xalqlarining turkiy xalqlar guruhi G‘arbgaga qaytish borasida harakatini kuchaytirgan. Hunnular, sak, massaget, yueyji, kushon, eftaliylar yagona osmon ruhi — Tangriga sajda qilganlar. Diniy qarashlar sodda va tushunarli bo‘lgani, diniy marosimlarning qat’iy bajarilgani ularning ming yillar davomida avloddan avlodga o‘tib kelishini ta’milagan. Ba’zi olimlar tangrichilikda "Olqish" ("Qo’shiqlar to‘plami") yozma manbasi bo‘lgani va unda tangrichilik aqidasi, marosimlari va ibodat qilish tartiblari bayon etilganini ta’kidlaydilar.

Tangrichilik ta’limotiga ko‘ra, Tangri bu – Moviy Osmon, Buyuk Osmon sohibi ruhi bo‘lib, uning doimiy makoni osmon deb hisoblangan. Tangri so‘zi turkiy xalqlarda Tengri yoki Tengeri (oltoy), Tengri (qipchoq), Tanri (turk), Tengri (tatar), Tangara (yoqut), Tengiri (kumiq), Teyri (bolqor-qorachoy), Tenger (mo‘g‘ul), Tura (chuvas) shakli ham ishlatilgan. Tangri butun borliqning yaratuvchisi, cheksiz fazoda faqat uning o‘zi hamma narsadan voqif, adolatli va marhamat egasi bo‘lgan erkak qiyofadagi yagona xudo sifatida tasavvur qilingan. Butun borliq bo‘ysunuvchi Tangri insonlar, xalq va davlatlarning taqdirini belgilaydi deb e’tiqod qilingan.

Milodiy IV-V asrlarga oid O‘rxun Enasoy yodgorliklari bitiklarida Tangri yagona, azaliy, abadiy, hayot beruvchi, yaratuvchi, o‘ldiruvchi, hukm qiluvchi, yordam beruvchi, jazolovchi, bandaning duosini qabul qiluvchi, himoya qiluvchi va mag‘firatiga oluvchi, hamma narsani biluvchi, insonlarga ilm beruvchi va yo‘l ko‘rsatuvchi sifatlar bilan maqtalgan. SHuningdek, bitiklarda u hoqonlarni hokimiyat bergen va mustaqil davlat tuzishlariga ko‘maklashgani ham qayd etilgan.

Qadimgi turkiylar e’tiqodiga ko‘ra, butun borliq ustidan yagona hukmdor Tangri o‘ziga bir qator ko‘makchi ma’budlarni ham yaratgan. Jumladan, ushbu panteon Umay (Jumay, ona ma’buda), Erlik (ota ma’buda), Er, Suv, Olov, Quyosh, Oy, YUlduzlar, Havo, Bulut, SHamol, To‘fon, Momoqaldiroq, CHaqmoq, YOmg‘ir, Kamalak ma’bulardan iborat bo‘lgan. Tangri Er va boshqa ruhlar (YUrt egasi, Suv onasi) bilan Er olami ishlarini hal qilib, barcha jonzotlarning umrini belgilagan. Erda hayotning sababchisi bo‘lgan Umay ma’budi ayol qiyofasida va "hayot onasi" deb e’zozlangan. Erkak jinsidagi Erlik o‘lim sababchisi bo‘lib, uning makoni Erosti olami

hisoblangan.

Tangrichilikka ko‘ra, olam 3 qavatdan iborat. YUqori olamning hukmdori, bosh ilohi Tangri hisoblangan. O‘rtalik Er-Suv, Quyi olamni Erlik (Erklig) boshqargan. Tangri samodan turib dunyoni o‘z izmiga solgan: insonlarning taqdiri, tabiat hodisalari, hoqonlarga donolik va hokimiyat va b. U o‘z xohish istagini so‘z bilan ifodalagan, hissiyotlarga ega (antromorfizm), ammo hukmini tabiat orqali bildirgan.

Ko‘rinmaydigan Erosti olami barcha yovuz ruhlarning makoni bo‘lib, ularga qudratli Erlik boshchilik qilgan. To‘qqiz qatlamlararo ko‘chib yurish imkoniga ega Er olamida hayot va o‘limning mavjudligi tufayli u erda odamlar orasida ma’lum vaqt bo‘la oladi xolos. Erosti olamida Er olamidan farqli ravishda barcha chegaralar ko‘rinib turadi va boshqa hududlarga o‘tish o‘ziga xos eshiklar yordamida amalga oshadi. Erosti va suv olami tirik jonzotlari Erlik tasarrufiga kiradi. Inson vafotidan keyin ko‘milgach, uning jismi eng quyi qatlamga tushib boradi.

Tangrichilikda Tangri va Er ikki qutb sifatida qaralsa-da, ular orasida o‘zaro hamkorlik mavjud deb e’tiqod qilingan. Inson Erda tug‘ilib, Erda yashagan. U vafot etganda, Er uni o‘z bag‘riga olgan. Er insonga faqat moddiy bo‘lagini bera olgan. Lekin inson boshqa mavjudotlardan farqlanib turishi uchun Tangri unga, ruhiy kuch bo‘lgan "kut" (quvvat) va "sur" (ruh)ni ato etgan deb e’tiqod qilingan.

Maqdisiy, turkiy xalqlar “bir tangri” so‘zi bilan qasam ichganliklarini qayd etadi. Uning sharafiga iyun oyining o‘rtasida ommaviy bayramlar o‘tkazishgan. Olov yoqib, tabiat qo‘ynida, otni qurbanlik keltirishgan. Tangriga insonlar qo‘llarini yuqoriga ko‘targan holda erga qarab ta’zim qilishgan. Ilohdan omad va salomatlik so‘rashgan. Bayram aksariyat holda kamondan o‘q otish va mehmon dorlik qilish, qimiz ichish bilan yakunlangan.

Tangrichilikda tabiat va inson o‘rtasida chegara daxlsizligini saqlashga alohida e’tibor bilan qaralgan. Agar inson tabiatga me’yordan ortiq zarar etkazsa, unda tabiat ruhlarining roziligiga erishish uchun qurbanlik keltirish zarur bo‘lgan. Qurbanliklar yirik tog‘lar yoki daryolar oldida ommaviy ravishda o‘tkazilgan. Daraxtlar orqali ma’buldar oziqlanadi, - deb e’tiqod qilingani sababli qurbanlik qonlari daraxtlar ostiga quyilgan. Lekin, odamlar tabiat ruhlarini o‘zlariga hamkor sifatida qarashgan, ularni qarindosh yoki ajdodlar ruhlari deb bilishgan.

Umuman olganda, qadimiy turkiylarning dunyoqarashida borliqning cheksizligi, hayotning doimiy harakat va muntazam yangilanishda ekani muhim o‘rin egallagan. Ayni paytda Ruhning ko‘chib yurishiga ishonganligi bois inson tiriklik chog‘ida borliqning bir bo‘lagi sifatida barcha diniy marosimlarni to‘la ado etishi lozim, aks holda yovuz ruhlar qatoridan joy oladi, deb e’tiqod qilingan.

Qadimiy turkiylarda bo‘ri totemi mavjud bo‘lib, uni "Bozkurt" (kulrang bo‘ri) deb atashgan. Moviy yungi osmonni anglatgan Bozkurt turkiy halqlarning abadiylik timsoli hisoblangan. Qadimiy turkiylar jang maydonida qahramonlik qilgan ajdodlar ruhiga alohida e’tibor qaratganlar. Ajdodlar ruhiga sig‘inish turkiylarda o‘zidan oldingi etti ota-bobosi faoliyatini yaxshi bilish an’anasini shakllantirgan.

Zardushtiylik. Spitama qabilasidan bo‘lgan Pourushaspa o‘g‘li Ashoga Zaratushtra (yunoncha – Zoroastr, pahlaviycha – Zaraxustra "boqiy yulduz" va "chiroyli tuyalarga ega bo‘lgan") ushbu dinning asoschisi hisoblanadi. Zardushtiylar e’tiqodiga ko‘ra, bu nom unga Axura-Mazda (yunoncha, Ormuzd –"Donishmandlik sohibi") tomonidan berilgan. Zardushtning yashagan davri va joyi haqida turli taxminlar mavjud. Tadqiqotchi M. Boysning ta’kidlashicha, u mil. avv. 1500-1200 yillar orasida yashagan. Uning fikricha, Zardusht o‘z da’vatini Kishtosib Lafrost ismli podshoh davrida boshlagan. Bunga u zamonaviy zardushtiylarning hozirgacha mil.avv. 1738 yil shoh Vishtasp tomonidan qabul qilingan "fasli" kalendaridan foydalanib kelayotganlarini dalil qilib ko‘rasatadi.

Zardushtiylikning vatani masalasida ikki xil qarash mavjud. Jumladan, ayrim olimlar zardushtiylik Qadimgi Eron hududida keng tarqalgani, "Avesto"ning sharhlari pahlaviy tilida yozilganidan kelib chiqib, uning vatani Midiya (hozirgi Eron hududi) deb hisoblasalar, ko‘pchilik tarixchilar esa "Avesto"da Xorazm Zardushtning vatani, Axura-Mazda bilan aloqa bog‘langan va ozarxurra (muqaddas olov) birinchi bor yoqilgan joy ekani qayd qilinganiga asoslanib, Xorazmni e’tirof etadilar.

Zardushtiylikning muqaddas manbasi "Avesto" ("Apastak", "Ovisto", "Ovusto", "Abisto", "Avasto" -"joriy qilingan qat’iy qoidalar") sanskrit tiliga yaqin o‘ziga xos (avesto tili) tilida yozilgan. Uning "Gat"lar nomli qismi Zardusht qalamiga mansub deb hisoblanadi. Ko‘pchilik tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, Xorazm, Gava (So‘g‘d), Marg‘iyona (Marv), Baqtriya (Balx), Orol dengizi (Vorukasha yoki Vurukasha) va Amudaryo (Daiti) kabi nomlarning tilga olingani "Avesto" O‘rta Osiyoda mil. avv. I ming yillikning birinchi yarmida vujudga kelganini tasdiqlaydi. Dastlab "Avesto" matnlari og‘zaki ravishda saqlanib kelgan. Uning eng qadimiy qismlari II ming yillik oxiri I ming yillik boshlariga oid bo‘lib, keyingi asrlarda uning tarkibi turli diniy urf-odatlar bayoni, axloqiy, huquqiy qonun-qoidalar bilan to‘ldirilib borilgan. Milodiy uchinchi asrda qonunlardan iborat Avestoning sharhi "Zend" (parfiyoncha, "sharhlangan matn") yozilgan. Zamonaviy zardushtiylarning fikriga ko‘ra, "Avesto"ning to‘liq qismi etib kelmagan bo‘lsa-da, uning dastlabki yozma nusxasi 12 ming qora mol terisiga bitilgan edi. Abu Rayhon Beruniy "Podshoh Doro ibn Doro xazinasida (Abistoning) o‘n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar (Aleksandr Makedonlik) otashxonalarini vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o‘ldirgan vaqtida uni kuydirib yubordi. SHuning uchun o‘sha vaqtida

Abistonning beshdan uchi yo‘qolib ketdi", deb aytgan so‘zлari yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi.

"Avesto" mil. avv. I asrda Arshakiylar sulolasiga davrida ilk marta oromiy alifbosida ko‘chirilgan. SHopur II (243-273) va Xusrav I (531-579) zamonalarda uning nusxalari yaratilgan. IX asrda yozilgan "Denkart" ("Imon faoliyati", Sosoniylar hukmronligi davrida yozilgan qomusiy lug‘at bo‘lib, u o‘z ichiga badiiy va tarixiy ma’lumotlarni olgan. Dastavval 9 bo‘limdan iborat bo‘lgan, keyinchalik uning 2 qismi yo‘qotilgan. Abbosiy xalifa al-Ma’mun ibn Horun ar-Rashid (813-833) davrida Aturfarnbag (Aturfat ibn Hamat) tomonidan to‘plangan) asari "Avesto"ning 21 qismdan iborat bo‘lganini qayd etadi. Dindorlar kundalik faoliyati uchun uning ixchamlashtirilgan shakli - "Kichik Avesto" ("Xurdak Avesto") yaratilgan.

VII asrda Eronga islomning kirib kelishi zardushtiyarlari Hindistonga ko‘chib o‘tishga majbur qildi. Ularning avlodlari (forsiyalar) Bombey shahrida o‘z jamoalarida hozirgacha "Avesto"ning bir nusxasini saqlab keladilar.

"Avesto" - "Videvdat", "YAsna", "Visparad" va "YAsht" nomi bilan yuritiladigan bo‘limlarni o‘z ichiga oladi.

22 bobdan tashkil topgan "Videvdat" - "Avesto"ning saqlanib qolgan bo‘limlari orasida eng mukammali bo‘lib, unda odamlar yashaydigan barcha yurtlar Axura-Mazda tomonidan yaratilgani, kasallik, o‘lim, azob-uqubatlar bo‘lmagan zamon, ya’ni insoniyatning farovon hayoti, Zardusht bilan Axura-Mazdaning savol-javoblari, qasam ichish, va’dada turish, ahdni buzish, tozalik, yuvinish asoslari kabi masalalar yoritilgan. "YAsna" - diniy marosimlarda o‘qiladigan duolar bo‘lib, 72 bobdan tashkil topgan. Zardushtning so‘zлari hisoblanadigan 17 fasl, 338 qit’a, 896 misra va 5560 so‘zdan iborat "Gat"lari ham shu bo‘limdan joy olgan. "Gat"ning har bir she’ri pahlaviy tilida "Gas" deyiladi. Umuman olganda, bu bo‘limda olovning muqaddasligi, zardushtiylik marosimlari orasida olovga e’tiqod qilish, Axura-Mazda nurining Quyoshda namoyonligi va uning Erdagi zarrasi deb bilinishi, olovning haqni nohaqdan, eng oliy gunoh hisoblanmish yolg‘onni rostdan ajratib berishi, yolg‘onning chin e’tiqodga xiyonat, deb qoralanishi kabi e’tiqodiy tushunchalar o‘z aksini topadi. "Visparad" - 24 bobdan tashkil topgan bo‘lib, ma’budlar sha’niga o‘qiladigan duo va pand-nasihatlardan iborat. 22 bobdan tashkil topgan "YAsht" esa har bir bobi Axura-Mazdan dan boshlanib, u tomonidan yaratilgan va uning ma’lum vazifalarini bajaruvchi ma’budlar sha’niga aytilgan madhiyalardan iborat.

Zardushtiylik ta’limotiga ko‘ra, Zardusht o‘ttiz yoshga etganida unga payg‘ambarlik vazifasi berilgan. U o‘z taraf dorlari bilan birga Aivitak suvi qirg‘oqlarida xilvat (yolg‘izlik, chilla)ga chiqib ketgan. Xilvatning 45-kechasi samoga ko‘tarilib, Vohumanah (Behmen) deb nomlangan farishta bir necha farishtalar bilan birga uning ko‘kragini yorib, ruhini poklaganlar. Vohumanah uni jannat, ya’ni Axura-Mazdaning huzuriga olib borgan. O‘scha erda u dinning hukmlari bilan birga yulduzlar, sayyoralar, jannat, jahannam va boshqa narsalarning ilmini

o'rgangan. SHundan so'ng Axura-Mazda unga muqaddas kitob "Avesto"ni in'om etdi. Zardusht ta'limoti ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashning azaliy ekaniga asoslangan axloqiy xarakterdagi din bo'lib, undaadolatli bo'lish, oqillik, yaratuvchanlik va mehnatsevarlik bilan yagona xudoga sig'inish targ'ib qilingan. Bu kurashda ezgulik tarafdori Axura-Mazda oxir-oqibat yovuzlik tarafdori bo'lmish Anxra-Maynyu (yunoncha, Axriman - yomonlik, buzg'unchilik ibtidosi) ustidan g'alaba qozonadi. SHuning uchun ko'pchilik dinshunoslar zardushtiylikni assimetrik dualizmga mansubligini qayd qilishgan.

Ta'limotga ko'ra, birinchi inson Govmard (forscha - ho'kiz-odam) bo'lган. Birinchi shoh Yima (Jamshid) hukmronligi oltin davr hisoblangan. Uning davrida kishilar bekamu-ko'st, baxtiyor yashaganlar. 900 yil o'tgach, shoh Yima g'ururga berilib, man etilgan sigir go'shtini eydi va yovuzlik ramzi Axriman hukmidagi kuchlar bosh ko'taradi. Oqibatda olamni muzlik qoplaydi. Yima Axura-Mazda amri bilan odamlar va hayvonlarni sovuqdan saqlab qolish uchun qo'rg'on qurib, unga har bir jonzotdan bir juftini joylashtiradi. Insoniyat tarixining ilk oltin davri tugagach, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash davri bo'lган ikkinchi davr boshlangan. Uchinchi davrda Axura-Mazda g'alaba qilib, ezgulik sultanati qaror topadi, o'lganlar qayta tiriladi.

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, dunyo sinovlardan emas, balki yovuzlikka qarshi kurashdan iborat, xolos. Ta'limotda insoniyat yashayotgan dunyo muhim hisoblanadi. SHuning uchun unda dunyoviy lazzatlardan oxirat uchun voz kechish masalalari ilgari surilmaydi.

Zardushtiylikka ko'ra, ezgu amallar qilish orqali yovuzlikni engish mumkin. Har bir zardushtiy hayatini ezgu fikr - xumata, ezgu so'z - xuxta, ezgu amal - xvartsha asosiga qurishi hamda yovuz fikr - dujvartshta, yovuz so'z - dujuxta, yovuz amal - dujmatadan saqlanishi zarur.

Har bir inson vijdon amriga binoan ezgulik va yovuzlik orasidagi farqni topa olishi lozim. Har kim Anxra-Maynyu va uning tarafdarlariga qarshi kurashishi zarur. Jumladan, Anxra-Maynyu yaratgan chayon, ilon va boshqa turli yirtqich hayvonlar xrafstra (jirkanchli) deb atalib, ularni o'ldirish mumkin.

Zardushtiy uchun har doim pok holda bo'lish ahamiyatli hisoblanadi. Inson o'zini pok saqlashi uchun yomon o'y-xayollar, kasallik, o'liklarga yaqinlashmasligi hatto ularga qaramasligi ham zarur. Istisno tariqasida nopok bo'lib qolgan kishi yangidan poklanishi kerak. Inson jasadini olovda yoqish, muqaddas olovni o'chirish va ruhoniylarni o'ldirish eng og'ir gunohlardan sanaladi. Zardushtiyalar reinkarnatsiyani rad etadilar.

Zardushtiylikda imon uchta narsaga asoslanadi: fikrlar sofligi, so'zning sobitligi, amallarning insoniyligi.

Har bir zardushtiy kuniga besh marta yuvinib, poklanib, quyoshga qarab uni olqishlab sig'inishi shart hisoblanadi. Sedre – oq kiyim, koshti (kustu, kusti) – oq jundan to'qilgan belbog‘.

Zardushtiylik ibodatxonalarida doimiy ravishda olov yonib turadi. Ularda dunyodagi to'rt unsur – suv, olov, er va havo ulug'lanadi.

Zardushtiylik bir yilda har biri besh kundan davom etadigan oltita bayramni belgilaydi. Bu bayramlar orasida goxanvar – har biri o'ttiz kundan iborat bo'lgan 12 oydan keyingi besh kunlik bayrami asosiy o'rinni egallaydi. Yilning 360 kunidan qolgan kunlari xursandchilik, diniy marosimlar bilan o'tkazilar edi. SHunday qilib yangi yilning – Navro'zning yaxshi kirib kelishiga umid bildirilar edi.

Zardushtiylikda bir kecha-kunduz besh qismga bo'linadi: ratu (belgilangan ilohiy tartib), xavani (sahardan tushgacha), rapitvina (tushdan soat 3-4 gacha), uzayyarina (oqshomgacha), avistrutrima (yarim tungacha), ushaxina (tun yarmidan sahargacha). Sutkaning bu nomlari ham xudoga o'xshatilib, har biriga ibodat qilinadi – bir kunda besh marta namoz o'qiladi.

Ko'pchilik dinshunoslar zardushtiylikni dualizmga oid deb hisoblasalar-da, lekin unda Axura-Mazdadан keyingi darajalarda turuvchi o'ziga xos xudolar panteoni mavjud ekanini ta'kidlash lozim. Ularning eng buyuklari Amesha Spenta (Abadiy muqaddas) – Axura Mazda yaratgan 7 maxluqdan biri. Boshqa fikrga ko'ra, Amesha Spenta – Axura Mazdaning timsoli, YAyatlar - Axura Mazda yaratgan quyi ruhlar bo'lib, ular Erdagi turli hodisa va holatlarga mas'uldirlar. Eng mashhur yazatlar Sraosha, Mitra, Rashnu va Veretragna hisoblanadi. Fravashi Osmonlarda yashovchi va Zardushtga vahiy olib tushuvchi maxluqotlar. SHu bilan birga Spenta-Manyu (yorug'lik, yaralish ibtidosi), Asha Vaxishta (adolat, haqiqat), Voxu Mana (aql, ezgu fikr, tushunish), Xshatra Vairyta (qudrat, qat'iylik, hukmronlik), Spenta Armaiti (muhabbat, ishonch, rahm, fidoyilik), Xaurvatat (salomatlik, mukammallik), Ameretat (baxt, abadiylik) ezgulik tarafдорлари hisoblanadi. Anxra-Maynyu, Drudj (yolg'on), Indra (zo'rlik, zulm), Akem Mana (yomon fikr, adashtirish), SHaurva (qo'rkoqlik, pastkashlik), Taramaiti (takabburlik), Taurvi (kasallik, nuqsonlik), Zaurvi (qarilik, o'lim) esa yovuzlik tarafдорлари hisoblanadi.

Zardushtiylikda har bir dindor shubhasiz tasdiqlashi zarur bo'lgan muhim aqidalar ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, oliv mehribon xudo Axura Mazdaning yagona va mavjud, Gegig (Er) va Menog (Ruh) olamlari mavjud, Zardusht insoniyat tarixida Axura Mazdaning ilk payg'ambari, "Avesto"ning barcha qismi ilohiy haqiqat, muqaddas olov Xudoning Erdagi timsoli, Mabadlar Zardushtning birinchi shogirdlari va vahiyarning muhofazachilari, poklanish marosimlarini bajaruvchi, muqaddas olovni saqlovchi va ta'limotning sharhlovchilari, barcha yaxshiliklarning barhayot fravashilari mavjud bo'lib, odamlarning fravashilari Erda yovuzlikka qarshi kurashish yo'lini tanlaganlar, yakunda ezgulik va yovuzlik kuchlarining uyg'unlashishi, kelajakda Saoshyanta (xaloskor) kelishi va uning yovuz Frasho Kereti ustidan g'alaba qozonishi, oxiri zamonnинг sodir bo'lishi, o'limdan so'ng hisob-kitobning bo'lishi, adolatning qaror topishi, yovuzlikka qarshi kurash va poklikni saqlab qolish maqsadida zardushtiylik an'analari va

marosimlarga amal qilishning zarurligiga e'tiqod qilish shart qilingan.

Zardushtiylikka ko'ra, inson vafotidan uch kundan so'ng uning ruhi jasadidan ajralib, Osmon (Qo'shiqlar uyi)ga olib boruvchi CHinvad ko'prigi (Ajratish ko'prigi)ga boradi. CHinvadda inson ruhini ezgulik yazatlari Sraosha, Mitra va Rashnu himoya qiladi. Agar inson ruhining ezgu amallari bir tola soch vaznida ham yovuz amallardan og'ir kelsa, qo'shiqlar uyiga boradi. Aks holda uning ruhini dev Vizaresh do'zaxga tashlaydi. CHinvadda inson o'z Daen (imon)ini uchratadi. Ezgu amal sohibiga imon go'zal qiz qiyofasida ko'rinish, uni ko'priordan olib o'tishga yordam beradi. YOvuz amal egasini esa, jodugar ayol ko'priordan do'zaxga yiqitib yuboradi.

Zardushtiylikka ko'ra, dunyoga 3 nafar saoshyanta kelishi lozim. Ular Zardusht ta'limotini qayta tiklaydi, qiyomatga yaqin ularning oxirgisi Anxra-Maynyu bilan jang qilib, barcha yovuzlik kuchlarini mag'lub etadi. Barcha o'lganlar qayta tiriladi va olov orqali hisob-kitob qilinadi. Odamlar erigan metall oqimida barcha gunoh va nuqsonlardan tozalanadi. YAxshi odamlar uchun olov sut bug'idek tuyuladi, yomon odamlar esa yonib ketadilar. SHundan so'ng olam o'zining asl holatiga abadiy qaytadi.

Zardushtiylikda marosimlar qat'iy belgilangan tartibda o'tkaziladi. Har kim amal qilishi lozim bo'lган shart amallar bo'lib, ularga ko'ra, barcha marosimlarni diniy malakaga ega erkak kishigina amalga oshirishi mumkin, ishtirokchilar pok holda, Sadre (oq rangli maxsus zardushtiylik ko'y lagi), Kushti (maxsus kamar) va bosh kiyimda bo'lishi, ayollar esa sochlarini ro'mol bilan berkitishi, ishtirokchilar tik turgan holda olovga yuzlanib, ibodatlar avesta yoki pahlaviy tilida olib borilishi ta'minlanadi. Marosimda dinsiz yoki boshqa din vakilining ishtiroki xosiyatsiz hisoblanadi.

Zardushtiylar kunlik Gohi - kunning goh, deb nomlanuvchi vaqtlarida besh mahal - Xavan goh (tongdan peshingacha), Rapitvin goh (peshindan so'ng), Uzarin goh (kun botishdan oldin), Aivisrutrim goh (kun botgandan so'ng), Ushaxin goh (yarim kechadan tongacha) ibodatni amalga oshirganlar.

Zardushtiylik marosimlari zamirida har qanday noplaklikka qarshi kurash ta'limoti yotadi. Bunda poklanish muqaddas olov yordamida amalga oshadi. Zardushtiylar ibodatxonasida (otashkade) uzluksiz ravishda muqaddas olovning yonib turishi ta'minlanadi. Ba'zi ibodatxonalarda bir necha yuz yillardan beri muqaddas olovlar o'chmasdan kelmoqda. Muqaddas olovlarini o'chib qolmasligini Mobad (diniy marosimlarni avloddan avlodga saqlab qolish mas'uliyatini olgan, ruhoniylar oilasi)lar ta'minlaydi. Mobadlar olovni har qanday holatda ham asrashi zarur bo'lgan. YAngi olovni yoqish faqatgina istisno vaziyatlarda amalga oshiriladi.

Muqaddas olovlarining SHoh otash Varaxram (oliy darajadagi SHoh Bahrom olovi) maxsus shohona marosimlar, yirik g'alabalarga bag'ishlanib yoqilgan. Uni yoqishda 16 xil olov

jamlanib, birlashtirilgan. Ushbu olov bilan bog‘liq marosimlarni yuqori martabadagi ruhoniylar amalga oshirishgan. Otash Aduran (o‘rta darajadagi aslzodalar olovi) 1000 kishidan kam bo‘lman aholi turar joylarida Mobaqlar tomonidan yoqiladi. Buning uchun jamiyatning ruhoniy, harbiy, dehqon va hunarmandlardan bo‘lgan tabaqalari ishtirok etishi lozim bo‘ladi. Olov oldida Nozudi (ruhoniy, amaldor va hukmdorlar sharafiga o‘tkaziladigan marosim), Gavaxgiran (to‘y marosimi), Sadre pushi (Zardushtiy shaxsning maxsus ko‘ylak kiyish va kamar taqish marosimi), Gaxanbar (YAazatlar sharafiga o‘tkaziladigan yil davomidagi bayramlar) kabi marosimlar o‘tkaziladi. Otash Dodgoh (quyi darajadagi olov) mahalliy jamoalarning kundalik diniy ehtiyojlari uchun ishlatalgan. Forslarda bu kabi joylar Dar ba mehr (adolat egasi Mitraning hovlisi) deb atalgan.

Zardusht ruhoniylari hamma uchun ochiq bo‘lgan Dodgoh (muqaddas olov yoniq turadigan xona)da turib, mahalliy munozara va muammolarni hal qilishgan. Agar Mobaqlar bo‘lmasa, uning ishlarini Xirbad (ruhoniy oilasiga mansub diniy malakasi yuqori bo‘lman ibodatxona xodimlari) olib borgan.

Zardushtiylikni qabul qilayotgan shaxs dinning arkonlarini tan olib, Fravan duosini o‘qishi, Sadre va Kushtini taqishi lozim.

Dinni qabul qilish odatda o‘smirlilik vaqtidan boshlanadi. Zardushtiylikni qabul qilayotgan vaqtida kishi xushyor va og‘ir gunohlarni qilmagan holda bo‘lishi lozim.

Bu dinni qabul qilmoqchi bo‘lgan kishining ba’zi marosimlarni bajarishi kifoya hisoblansa-da, hind zardushtiyarning dasturiga ko‘ra, kelib chiqishi eroniy bo‘lman boshqa din vakillari ehtiromga loyiq emas.

SHunday bo‘lsa-da, zardushtiylikka ko‘ra, inson vafotidan so‘ng uning hukmi diniy mansublikka emas, balki fikri, so‘zi va amallariga muvofiq bo‘ladi. Boshqa dindan voz kechgan shaxs esa zardushtiy bilan kamida bir yil aloqada bo‘lgan va bu vaqt davomida Mobaqlar yoki Behdin (ruhoniylar oilasiga mansub bo‘lman, ammo diniy malakasi yuqori bo‘lgan shaxslardan ta’lim olgan bo‘lishi lozim).

Mobaqlar tomonidan dam solingen insonni ichki va tashqi yovuzlikdan saqlavchi va xudo bilan aloqaga kirishda Sadre va Kushtidan foydalaniladi. Sadre kiyish zardushtiy uchun farz amallardan hisoblanadi. Kushtini muhim marosimlar va har ibodatdan oldin echib va taqib turish lozim. Ular doimo toza holda saqlanib, yilda ikki marta Navro‘z (Ezgulikning yovuzlik ustidan g‘alabasiga bag‘ishlangan yangi yil bayrami bo‘lib, yilning kun va tuni teng 21 martda nishonlanadi) va Mehrjon (Hosil bayrami 23 sentyabr kuni nishonlanadi) bayramlarida almashtiriladi.

It yordamida odamdan devlarni quvish va poklash uchun Sog‘did marosimi o‘tkaziladi. Marosim xushsiz odamlarni tirik yoki o‘lik ekanini aniqlashda ham o‘tkazilgan.

Zardushtiylikda dafn marosimi va undan keyingi tadbirlar murakkab bo‘lishiga qaramay o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Daslab kishi jasadi podyob (o‘likni to‘liq yuvish) marosimi olib boriladi. Jasadni ko‘targan va yuvgan kishilar barashnum (o‘likka tegib ketgan va og‘ir gunohlar qilgan kishilarni poklash) uzoq vaqt davom etadigan marosim bo‘lib, u itlar yordamida amalga oshiriladi. Marosimning o‘limdan keyingi hayot uchun foydali ekani uqtirilgan holda, har bir dindorga umri davomida bir marta bo‘lsa-da, tavsiya qilinadi. Undan tashqari YAsna (YAsnaning 27 bo‘limi o‘qilishi) marosimi muqaddas olov oldida Mabadlar tomonidan amalga oshirilib, unda dron (maxsus tayyorlangan non) va xum (xaoma, maxsus tayyorlanadigan ichimlik) ishtirokchilarga tarfqatiladi.

An’anaviy dafn marosimi bo‘yicha jasadni daxma (erdan 4—5 metr balandlikda silindr shaklida bo‘lgan maxsus joy) ga qo‘yilib, unga o‘liklar ustma-ust tartib bilan yotqiziladi. Ta’limotga ko‘ra, o‘lik Axrimanninng vaqtinchalik g‘alabasi oqibati bo‘lgani bois u nopol hisoblanadi. SHuning uchun yirtqich qush va hayvonlar ixtiyoriga topshirilgan jasaddan qolgan suyaklar terib olinib, nous (maxsus quticha)larga solingandan so‘ng daxmaga qo‘yiladi. Ammo, 1970-yillar boshlarida Eronda jasadni beton qabrlarga ko‘mish amaliyoti boshlangan. Dafn marosimida nasusa (qutiga ko‘muvchilar) lar nomli ijtimoiy tabaqa vakillaridan kamida ikki kishi ishtirok etishi lozim. Dafnning bir kishi tomonidan amalga oshirilishi katta gunoh hisoblanadi. Noiloj vaqtda esa itning ko‘magidan foydalanish mumkin.

Zardushtiylik diniy strukturasida Eron Mabadlari kengashi (Anjuman mog‘one Iron) faoliyat ko‘rsatib, ruhoniylar ierarxiyasidan tashkil topgan. Zardushtiylikning diniy ierarxiysi Ratu (zardushtiylikning himoyachisi, mas’um mobad), Mobadan Mobad (mobadlarning mobadi), Sar-Mobad (yoki pahlaviycha, Bozorg dastur, mobadlarning sardori, katta mobad), Dastur (ko‘rsatma beruvchi, etakchi mobad), Mobad (o‘rta maqomli mobad), Xirbad (quyi maqomdagagi mobad) va Mobadyor (mobad oilasidan bo‘lmagan ruhoniy).

Hozirgi vaqtda zardushtiylarning jebr (Eron) va fors (Hindiston) jamoalari saqlanib qolgan. Jumladan, Hindistonda zardushtiylikka e’tiqod qiluvchi kam sonli forsiylar bo‘lib, ular VII asrda Eronga islomning kirib kelishi oqibatida Hindistonga qochib kelgan fors zardushtiylarining avlodlari hisoblanadi. Forsiyalar dastlab Kathiavardagi Diu va Gujaratdagi Senjenda yashaganlar. Keyinchalik Mumbay (Bombey)ga ko‘chib o‘tgan zardushtiylar soni 100000 kishi atrofida bo‘lib, hozirgi kunda Hindiston aholisining 0,007 foizini tashkil qilmoqda. Undan tashqari Avstraliya, Evropa, SHimoliy va Lotin Amerikasi, Rossiya Federatsiyasi va MDH mamlakatlarida zardushtiy jamoalari mavjud.

Hozirgi vaqtda zardushtiylikka e’tiqod qiluvchilar soni 200000 dan oshadi. 2003 yil YUNESKO tomonidan zardushtiylikning 3000 yilligi nishonlandi.

Moniylik. Dualistik dinlarning eng yirigi bo‘lgan moniylikka Surayk ibn Fatak (216-276)

tomonidan asos solingan. Uning arabiylashtirilgan to‘liq nomi X-asr arab manbalarida Moniy - Surayk ibn Fatak shaklida zikr qilingan. Ushbu din qadimgi Bobil dinlari, yahudiylik, xristianlik, buddaviylik va zardushtiylikning diniy ta’limotlari asosida vujudga kelgan. O‘z davrida Moniylik G‘arba Rimgacha, SHarqda Xitoy va Hindistongacha bo‘lgan hududda keng yoyilgan va yuqori nufuzga ega bo‘lgan.

II-III asrlarda Fors davlati Zardushtiylik dinining kuchli bosimi ostida edi. SHunday bo‘lsada, Moniy xristian - yahudiy ta’limotlari asosida ulg‘aygan. Uning ota-onasi (Fatak va Maryam) asli Parfiya sarkardalari avlodlaridan bo‘lgan. Moniyning yoshligi gnostiklar (ilk xristianlikda xudo va dunyoning yaratilishi haqidagi ta’limotni yaratishga uringan diniy - falsafiy oqim) ibodatxonasida o‘tgan va 12 yoshga to‘lganid a o‘ziga il ohiy xabar (vahiy) kelganini ma’lum qilgan. O‘ziga xabar bergen ilohning nomini Moniy ya’ni "ikki mohiyat (Nur va zulmat, yaxshilik va yomonlik) ruhi" deb atagan. SHunga ko‘ra, uning ta’limotini ikkixudolik g‘oyasi (gnostik dualizm)ga asoslangan deb aytildi. SHundan so‘ng unga Moniy - "Ruh" laqabi berilgan.

241 yil Moniy 24 yoshga etganda unga o‘z ilohidan yana vahiy kelgan va nihoyat o‘z ta’limotini ochiq va baralla targ‘ib qilish vaqtি etganini bildirgan. SHundan so‘ng Moniy yangi dinga asos solishga qaror qilgan va o‘zining diniy targ‘ibot ishlarini boshlagan. 242 yilda Fors davlati shohi SHopur I ning taxtga o‘tirish va toj kiyish marosimi paytida Moniy birinchi marta o‘z ta’limotini ommaviy bayon etib, va’z aytgan. SHundan so‘ng Moniy SHopur I ning vafotiga qadar (273 yil) mamlakatda o‘zining diniy targ‘ibotini olib bordi. U o‘zini shu dinning asoschisi va payg‘ambari deb bilgan va butun Fors davlati, Hindiston, Old va O‘rta Osiyo bo‘ylab safarlar uyushtirgan. U o‘z safarlari davomida zardushtiylik, hinduiylik, yahudiylik, buddaviylik va xristianlik dinlari faollari bilan muloqotlar uyushtirgan hamda ularning ta’limoti, ibodatxonalarining faoliyati va targ‘ibot uslublarini o‘rganib, o‘z ta’limotining targ‘ibot - tashviqot ishlarida foydalangan. SHunday bo‘lsada Moniy, o‘z faoliyatini qatl qilingunga qadar Fors mamlakati hududidagina amalga oshirgan.

Moniy o‘zini Zardusht, Siddhartha Gautama (Buddha) va Iso Masihlarning izdoshi deb biladi. SHunga asoslanib Moniylikni, sinkretik (qorishiq) xarakterga ega deyiladi.

Ammo ayrim ma’lumotlarda Moniy o‘zining ilk targ‘ibotini aynan Mesopatamiyada emas, balki Hindistonning shimoliy-sharqiy qismlarida boshlagani aytildi. CHunki Moniy, u erda jahon dinlaridan biri bo‘lgan buddaviylik ta’limotini o‘rganish bilan bir paytda, o‘zning targ‘ibotchilik ishlarini ham boshlab yuborgan edi, deyiladi.

275 yilda mamlakatda yuqori nufuzga ega bo‘lgan Maglar (zardushtiylik ruhoniylari)ning qistovi bilan Fors davlatining yangi shohi Bahrom I Moniyni zindonga tashlashga farmon bergen va 276 yilda katl ettirgan. SHundan so‘ng Moniy izdoshlarining ba’zilari qiyonoqlarga mahkum

etilgan, ayrimlari mamlakatdan badarg'a qilingan. Aksariyat qismi esa g'arbda Rim imperiyasi, sharqda esa Hitoy, Uyg'uriston hamda ularning atrofidagi davlatlarda panoh topib, moniylik ta'limotini rivojlantirganlar.

Moniyning ta'limotida Nur va Zulmat o'rtasidagi azaliy kurash asosiy o'rinni egallaydi. Uning mazmun-mohiyati esa, Nurning Zulmat ustidan g'alaba qozonishiga ishonishdir. Moniylik mahalliy dinlar — zardushtiylik, buddaviylik va xristianlik xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan. Moniy o'zini avvalgi dinlarning "to'g'rilovchi payg'ambari" deb e'lon qilgan. U xristianlikdan messionizm va "Masih" e'tiqodini o'zlashtirgan.

Borliqning 2 substansiya asosi — yorug'lik, yaxshilik va ruh olami bilan zulmat, yovuzlik va moddiyat olamining o'zaro kurashini e'tirof etuvchi zardushtiylik dualizmi moniylikning asosini tashkil etadi. Ularning e'tiqodicha, birinchi olamda Nur (Xudo), ikkinchisida — Zulmat (SHayton) xukmronlik qiladi. Inson ikki unsurdan - Nur farzandi bo'lgan ruh va Zulmat farzandi hisoblan mish jismdan iborat mavjudotdir. SHuning uchun inson Zulmat kuchlariga qarshi kurashda Nur kuchlariga yordam berishi lozim deb qaraladi. Ushbu ikki olam o'rtasidagi kurash falokat bilan tugaydi, natijada moddiyat halokatga uchrab, ruh g'alaba qozonadi.

Moniylik ta'limotiga ko'ra, bu dunyo yovuzlik dunyosi deb qaralgan va patsifizm (urushmaslik) hamda mol-dunyo yig'maslik muhim o'rin tutgan.

Moniylik o'z e'tiqod qiluvchilaridan mol-mulklaridan 1/10 hissa xayri-sadaqa berishni, bir kecha kunduzda to'rt mahal ibodat qilishni, yolg'onchilik, qotillik, o'g'irlilik, zino, baxillik, sehrgarlik va unga ishonishni, butparastlik kabi amallardan uzoq yurish talab qilgan.

Moniylik o'z davrida aholining quyi tabaqa vakillari orasida keng tarqalgan. Bunga sabab ular Zulmat olamini zodagonlarning zulmlari qiyofasida tasavvur qilganlar va bundan xalos bo'lish uchun Nurga ibodat qilganlar. Bu bilan Nurning g'alabasiga har kim o'z hissasini qo'shamoqda deb ishonganlar.

Moniy Iso Masihni payg'ambar ekanini tan olsada, Musoning payg'ambar ekanini inkor qilgan. O'zini esa YUhanno injilida bashorat qilingan Iso Masihdan keyin keluvchi "Paraklit" (Fraklit) ismli payg'ambar deb da'vo qilgan.

Moniylik 763-840 yillar davomida Turk-uyg'ur davlatining rasmiy dini bo'lgan. O'z yurtlaridan quvilgan moniylar, Kichik Osiyoning chekka hududlariga yashirinishga majbur bo'lishgan. Moniylik umumiylashtiruvchi din bo'lgani sababli to'g'ridan to'g'ri "payg'ambar"ning yozma buyruqlariga asoslanadi. Uning asarlari ko'plab tillarga tarjima qilingan.

Moniylik ta'limoti u tomonidan tuzilgan "SHopurkan", "Tirik Hushxabarchi" (Moniy va uning ta'limoti haqida), "Pragmataya" (sirlar kitobi), "Kefalaya" (Boblar) kabi kitoblarda asoslاب

berilgan va ayrimlari rus tiliga tarjima qilingan.

Monylikdan bugungi kunga qadar birgina Xitoyning Futszyan vil oyati Syuanchjou tumanida joyl ashgan moniylik ibodatxonasigina saqlanib qolgan. Bu din qanchalik engillikka va oddiylikka asoslangan bo‘lsada, tarixning murakkab sinovlariga bardosh bera olmadi. Natijada u din sifatida unutildi. Undan esa, yirik tadqiqotlar uchun ma’lumotlarga qolgan xolos.

Mazdakiylik ta’limotining asoschisi mazdakiylar harakatining rahbari Mazdak xalq ommasining zardo‘sht kohinlari va zodagonlariga qarshi kurashni boshqargan. Bu harakat ta’sirini pasaytirish maqsadida Eron shohi Qubod I (488-531) Mazdakni qo‘llab quvvatlagan edi. Mazdak Qubod hukmronligi davrida avval otashgochlarning birida kohin, keyinchalik butun Eron bo‘yicha bosh kohin bo‘lgan. Kohinlar va amaldorlarning iqtisodiy, siyosiy hukmronligi barbod bo‘lgandan so‘ng Qubod I Mazdak bilan aloqani uzgan. 529 yili mazdakiylar harakati bostirilgan. Mazdak qatl etilgan.

Mazdakizm diniy-falsafiy ta’limoti (5-6 asrlarda) Eronda keng tarqalgan. Mazdak ta’limotiga ko‘ra olamda bo‘ladigan voqeа, hodisalar ongli va biror maqsadni ko‘zlab harakat qiluvchi eзgulik, yorug‘lik manbai bilan ko‘r-ko‘rona va tasodifiy harakatlanuvchi qorong‘ulik (johillik) manbai o‘rtasidagi kurashdan iborat. Bu kurash «yaxshilik»ning «yomonlik» ustidan muqarrar g‘alabasi bilan tugallanadi. Mazdakizm ijtimoiy tengsizlikni yo‘qotish uchun kurashga da’vat etgan mazdakiylar harakatining mafkurasi sifatida xizmat qilgan. Mazdakiylar harakati bostirilgan bo‘lsa ham (6 asr) Mazdak ta’limoti keyingi asrlar davomida Eron, Markaziy Osiyo va Ozarbayjondagi dehqonlar, shahar kamba-g‘allarining feodal zulmiga qarshi, keyinchalik Markaziy Osiyoga Islom tarqalgach, unga va arablar istilosiga hamda xokimiyatiga qarshi (Muqanna, Bobak qo‘zg‘olonlari) kurashning g‘oyaviy bayrog‘i bo‘lib xizmat qildi.

O‘tilgan mavzu bo‘yicha savollar

1. Tangrichilik dinining vujudga kelishi haqida nimalar- ni bilasiz?
2. Tangrichilikning ta’limotlarining o‘ziga xos xususiyat- lari nimada?
3. Tangrichilik qadimiy turkiylar hayotida qanday o‘rin tutgan?
4. Zardushtiylilik qachon va qaerda vujudga kelgan?
5. Zardushtiylilik asoschisi kim?
6. Zardushtiylilik muqaddas manbasi qaysi va u haqida nima- larni bilasiz?
7. Moniylik dinining asoschisi haqida qanday qarashlar mavjud?
8. Moniylikning muqaddas manbalari haqida gapirib be- ring.

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Zardushtiylikning kelib chiqishi haqidagi nazariyalarni atroficha o‘rganib, shu haqda kursdoshlaringizga ma’lumot bering.
2. Zardushtiylikda muqaddas sanalgan unsurlar va ularni e’zozlash amallari haqida referat tayyorlang.
3. Zardushtiylik dinining bugungi kundagi qoldiqlari haqida gapirib bering.
4. Mavzu bo‘yicha ko‘rgazmali slayd tayyorlang (MS Power Point).

Adabiyotlar

1. "Avesto kitobi - tariximiz va ma’naviyatimizning ilk yozma manbai" mavzuidagi ilmiy-amaliy seminar materiallari. - Toshkent, 2000.
2. Ashirov A. "Avesto"da meros marosimlari. - T., 2001.
3. Ishoqov M. Xalq dahosining qadimgi ildizlari va ilk kurtaklari. (Zardushtiylik, Zardusht va Avesto haqida) "Til va adabiyot ta’limi" jurnali, 1992. № 2.
4. Markaziy Osiyo dinlari tarixi / Mas’ul muharrir - SH.YOvqochev. – T.: Toshkent Davlat sharqshunoslik insti tuti, 2006.
5. Mahmudov T. "Avesto" haqida. - Toshkent, 2000.
6. Mo‘minov A., Yo‘ldoshxo‘jaev H., Rahimjonov D., Ko- milov M., Abdusattorov A., Oripov A. Dinshunoslik. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim va- zirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan. – T.: Mehnat, 2004.
7. Sulaymonova F. SHarq va G‘arb. – T.: 1997.
8. Boys M. Zoroastriysы. Verovaniya i obychai / Per. s angl. I.M. Steblin-Kamenskogo. Poslesl. E.A. Grantovskogo. 2-e izdanie, ispravленное. - Sankt-Peterburg, 1994.
9. Vasilev L. Iстория религий Востока. Учебное пособие для вузов. - 4-е изд. - М.: "Книжный дом "Университет", 1999.
10. Gorelov A. Iстория мировых религий: учебное пособие. - Москва, Flinta: MPSI, 2006.
11. Struve V. Rodina zoroastrizma / Vostokovedenie, Moskva-Leningrad, 1948.

4-mavzu: Islom ta'limoti asoslari

Reja:

1. Islomning paydo bo‘lishi va keng yoyilishi
2. Islom ta'limoti asoslari.
3. Kalom ilmi.

4. Moturidiylik va ash'ariylik.

5. Islomda imon masalasi.

Tayanch tushunchalar

Aqida, kalom, moturidiylik, ash'ariylik, imon, Alloh, farishta, payg'ambar, taqdir, qiyomat, jannat, do'zax.

Islom dini dunyoda keng tarqalgan monoteistik dinlardan biridir. Afrika qit'asidagi Marokash, Jazoir, Tunis, Liviya, Misr, Somali mamlakatlarining xalqlari, habashiston, g'arbiy Sudanda yashovchilarning bir qismi, Osiyo qit'asidagi Arabiston yarim oroli, Iordaniya, Suriya, Iraq, Eron, Turkiya, Afg'oniston, Pokiston, Malayziya, Indoneziya xalqlari, Livan, hindiston, xitoy, hamda fillipin aholisining bir qismi, Evropa qismida esa Bolqon yarim orolida yashaydigan xalqlarning bir qismi islom diniga e'tiqod qiladi.

Aholisining ko'pchiligi mutloq musulmonlardan iborat bo'lgan 39 mamlakat, hatto aholisining yarmini musulmonlar tashkil etadigan ba'zilari ham (Misr, Malayziya 49) o'zlarini musulmon mamlakatlari deb ataydilar. Ularning ba'zilarida (Mavritaniya Eron, Pokiston, Kamar orollari) mamlakatlarining nomiga islom so'zi qo'shib aytildi. Rasmiy statistika buyicha, bir necha mamlakatlarda aholining deyarli barchasi musulmonlardan iborat. 28 mamlakatda islom rasman davlat dini sifatida tan olingan.

Shuningdek, Markaziy Osiyo, Kavkazorti va SHimoliy Kavkaz, Volgabuyi, g'arbiy Sibir va boshqa hududlarda yashovchi aholi orasida tarqalgan. hozirda islomga e'tiqod qiluvchilar soni yil sayin ko'payib bormoqda. Ayniqsa, e'tiqod erkinligi haqidagi yangi qonunning qabul qilinishi, vaqtli matbuot sahifalarida, radioeshittirishlar va oynai jahon ko'rsatuvarlarda din mavzuidagi chiqishlarning ko'payishi, maxsus gazeta va jurnallarning keng tarqalganligi islomga bo'lgan e'tiborini oshirib yubordi.

Islom jahondagi, ayniqsa, Osiyo va Afrika qit'asi madaniyatining umumiy qiyofasida muhim iz qoldirdi. Bunga eng avvalo bu hududlarda arab tili va arab yozuvining keng tarqalganligi, islom mafkurasi zamonida ishlab chiqilgan muayyan turmush tarzining hukmronligi musulmonlar ijtimoiy hayotining turli sohalari shariat tomonidan idora etilganligi imkon bergen. SHunga qaramay mahalliy madaniy an'analar yo'qolmay, yangi islom yo'nalishida rivojlangan va u ko'pincha qadimiy musulmon an'analari sifatida qabul qilingan.

Musulmonlar madaniy merosi masalasi milliy ozodlik harakati va rivojlanayotgan mamlakatlarning mustaqillik uchun kurashi jarayonida asosiy masalaridan biriga aylandi va ijobjiy ahamiyat kasb etdi.

Xo'sh islom nima? Islom so'zining lug'aviy ma'nosini quyidagicha sharhlash mumkin: 1) ixlos, turli sifatlardan salomat bo'lish; 2) sulh va omonlik; 3) itoat va buysinish.

Islomning paydo bo‘lishi tahlil etish tarixiy davrning xususiyatlari, arab qabilalari o‘rtasida hukmrom bo‘lgan ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlarni va ularning diniy g‘oyaviy hayoti bilan qisqacha tanishib chiqishni taqozo etadi.

Arabiston yarim oroli noqo‘lay iqlim sharoitiga ega bo‘lgan qum sahrolardan va tog‘lardan iborat bo‘lib, uning aholisi V-VI asarlarida ko‘chmanchi chorvachilik bilan shug‘ullanar edi.

YArim orolning cheksiz sahrolarda yashavchi ko‘chmanchi, chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi arab qabilalari - bundan ham ogir sharoitda yashar edilar. Ular taraqqiyot jihatidan ancha orqada qolgan, hali urug‘chilik, qabilachilik tuzumida edilar. YArim orolning g‘arbiy qismida qizil dengiz qiryooqlari bo‘ylab cho‘zilgan va qadimdan hijoz deb nom olgan joylar bu davrlarda bir muncha iqtisodiy jihatdan rivojlangan bo‘lib, bu rivojlanish qismi suvli vohalardagi dehqonchilik asosan janubdan shimolga o‘tgan qadimiylar karvon yo‘li bilan bog‘liq edi.

Tarixiy manbalardagi ma’lumotlariga qaraganda, VI asir YAmandan SHimolga Suriya, Misr va falastinga olib berilgan karvon bo‘lib faqat bu davrlarning o‘zlariga emas, balki janubda YAman orqali habashiston va hindiston, SHimolda Suriya orqali Misr, Vizantiya va Eronning ham bir-biri bilan bog‘laydigan o‘z davri uchun yirik va katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan savdo yo‘li edi. hijozdagi ayrim aholi yashaydigan manzillar, yo‘l ustida joylashgan Makka, Madina, Toif shaharlari VI asrda ancha rivojlangan. Bular shuningdek ko‘chmanchi arab qabilalarining savdo munosabatlariga jalb etuvchi markazlar sifatida ham xizmat qilar edilar.

Makka diniy markaz va savdo markazi sifatida Arab qabilalari orasida e’tiborli edi. Makka markazida joylashgan Ka’ba islomda eng «muqaddas» hisoblangan va «Ollohnning uyi» (Bayto‘lloh) sajdah hisoblangan. Undagi qora tosh (hajarl-asvod) va uch yuz oltmis sanam arab qabilalari uchun e’tiqod ma’nbaiga aylangan. Ziyoratga kelish oylari muqaddas hisoblanib, bu vaqtlar ichida qabilalar o‘rtasidagi urush va janjallar to‘xtatilar edi.

V-VI asirlarda Makkada quraysh nomli arab qabilasi hukmron bo‘lib, qurayshlarning yuqori tabaqalari savdo-sotiq bilan ancha boyib ketgan, bu erda pul muammolari, sudxurlik keng rivojlangan, shuningdek qul savdosи va qo‘rollarning mehnatidan foydalanish ancha kengaygan edi. Bu davrlarda YAmanni qo‘lga kiritish uchun Vizantiya va Eron o‘rtasida kurash avj olgan edi.

YAman sosoniylar hukmronligi ostida o‘tgan davrlarda (572-628) Eron ko‘rfazi orqali hindistonga boriladigan yo‘li tez rivojlana boshladi va shu munosabat bilan hijoz orqali o‘tgan yo‘l inkirozga uchraydi. Bu hol faqat hijoz shahlarigina emas, balki barcha arab qabilalari hayotiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatadi va umuman Arabiston buyicha ijtimoiy-iqtisodiy tanazulning boshlanishiga sabab bo‘ladi. Undan qutilish uchun yangicha g‘oyalar kerak bo‘lib qoladi.

Lekin bu g‘oyani amalga oshirish uchun Arabiston shaharlari va qabilalari o‘rtasida mavjud bo‘lgan tarqoqlik va kelishmovchiliklarga xotima berib barcha arab qabilalarini bir davlatga birlashtirish, ularning tarqoq holda bo‘lgan iqtisodiy va harbiy imkoniyatlarini yagona kuchga aylantirish zarur edi.

Ijtimoiy hayot taqozosi natijasida vujudga kelgan arab qabilalari o‘rtasidagi markazlashishga intilish harakatlari arablar jamiyatida IV asr oxiri va VII asr boshlarida yuz bergen jiddiy tarixiy voqealar asosida yoritadi . Bu intilishni o‘zida aks ettirilgan mafkura sifatida islom dini vujudga keldi va markazlashtirilgan arab davlatining paydo bo‘lishi, qo‘sni mamlakatlarining bosib olinishi va arab xalifaligining kengayishi jarayonida bu din kuchli g‘oyaviy qurol sifatida xizmat qiladi.

Muhammad – islom payg‘ambari. Islom dinida payg‘ambar hisoblangan Muhammad melodiyligi 570 yilda Makkada quraysh qabilasining xoshimiylar avlodidan bo‘lgan. Abdulloh va Omina xonadonida tug‘iladi. Muhammad yoshligida etim qolgan, avval bobosi Abu Mutalib, so‘ng amakisi Abu Tolib qo‘lida tarbiyalanadi. Balog‘atga etgach, savdogarlar qo‘lida xizmat qilib 24 yoshda beva boy ayol - Xadichaga uylangan va uning mablag‘lari bilan mustaqil savdogorlik qila boshlab, juda ko‘p davlatlarga borgan.

Muhammad 610 yilda 40 ga kirganda Makkada yakka xudoga e’tiqod qilish to‘g‘risida targ‘ibot yurgizgan.

U targ‘ibot boshlagan dastlabki yillarda, nisbatan juda oz kishi (Xadicha, Abu Bakir, Talxa, Zubayr, Usmon va qarindoshlari, ayrim savdogarlar) bu targ‘ibot izidan borganlar. SHuning bilan birga, o’sha davrdagi qurayishlarning ummaviylari xonadoniga mansub bo‘lgan va Makkada siyosiy hokimiyat tepasida badavlat zodagonlar uning targ‘ibotiga jiddiy qarshilik ko‘rsata boshlagan. Makkada ahvol jiddiy lashganini ko‘rib Muhammad Madinadagi Auz va Xazrej nomli vakillari bilan Madinaga ko‘chib ketgan.

622 yili yuz bergen bu ko‘chish (arabcha «hijra») dan musulmonlarning hijriy yili hisobi boshlanadi. Makkadan ko‘chib borganlar islom tarixida «muhojirlar» (ko‘chib kelganlar), Madinalik qabilalardan islomni qabul qilganlar esa «ansorlar» (yordamchilar) deb nom olgan.

Muhammad Madinaga kelgach o‘z mavqeini mustahkamlashga harakat qiladi va islomni targ‘ib qilishni davom ettiradi.

Nihoyat makkaliklar bilan madinaliklar o‘rtasida bir xil janglar bo‘lgan. Ulardan biri Badr qudug‘i yonida hijriy yilining ramazon oyida (17 yoki 19 kun) bo‘ladi. Ikkinci jang 625 yil iyul-avgust oylarida va 626 yili «xandoq» jangi nomini olgan to‘qnashuvlar ham bo‘lib o‘tdi. Ushbu janglarda Muhammad g‘alaba qozongandan keyin, Madinada o‘z mavqeini mustahkamlab bu erda faol siyosat olib boradi.

628 yili musulmonlar jamoasi uchun muhim bo‘lgan voqeа yuz berdi. Muhammad Kaba’ni muqaddas deb e’tirof etishni namoish qilish maqsadida 1500 ga yaqin musulmonlar bilan barcha qabilalar jangga boradigan mavsumda Makkaga jo‘naydi. Bundan xavotirlangan rahbarlari Abu So‘fiyon bilan birga Makkadan 30 km.cha narida bo‘lgan Xudoybiya vodiysida uni to‘xtatadilar. Muzokaralar boshlanib, o‘rtada «shartnom», «xudoybiya sulhi» tuziladi, qasam aytildi, qasam «bayha» deb ataladi. Bitimlarga muvofiq Makkaliklar madinaliklarga kelasi yildan boshlab hajga kelishga ijozat berishadi.

630 yili Madina qo‘sishinlari Makkani qarshiliksiz egallaydilar. Ummaviylar bilan raqobat tugab, ular Muhammadning yaqin yordamchisiga aylanadilar. Islom Arabiston yarim orolining asosiy hukmron diniga aylanadi. SHunday qilib Muhammad Islom bayrogi osti arab qabilalarini birlashtirib, yagona markazlashgan mamlakatni tashkil etadi.

Muhammad 632 yili iyun oyida 62 yoshda Madinada vafot etadi. Bu davrga kelib anchagina mustahkamlashgan musulmonlar davlati vujudga kelgan va bu davlat YAmandan Sino yarim oroliga, qizil dengiz sohillaridan markaziy qum sahrolarigacha cho‘zilgan katta hududni o‘z ichiga olgan edi.

Muhammad vafotidan keyin xalifalar (yordamchilar) davlatni boshqaradilar, va shu munosabat bilan musulmonlar davlati o‘zining bundan keyingi tarixida «Arab halifaligi» deb nom oladi. Muhammad vafot etgandan keyin birinchi kundanok musulmonlar jamoasining yo‘l boshlovchilari o‘rtasida hokimiyatt uchun kurash boshlanadi. Bu kurashda muhtojirlar guruhi golib chiqadi va Muhammadning qaynatasi, Oyshaning otasi Abu Bakr xalifadeb e’lon qilinadi.

Abu Bakr hukmronligining (632 - 634) dastlabki yillarida bir qator arab qabilalari o‘rtasida Madina hukmronligiga qarshi bosh ko‘targan qabilalar harakati «Islomdan chiqish», «dindan qaytish» deb ta’riflangan.

Dindan qaytgan kishilar qattiq ta’qib qilingan. XalifaUmar (634 - 644) zamonida istilolar yanada kuchaygan. 634 yili Basra, 633 yili Damshq, 640 yili quddus olinadi va falastin, Suriya erlari to‘la ravishda xalifalik qo‘liga o‘tadi.

Yana shunga ahamiyat berish kerakki, keyingi xalifalar Usmon (644 - 656) va Ali (656 - 661) zamonlarida ham istilolar davom etadi. Kavkaz va Turon tomonga yurishlar kuchayadi. qisqa vaqt ichida Gruziya, Ozarbayjon, Eronning shimoliy qismi, Xuroson, Mavr erlari arablar qo‘l ostiga o‘tadi va xalifalik qo‘sishinlari Amudaryo sohillariga chiqadi. SHunday qilib 30 yildan ozroq vaqt ichida arab xalifaligi o‘sha zamonlardagi eng katta imperiya bo‘lgan Vizantiyaga nisbatan ham katta hududni bosib oladi, sosoniylar imperiyasi barham topadi.

Buning natijasida Amudaryo sohillaridan SHimoliy Afrikagacha Tibilisi va Darbanddan YAman va Ummongacha cho‘zilgan yangi imperiya vujudga keladi. qisqa vaqt ichida arab

qo'shinlarining bunday engil g'alaba qozonishining sababi nimada degan savol tug'ilishi tabiyidir. Arab qo'shinlarini yaxshi tashkil qilingan yoki yuqori harbiy texnikaga ega bo'lgan deb aytish to'g'ri bo'lmaydi, chunki bu kishilar badaviylar, ya'ni ko'chmanchilar va boshqa har xil qabilalardan tuzilgan bo'lib, o'z zamonida ma'lum bo'lgan harbiy san'at va texnika darajasidan ham ancha orqada turar edi. Osonlik bilan erishilgan g'alabalarning asosiy sababi bu davrda arab qo'shinlariga jiddiy qarshilik ko'rsatadigan kuchning yo'qligi edi.

Hozirda katta musulmon jamoalari Indoneziya (165 mln.), Pokiston (125 mln.), Bangladesh (120 mln.), Hindiston (93 mln.), Eron (63 mln.), Turkiya (61 mln.), arab mamlakatlaridan eng yirigi Misrda (48 mln.), Nigeriyada (43 mln.) mavjuddir. Darvoqe, arablar barcha musulmonlarning 20 foizini tashkil etadilar⁹.

Paydo bo'lishi va ta'limoti. Islom tarixida bu din kelmasidan avvalgi muddat johiliya yoki johiliyat davri deb yuritiladi. «Johiliya» so'zi adabiy arab tilida «bilmaslik», ya'ni «yagona xudo – Allohni tanimaslik» ma'nolarini beradi. Bu istiloh musulmon mualliflari tomonidan Arabiston yarim orolining islomdan oldingi davr tarixiga nisbatan ishlatila boshlandi. Bu bilan yangi davr tarixchilari qadimgi davrda Ichki Arabiston aholisi orasida «ko'pxudolik» (*al-Vasaniya*) hukm surardi, degan fikrga urg'u berishni istaydilar. Ba'zi tadqiqotchilar johiliya davri 100-200 yil davom etgan degan fikrni bildiradilar. Biroq ushbu davrning qancha muddat davom etganligini aniqlash birlamchi manbalar, birinchi navbatda, yozma adabiyotning ozligi, ba'zida butkul yo'qligi tufayli juda mushkul.

Arab erlari Osiyoning janubi-g'arbidagi yarim orolda joylashgan bo'lib, shimol tomonidan – SHom (Suriya) sahrolari, sharqdan Fors (Arab) ko'rfazi, Umon dengizi, janub tomonidan Hind okeani va g'arbdan Qizil dengiz bilan chegaralangan. Mana shu bepoyon o'lka bu erda yashagan somiy tillarning birida so'zlashuvchi arablar nomi bilan Arabiston yarim oroli deb atalgan. Zamonaviy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, islom paydo bo'lishi arafasida yarim orol hududida madaniyat nuqtai nazaridan uch sivilizatsiya mavjud bo'lgan:

- 1) mustaqil ma'noga ega bo'lgan Janubiy Arabiston (tili – janubiy arab tili);
- 2) nisbatan chetki ta'sirlardan uzoqroqda joylashgan Ichki Arabiston;
- 3) Vizantiya va Eron imperiyalari madaniy an'analari bilan bog'liq SHimoliy Arabiston.

Islomning paydo bo'lishi tarqoq arab qabilalari uchun olamshumul voqeaga aylandi. Tarixda birinchi arab davlati – Arab xalifaligi vujudga keldi. Arab istilolari oqibatida mazkur uch sivilizatsiya vakillari aralashib ketdi. Lekin ularning o'tmishda nisbiy mustaqil rivojlanganliklari *arablar nasabi* haqidagi tasavvurda saqlanib qoldi. Unga binoan, arablarning barchalari nasab jihatidan ikki katta avlod vakillaridir: *qahtoniyalar – janub arablari, adnoniyalar – shimol arablaridir*. Mana shu ikki avloddan barcha arab qabilalari tarqalgan. Lekin tadqiqotlarning

ko‘rsatishicha, mazkur tasavvur VII asr oxirlari – VIII asr boshlarida Suriya va Iroqda hokimiyat uchun harbiy kurash olib borgan arab qabilalari ittifoqlari (Kalbiylar, Asadiylar va boshqalar) vakillari tomonidan shakllantirilgan. Qadimgi arablar orasida ko‘chmanchilik mafkurasi qoldiqlari, qabilaviy tuzum tasavvurlari kuchli bo‘lsa-da, islom dini paydo bo‘lishi davrlarida ularning katta (2/3) qismi o‘troq holda shahar va qishloqlarda yashagan. Islom dini shakllangan va rivojlangan Makka va YAsrib shaharlari YAqin SHarq sivilizatsiyasi qadimiy markazlaridan nisbatan uzoqroqda joylashgan. Arabiston yarim orolining Makka, Madina, Toif, Xaybar singari bir qancha eng muhim shaharlarini o‘z ichiga olgan qismi qadimdan Hijoz deb atalgan.

Bu yarim orolning katta qismida islom vujudga kelguniga qadar «*ko‘pxudolik*» e’tiqodi hukm surardi. Qadimgi arablarning diniy tasavvurlari jumlasiga totemizm, fetishizm, animizm elementlari va o‘tmish ajdodlar ruhiga sig‘inishni kiritish mumkin. Totemizmning yaqqol dalili sifatida ko‘pgina qabilalarning nomlarini keltirish kifoya: *asad* (arslon), *kalb* (it), *bakr* (bo‘taloq), *sa’lab* (tulki), *zi’b* (bo‘ri) va h.k.

Arabistonda har xil xudolarning timsoli – sanamlar kulti bir vaqtida paydo bo‘lgan emas, albatta. Ular uzoq vaqt shakllangan. Biroq keyingi davr islom tarixchilarining xabar berishlariga qaraganda, Arabistonga dastavval sanam keltirgan va unga ibodat qilishni targ‘ib qilgan shaxs Amr ibn Luhay ismli kishi bo‘lgan. Rivoyatga ko‘ra, u SHomga tijorat maqsadida tez-tez safar qilib turar edi. Amr ibn Luhay ba’zi shomliklar odatlardan qattiq ta’sirlanib, ularning butlaridan birini Makkaga olib kelgan. Keyinchalik butlarga sig‘inish arablar orasida keng tarqalib ketgan. Harqalay, but-sanamlarga sig‘inish – dinning yangi bosqichi bo‘lgan. Ibn al-Kalbiyning (vaf. 763 y.) «Kitob al-asnom» asarida ta’kidlanishicha, mil. av. VIII asrdayoq har bir arab qabilasi o‘z sanamiga ega edi. Tez-tez bo‘lib turadigan qabilalararo urushlardan so‘ng, odatda, mag‘lub qabila g‘olib qabila sanamiga sig‘ina boshlardi. Ba’zida g‘olib qabila mag‘lub qabilaning sanamini ham o‘z sanamlari safiga qabul qilishi mumkin edi. Arabistonning turli erlarida muayyan sanamlarning qarorgohi mavjud bo‘lib, ular ziyoratgohlar sifatida ma’lum edi. Ulardan biri Makka Ka’basi edi. Makka eski Arabistonning diniy markaziga aylangach, u erdag‘i Ka’baga sanamlar to‘plandi. Ibn al-Asirning (vaf. 1232 y.) uqtirishicha, Makka fath etilgan 630 yili Ka’ba ichida 360 ta sanam bo‘lgan. Sanamlar uchun bu raqam juda katta ko‘rinadi, ammo muayyan sanam bir necha qabilada ehtirom qilingan bo‘lsa, u Ka’baga shuncha nusxada qo‘yilgan bo‘lishi mumkin.

Islomdan oldin Arabistonda yahudiy jamoalari mavjud bo‘lgan. Arabiston yahudiylari haqida, asosan, Qur’on, hadis, tafsir, *sira* (Payg‘ambar hayoti va muqaddas urushlari haqida hikoya qiluvchi adabiyot janri) va tarix kitoblari xabar beradi. Bu mavzuga aniqlik kiritadigan va hozirga qadar topilgan hujjatlarning eng qadimiysi – YAngi Bobil podshohi Nabonidga (mil. av. 555-539) tegishli xronikadir. Unda aytilishicha, mil. av. 552-542 yillarda SHimoliy

Arabistonagi Tayma shahrini o‘ziga poytaxt qilib olgan Nabonid bu erdag'i shaharlarni o‘zlashtirish maqsadida Bobildan talaygina aholini ko‘chirgan; ularning ko‘pchilagini yahudiylar tashkil qilgan. Ma’lumki, bundan oldinroq (mil. av. 586 y.) Navuxodonosor II Quddusni zabit qilganida salkam 30 ming yahudiyni asir olib, Bobilga keltirgan va «Bobil asirligi» 50 yil davom etgan edi. SHundan so‘ng ham ba’zi yahudiylar Falastinga qaytmay, Bobilda qolib ketgandilar.

Arabiston yarim orolida yahudiylilik bilan bir qatorda xristianlik dini ham tarqaldi. Xristianlar bu erda keng targ‘ibotchilik ishlarini olib borar edilar. Ular Arabistonga qachon kirib kelganligi noma’lum. Odatda targ‘ibotchilar tib va mantiq ilmidan xabardor, kishilar qalbiga yo‘l topa oladigan odamlar bo‘lganligi uchun ko‘pgina qabila boshliqlariga ta’sir etganlar, ularning xristian dinini qabul qilishiga yoki o‘zlarining olib borayotgan faoliyatlarida yordam berishiga erishganlar. Islomga qadar Arabiston yarim orolining deyarli barcha hududlarida xristian rohiblari muntazam ravishda din targ‘iboti bilan shug‘ullanar edilar. YUqorida aytib o‘tilganidek, xristianlikning Arabiston yarim oroliga qachon kirib kelgani aniq ma’lum emas.

Hijoz shaharlariga xristianlar (sharqiy cherkovlar vakillari) asosan Vizantiya qaramog‘i ostidagi Falastin va SHomdan ko‘chib kelganlar. Islom vujudga kelishi arafasida Dumat al-Jandal, Eylat, Tayma, YAsrib, Makka va Toifda ham talaygina xristianlar bor edi. Habashiston xristianlari bilan aloqalar haqida efiop askarlarining yurishlari va ilk musulmonlarning hijralari dalolat beradi.

Qadimgi Arabiston jamiyatida «haniflar» nomi bilan ma’lum bir jamoa mavjud edi. Bu jamoa vakillari diniy tasavvurlarini fanda «noma’lum monoteizm» deb atash qabul qilingan. Ular sanamlarga sig‘inmas, balki yagona Xudoga ibodat qilar hamda ochiqdan-ochiq butparastlarni tanqid qilishar edi. Ular bir erda muqim turmay, o‘lka bo‘ylab darbadar hayot kechirardilar. Ushbu toifa kishilaridan Zayd ibn Amr, Varaqa ibn Navfal, Ubaydulloh ibn Jahsh va Usmon ibn Huvayris, Quss ibn Sayyidolarni keltirish mumkin. Ular keyinchalik ilk islom jamoasida ma’lum mavqega ega bo‘ldilar.

Sosoniylar Eroni dinlari ham Arabiston yarim orolida mavjud edi. Ular haqida adabiyotlarda kam gapiriladi. Vaholanki, zardushtiylik va manixeizm ta’limotlari ham bu mintaqalarda keng tarqalgan edi. Bu davrda o‘zini «Payg‘ambarlar muhri» (*Xotam al-anbiyo*) deb atagan Moniy va uning «o‘zga dinlar ta’limotini to‘g‘rilovchi» dini atrof hududlarga etib ulgurgan edi. CHunki Laxmiylar davlati Sosoniylar ta’siri ostida bo‘lib, islom dini shakllanishi arafasida Eron YAmanni zabit etgan edi.

Yangi dinning shakllanishida Arabiston yarim orolida mavjud holatning ta’siri, albatta katta bo‘ldi. Ammo bu jarayonlarda birinchi arab davlati vujudga kelishi va uning mafkurasining shakllanishi muhim o‘rin tutadi. Ularni to‘laqonli idrok etishda Muhammad payg‘ambar hayoti, uning yangi din targ‘ibotchisi va davlat arbobi sifatidagi faoliyati asosiy o‘rinni egallaydi.

Muhammad payg‘ambar hayoti. Muhammad ibn Abdulloh ibn Abd al-Muttalib Makka va uning atrofi tarixida «Fil voqeasi» nomi bilan mashhur bo‘lgan jangdan 50 kun keyin tavallud topdi. Bu sananing milodiy hisob bo‘yicha qaysi kunga to‘g‘ri kelishi keyinchalik hisoblab chiqarilgan. Bu hisoblardan misrlik munajjim Mahmud poshoning aniqlashicha, Payg‘ambarning tavallud topishlari milodiy sananing 571 yil 21 aprel kuniga to‘g‘ri keladi. Otasi Abdulloh Qurayshning Banu Hoshim, onasi Omina bint Vahb – Banu Zuhra urug‘idan edilar.

Ota-onadan etim qolgan Muhammad payg‘ambar to sakkiz yoshgacha bobosi Abdulmuttalib qo‘lida tarbiyalandi. So‘ngra uni amakisi Abu Tolib o‘z himoyasiga oldi. Payg‘ambar yoshlik chog‘larida ikki marta SHomga, bir marta YAmanga karvon bilan safarga chiqdi.

Arablar orasida o‘zaro qon da’vosi sababi bilan bo‘lgan urushlarning eng og‘ir kechgani «Fijor jangi» hisoblanadi. Islomdan avval ham arablarda *muharram*, *rajab*, *zulqa‘da* va *zulhijja* oylari muqaddas sanalib, ularda urush taqiqlangan edi. Mazkur urush mana shu oylarda bo‘lganligi uchun unga «Fijor jangi» («Gunohkorlar urushi») deb nom berilgan. Bu urushda Quraysh tarafida Muhammad payg‘ambar ham ishtirok etdi. To‘rt yil davom etgan bu urush sulk bilan nihoyalandi.

Muhammad payg‘ambar 25 yoshga to‘lganida Banu Asad urug‘idan bo‘lgan boy ayol Xadicha bint Xuvaylidga uylandi. Muhammad payg‘ambarning etti farzandidan (Moriyadan tug‘ilgan Ibrohimdan boshqa) oltitasi (Zaynab, Umm Kulsum, Ruqayya, Fotima, Qosim, Abdulloh)ning onasi Xadicha bint Xuvaylid edi.

Makkadagi Ka‘ba binosi ustida tomi bo‘lmanidan, yomg‘ir suvlari uni emirib yuborgan edi. Keyinchalik binoni sel oqimidan saqlash uchun bir to‘siq qurilgan bo‘lsa-da, u ham yillar o‘tib emirilgan edi. Payg‘ambar davrida Makka ahli Ka‘bani yangidan qurishga qaror qildilar. Bu qurilishda Payg‘ambar ham qatnashdi.

Vahiy nozil bo‘lishining boshlanishi. Muhammad payg‘ambar 40 yoshga etganida ko‘proq yolg‘izlikni qo‘msaydigan bo‘lib qoldi. SHunday paytlarda Makkadan 3 mil uzoqdagi Hiro tog‘ida joylashgan g‘orga chiqib ketar, erlik aholi odaticha ramazon oyini u erda ibodat bilan o‘tkazardi. G‘amlagan oziqalari tugagach, Xadicha oldiga qaytib, bir oz vaqtidan so‘ng yana o‘sha g‘orga ketar edi. U erda o‘zini sukunatga berib, chuqur o‘yga tolar, g‘oyibdan quloqlariga «Sen Allohning elchisisan» degan tovushlar eshitilar edi. Ko‘p tush ko‘rar, tushida ko‘rgan narsalari o‘ngida to‘g‘ri chiqar edi.

Islom tarixida ilk vahy «Alaq» surasining boshidagi besh oyatdir. Xadicha vahy nozil bo‘lishi haqidagi xabarni yaxshilikka yo‘yib, Varaqa ibn Navfal nomli samoviy kitoblardan boxabar bo‘lgan qarindoshidan bo‘lib o‘tgan voqeanning tafsilotini so‘radi. Varaqa ibn Navfal buni payg‘ambarlikning nishonasi deb ta‘bir qildi. Nozil bo‘layotgan vahiyalarda Payg‘ambarga o‘z qavmini qiyomat haqida ogohlantirish, yagona, barchani yaratgan Parvardigordan qo‘rqishga

chaqirish uchun ko‘rsatmalar bo‘ldi. SHundan so‘ng Muhammad payg‘ambar yashirin da’vatga o‘tdi. Birinchi bo‘lib Xadicha bint Xuvaylid va amakivachchalari Ali ibn Abi Tolib islomni qabul qilishdi. Vaqt o‘tishi bilan musulmonlar soni 30 kishiga etdi. Ular o‘z dinlarini yashirin saqladilar. Bu holat uch yil davom etdi.

Da’vatning o‘ninchи yili haj mavsumida Payg‘ambar Makkaning shimolida «Aqaba» deb ataladigan bir tepalikda YAsrib (Madina) shahridan kelgan olti kishini uchratib, ularni islomga da’vat etdilar. Ular islomni qabul qildilar. Ushbu uchrashuv islom tarixida «Birinchi Aqaba bay’ati» deb nom oldi. Unda As’ad ibn Zarora, Rafi’ ibn Molik, Avf ibn Horis, Qutba ibn Omir, Uqba ibn Omir, Jobir ibn Abdullohlar Payg‘ambarga din shartlarini bajarishga «bay’at» (qasamyod) qildilar. Keyingi ikki haj mavsumida ham Aqaba bay’ati bo‘lib o‘tdi. Ikkinci uchrashuvda madinaliklardan 12 kishi, uchinchisida esa 75 kishi ishtirok etdilar. Bu voqealardan so‘ng Payg‘ambar Madinaga hijrat qilishga qaror qildi.

Madina davri. Madinalik «ansor» (yordamchi)lar makkalik «muhojir»larni samimiy kutib oldilar. Muhammad payg‘ambarning Madinaga ko‘chib o‘tishi rabi’ al-avvalning sakkizinchи kuni, milodiy 622 yil 20 sentyabrda yuz berdi.

Islomning Madina davri uning tarixida juda katta ahamiyatga ega. Musulmonlar birinchi marta alohida diniy jamoa (Umma) bo‘lib yashay boshladilar. Bu esa o‘z navbatida diniy qoidalarning takomillashuvini tezlashtirib yubordi. Asta-sekin namoz, azon va boshqa amallar tartibga solindi. Payg‘ambar bu shaharga uchinchi taraf vakili sifatida taklif etilgan edi. Avval murosasiz Avs va Xazraj arab qabilalari hamda Banu Qurayza, Banu Qaynuqo’, Banu Nadir yahudiy qabilalari bilan o‘zaro sulh tuzildi.

Hijratning ikkinchi yili ramazon oyida (mil. 624 y.) musulmonlar ummasi qo‘shinlari va makkaliklar o‘rtasida *Badr* jangi bo‘ldi. Bu jang Madinadan 80 mil (taxminan 150 km.) uzoqda Suriya karvon yo‘lida joylashgan Badr qudug‘i yaqinida bo‘lib o‘tdi. Murosasiz kechgan jang musulmonlar g‘alabasi bilan tugadi. Bu jangdan so‘ng Umma mavqeい Madina ahli orasida beqiyos o‘sdi. SHu davrdan boshlab Muhammad payg‘ambar etakchiligidagi islom jamoasi kuchli bir davlatning vazifalarini bajara boshladi. O‘zlarini musulmon deb e’lon qilib, aslida esa Payg‘ambar va musulmonlarga muxolif ish yuritganlar *munofiqun* deb nomlandilar. Ko‘pxudolikka e’tiqod qiluvchilar *mushriklar* deb ataldi. Musulmon jamoasi davlat darajasiga ko‘tarilib, boshqa qabilalar va qabilalar ittifoqlari bilan o‘zaro qisqa va uzoq muddatli sulh shartnomalarini tuzildi. SHu yili *zakot* islomning asosiy amallaridan biri sifatida farz qilindi.

YAhudiy, xristian va sobi’iylar *ahl al-kitob* mavqeiga ega bo‘lishdi. Ular – Madina davlati xazinasiga har bir voyaga etgan erkak boshidan to‘lov (*jizya*) yig‘ib berib, o‘z ijtimoiy-diniy avtonomiyalarini saqlab qolish huquqiga ega bo‘ldilar. Ammo Madina davlatining asosiy

muxolifi Makka jamoasi bo‘lib qolaverdi. Hijratning oltinchi yilida Makka qurayshiyarlari bilan tuzilgan Hudaybiya shartnomasi eng muhim g‘alabalardan biridir.

Makka fathidan (630 y.) so‘ng islom davlati Arabiston yarim orolida to‘la g‘alabaga erishdi. SHuni alohida ta’kidlash zarurki, Makkaning olinishi musulmonlar uchun g‘oyat katta ahamiyatga ega bo‘ldi, chunki shundan so‘ng musulmonlar jamoasi Arabiston muhitida etakchi davlat va siyosiy kuchga aylandi.

SHu bilan bir qatorda Madinada diniy qoida va tartiblar bir tekis shakllana boshladi. Musulmonalar va yahudiy qabilalari o‘rtasida o‘zaro mojarolar bo‘lib o‘tdi. Qibla Quddusdan Makkadagi Ka‘baga o‘zgartirildi, *ahl al-kitobga* (yahudiylar, xristianlar, sobi‘iylar) *ahl az-zimma* (musulmon davlati himoyasi ostidagi diniy jamoa) mavqeい berildi. Payg‘ambar Umma hayotini ko‘p hollarda atrofdagi odamlar uchun odatiy bo‘lgan qoidalar asosida boshqardi. Muhim hollarda yangi diniy va ijtimoiy qoidalar *vahy* orqali kiritildi.

11 hijriy yil 12 rabi’ al-avval/632 milodiy yil 8 iyun kuni Payg‘ambar vafot etdi. Bu bilan islom tarixida ilk davr – Qur’oniy davr yoki teokratiya davri tugadi. Bundan buyon musulmon-arab davlati tarixida podshohlar – *xalifalar*, islom dini me’yorlarini shakllantirish va rivojlantirishda diniy ilmlar bilimdonlari – ulamolarning roli tobora oshib boraverdi.

Payg‘ambar vafoti haqidagi xabar Madina ahli orasida yoyilgach, ansorlar *Umma* boshchisi – *xalifalikka* nomzod masalasini hal qilish maqsadida Banu So‘ida qabilasining Saqifa nomli guzariga oshiqdilar. Bir qancha muhojirlar va ansorlar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan qizg‘in bahs va tortishuvlardan so‘ng xalifalikka (*xalifat rasulilloh*) Abu Bakr as-Siddiqni (632-634) saylab, barcha unga bay’at qildilar. Abu Bakr diniy va dunyoviy hokimiyatni o‘z shaxsida birlashtirdi.

Payg‘ambar vafotidan so‘ng islomni qabul qilgan ba’zi qabilalar Madina shahar-davlati yangi yo‘lboshchisi Abu Bakr davrida zakotni berishdan bosh tortdilar. Soxta payg‘ambarlar harakatlari vujudga keldi. Ilk islom tarixidagi ushbu voqealar «*Ridda*» nomi bilan ataladi. Abu Bakr bunday xatti-harakatlarni qat’iylik bilan bostirdi. Bu davrda Arab qo‘shinlari islomni tarqatish g‘oyasi bilan Arabiston yarim orolidan tashqariga chиqa boshladilar. Bu esa o‘z navbatida islomning jahon diniga aylanishiga zamin yaratib berdi.

Islom ta’limoti. *Islom* so‘zining arab tilidagi lug‘aviy ma’nosi – *taslim bo‘lish, bo‘ysunish*, istilohda esa yagona Allohga bo‘ysunish ma’nolarini beradi. Islom dini ta’limoti bo‘yicha Muhammad payg‘ambar avvalgi (o‘rta Er havzasi sivilizatsiyasida ma’lum bo‘lgan) payg‘ambarlar ishini davom ettirgan, ular dinini qayta tiklagan, *qiyomat* oldidan yuborilgan oxirgi payg‘ambar (*Xotam al-anbiyo*) – nabiy va rasul deb tan olinadi.

Islomning asosiy shartlari hisoblanmish besh rukn quyidagilardir:

- 1) imon;
- 2) namoz;

- 3)** zakot;
- 4)** ro'za;
- 5)** haj;

Imon masalasida islomda (*ahl as-sunna, shi'alar, xavorijlar* ichida) avvalgi davrda turli maktablar vujudga kelib, ular shu kungacha rivojlanib kelmoqda. Ba'zi ta'limotlar (masalan, *mu'tazila, murji'a*) yo'qolib, yangi teologik maktablar paydo bo'lgan. SHuningdek, ko'p hollarda alohida olingen mashhur mutafakkir-ulamoning shaxsiy yo'li (*mazhabi*) o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. *Ahl as-sunna va-l-jamoa* ichida klassik davrda ikki asosiy maktab – *moturidiylar* va *ash'ariylar* kuchli mavqega ega bo'ldilar. Masalan, *moturidiylar* nazdida aqida masalalarida quyidagicha fikr mayjud:

«Imon» so‘zining lug‘aviy ma’nosи *ishonmoq, tasdiqlamoq* bo‘lib, istilohda esa «*La ilaha illallohu Muhammadur rasululloh*» («Allohdan o‘zga iloh yo‘q va Muhammad – Allohning payg‘ambari») *kalimasini* til bilan aytib (*al-iqror bi-l-lison*), dil bilan tasdiqlash (*at-tasdiq bi-l-qalb*) demakdir. Mazkur ta'limot boshqalaridan *imon* masalasida *amalni imondan* alohida hisoblashi bilan farqlanadi. Imonning etti sharti bor. Ular:

– Allohning borligi va birligiga imon keltirish, ya’ni Allohning Qur’oni karimda va Muhammad payg‘ambar hadislarida bayon qilingan barcha *ismlari* va *sifatlariga* imon keltirish. Ibodat qilish va sig‘inishga undan o‘zga loyiq zot yo‘q deb bilish, uning barcha buyruqlarini qabul qilish va barcha qaytargan narsalaridan qaytish. Qur’onning «al-Ixlos» surasida Alloh taoloning yagonaligi shunday ta’riflanadi: «Aytgin (Ey, Muhammad payg‘ambar): Alloh yagonadir, beniyozdir (hech kim va hech narsaga muhtoj emas, balki barcha unga muhtojdir), tug‘magan, tug‘ilmagan va uning tengi yo‘qdir» (Qur’on, 112:1-4);

– farishtalarning borligiga imon keltirish. Farishtalar (*malo’ika*) Allohning nurdan yaratgan, uning buyruqlarini so‘zsiz bajaruvchi, uning amridan tashqari chiqmaydigan xos bandalaridir. Ulardan Jabroil, Mikoil kabi buyuk farishtalarning nomlari Qur’onda zikr etilgan. Jabroil farishtaning vazifalaridan biri payg‘ambarlarga Allohning *vahylarini* etkazish bo‘lgan. Farishtalardan ba’zilari odamlar bilan doim birga bo‘lib, ularning yaxshi va yomon ishlarini yozib boradilar. Qur’onda ular «*Kirom kotibun*» (*mukarram kotiblar*) deb zikr etilgan (Qur’on, 82: 10-12). Bundan tashqari, tafsir kitoblarida Isrofil, Azro’il nomli farishtalarning ismlari qayd etilgan. Qur’on va hadislarda farishtalar haqida juda ko‘p erda so‘z yuritilgan. Ularga ishonish imonning shartlaridandir;

– ilohiy kitoblarga imon keltirish. Alloh Muhammad payg‘ambarga Qur’onni nozil qilganidek, boshqa payg‘ambarlarga ham kitoblar tushirgan. Ulardan bizga ma’lum bo‘lganlari: Ibrohim payg‘ambarga «Sahifalar», Muso payg‘ambarga «Tavrot», Dovud payg‘ambarga «Zabur» va Iso payg‘ambarga berilgan «Injil» kitoblaridir. Ulardan boshqa payg‘ambarlarga

yuborilgan kitoblar haqida Qur'on va hadislarda xabar berilmagan. YUqorida nomlari zikr etilgan kitoblarning barchasi Qur'onda Alloh tomonidan nozil qilingan deb ta'kidlanganligi sababli ularga shunday deb ishonish imonning shartlaridan hisoblanadi. Islom ta'limotiga ko'ra, oldingi ilohiy kitoblar buzilib ketganligi sababli Qur'on ularning ta'limotini tiklab kelgan;

- payg'ambarlarning haqligiga imon keltirish. Alloh insonlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatish uchun payg'ambarlar yuborgan. Barcha payg'ambarlar bir zanjirning bo'g'lnlari kabitirlar. Qur'onda 25 payg'ambarning nomlari zikr etilgan. Hadislarda payg'ambarlarning umumiy soni 124 ming ekanligi bayon qilingan. Musulmonlar uchun ulardan Qur'onda nomi zikr qilingan va zikr qilinmaganlarning barchasiga barobar imon keltirish shart;
- oxirat kuniga ishonish. Dunyoning ibtidosi bo'lgani kabi uning intihosi ham bor. Islom ta'limotiga ko'ra, bu dunyo bir sinov maydonidir. Bu dunyoda qilingan savob ishlar uchun mukofot, gunoh ishlar uchun jazo beriladigan oxirat hayoti mavjud. Qiyomat kuniga va oxirat hayotiga ishonish islomning asosiy g'oyalaridandir;
- taqdirga – inson boshiga tushgan yaxshiligu yomonlik Allohdan ekaniga e'tiqod qilish. YUqorida aytib o'tilganidek, islomning ma'nosi «*taslim bo'lmoq*» dir. SHunga binoan, inson hayotda ro'baro' bo'ladigan barcha yaxshi-yomon ishlarni o'zi uchun Alloh tomonidan belgilangan sinov va imtihon deb bilishi lozim. YAxshiliklarga shukur qilmog'i, qiyinchilik va mashaqqatlarga sabr qilmog'i imonning shartlaridan hisoblanadi;
- o'limdan keyin qayta tirilishga ishonish. Islom ta'limotiga ko'ra, qiyomat kuni bo'lganda barcha insonlar qabrdan turadilar va mahshargoh maydoniga yig'iladilar. U erda barcha odamlar dunyodagi amallariga qarab mukofot (jannah) yoki jazo (do'zax)ga mahkum etiladilar.

Namoz islomda imondan keyin musulmonlar ustiga farz qilingan ikkinchi amal hisoblanadi. Qur'oni karimda namozga qat'iy buyruqlar kelgan bo'lib, uning ba'zi shartlari bayon etilgan. Namozning vaqt, miqdori hamda ado etish tartiblari hadislar bilan joriy etilgan. Bu masalada turli mazhablarda ba'zi farqlar bor. Har kuni besh vaqt namoz: bomdod – (tong otishidan kun chiqquniga qadar), peshin – (quyosh tikkadan oqqanidan to biron narsaning soyasi o'z bo'yiga ikki barobar kelguniga qadar), asr – (peshin vaqt chiqishi bilan to quyosh to'liq botgunga qadar), shom – (quyosh to'liq botganidan ufqdagi qizillik yo'qolguniga qadar), xufton – (shom vaqt chiqqanidan tong otguniga qadar) ado etiladi.

Zakot «poklash» ma'nosini bildiradi, ya'ni ehtiyojdan tashqari bo'lgan boylikning qirqdan bir qismini (2,5 %) sadaqa qilish. Zakot moli zakot miqdoriga etgan badavlat kishilar uchun farz etilgan. Zakot etim-esir, beva-bechoralar, musofirlar, qarzdorlar, Alloh yo'lida yurganlar, zakot yig'uvchilarga beriladi. Zakot hijriy hisob bilan bir yil davomida ishlatilmay turgan yoki shaxsiy ehtiyojdan tashqari xususiy mulk sifatida foydalanilayotgan mablag'dan beriladi. Zakot

islomdagi ijtimoiy himoyalashning o‘ziga xos ko‘rinishidir. Bu jamiyat taraqqiyoti, tinch va osudaligi yo‘lida katta ahamiyat kasb etadi.

Ro‘za yilda bir oy – hijriy qamariy kalendarning *ramazon* oyi davomida kunduz kunlari eyish-ichish va jinsiy aloqada bo‘lishdan tiyilish. Ro‘za *hijratning ikkinchi yili* farz bo‘lgan. Bu ibodat kasal yo safarda bo‘lgan kishilardan boshqa kunlarda tutib berish sharti bilan soqit qilinadi. Sababsiz ro‘zani buzgan kishi uning *kafforati* sifatida ikki oy paydar-pay ro‘za tutishi lozim bo‘ladi. SHuningdek, ro‘za ramazondan tashqari oylarda ham tutilishi mumkin. Masalan, *nafl* ro‘za yoki qasamni buzishdagi *kafforat* ro‘zasi tutiladi.

Kalom ilmi. Islom ta’limoti bo‘yicha barcha payg‘ambarlar yagona Allohga imon keltirishga chaqirganlar va bu ularning eng asosiy vazifasi hisoblangan. SHu bilan birga ularning shariati turlicha bo‘lgan.

Musulmonlar islom ta’limotini Muhammad payg‘ambar (a.s.)dan o‘rganganlar. Vaqt o‘tishi bilan islom ta’limotini faqat shu dinni yaxshi bilgan olimlar tushuntira boshladilar. Bu ta’limotni tushuntiruvchi fan paydo bo‘ldi. Mazkur fan turli davrlarda o‘ziga xos «al-fiqh al-akbar», «tavhid», «aqida», «kalom», «usul ad-din» kabi nomlar bilan ataldi. Uning nomlari turlicha bo‘lsada, bir mavzuni, ya’ni aqidani o‘rganishga qaratilgan.

«Al-Fiqh al-akbar» atamasini birinchi bo‘lib imom Abu Hanifa ishlatgan va shu nom bilan risola yozgan. CHunonchi fiqh so‘zi biror narsani o‘ta yaxshi, har tomonlama tushunib, fahmlash ma’nosini bildiradi. SHuningdek, namoz, ro‘za, haj, nikoh va boshqa amaliy hukmlarni o‘rganuvchi ilmga ham fiqh deyiladi. Aqidaviy masalalarni o‘rganuvchi ilmni esa, «Al-Fiqh al-akbar», ya’ni «katta fiqh», amaliy fiqh esa, kichik fiqh hisoblanadi.

Keyingi atama «usul ad-din» bo‘lib, unda shariat va dindan olingan e’tiqodiy hukmlarni o‘rganadi, ya’ni dindagi asl hukmlarni tadqiq etadi. Bir qator olimlar shu nom bilan kitoblar ta’lif etganlar.

«Tavhid» ham Allohning yagonaligini, uning sifatlarini o‘rganishga e’tibor qaratgan. Bunda Allohni yagona deb bilib, uning sifatlarini qilishga ko‘proq e’tibor qaratgan. Zero, inson uchun zarur aqidalarning eng avvali Allohning vahdoniyatiga, ya’ni yakkaligiga imon keltirish va uni o‘rganish hisoblanadi.

YAna bir atama «kalom ilmi» deb yuritiladi. Islom manbalarda aqida ilmining eng mashhur nomlaridan biri ekani aytilgan. Ushbu atama aqidaga oid ishlarning mashhuri hisoblanadi.

«Aqida» (ko‘p. Aqoid) bu nom boshqalaridan keyinroq, X (hijriy IV) asrda paydo bo‘lgan. «Aqida» bir narsani ikkinchisiga «mahkam bog‘lash» ma’nosini bildiradi. Islom aqidasi musulmon insonni muayyan tushunchalar bilan mustahkam bog‘lab turadigan e’tiqodlar

yig‘indisi. YA’ni, biror narsaga e’tiqod qilish uchun uni hech qanday shubha qoldirmaydigan darajada juda yaxshi bilishdir. Ma’lum bir fikr insonning fikriga aylanib, his-tuyg‘ularini yo‘llaydigan va harakatlarini boshqaradigan holga etganda, aqidaga aylangan bo‘ladi. Aqida ilmiga asoslangani uchun aqida ilmi to‘g‘ri, sog‘lom e’tiqodda bo‘lishni ta’minlaydi.

Dindagi ayrim shar’iy hukmlar o‘zgarishi mumkin. Ammo sof e’tiqod o‘zgarmaydi, hukmi ham o‘chmaydi. CHunonchi Allohnning yagonaligi, farishtalar, jannat va do‘zaxga imon keltirish kabi e’tiqodga oid qarashlar o‘zgarmaydi.

«Kalom» so‘zi arabcha bo‘lib, lug‘atda gap, suhbat, til, so‘zlashuv, nutq, bayon ma’nolarini anglatadi. Istilohiy ma’nonda esa, musulmonning e’tiqodi, aqidasi, dunyoqarashini ko‘rsatib beruvchi ta’limotga aytildi. Boshqacha aytganda balog‘atga etgan musulmon kishining e’tiqod qilishi, imon keltirishi, islom dinining zaruratlari shaklida tasdiq qilishi, qalbiga mahkam bog‘lab olib undan ajralishi mumkin bo‘lmagan shar’iy e’tiqodiy hukmlardir.

Tarix jarayonida olimlar ushub nomlarga oid kitoblar yozib qoldirganlar. Masalan, imom Abu Hanifa «al-Fiqh al-akbar», Abul Hasan Ash’ariy «al-Ibona an usul ad-diyona», Abul Muin Nasafiy «Tabsirat al-adilla fi usul ad-din», Moturidiy «Kitob at-Tavhid», Abu Hafs Nasafiy «Aqoid» nomli va boshqa olimlarning asarlarini keltirish mumkin.

Islom ta’limotiga ko‘ra insonning ikki dunyodagi saodati aynan aqidasiga bog‘liq. Agar musulmonning aqidasisi pok bo‘lsa, yo‘li to‘g‘ri bo‘ladi, qilgan barcha amallari qabul bo‘ladi va bandalik bilan sodir etgan ba’zi gunohlari afv etiladi. Biroq kishi aqidasi sof bo‘lmasa, buzuq bo‘lsa, yo‘li noto‘g‘ri bo‘ladi, qilgan amallari behuda ketadi va oxiratda jahannam ahlidan bo‘ladi deb hisoblanadi.

Aqida masalasi o‘ta muhim bo‘lganidan eng birinchi payg‘ambardan boshlab, oxirgi Muhammad payg‘ambar (a.s.)gacha bu masalani Allohnning o‘zi ko‘rsatib bergen. SHuning uchun aqidaviy qarashlarning asosi Qur’onda berilgan va hadislardagi ko‘rsatmalar negizida ishlab chiqilib, tartibga solingan.

Sahobalar tiriklik paytidayoq aqidaviy qarama-qarshilik paydo bo‘lgan. Islomda aqidaviy ixtiloflar to‘rtinchchi xalifa sahoba Alining qo‘sheidagi askarlari ichidan ajrab chiqqan, aqiyda masalasida bir necha shubhali savollar chiqargan xorijiyalar toifasi bilan Ali va u kishining Abdulloh ibn Abbas roziyallohu anhuga o‘xhash yaqin safdoshlari orasida bo‘lib o‘tdi.

Sahobalar davri tugab tobeinlar vaqtida vaziyat yanada o‘zgardi. CHunki bu davrga kelib din ilmlarini, ayniqsa aqidani biluvchi kishilar kamaydi va ular alohida shaxs sifatida ajralib chiqdilar. Bu davrda sof aqidaviy qarashlarga qarshi turli g‘oyalarni ilgari surgan firqa va toifalarning tarqalishi kengayb ketgan edi. Ular o‘zlarining buzuq, islomga oid bo‘lmagan fikr va qarashlarini, e’tiqodlarini tarqatib, islomning aqidasini buzishga harakat qilganlar. SHuningdek, fath etilgan erlardagi xalqlarning eski qarashlari, falsafalari, dirlari haqidagi o‘z tushuncha va

tafakkurlari mayjud bo‘lgan. SHuning sababidan ular islom ta’limotini tushunib olishlari qiyin kechgan. Qur’on oyatlari va hadislarni o‘zlarining eski qarashlari asosida tushunishlari ham bo‘lgan.

Bunga bir necha sabablar bor: fath ishlari sababli islom erlari kengaydi. Islom dushmanlari esa, islom nomidan turli g‘oyalarni tarqatishga uringanlar; fath etilgan erlardagi joylik aholi o‘zining eski dinlari aqidasisiga mos tarzda oyat va hadislarni tushunishi natijasida turli g‘oyalar yuzaga keldi va boshqa sabablar orqali musulmonlar orasida noto‘g‘ri, islomga mos bo‘lman qarashlar paydo bo‘ldi.

Islom ta’limotini buzib talqin qilish natijasida ularga raddiya sifatida olimlar kalom, ya’ni aqida ilmiga asos qo‘ydilar. Bu musulmonlar uchun zarur sohaga aylandi. Har bir musulmon kishi buni bilishi shart bo‘lgan majburiy ilmga aylandi. CHunonchi Sa’duddin Taftazoniy «Maqosid at-tolibin» asarida: «Kalom ilmi diniy aqoid usullarini ishonchli dalillar asosida anglashni o‘rgatadigan ilmdir. U bilan shar’iy, nazariy, aqidaviy masalalar hal qilinadi. Uning natijasi imonga komil ishonch bilan ziynat berish, foydasi esa bu dunyoda intizomli hayot kechirish va oxiratda azob-uqubatdan xalos bo‘lishdir. SHunday ekan kalom ilmi eng sharaflı ilmdir».

Abu Homid Hazzoliy o‘zining «Ihyo ulum ad-din» nomli asarida: «...CHuqur bilimga ega bo‘lman oddiy musulmonlarning diniy e’tiqodlarini turli bid’at va noto‘g‘ri g‘oyalardan qo‘riqlash uchun kalom ilmini o‘rganish vojibdir», degan.

YUqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, aqoid yoki kalom ilmining vazifasi: a) diniy e’tiqodlarni qat’iy dalillar bilan isbotlash va ular haqidagi shubha hamda gumonlarni rad qilish; b) insonni aqidada oddiy taqlidchi bo‘lishdan har bir e’tiqodga hujjat keltira olish darajasiga ko‘tarish; v) islomning sof e’tiqodlarini adashgan zalolat ahlining shubha va gumonlaridan himoya qilish.

2. Moturidiylik va ash’ariylik. Islom tarixini o‘rganish jarayonida ko‘plab olimlar kalom ilmida faoliyat olib borib o‘zlarining aqidaga oid asarlar yozganlarini ko‘rish mumkin. Ulardan hanafiy mazhabi olimlaridan Abu Hafs Nasafiy «Aqida an-Nasafiyya», Abul Muin Nasafiy «Tabsirat al-adilla», Abu Ja’far Tahoviy «Aqida at-Tahoviyya»larni alohida sanab o‘tish o‘rinli. Bulardan boshqa olimlar ham, shuningdek, molikiy, shofeiy, hanbaliy mazhabi ulamolari ham bu borada qalam tebratib o‘zlaridan muhim asarlar qoldirganlar. Avvalgi olimlar o‘zlarining asarlarini mustaqil tarzda va muxtasar shaklda yozgan bo‘lsalar, keyingilar o‘zlaridan oldin o‘tganlarning asarlariga sharh ta’lif etganlari va mustaqil asar yozgan bo‘lsalar ham mufassal ekani bilan ajralib turganlar. Hozirgi kunda ham aqida ilmida asar yozayotgan mutaxassislar asarining masalalarga batafsil to‘xtalib o‘tayotganlarini ko‘rish mumkin.

Ularning barchalari Qur'on oyatlari va hadislar asosida hamda sahobalarning uslubi asosida aqida masalalarini bayon etib bergenlar. Aqida borasida faoliyat olib borgan olimlarning orasida imom Abu Mansur Moturidiy va imom Abul Hasan Ash'ariylar alohida ajralib chiqqanlar. Bu olimlar Ahli sunna val jamoa aqidasi bo'yicha imom deb tan olindilar.

«Ahli sunna val jamoa» to'rt fiqhiy mazhabdan biriga amal qilib kelayotgan bo'lsalar, aqidaviy masalada ikkiga – moturidiylik va ash'ariylikka e'tiqod qiladilar. Bunda hanafiy mazhabi moturidiylikka, molikiy, shofeiy va hanbaliy mazhabi ash'ariylik ta'limotida deb hisoblanadi. SHu o'rinda bu ikki maktab vakillari haqida to'xtalib o'tish o'rinni.

Moturidiylik aqidaviy maktab asoschisi buyuk kalom imomi va fakih Abu Mansur Moturidiydir. Uning hayoti haqida ma'lumotlar kam. To'liq nomi Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Hanafiy Moturidiy Samarcandiy (853-944), asli Samarcandning Moturid qishlog'idan (hozirgi Jonboy tumnida joylashgan) bo'lib, uning taxallusi shu qishloqqa nisbatan olingan. Abu Mansur Moturidiy dastlabki ta'limni shu qishloqda olib, keyinchalik Movarounnahrning o'sha davrdagi diniy va ma'rifiy markazi bo'lgan Samarcanda davom ettiradi.

Moturidiy Abu Bakr Ahmad Juzjoni, Abu Nasr Ahmad Iyodiy, Imom A'zam mazhabidagi buyuk olim Nasr ibn YAhyo Balxiy, Muhammad ibn Fadl kabilarni o'zining ustozи deb bilgan.

Moturidiy fiqh va kalom masalalari bilan qiziqib, zamonasining ko'zga ko'ringan hanafiy mazhabi olimlaridan dars olib o'z bilimini oshiradi. SHu vaqt davomida ko'plab mashhur faqihlar va muhaddislar bilan muloqatda bo'lgan va munozaralar qilib, shu sohaga oid asarlar yozib qoldirgan. Ulardan quyidagi «Kitabut Tavhid», «Kitabul maqomat», «Kitab rad avoilil adila lil Ka'biiy», «Kitabul usul», «ar-Rad ala usulil Qaromita», «Kitab ta'vilot ahli sunna» va boshqalarni keltirish mumkin.

Abu Mansur Moturidiyning ko'p asarlari bizgacha etib kelmagan, etib kelganlari ham asosan xorijiy mamlakatlar kutubxona va qo'lyozma fondlarida saqlanadi.

Moturidiy islam olamida juda nozik hisoblangan «Kitabut tavhid» asari bizning davrimizga etib kelgan. Olimning yana bir asari «Kitab ta'vilot ahli sunna» yoki boshqa bir nomi «Ta'vilot al-Qur'on» deb nomlanadi. Moturidiy bu asarida sunniy aqidaga zid qarashlarni rad qilishga harakat qiladi va Abu Hanifaning qarashlariga suyangan holda ish ko'radi. Moturidiyning bu birgina asari tarix jarayonida ko'p allomalar asarlariga asos solgan, ular ijodiga turtki bo'lgan.

Moturidiy ko'p shogirdlar etishtirdi, ular o'z ustozlarining ta'limotini davom ettirishganligi tufayli hanafiy mazhabida kalom ili bo'yicha moturidiya maktabi vujudga kelgan.

Moturidiy «Imom al-huda» (hidoyat yo‘li imomi) va «Imom al-mutakallimin» (mutakallimlar imomi) kabi nomlar bilan ham mashhur bo‘lgan.

Ash’ariy ta’limotining asoschisi Abul Hasan Ash’ariy (873-941) bo‘lib, uning to‘liq nomi Abul Hasan Ali ibn Ismoil ibn Ishoq ibn Solim ibn Abdulloh ibn Muso Abu Muso Ash’ariydir. Abul Hasan Ash’ariy boshlang‘ich saboqlarni o‘z otasidan olgan, keyinchalik o‘z zamonasining taniqli olimlaridan Abu Ishoq Marvaziy va Ibn Surayjdan fiqh ilmini, Zakariyo ibn YAhyo Sojiydan hadis ilmini o‘rganadi.

Abul Hasan Ash’ariy taxminan 40 yoshlaridan keyin Bog‘dodga ko‘chib keladi va umrining oxirigacha ushbu shaharda qoladi.

Olim yuzga yaqin asarlar yozgan bo‘lib, ulardan ba’zilari quyidagilardir: «al-Fusul fiy ar-radd ‘ala al-mulhidin», «ar-Rad ala al-mujassama», «Iyzohul burhon fiy ar-rad ala ahluz zayg‘ vat tug‘yon», «an-Naqs alal Juboiy», «Maqolotul mulhidin», «Tafsiru Abul Hasan», «Imomatu Abu Bakr Siddiq».

Abul Hasan Ash’ariy ahli sunnat va jamoaning ash’ariya e’tiqodiy ta’limotini yaratayotgan vaqtida Samarcandda Abu Mansur Moturidiy ham moturidiya ta’limotiga asos solayotgan edi. Bu ikki imom bir vaqtida yashagan bo‘lsalar ham bir-birlari bilan uchrashmagan, shunday bo‘lsada, ularning aqidaviy qarashlari deyarli bir xil. Ayrim juz’iy masalalarda lafziy ixtiloflar bo‘lsada, ularning asl maqsadi bir hisoblanadi. Boshqacha aytganda ikki ta’limot orasidagi ba’zi ixtiloflar lafziy bo‘lib, mohiyatan bir-birini qo‘llab-quvvatlab keladi. SHu nuqtai nazardan olib qaraganda ular o‘zaro bir-birini adashganlikda yoki bid’atchilikda ayblamaydi. Ular o‘zaro bir-birlarini «ahli sunna val jamoa» deb e’tirof etadilar.

Ash’ariy va moturidiylik orasidagi asosiy farq imon masalasidadir. Moturidiy ta’limotiga ko‘ra imon til bilan iqror qilib, dil bilan tasdiqlashga aytildi. Amal imonning tarkibiga kiritilmaydi. Ash’ariylikda esa, imonga amalni ham qo‘shadilar. SHu sababdan moturidiylik tarqalgan hududlarda imon keltirgan kishi musulmon hisoblanadi, ammo amal qilmagani uchun gunohkor bo‘ladi, deb yuritiladi.

O‘rnii kelganda aytib o‘tish lozimki, manbalarda «moturidiyya mazhabi», «ash’ariyya mazhabi» degan atamalar uchrab qoladi. Bundan imom Moturidiy imom Abu Hanifaning ilmi kalomga doir ta’limotini rivojlantirgan. Imom Ash’ariy esa imom SHofiiyning e’tiqodiy qarashlarini takomillashtirgan deyish mumkin.

Mazkur ikki olimning ta’limotlari islom olamida keng tarqaldi va asrlar davomida musulmonlarni sof e’tiqodda bardavom bo‘lishiga, oyat va hadislarning ma’nolarini to‘g‘ri anglab, hayotga tatbiq etib kelishlariga, turli e’tiqodi noto‘g‘ri oqimlar ta’siriga tushib qolmaslikka sababchi bo‘ldi.

Abu Mansur Moturidiy va Abul Hasan Ash'ariylarning sof aqidani musulmonlarga etkazishdagi xizmatlari beqiyosdir, ularning aqidaviy ta'limotiga hozirgacha musulmonlar tomonidan alohida e'tibor bilan amal qilib kelinmoqda.

3. Islomda imon masalasi. Aqida mavzusi to'rt qismga bo'linadi: ilohiyot, nubuvvat, kavniyat va sam'iyot.

Ilohiyot iloh va Unga oid masalalar haqida bahs yuritadi. Nubuvvatda vahiy, payg'ambarlik va ularga tegishli masalalar haqida bahs yuritiladi. Kavniyotda esa, borliqdagi mavjudotlar – inson, farishta, jin va sababiyat qonunlari haqida bahs yuritiladi. Sam'iyot eshitish bilangina sobit bo'ladigan aqidalar haqida bahs yuritadi. Bular asosan g'ayb olamiga tegishli masalalar bo'lgani uchun bu turni «g'aybiyot» ham deyiladi.

Islom besh asosga qurilgan. Ular: imon, namoz, zakot, ro'za va haj. Bular islomning sharti – rukni hisoblanadi.

Imon so'zi ishonmoq, tasdiqlamoq ma'nolarini bildirib, istilohda, kalimai shahodatni aytish, ya'ni «La ilaha illalohu Muhammadun Rasululloh» («Allohdan boshqa iloh yo'q, Muhammad uning rasuli»)ni til bilan aytish va dil bilan tasdiqlashdir. Buni chin dildan aytgan kishi musulmon hisoblanadi.

Hadislarda imonning etti sharti bor ekani qayd etilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Allohning borligi va birligi, Qur'on va hadislarda bayon qilingan barcha ism va sifatlariga ishonish, uning barcha buyruqlarini qabul qilish va barcha qaytariqlaridan tiyilish.

Tarixda ulamolar Allohning borligi haqida alohida to'xtalib, dalil keltirmaganlar. Zero u davrlarda Xudoning borligiga barcha ishongan (xudo yo'q degan tasavvur bo'limgan). Ammo zamonamizga kelib Xudoning borligiga ishonmaydiganlar chiqqandan keyin olimlar bu mavzuni ham aqida kitolariga kiritganlar va u aqidaning bosh mavzusiga aylangan. CHunonchi Allohning borligiga imon keltirmagan odamga aqida mavzusini tushuntirishning hojati yo'q.

Qur'onda «**YOki ular hech narsadan (ya'ni, YAratuvchisiz) yaralib qolganmilar?!** **YOki ular o'zları yaratuvchimilar?! YOki osmonlar va Erni ham ular yaratganmi?! Yo'q!** **Ular (baribir) imon keltirmaslar»** (Tur, 35-36), deyilgan va Xudoning borligiga ishonmaydiganlarga dunyo o'zidan-o'zi yaralib qolishi mumkin emasligi aytilgan.

Aqida ilmida Allohning yagonaligi masalasi ham alohida ahamiyatga molik sifatida o'r ganiladi. Bu «tavhid» deyiladi. Tavhid lug'atda biror narsaga birlik va yagonalikni nisbat berishdir. Istilohiy ma'noda Allohga shirk keltirishning turli ko'rinishlaridan voz kechish, Allohning zotida, sifatida, ishlarida, ismlarida, hukmlarida ham sherigi yo'q deb, e'tiqod qilishga aytildi.

Allohning sherigi yo'qligi borasida Qur'on oyatlari va hadislarda ko'plab misollar mavjud. Jumladan, «**Agar ikkisi (Er va osmon)da Allohdan o'zga ilohlar bo'lganida, har**

ikkisi buzilib ketgan bo‘lur edi. Bas, Arsh egasi bo‘lmish Allah ular sifatlayotgan (sheriklardan) pokdir» (Anbiyo, 22), «**Allah farzand tutgan emas va U bilan birga biror iloh ham bo‘lgan emasdир. Aks holda, har bir iloh o‘zi yaratgan narsa bilan (kibrga) ketib, bir-biridan ustun bo‘lib olur edi (natijada Eru osmon buzilib ketgan bo‘lur edi). Allah ular vasf etayotgan narsadan pokdir»** (Mu’munun, 91) oyatlarini keltirish mumkin. Bu oyatlarda Allahning sherigi bo‘lganida koinotdagi nizom buzilib ketishi ko‘rsatilmoqda. Allah o‘zi yaratgan narsalarni o‘zi tadbirini qiladi.

Islom dinida Allahga ishongan kishi uning ismi va sifatlariga ham imon keltirish lozim. Qur’nda «**Allahning chiroyli ismlari bordir. Uni o‘sha (ism)lar bilan atangiz!**» (A’rof, 180), «**Uning go‘zal ismlari bordir**» (Hashr, 24) deyilgan. Bu ism va sifatlar orqali Allah haqida bilimlarga ega bo‘linadi. Barcha ulamolarning fikriga ko‘ra Allah ismlarini o‘rganishdan maqsad Unga loyiq bo‘lmagan sifatlarni bermaslik. SHuningdek, «**Allahning to‘qson to‘qqizta ismi bor**» ekani haqidagi hadisni muhaddislar rivoyat qilganlar.

Olimlardan imom Abu Hanifa o‘zining «al-Fiqh al-akbar» asarida Allah haqida shunday degan: «U o‘zi yaratgan narsalardan birortasiga o‘xshamas. Unga ham biror narsa o‘xshash emas. O‘zining zotiy va fe’liy sifatlari bilan azaldan bor bo‘lgan va abadiy bor bo‘lur. Zotiy sifatlari – hayot, qudrat, ilm, kalom, eshitish, ko‘rish, iroda. Fe’liy sifatlari – xalq etish, yasash va boshqa shu mazmunga dalolat qiluvchi sifatlar. U o‘zining barcha ism va sifatlari bilan birgalikda doim bo‘lgan va abadiy bo‘lajak. Unga biror ism yoki sifat keyin qo‘shilib qolgan emas».

Boshqa o‘rinda: «Qur’onda O‘zi zikr etganidek, Allahning qo‘li, yuzi, nafsi (O‘zi) bor deb bilamiz. Bular Uning sifatlaridan, lekin qanday, qanaqa deyilmas. Hatto, qo‘li-qudrati yoki ne’mati ham deb ta’vil etilmas. Aks holda uning bir sifatini yo‘qqa chiqarilgan bo‘lur. Bu esa qadariylar va mo‘taziliylar so‘zidir. Biz aytamizki, qo‘li o‘ziga xos, kayfiyatsiz sifatdir. SHuningdek, Uning g‘azabi va rizosi ham o‘ziga xos kayfiyatsiz sifatlaridandir», deyilgan.

Islom ta’limotiga ko‘ra, Allahning imsi va sifatlarini boshqa biror maxluqotga o‘xshatish mumkin emas. Uning holati, kayfiyati, surati haqida bahs qilinmaydi, ya’ni Allah ko‘radi, eshitadi, biroq biz insonlar va boshqa maxluqotlar kabi emas, balki u haqda bahs qilish bid’at hisoblanadi.

Allahning buyrug‘ini bajarish va qaytariqlaridan qaytish ham imonning bir bo‘lagi. CHunonchi islom ta’limotida Allahning buyruqlarini bajarish insonga oxiratda jannatga tushishiga olib keladi. Aksincha, uning qaytargan narsalaridan qaytmasa do‘zaxda azoblaydi deb bilinadi.

2. Musulmon odam farishtalarga ham ishonishi lozim. Farishtani arab tilida malak, ko‘pligi maloika deyiladi. Ularga ishonmagan musulmon hisoblanmaydi. Qur’onda, «**(Ularning)**

har biri Allohga, farishtalariga, kitoblariga va payg‘ambarlariga birortasini ajratmasdan (hammasiga) imon keltirdi» (Baqara, 285) deyilganidan farishtalarga ishonish imonning asoslaridan hisoblanadi.

Farishtalar nurdan yaratilgan, nurning tezligi o‘ta kuchli bo‘lganidan ham farishtalar ko‘zga ko‘rinmaydi. Farishtalarning sonini Allohdan boshqa hech kim bilmaydi, ular Allohning buyrug‘idan chiqmay doimo uning aytganini bajaradigan xos bandalar hisoblanadi. Ular Allohning barcha maxluqotlaridagi elchilar deyish mumkin. Xudoning xuzuridan ishni olamga olib tushib, o‘shaning tadbirini qiladilar. Ularning jinsi yo‘q. Xohlagan qiyofaga kira oladilar. Oyatda «**Biz unga ruhimiz (ya’ni Jabroil)ni yubordik. Bas, u (Maryamga) chin odam bo‘lib ko‘rindi»** (Maryam, 17).

Qur‘on va sunnatda farishtalar muayyan vazifalari borligi haqida ham ma’lumot berilgan. Masalan, tog‘larga, yomg‘irga, bulutga, quyoshga, oyga, ekinga va hatto ona qornidagi bachadonga vakil qilingan farishtalar sinfi bor. SHu bilan birga insonga vakil qilingan farishtalar odamning ishlarini yozib boradilar. Oxirat ishlariga ham vakil qilingan farishtalar mavjud: o‘limga, qabrdagi savol-javobga, jannatga, do‘zaxga va hokazo. Masalan, «**Birortalaringizga o‘lim kelgan paytda, uni elchi (farishta)larimiz erinmay (o‘z vaqtida) vafot ettirurlar**» (An’om, 61), «**Biz faqat farishtalarni do‘zax egalari (qo‘riqchilar) qildik va Biz faqat kufrga ketgan kimsalarni sinash uchun ularning sanog‘ini (o‘n to‘qqizta) qildik... Parvardigoringizning qo‘sishinlarini (farishtalarning adadi va sifatlarini) Uning o‘zigina bilur**» (Muddassir, 31), «**Farishtalar esa (osmon) atrofida (Allohning amriga muntazir bo‘lib) tururlar. Ularning ustida Rabbingiz Arshini u kunda sakkiz (farishta) ko‘tarib turur**» (Hoqqa, 17).

Farishtalarning aniq ko‘rinishlari haqida ma’lumotlar manbalarda berilmagan. Faqat ba’zi jihatlari aytilgan, jumladan, «...**farishtalarni ikki, uch, to‘rt qanotli elchilar qiluvchi...**» (Fotir, 1)

Farishtalardan 4 tasi: Jabroil, Mikoil, Isrofil va Azroil bosh hisoblanadi.

3. Ilohiy kitoblarga imon keltirish. Alloh tarafidan payg‘ambarlariga kitoblar tushurilganiga imon keltirish. Buni «**(Ularning) har biri Allohga, farishtalariga, kitoblariga va payg‘ambarlariga birortasini ajratmasdan (hammasiga) imon keltirdi**» (Baqara, 285) oyatidan bilish mumkin.

SHu bilan birga bu kitoblarga umumy imon keltiriladi. Ammo ularning adadi va ismlari haqida aniq ma’lumot yo‘q. Muhammad payg‘ambarga (a.s.) Qur‘on nozil qilinganidek, boshqa payg‘ambarlarga ham kitob tushurilgan. Ulardan manbalarda zikr qilib o‘tilganlari quyidagilardir: Ibrohim payg‘ambarga «Sahifalar», bu haqda Qur‘onda «**Ibrohim va Muso sahifalarida (ham) bordir**» (A’lo, 19) deyilgan. Bir hadisda «Abu Zar: Ey, Allohning Rasuli,

Ibrohimning sahifalarida nima bo‘lgan?» - deb savol berganda, Payg‘ambar (a.s.): «Barchasi zarbulmasal bo‘lgan...» dedilar. Bu hadisdan uning mavzusi qanday bo‘lganini bilish mumkin. Olimlar uni ma’lum varaqqlardan iborat ekani va kitob holiga etmaganini aytganlar.

Keyingisi «Tavrot» bo‘lib, u Muso payg‘ambarga, «Zabur» Dovud payg‘ambarga berilgan. Iso payg‘ambarga esa «Injil» nozil qilingan. Islom ta’limotiga ko‘ra Muhammad payg‘ambarga (a.s.) «Qur’on» nozil qilingan. SHuningdek, biror payg‘ambarga biror kitob nozil qilinsa, u o‘zidan avvalgi shariatni o‘zgartirgan yoki butunlay yangi qarashlarni olib kelgan deb hisoblangan.

4. Payg‘ambarlarga imon keltirish. Islom dini ta’limotiga ko‘ra Alloh insonlarga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatish uchun payg‘ambarlarni yuborgan va bu payg‘ambarlarga imon keltirish vojib hisoblanadi. «...**Payg‘ambarlariga birortasini ajratmasdan (hammasiga) imon keltirdi**» (Baqara, 285). SHuning uchun ularning barchasiga birdek ishonish shart. Ulardan birini inkor qilish barchasini inkor qilish bilan barobar.

Alloh Odam (a.s.)dan boshlab. Muhammad payg‘ambar (a.s.)gacha bo‘lgan oraliqda payg‘ambarlar yuborgan. Ularning soni, hadis asosida 124 000 nafar deyiladi. Barchasining ismi Qur’onda kelmagan, balki 25 nafar payg‘ambarning nomi zikr qilingan.

Payg‘ambarlar ikki qismga bo‘linadi: nabiy va rasul.

Nabiy va rasul orasidagi farq: 1. Alloh kimga vahiy yuborib, o‘sha xabarni boshqalarga etkazishni buyursa, o‘sha odam nabiy va rasuldir. Ammo xabarni boshqalarga etkazishni tayinlamasa, nabiy hisoblanadi, rasul emas; 2. Rasul yangi shariatni olib keladi. Nabiy esa, yangi shariat bilan kelmaydi. Balki, o‘zi oldingi shariatga amal qiladi va boshqalarni shunga amal qilishga da’vat qiladi; 3. Rasul umumiyligi bo‘lib, farishtalarga ham, insonga ham ishlatilgan. Qur’onda: «**Albatta, u (Qur’on) bir ulug‘ rasul (Jabroil Alloh huzuridan keltirgan vahiy) so‘zidir**» (Takvir, 19). Bu oyatda farishta Jabroil nazarda tutilgan. Umuman olganda payg‘ambarlar ham oddiy ison bo‘lib, ular boshqa insonlarni Allohnинг ko‘rsatmasiga amal qilishga chaqirish uchun kelganlar. Ular orasida rasullar 313 nafarni tashkil etadi.

Alloh Payg‘ambarlarni oddiy odamlardan tanlagan. Payg‘ambarlar o‘zlarida Allohnинг buyruq va qaytariqlarini aks ettirib, boshqa odamlarga namuna bo‘lganlar. Ular ovqat eb, suv ichganlar. Tirikchilik qilib bozorlarda odamlarga aralashib yurganlar.

Payg‘ambarlarning oddiy kishilardan ajrab turadigan birgina sifatlari ma’siyat qilish, shahvatlarga berilish, muruvvatga zarar etkazadigan va insonlik qadrini ketkazadigan narsalardan saqlanganliklaridir. Ular mo‘jiza ko‘rsatib, payg‘ambarliklarini tasdiqlaganlar. Payg‘ambarlarning mo‘jizalari turlicha bo‘lgan. Iso payg‘ambar kasal odamni davolagan, Muso payg‘ambar dengizni ikkiga bo‘lgan, Muhammad payg‘ambar (a.s.) suv solingan meshga

qo‘llairini tiqqanlaridan keyin o‘scha idishdagi suvdan juda ko‘pchilik ichgani va boshqa mo‘jizalarini misol qilib keltirish mumkin.

Payg‘ambarlarning ko‘rsatgani mo‘jiza bo‘lsa, avliyolarning ko‘rsatgani karomat bo‘ladi.

5. Oxirat kuniga ishonish ham imonning bir bo‘lagi hisoblanadi. Islom ta’limoti bo‘yicha bu dunyo sinov-imtihon maydoni hisoblanadi. Alloh bu dunyoni bir kun tugatadi va insonlar qilgan ishlariga javob beradilar. Alloh qiyomatda barcha yaratgan narsalarini jonini oladi va qayta tiriltiradi. Insonlar qilgan ishlariga javob beradilar.

YAxshi ishlarni qilgan bo‘lsa mukofotini, yomon ishlar qilgan bo‘lsa jazosini oladilar va ularning qilgan barcha ishlari insonga ko‘rsatiladi. Ularning qilgan ishlari tarozuda tortiladi.

6. Insonning boshiga tushadigan yaxshilik yoki yomonlik Alloh tarafidan bo‘lishiga – taqdirla imon keltirish. Batafsil qilib aytganda, taqdir – insonga keladigan barcha yaxshilik va yomonlik, borliqdagi har bir hodisa va voqealar yoki oxiratda bo‘ladigan hamma ish Allohnинг taqdiri, ilmi, irodasi va belgilab qo‘ygani bo‘yicha sodir bo‘lishiga imon keltirish hisoblanadi. Xursandchilik va xafalik, hayot va o‘lim, boylik va kambag‘allik, kasallik va sog‘lomlik va boshqa barchasi Allohdan deb bilishdir. Taqdir masalasini Allohdan boshqa hech kim bilmaydi, hatto payg‘ambarlar ham va farishtalar ham bu sirdan voqif emas.

Qadar masalasida chuqur ketib bahs qilish xato deb bilinadi. Taqdirda baxtli deb yozib qo‘yilgan odam baxtlidir. SHuningdek, taqdirda baxtsiz yoki badbaxt deb yozib qo‘yilgan inson baxtsizdir. Bir oyatda: «**U o‘zi qiladigan biror narsa haqida javobgar emas, balki ular (Allohnинг oldida bandalar) javobgardirlar**» (Anbiyo, 23), deyiladi.

SHuningdek, Alloh qiyomatgacha nima bo‘lishini ham biladi. Agar ularni bilmasa, Uning komil sifati nuqsonli bo‘lib qoladi. Mazkur ilohiy ilm «qazoi-qadar» deb ataladi.

Qazo – Allohnинг hamma narsalarning kelajakda qandoq bo‘lishini azaldan bilishi. Qadar esa, o‘scha narsalarning Allohnинг azaliy ilmiga muvofiq ravishda vujudga kelishiga aytildi.

Bunda johil kishilar o‘ylaganidek, Alloh tomonidan bandani majbur qilish yo‘q. Balki, Alloh taolo tomonidan banda nima qilishini oldindan bilish bor. CHunki Allohnинг ilmi chegara bilmasdir.

Ko‘pchilik odamlar qazo va qadarni Alloh tomonidan O‘zi takdir qilib qo‘yan ishlarga bandani qahr bilan majbur qilish, deb hisoblaydilar. Ularning bu fikrlari noto‘g‘ridir. Qazo va qadarning ma’nosi, bandalarning kelajakda bo‘ladigan ishlarini Alloh tomonidan muqaddam bilib turilishidir. Qazo va qararni noto‘g‘ri tushunish oqibatida qadariy, jabariy va boshqa oqimlar kelib chiqqan.

7. O‘lgandan keyin qayta tirilishga ishonish ham imon shartlaridan biridir. Qiyomat kuni bo‘lganda, barcha insonlar qayta tirilib, mahshargohga yig‘iladilar. U kunda yaxshi

ishlarning mukofoti (jannat), yomon ishlarning jazosi (do‘zax) beriladi. Barcha ishlar Xudoning huzurida ko‘riladi. Banda amallari hisob-kitob qilinadi. Har bir kishining qilgan ishlari kitobi – nomai a’moli o‘qiladi. YAxshi amallar va yomon ishlar hammasi o‘lchanadi.

Bu borada Qur’on oyatlari va hadislarda misollar ko‘p. Masalan, «**Ular: «Holimizga voy! Kim bizlarni uxlayotgan joyimizdan uyg‘otdi?» – deganlarida, (ularga aytilar): «Mana shu Rahmon va’da qilgan va payg‘ambarlar so‘zlagan rost narsa (qiyomat)dir»** (Yasin, 52).

Qiyomat tik turish ma’nosini bildiradi. O‘sha kunda hamma qabridan tik turib tirilishiga shu nom berilgan. Qiyomat – hisob kuni, oxirat kuni, mahshar kuni kabi bir qancha nomlar bilan ham yuritiladi. Qiyomat masalasi qachon bo‘lishi masalasi qadimdan dolzarb masala bo‘lib kelgan. Islom ta’limoti bo‘yicha uning qachon bo‘lishini Allohdan boshqa hech kim bilmaydi. Hatto payg‘ambar va farishtalar ham. Faqat uning alomlatlari bildirilgan.

Islom ta’limotiga ko‘ra qiyomatda insonlar savol-javobdan o‘tadigan joy – mahsharga yig‘iladilar. Mahsharda savol-javobdan keyin insonlarga do‘zax ustidagi sitor nomli ko‘priordan o‘tishlari aytildi.

Qiyomatdan o‘tgan inson jannat (bog‘, bo‘ston) yoki do‘zaxdagi joyiga boradi. Alloh jannatni ham, do‘zaxni ham yaratib qo‘ygan. Ular inson etib boradigan so‘ngi manzil hisoblanadi.

Diniy aqida bo‘yicha, jannat imon keltirgan, taqvodor, yaxshi insonlar uchun tayyorlab qo‘yilgan. Ular u erda rohat va farog‘atda yashaydilar. Qiyinchilik, kasal, qarilik va o‘lim yo‘q. Istagan narslari muhayyo bo‘ladi. Bularning barchasi bu dunyoda qilib o‘tgan amallari tufayli beriladi. U erdag‘i narsalar tugamaydi, insonlarga man qilib qo‘yilmaydi. Jannatdagi eng oliv ne’mat, bu Allohnинг diydorini ko‘rishlik hisoblanadi.

Do‘zax esa, jannatning aksi kofir, munofiq va gunohkor – diniy talablarni bajarmaganlar uchun tayyorlab qo‘yilgan va ularga turli azob-uqubat beriladigan jazolash joyi. U erda azob uchun olov, qaynab turgan buloq bo‘ladi. Eydigan va ichadigan narsalari ham ularni azoblash uchun bo‘ladi. Do‘zax ham abadiy qoluvchi hisoblanadi. Ulardagi azoblar engillatilmas va vaqtinchalik bo‘lmaydi. U bir necha tabaqa chuqurlikdan iborat, gunohlari darajasiga qarab jazolanadilar.

Jannatdagi rohatlar va do‘zaxdagi uqubatlar ham jasad va ham ruh uchun bo‘ladi. Qiyomat, jannat va do‘zaxning vasfi haqida Qur’onning ko‘p oyatlarida ma’lumotlar berilgan.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Kalom, aqida, tawhid ilmlari nimani o‘rganadi?
2. Moturidiylik va ash’ariylik yo‘nalishlari qanday paydo bo‘lgan?

3. Imon nima ma’noni bildiradi?
4. Islom ta’limotida necha narsaga imon keltirish shart hisoblanadi?

Mustaqil ish mavzulari

1. Imom Moturidiy va uning qarashlari.
2. Kalom ilmi adabiyoti.
3. Qur’onda oxirat haqidagi oyatlar tahlili.
4. Hadislarda ilm olishga bo‘lgan targ‘ibot.

Adabiyotlar

1. Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. To‘ldirilgan nashr. Mas’ul muharrir SHayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: SHarq, 2014. – 536 b.
2. Oqilov S. Kalom ilmi. – Toshkent: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011. – 160 b.
3. Muhammad Anvar Badaxshoniy. Aqidatut-tahoviya sharhining talxiysi. – Toshkent: 2015. – 448 b.
4. Ochildev O., Rahimjonov D., Muhamedov N. Va boshq. Dinshunoslik asoslari (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. – 320 b.
5. Mo‘minov A., Yo‘ldoshxo‘jaev H., Rahimjonov D., va boshq. Dinshunoslik. – Toshkent: Mehnat, 2004. – 296 b.

5-mavzu: Islomdagи mazhablar va yo‘nalishlar

Reja

1. Islomda yo‘nalishlarning vujudga kelishi.
2. Fiqhiy mazhablarning paydo bo‘lishi.
3. Imom Abu Hanifa va hanafiylik mazhabi.
4. Mazhabsizlik va uning oqibatlari.

Tayanch tushunchalar:

Mazhab, oqim, firqa, hanafiylik, shofeiylik, molikiylik, hanbaliylik, fiqh, fatvo, mujtahid, sunniylik.

1. Islomda yo‘nalishlarning vujudga kelishi. 632 yilda Payg‘ambar vafotidan so‘ng hokimiyat xalifalikka saylanganlar tomonidan boshqariladigan bo‘ldi. Birinchi xalifa Abu Bakr bo‘ldi. Ikkinci bo‘lib Umar ibn Xattob saylandi, so‘ng Usmon ibn Affon va Ali ibn Abi Tolib bo‘ldilar. Avvalgi ikki xalifa davrida xalifalikda ichki nizo va bo‘linishlar bo‘lmadi. Usmon xalifaligi davrining so‘nggi yillarida ichki nizolar paydo bo‘lib, xalifaga qarshiliklar kuchaydi. Oxir-oqibat bir to‘da odamlar Usmonni uyiga bostirib kiradilar va xalifani o‘ldiradilar. Xalifaning o‘ldirilishi xalifalikda urushini keltirib chiqardi va Ali ibn Abi Tolib xalifaligi davrida bunday nizolar kuchayadi. SHom voliysi Muoviya xalifaga qarshi chiqib tezroq xalifa Usmon qotillarini topib jazolash talabini qo‘yadi. Xalifa bu paytda avval ichki nizolarni tugatish bilan ishni boshlagan bo‘ladi. Bu ixtilof qurolli to‘qnashuvga olib keladi.

Bu to‘qnashuv 657 yili Iroqning Siffin degan joyida bo‘lib o‘tgani uchun jang nomi Siffin deb atalgan. SHunda davlat tuzumi masalasida Payg‘ambardan keyin xalifalik kimga o‘tishi kerak degan masalada uch toifaga bo‘linish yuz berdi.

Birinchi – xalifa Ali tarafdorlari bo‘lgan, xalifalik faqat payg‘ambar xonodonida meros sifatida o‘tishi kerak deb hisoblovchi guruh. Natijada ulardan shialik oqimi kelib chiqdi.

Ikkinci – xalifa Alining sobiq tarafdorlaridan tashkil topgan, uni Siffin jangidan keyin tashlab ketgan xorijiylar (ajrab chiqqanlar) guruhi hisoblanadi.

Uchinchi – «ahli sunna val jamoa» guruhi.

SHahristoni esa Payg‘ambar tiriklik vaqtidayoq sahabalar orasida tafovut boshlanganini aytadi.

Xorijiylar va shialar firqalaridan islomda bid’at, firqachilik va adashishlik boshlandi. Bunday firqalar asosiy ikki masalada paydo bo‘ldi: imomat (davlatga rahbarlik) va aqidada.

SHuning uchun islomda firqalarga bo‘linib ketish asosan diniy-siyosiy nuqtai nazardan kelib chiqqan deb hisoblanadi. Birinchi xorijiylarning paydo bo‘lishi ham xalifa Ali siyosatiga qo‘shilmaslikdan, keyingi shialik esa xalifalik Ali va uning avlodlariga meros bo‘lib qolishi kerak deb hisoblovchilardan bo‘ldi. SHu o‘rinda yana bir narsani alohida ta’kidlab o‘tish zarurki, islomda firqalarga bo‘linish Muhammad payg‘ambar (a.s.) hadislaridan javob topiladi. Bir necha hadislarni keltirib, shu asosida islom ummatining bo‘linishini aytib o‘tishgan.

Muhammad payg‘ambar (a.s.) aytadilar: «YAhudiylar 71 firqaga bo‘lindi, nasroniylar 72 firqaga bo‘lindi, ummatim esa 73 firqaga bo‘linadi. Ulardan bittasi najot topadi, qolgani do‘zax ahlidir», deganlarida. Sahobalar: «Najot topadigan firqa qaysi», deb so‘raganda. Payg‘ambar: «Men bilan sahabalarim tutgan yo‘ldagisi», deb javob beradilar» (imom Termiziy rivoyati). Hadisda aytilgan najot topuchi firqa «ahli sunna val jamoa» hisoblanadi.

«Ahli sunna val jamoa» sunniylik deb ham nomlanadi. Buning o‘ziga xos, boshqalardan ajralib turadigan jihatlari barcha sahabalarni yaxshi ko‘rish, kishini katta gunoh qilgan bo‘lsa

ham musulmon deb hisoblash, u agar vafot etsa janoza o‘qish, odil va zolim podshohga qarshi chiqmaslik, Allohni sifatlarini inkor qilmaslik va hokazo.

Biroq ilk davrlarda musulmon olimlari tomonidan yakdil fikrga ega bo‘lgan musulmonlarning aqidasi ishlab chiqilmagani bois, «to‘g‘ri e’tiqod qilish» va «bid’at» to‘g‘risidagi tasavvur shia va xorijiylarning paydo bo‘lganidan keyin tizimga solindi.

Xorijiylar xalifa Alining qo‘shinidan ajrab chiqqan va «ahli sunna val jamoa» e’tiqodiga to‘g‘ri kelmaydigan g‘oyalarni ilgari surgan guruh. Bunda ular xalifa Alini kelishuvchilikda ayblab, undan ajralib ketganlar va xalifaga ham, Moviyaga ham qarshi urush ochganlar.

Ular o‘zlarini haqiqiy musulmon deb hisoblagan va siyosiy hamda g‘oyaviy raqiblarga nisbatan murosasiz bo‘lgan. Xorijiylarning ta’limotiga ko‘ra, xalifa jamoa tomonidan saylanadi va jamoaga bo‘ysunadi; har qanday taqvodor musulmon (hatto qul yoki qora tanli bo‘lsa ham) xalifa bo‘lib saylanishi mumkin; agar xalifa jamoa manfaatlarini himoya qilmasa, vazifasidan bo‘shatiladi va hatto qatl etiladi.

Xorijiylar gunohi kabira qilganlarni kofirlikda ayblaganlar va ularni o‘ldirishgacha borib etganlar. Ba’zi sahobalarni ham kofir deyishgan. Bundan tashqari, «Zolim» podshohga qo‘lida quro bilan qarshi chiqishni diniy vazifa deydilar.

Xorijiylit bilan bir vaqtida paydo bo‘lgan yana bir oqim shialikdir. SHialik «shiatu Ali» (Ali guruhi) nomidan bo‘lib, aliparast oqim hisoblanadi. Bu yo‘nalish boshda har qanday ixtilof va aqidaviy farqlardan xoli holda, faqat siyosiy harakat sifatida namoyon bo‘lgan. Keyinroq diniy ixtiloflar, aqidaviy farqlar vujudga kelgan. Ularning fikricha hokimiyat xalifa Ali va uning avlodiga tegishli. CHunki imomat asosiy diniy ruknlardan hisoblanadi. Ularning ta’limotiga ko‘ra, rahbar xalq tomonidan saylanmaydi, balki meros sifatida o‘tadi.

Ularning fikri bo‘yicha Payg‘ambar (a.s.) Alini xalifa qilib tayinlaganlar. Xalifalardan Abu Bakr, Umar va Usmonlar bu huquqni Alidan zo‘rlik bilan tortib olganlar. SHuningdek, Alining xalifaligi ilohiy ko‘rsatma deb hisoblaydilar.

SHialar ham Qur’oni ilohiy kalom deb e’tirof etadi (ayrim o‘ta mutaassib ruhdagi oqimlari xalifalar davrida uning ayrim qismlari tushirib qoldirilgan deb hisoblaydi). Ulamolari esa, Qur’onning mazmunini majoziy talqin qilish yo‘li bilan o‘z ta’limotlarini asoslaydilar. SHuningdek, hadislardan faqat xalifa Ali va uning avlodi tomonidan qilingan rivoyatlari tan oldilar va shunday rivoyat-hadislardan iborat mustaqil to‘plamlar tuzgan.

Sunniylikda e’tirof etilgan diniy aqidalardan farq qilib, shialikda tawhid, adl, nubuvvat, imomat, qiyomatdan iborat 5 ta aqidaga e’tiqod qilinadi. Bulardan 4 aqida – tawhid (Allohning yagonaligani e’tirof etish), adl (adolat, Allohning odilligi, ya’ni takdir aqidasi), nubuvvat (payg‘ambarlik), qiyomat yoki ma’od (oxirat kunining kelishi va o‘lganlarning tirilishi), asosan,

sunnyiylik ta'limoti bilan mos tushadi. 5-aqida esa imomat (Ali va uning avlodlaridan iborat o'n ikki imom hokimiyatini) esa, sunnyiylikka zid ekani bilan farq qiladi.

SHilalik ichida ixtiloflar yuz berishi natijasida ko'p firqalar vujudga kelgan. Bulardan zaydiylar, ja'fariylar va boshqalar. Imomiylar va ismoiliylar shialikdagi ikki yirik oqim hisoblanadi.

Mu'taziliylar oqimi aqida masalasi bo'yicha ahli sunna val jamoa yo'nalishidan ajralib chiqqan. Ular Qur'oni diniy haqiqatning manbai deb e'tirof etadilar, uni so'zma-so'z emas, majoziy talqin qilishga harakat qiladilar, rivoyatlarga ko'r-ko'rona ishonishga qarshi chiqadilar. SHuningdek, gunohi kabira, qabr azobi, avliyolar karomati kabi masalalar bo'yicha o'ziga xos qarashga ega. Jumladan, gunohi kabira qilgan kishi mo'min ham kofir ham bo'lmaydi, balki ikkisi orasida bo'ladi, deganlar. Mu'taziliylarning yana bir aqidasi bu Qur'onning yaratilgani haqidadir. Sunniylar Qur'on Allohnинг kalomi desalar, mu'taziliylar Qur'on Allohnинг yaratgan narsasi, deb hisoblaganlar.

Xalifa Ma'mun (813-833) mu'taziliylar ta'limotini davlat dini sifatida qabul qildi. U barchani, ayniqsa, qozilar, olimlar, amaldorlarni e'tiqodini sinab ko'rdi. Natijada kim mu'taziliylar aqidasini (xususan, Qur'onning yaratilganini) tan olmasa ishdan bo'shatdi, hatto o'lim jazo chorasini qo'lladi. Xalifa Mutavakkil (847-861) davrida ushbu ta'limot ta'qib ostiga olindi.

Mu'taziliylar aql-idrokni aqidaning asosi deb e'tirof etgan, tasavvufni inkor etishga uringan, o'zlarini tawhid vaadolat (adl) tarafdarlari, deb bilganlar.

Keyinchalik 13-14-asrlarga kelib mu'taziliylar yo'qolib ketgan.

Qadariya ham mu'taziliylarga o'xshab aqidaviy masalada adashgan hisoblanadi. Ularning asosiy da'volari Allohnинг xohshi, qazosi va qadarini inkor qiladilar va «Alloh bandalarining ishidan ojizdir», deydilar. Sunniylar esa, Allah har bir narsani oldindan biladi, degan bo'lsa, qadariylar buni inkor qildilar. Ular odillik xudoning asosiy sifatlaridan biri degan fikr asosida gunohni xudo oldindan belgilagan bo'lishi mumkin emas. Xudodan faqat adolatli ishni kutish mumkin, gunoh ishlar esa inson faoliyatini bilan bog'liq, demak, inson iroda va faollyat erkinligiga ega, shuning uchun u gunoh qiladi, degan xulosaga keldi.

Ularning ta'limotini keyinchalik mu'taziliylar davom ettirdilar.

Jabariylar esa, qadariylar e'tiqodining aksini ishlab chiqdilar va islomda taqdir masalasida adashgan deb tan olingan firqalardan biridir. Ular ahli sunna val jamoada tan olingan takdir masalasini inkor qiladi. Jabariylar inson taqdirini xudo mutlaq oldindan belgilab qo'yan, insonda hech qanday iroda va faoliyat erkinligi yo'q, bular faqat xudoda mavjud, inson esa, ana shu faoliyatni o'zlashtirib olish imkoniyatiga ega, degan aqidalarni ilgari surgan. Allah bandalarga gunoh ishlarni taqdir qilgan va inson gunoh amallarni qilishga majburdir, deb

insondagi juziy ixtiyorni rad etadilar. Alloh insonga toqati etmaydigan narsani yuklashi mumkin, deb Allohgaga majbur qiluvchilik sifatini berdilar. Iroda erkinligi tarafдори bo‘lgan qadariylarga jabariylar qarshi bo‘lgan.

Mushabbihalar (o‘xshatuvchilar) e’tiqodi bo‘yicha Allohniga inson suratiga o‘xshatadilar va uning inson a’zolariga o‘xhash jismlari bor deydilar. Bu bilan «ahli sunna val jamoa» aqidasiga qarshi chiqqan. CHunonchi sunniylar Allohniga hech narsaga o‘xshatmaydi va bunday o‘xshatish xato hisoblanadi.

Umuman olganda islom tarixida vujudga kelgan adashgan firqalar o‘zlarini ham bir necha guruhlarga bo‘linib ketganlar. SHuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, hozirgi kunda paydo bo‘layotgan turli adashgan oqimlar o‘tmishdoshlarining aqidasini olib yangicha ko‘rinishda taqdim qilmoqda. Jumladan, xorijylarning odam o‘ldirishi, hozirda ISHID va boshqa jangari guruhlar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarga o‘xshaydi. Biror inson katta gunoh qilib qo‘ysa, uni kofirga chiqarish ham xorijylarning ishi hisoblangan.

2. Fiqhiy mazhablarning paydo bo‘lishi. Islom dini tarqalgan hudud kengayib, turli millatlar va xalqlar shu dinni qabul qilganlaridan va uni o‘z hayotlari tarziga aylantirdilar. Diniy masalalarda turli qarashlarni paydo bo‘lishi va ularni hal qilish maqsadida musulmon olimlari katta rol o‘ynadi.

Muhammad payg‘ambar (a.s.) vafotlaridan keyin u kishining ishini xalifalar, sahobalar, so‘ng tobeinlar davom ettirdilar. Payg‘ambardan keyin u kishining ishini sunna asosida davom ettirganlar «sunniylar» yoki «ahli sunna val jamoa» nomini oldi. Payg‘ambar davrida biror masala yuzasidan savol paydo bo‘lsa, odamlar darhol shu holatni payg‘ambarga etkazib, o‘zlariga aniq javob olganlar. SHuning uchun bu davrda ixtiloflar bo‘lmagan. Sahobalar ko‘pchilikni tashkil qilgan vaqtida ham ixtilofli masalalarni tez va oson hal qilganlar, ammo sahobalar davri tugab borishi natijasida musulmonlar orasida turli ixtiloflar ko‘paydi.

Hijriy ikkinchi asrga kelib musulmonlar orasida shariatning turli masalalarni mustaqil echib bera oladigan olimlar paydo bo‘la boshladi. Ular turli masalalarni hal qilishda Qur’on oyatlari va hadislarni sharh qilib, shu bilan birga sahobalarning qilgan ishlarini o‘rganib, o‘shalar asosida hukmlar chiqarib berdilar.

Olimlarning atrofida shogirdlari ko‘payib, ularning qarashlarini yozib, ommalashtirdilar. Buning natijasida mazhablar paydo bo‘ldi. SHu bilan birga ba’zi olimlarning qarashlari kengaymagani sababli ularning qarashlari mazhab darajasiga chiqsa olmadi.

«SHariat» so‘zi arab tilida ikki ma’noda qo‘llaniladi: «suvga olib boradigan yo‘l» va «to‘g‘ri yo‘l». Masalan, **«So‘ngra (ey, Muhammad!), Biz sizni (diniy) ishdan iborat shariat uzra (barqaror) qildik...»** (Josiya, 18), oyatida shariat so‘zi, «to‘g‘ri yo‘l» ma’nosida kelgan.

Islom huquqida ulamolar nazdida, Qur'on va sunnatda kelgan ilohiy ko'rsatmalar (hukmlar)ning majmuidir. Boshqacha qilib aytganda islom dinining amaliy qismi. Huquqshunoslar esa, islom qonunchilik majmuini nazarda tutudilar.

«Fiqh» esa, lug'atda «chuqur tushunish», «idrok etish», «bilish» ma'nolarini bildiradi. Istilohiy ma'nosi esa, «fiqh» – shariat hukmlarini o'rganish, shariat qoidalarini barcha qismlari bilan anglash hamda qaysi maqsadda ishlab chiqarilganini tushunish va o'zlashtirilgan ushbu ilmni amalga tadbiq etishdir. Fiqhning manbasi: Qur'on, sunnat, ijmo va qiyos.

Fiqh bilan chuqr shug'ullangan olimlar faqihlar (fiqh olimi, huquqshunos) deb nomlandi. Bular orasida eng ko'zga ko'ringan va fiqhiy mazhabi hozirgacha etib kelgan mujtahid olimlar quyidagilardir: Imom Abu Hanifa No'mon ibn Sobit Kufiy, imom Molik ibn Anas Madiniy, imom Muhammad ibn Idris SHofeiy va imom Ahmad ibn Hanbal SHayboniy.

Mazkur mazhablar oldingi mavzuda aytiganidek, aqida nuqtai nazardan bir xil, faqat fiqhiy jihatdan bir-biridan farq qiladi. SHuningdek, bular bir-birini inkor qilmaydi, balki qo'llab-quvvatlaydi. Mazhablarning maqsadi diniy manbalardagi matnlarni keng xalq ommasiga oson tushuntirish bo'lgan va bu bilan oddiy xalq o'z masalalarini tezda xal qilganlar.

«Mazhab» arabcha so'z bo'lib, «yo'nalish», «yo'l», «diniy ta'limot» ma'nolarini bildiradi. Islom shariati va aqidasining muayyan bir tizimga solingan holatdagi ko'rinishi mazhab deyiladi. Bundan ko'riniib turganidek, mazhablar ikki qism – fiqhiy va aqidaviya bo'linadi. Fiqhiy mazhablar to'rtta: hanafiy, molikiy, shofeiy va hanbaliy. Aqidaviy mazhablar: moturidiy va ash'ariylardir.

Molikiy mazhabiga madinalik olim imom Molik ibn Anas Abu Abdulloh (713-795) asos solgan. U «Madina imomi» unvoniga sazovor bo'lgan. Imom Molik Madina olimlari qarashlari asosida o'z mazhabini yaratgan. SHuning uchun ushbu imom Madina faqihlaridan fiqhni o'rganib, ahli hadis qo'llaydigan uslubni qabul qilgan va ushbu qoida asosida o'z shogirdlarini tarbiyalagan.

Imom Molik Qur'on, sunna va ijmoga tayanib hukm chiqargan. SHu bilan birga madinalik olimlarning ittifoqini ham hukm chiqarishda juda katta e'tiborga olgan. CHunki Muhammad (a.s.) shu shaharda yashagan va bu shahar aholisi payg'ambar va sahobalar ko'rsatmalari va qilgan ishlarini mukammal o'zlashtirganlarini e'tiborga olgan.

Olim «al-Muvatto» nomli hadis ilmiga oid to'pam muallifi hisoblanadi va mazkur asar molikiy mazhabining asosiy manbasi sifatida o'z ifodasini topgan. Muhaddis buning uchun 40 yil umrini sarflagan. Bu asar ilk hadis to'plamlaridan biri bo'lib, bir necha ming hadisni o'z ichiga olgan.

Imom Molik ibn Anasning shogirdlari orasida taniqli muhaddis va hanafiy mazhabi faqiji imom Muhammad SHayboniy (vaf. 805 y.), shofi’iylik mazhabi asoschisi Muhammad ibn Idris SHofeiy (vaf. 820 y.) bo‘lgan.

Hozirgi vaqtida ham bu mazhab qoidalarining Marokash, Tunis, Jazoir va Liviya nikoh-oila va mulkka oid huquqiga sezilarli ta’siri bor.

Muhammad ibn Idris SHofeiy (767-820) ham alohida mazhabga asos solgan.

Bu olim imom Molik va imom Abu Hanifaning katta shogirdi imom Muhammaddin dars olgan. SHu nuqtai nazardan ushbu mazhab huquq tizimi xanafiylar va molikiylarning diniy-hukuqiy ta’limotini asosida ishlab chiqilgan, deb aytish mumkin. SHuday bo‘lsada, ko‘proq molikiylarga yaqin turadi. Boshqacha qilib aytganda, ahli hadis va ahli ra’yni qarashlarini birlashtirgan va o‘ziga xos uslubni yaratdi. Olim ijmo bo‘yicha ummat ijmosiga e’tibor qaratgan bo‘lsa, shu mazhabning keyingi ulamolari olimlar ijmosini ham qabul qilishga majbur bo‘ldilar.

SHofeiylik ham boshqa mazhablar kabi Qur’on, sunna ijmo va qiyosga tayanadi. Imom SHofeiyning «al-Umm» va «ar-Risola» kitoblari ushbu mazhab usuliga asos bo‘ldi.

SHuni alohida ta’kidlash lozimki, uchinchi-to‘rtinchi hijriy asrlarda Markaziy Osiyoda SHofeiy mazhabi Hanafiy mazhabi bilan raqobat qilgan. Uning yirik vakili toshkentlik buyuk olim Muhammad ibn

Ali ibn Ismoil Qaffol SHoshiy (904-976) edi. U kishi fiqh, hadis, lug‘at va adabiyot bo‘yicha o‘z davrlarining mashhur olimlaridan bo‘lgan. Usulul fiqh bo‘yicha ularning asarlari mashhur. Toshkentda vafot etib, qabrlari Hastimom (Hazrati Imom) madrasasi yonida joylashgan.

Hanbaliy mazhabni asoschisi Ahmad ibn Hanbal (780-855) hisoblanadi. Olim yashagan Bag‘dod shahrida ilmu fan rivoj topishi bilan birga turli e’tiqodiy qarashlar markazi ham bo‘lgan.

Hanbaliy mazhabida Qur’on, sunnat, ijmo va sahobalarning gaplari asosiy o‘rin egallaydi. Qatiy zarurat sezmagan holatlardan tashqari qiyosdan foydalanmaydi. Barcha hadislarni va rivoyatni (sahobalar so‘zini) qiyosdan ustun qo‘ygan.

Imom Ahmad xulafoi roshidin, sahobalar, tobeinlar, shuningdek, o‘zidan oldingi uch mazhab fiqhini o‘zlashtirgan. CHunonchi ilk marta fiqhni imom Abu Hanifaning shogirdi imom Abu YUsufdan o‘rgangan. SHuningdek, «men hadis yozib olgan birinchi kishi Abu YUsuf edi», deganidan hadisni ham shu kishidan olgani bilinadi. Keyinchalik imom SHofeiydan ham fiqhni o‘rgangan. O‘zi esa, imom Buxoriyga ustozlik qilgan.

Hadis ilmi bo‘yicha «al-Musnad» asari juda mashhur hisoblanadi. Bu kitobda qiriq ming atrofida hadis jamlangan bo‘lib, asar hanbaliy mazhabining asosiy qarashlarini ifoda etadi.

YUqorida keltirilgan fiqhiy mazhablar diniy firqalardan farq qiladi. Ular bir-birining fikriga qarshi chiqaydi va o‘zlarini boshqasi bilan teng deb hisolaydilar. Mazhablar shariat

masalalarida engilroq yoki qattiqroq hukm chiqarishi bilan farq qiladi. SHuningdek, mazhablar o‘zi tarqalgan mintaqalarning sharoitidan ham kelib chiqqan holda fatvolar bergenlar. Jumladan, shofeiy mazhabida tahoratdan so‘ng yuzni artmaslik afzal hisoblansa, hanafiy mazhabida yuzni artish afzaldir. Hanafiy mazhabi sovuq o‘lkalarda ham tarqalganini e’tiborga olinsa, shofeiy mazhabi asosan issiq o‘lkalarda yoyilgan.

Mazhablar turlicha bo‘lsada, ular asoschilar-mujtahidlarning barchasi bir-biriga ustoz-shogird tizimidadir. Ular bir-birlarining mazhabini tan oladilar. To‘rtta mazhab ham hijriy ikkinchi asrning o‘zida shakllanib ulgurgan. Ammo ushbu mazhablarning faqat bittasini ushlash lozim. Bir masalada bu mazhabni, boshqasida ikkinchisiga amal qilish mumkin hisolanmaydi.

3. Imom Abu Hanifa va hanafiylik mazhabi. Hanafiylik mazhabi asoschisi Abu Hanifa Nu’mon ibn Sobit (699-767) bo‘lib, «Imomi A’zam», ya’ni eng buyuk imom laqabi bilan mashhur bo‘lgan. Mazkur mujtahid olim Kufa shahrida tug‘ilib shu erda vafot etgan.

Bu zot sunniy mazhablar asoschilarini orasida yoshi eng kattasi hisoblanadi. Rivoyatlarga ko‘ra bobosi Sobitni hazart Ali oldilariga olib kelib, uning haqqiga duo qilishlarini so‘raydi. Hazrat Ali Sobitni o‘zi va surriyotiga barakot so‘rab duo qiladilar. Sobitning surriyotidan imom Abu Hanifa mashhur bo‘lib ketdi. Imomning otasi Kufada ipak va jun mato tijorati bilan shug‘ullangan va imom Abu Hanifa ham keyinchalik shu ishni davom ettirgan.

Imom A’zam yoshligidan Qur’onni yodlaydi. Ma’lum vaqt savdo ishlari bilan shug‘ullanib yurgen. SHu orada Kufa va uning atrofida e’tiqodiy bahs va munozaralarda faol ishtirok etib borgan. Bir kuni ko‘chada imom SHa’biyning yonidan o‘tib ketayotganida, oldiga chaqirib, qaerga ketayotganini so‘raydi. U bozorga ketayotganini, aytganda, men sendan uni emas, balki qaysi olimning darsiga borayapsan deb so‘raydi. Imom A’zam hech birining, degan javobidan so‘ng, imom SHa’biy shunday deydi: «Ilm va ulamolar bilan ko‘rishib turgin. Seni nihoyatda zukko va ilmga tashnaligingni ko‘ryapman». Olim odamning bu gapiga kirib, Abu Hanifa ilm yo‘lini tanlaydi.

Abu Hanifa Umaviylar va Abbosiylarning siyosiy kurashlari, hokimiyat bir suloladan boshqasiga o‘tganda davrda yashagan bo‘lsa ham qo‘liga qurol olib ikki tomonning siyosatiga aralashmadni, balki o‘z ilmini oshirish va tarqatishga harakat qildi. Bu davrda aqidaviy oqimlar orasida ham kurashlar ancha qizigan. Olim bu kurashlarni kuzatib borgani tabiiy. Ibn Bazzozning rivoyatiga ko‘ra imom Abu Hanifa o‘g‘li Hammodga shunday degan: «Bizlar munozara qilgan vaqtda suhbatdoshimizning haq va to‘g‘ri yo‘lgan chiqib ketishidan qo‘rqa edik, lekin sizlar munozara vaqtida raqibingizni haq yo‘ldan chiqishini istaysizlar. Har kim o‘z suhbatdoshini haq yo‘ldan og‘dirmoqchi bo‘lsa, uni kufr tomonga yo‘llaydi, lekin uning o‘zi suhbatdoshidan oldinroq kufr yo‘liga o‘tgan bo‘ladi».

Manbalarda imom Abu Hanifaning sahobalarni ko‘rgani aytildi, shuning uchun u tobeinlardan hisoblanadi. U Hammod ibn Abu Sulaymon, Ibrohim Naxaiy, SHa’biy kabi va boshqa olimlardan sahobalar Ali va Abdulloh ibn Mas’ud, Abdulloh ibn Abboslarning fiqhini o‘zlashtirdi. Ayniqsa, Hammod uning eng asosiy ustozи hisolangan. Unga 22 yoshida shogird tushib, u kishidan o‘n sakkiz yil davomida fiqh ilmini o‘rganadi. Bu haqda o‘zi quyidagilarni aytgan: «Men ilm va fiqhning konida edim. Uning ahli ila majlis qurdim. Ularning faqihlaridan birini lozim tutdim». Uzoq yillar dars olishi va ustozи vafotidan so‘ng uning o‘rnida dars berishni boshlagan. Ustozи o‘rniga dars berishi natijasida, Hammod qoldirgan maktab keyinchalik mazhabga aylandi.

SHuningdek, ko‘p yurtlarga safar qilgan va o‘sha erlik olimlar bilan ham ilmiy bahs va munozaralarga kirgan.

Abu Hanifa fiqor va salobat egasi bo‘lgan. Ko‘p fikr yuritib, kam so‘zlar edi. Taqvoli, parxezkor, zohid, bekorchi va foydasiz so‘zlarni gapirmas, gapirganda qisqa va lo‘nda so‘zlardi. Biror kishi masala so‘rab kelsa, xozirjavoblik bilan ishni xal qilardi.

Imom Abu Hanifa Qur’on, sunnat, sahobalarning so‘zlari, qiyos, istehson, ijmo, urf kabi fiqhiy manba va uslublariga ko‘ra hukm chiqargan.

Fiqhda shunday maqomga etganki, har bir oyat va hadisdan kerakli fiqhiy xulosalar chiqara olgan. Abu Hanifa hadisni, sahobalar so‘zini, puxta o‘zlashtirgan. Hadislarning sahih va zaifini ajratib, ayniqsa, hadislardan chiqariladigan hukmlarning to‘g‘ri bo‘lishiga katta e’tibor qaratgan. Rivoyatlarning birida ustozи SHa’biy bir masalada murojaat qiladi. Abu Hanifa unga javob beradi. SHunda ustozи buni (javobni va unga hujjatni) qaerdan olding deb so‘raganda, Abu Hanifa o‘zingiz rivoyat qilgan hadisdan oldim deb hadisni aytadi. Javobdan so‘ng SHa’biy: «Sizlar tabib sizlar, ey, faqihlar jamoasi, biz (muhaddislar) dorishunosmiz», deydi.

Abu Hanifa fiqhda ham yuqori martabalarga erishgan. Quyida imom Abu Hanifaning juda ko‘p hadis bilishini isbotlovchi ba’zi omillarni keltirish mumkin. Ulardan: 1. Ko‘plab olimlar qatori Imom Abu Hanifaga muxolif bo‘lganlar ham ittifoqan uning mujtahidligini tan oladilar, ya’ni uning mujtahid olim ekanida ixtilof yo‘q. Mujtahid bo‘lishning shartlaridan biri ahkomga oid hadislarni yaxshi bilishlikdir; 2. Manbalarda aytishicha, Abu Hanifa sakson uch mingdan ortiq masalaga javob bergen. Hadislarni yaxshi bilmaydigan kishi bunday ko‘p masalaga javob berishi mumkin emas; 3. Abu Hanifa hadis rivoyatiga ko‘p to‘xtalmagan. Buning sabablaridan birini o‘sha davr olimlari hadislarni yaxshi bilganlaridir. SHuning uchun ular ilm majlislarida hadislardan chiqadigan masalalarga javob topishni, ya’ni istinbot bilan shug‘ullanishni asosiy maqsad qilib olganlar. Hadisning fiqhini, uni tushunishni, nosix va mansuxini, om va xosini, mutlaq va muqayyadini bilishga intilganlar, uning sahihligiga emas; 4. Abu Hanifa davrida nafaqat hadis ilmini, balki barcha ilmlarni yozib borish odat tusiga

kirmagan, huddi Rasululloh (s.a.v.) va sahobiylar davrdagi kabi. SHunday bo‘lsada, Imom Abu Hanifa nazdida hadislarni rivoyat qilish mas’uliyatlari ish ekanini quyidagi Imom Abu YUsuf rivoyatdan ham bilish mumkin. Unda, Imom Abu Hanifa: «Kishi hadisni eshitgan vaqtidagidek, (ya’ni qanday eshitgan bo‘lsa o‘shanday) aytishi lozim», degan; 5. Abu Hanifa to‘rt mingdan ortiq ustozdan dars olgan. CHunki u Basraga 10 marta, Makka va Madinaga esa o‘nlab marta borgan. U joylardagi ko‘pgina olimlarning suhbatida bo‘lgan. Demak bahs va munozara vaqtida ko‘plab hadislar eshitgani tabiiy.

Abu Hanifa qiyos va istehsonni (chiqarilgan xulsalardan musulmonlar uchun foydaliroq tomonini olish tamoyili) ko‘p qo‘llagan. Hatto zaif hadisni qiyosdan oldin qo‘ygan. Bu borada imom Abu Hanifa shunday degan: «Rasululloh (s.a.v.)dan kelgan har narsa bosh ustiga, sahobalardan kelganini esa orasidan yaxshirog‘ini tanlab olamiz, ammo tobeiylardan kelgan bo‘lsa, biz ham ulardek kishilarmiz». Bu bilan o‘z mazhabining usulini ko‘rsatgan.

Imom Abu Hanifaning eng mashhur shogirdlaridan Abu YUsuf YA’qub ibn Ibrohim Ansoriy va Muhammad ibn Hasan SHayboniydir. Abu Hanifaning bu ikki shogirdi ustozining ishini davom ettirib, boshqa olimlarga ustozlik qildilar.

Hanafiylik mazhabi asoschisi Abu Hanifa alohida muayyan mavzuga oid kitob yozmagan. Balki u rivoyat qilgan hadislarni, aytgan fatvolarini keyinchalik olimlar holatiga keltirganlar. Jumladan, «al-Fiqh al-akbar», «al-Olim va-l-mutaallim», «al-Vasiyya» va «al-Musnad» va boshqalar.

Olim dunyo ishlari va mansabga qiziqmagan. Xalifa unga bosh qozilik (qozi al-quzot) mansabiga taklif qilganda rad etgan.

SHunday bo‘lsada, eng katta shogirdi imom Abu YUsuf «Qozi al-quzzot» lavozimida faoliyat yuritib, hanafiylik mazhabining yanada keng yoyilishiga xizmat qilgan. Imom Muhammad esa, hanafiy mazhabining nazariy asoslarini ishlab chiqib, o‘z asarlarida ularni keltirib o‘tgan.

Ushbu mazhab sunniy musulmonlar orasida eng keng tarqalgani hisoblanadi, ya’ni 47% sunniy musulmon shu mazhabga amal qiladi. Tarixda uning juda ko‘p davlatlardagi asosiy mazhab sifatida e’tirof etilishi jamiyat ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida qo‘llanishi, milliy urf-odatlarga bag‘rikengligi, turli mintaqalardagi shart-sharoitlarga mos kelishi hamda boshqa omillar sababli uning ko‘p musulmon xalqlari tomonidan qabul qilinishiga sabab bo‘lgan. Uning keng miqyosda tarqalganiga sabablardan biri barcha mintaqalarda yashayotgan musulmonlarga chiqarilgan hukmlari oson amal qilishiga imkon bergan. O‘zbekiston hududida hanafiylik mazhabi keng tarqalgan va shu mintaqaga aholisi mazkur mazhabga amal qilib kelmoqda.

4. Mazhabsizlik va uning oqibatlari. Bugungi kunda turli guruhlar tarafidan mazhablarni inkor qilish holatlari uchrab turibdi. Ular mazhabsizlik g‘oyasini ilgari surib, asosiy

maqsadlari asrlar davomida amal qilinib kelinayotgan fiqhiy mazhablarni inkor qilish hisoblanadi.

Mazhabsizlik g‘oyasi deyarli 12 asrdan ortiq vaqt mobaynida yashagan minglab ulamolarning butun umrlarini sarflab olgan ilmlari va qoldirgan meroslarini, yozgan asarlarini bekorga chiqaradi. SHu bilan birga asrlar davomida amal qilinib kelinayotgan an'analar noto‘g‘ri, ularga amal qilgan musulmonlar esa adashgan ekan degan xulosaga olib keladi. Bundan tashqari musulmonlar birligini xavf ostiga oladi. Zero Muhammad payg‘ambar (a.s.) hadislari: «*Allah ummatimni zalolatda jamlamaydi*», «*Musulmonlar yaxshi deb bilgan narsa Allohning huzurida ham yaxshidir*» (hadislarni Hokim Naysapuriy rivoyat qilgan), deyilgan. Mazhablar ham musulmonlarning birligi.

Olimlar butun umrini shariat ilmiga bag‘ishlab, undagi o‘ta nozik masalalarni o‘rganish uchun o‘nlab yil umrlarini o‘tkazganlar, Qur‘on va hadislarda uchraydigan va barcha insonlar tushunishi qiyin bo‘lgan joylarni fahmlash va tushunishga oson shaklga keltirib so‘ngi xulosalarni bergenlar.

Mazhabsizlik g‘oyasini soxta salafiylar ilgari surmoqda. Ularning fikricha, fiqhiy mazhablar tomonidan ishlab chiqilgan qoidalarni to‘g‘ri tushunish usuli sifatida tan olinmaydi, balki shariat ahkomlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga tadbiq etish lozim deb hisolanadi. Boshqacha qilib aytganda, mazhabsizlarning da’vosi bo‘yicha har bir kishi, o‘zi Qur‘ondan yoki hadisdan hukm olishi mumkin. CHunki mujtahidlarning xulosasi boshqalar uchun asos bo‘la olmaydi, har bir odam o‘zi fatvo berishi mumkin. Ularning g‘oyasiga amal qilinadigan bo‘lsa, barcha Qur‘on va hadisdan hukm olishga o‘tsa, jamiyatdagi boshqa sohalar izdan chiqib ketadi. CHunonchi tibbiyot, arxitektura va hokazo soha egalari ham o‘zlarini mustaqil tarzda Qur‘on yoki hadislarni o‘rganib o‘z masalalarini xal etishlari lozim bo‘lib qolar edi.

Mazhabsizlarning aytayotgan da‘volaridan yana biri faqat sahib hadisga amal qilish lozim, chunki mujtahidlar har xil fatvo chiqarganlar, shuning uchun bu bo‘linish hisoblanadi deydilar. Aslida mazhablardagi bir masalaga turlicha qarash mujtahidning o‘scha masalani qanday tushunishiga bog‘liq. Arab tili boy til bo‘lgani sababli, bir olim Qur‘ondagi so‘zning bir ma’nosini qabul qilgan bo‘lsa, ikkinchi mujtahid boshqa ma’nosini olgan. Hukm ham shunga yarasha bo‘lgan. Hadislardan hukm olish ham shunga yarasha bo‘lgan. Bir mujtahid bir hadisni olgan va unga qarshi bo‘lgan hadisni esa, hukmi o‘chgan deb bilan, boshqa mujtahid esa, o‘scha hadisni hukmi o‘chmagan deb qabul qilgan. Bulardan tashqari payg‘ambar tomonidan sahobalarga ham o‘z o‘rniga qarab turlicha masalahatlar berilgan. Sahobalar esa, turli joylarga tarqalib, borgan joylarida o‘zlarini bilgan ilm bilan boshqalarni tanishtirganlar. SHu va boshqa sabablar bilan mazhablar orasida bir masalaga turlicha fatvolar berish kelib chiqqan. SHunday

bo‘lsada mazhablar bir birlarining hukmlarini xato deb hisoblamaydilar va o‘sha boshqa hukmni hurmat qiladilar.

Soxta salafiyalar tarafidan ilgari surilayotgan mazhabiszlik g‘oyasi, mujtahidga emas, balki Payg‘ambarga ergashish dozim deb hisoblaydilar. CHunki salafi-solihihlar payg‘ambarga ergashgan, ular davrida mazhablar bo‘lmagan, degan dav’ni amalga oshirdilar.

SHu o‘rinda fatvo va muftiy haqida to‘xtalib o‘tish o‘rinli. Fatvo deb lug‘atda «mushkul ishga javob qidirish», «savolga javob berish», «shariat masalalari yuzasidan fatvo chiqarmoq», «maslahat bermoq», «muftiyning xulosasi» degan ma’nolarni bildiradi. Istilohda esa, «dalilga asoslanib, shar’iy hukmni so‘rovchiga bayon qilib berish»ga fatvo deyiladi. Hanfiy mazhabi olimlaridan Taqiy Usmoniy fatvoni «Diniy masalalarga javob berishdir», degan.

«Muftiy» deb shariat hukmlari borasida fatvo beradigan odamga aytildi. Faqih Qarofiy shunday degan: «Muftiyalar Alloh taoloning tarjimonlaridir. CHunki ular nass (Qur’on va hadis)ga tayangan holda hukm chiqaradilar». Imom SHotibiy esa: «Muftiyalar ummat uchun Rasululloh (alayhis-salom) maqomlarida bo‘ladilar. Bunga dalil qilib: «*Olimlar payg‘ambarlarning merosxo‘rlaridir. Payg‘ambarlar dinor yoki dirham emas, balki ilmni meros qilib goldirganlar*» (imom Termiziy rivoyati), hadisini keltiradilar» deb sharhlagan.

Hanafiy olimi Taqiy Usmoniy shunday deydi: «Mohir ustozlarning huzurida fiqhni o‘rganmagan kimsaning fatvo berishi mumkin emas. Ustozlar huzurida fiqhni o‘rgangan kishining har birga fatvo berishi mumkin bo‘lmaganidek, o‘zi (mutaqil ravishda) fiqhiy kitoblarni mutolaa qilgan kimsaga ham fatvo berishi mumkin emas. Hatto u ahkom usullari, qoidalari va illatlari bilan tanishib chiqib, malaka hosil qilgan bo‘lsa ham, mo‘tabar kitoblarni boshqalardan ajratib olsa ham mumkin emas». YUqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, barcha odamlarga, hatto u diniy kitoblarni o‘qib tushunsa ham diniy masalalarda fatvo berish mumkin emas.

Odamlar shariat bilimlarini bilish darajasiga ko‘ra: xos va ommaga bo‘linadi. Xos kishilar muayyan soha bilan shug‘ullanib, uni mukammal o‘rgangan mutaxassislar hisolanadi. Omma esa, o‘zlarining kasblari bilan mashhg‘ul bo‘lib, kerakli vaqtida mutaxassisga murojaat qilib, o‘z masalasini xal qilgan. SHariy hukmlar masalasida ham xos kishilar – mujtahid-faqihlar shug‘ullanib, ommaga uning masalalarini etkazib, tushuntirganlar. Omma esa unga amal qilgan. SHariy nuqtai nazardan odamlar: mujtahid va muqallidga bo‘linadi.

Mujtahid deb manbalarda, ijтиҳод qilish (muayyan iliy salohiyatga ega faqih olimning shariatning mufassal dalillaridan shariy hukmlarni chiqarib olish, ya’ni istinbot qilish janayoni) faoliyati bilan shug‘ullanadigan kishiga aytilgan. Mujtahid olimlar shariatning mustaqil manbasi emas. Balki mujtahid shariat qonunlarini sharhlovchisi va uning manbalarni tushuntiruvchisi deb tan olinadi.

Omma esa, ijтиҳод қила олмайдиган, бoshqacha qilib aytganda, mustaqil tarzda shariat manbalarini tushunmaydi va ulardan qanday hukm olinishini bilmaydigan kishi. Ular mujtahidga taqlid qiladi va u muqallid-taqlid qiluvchi deyiladi. Taqlid qiluvchi mujtahidning hukmiga amal qiladi. Musulmonlarning asosiy qismi shu guruh - taqlid qiluvchilar guruhidan iborat.

SHu kungacha yashagan musulmon olimlarining faoliyati natijasida mazhablar jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan. Mazhabsizlik va shunga o‘xshash fikrlar faqat islom dushmanlari musulmonlar orasida tarqatishga harakat qilmoqda. Tarixda bunday holat kuzatilmaganini musulmon olimlari ta’kidlamoqda.

Olimlardan SHoh Valiulloh Dehlaviy to‘rt mazhabdan biriga taqlid qilish haqida: «Bilginki, ushbu to‘rt mazhabning birini ushslashda (taqlid qilishda) ummat uchun katta foyda va afzallik bor. Ulardan yuz o‘girishda katta fasod bor», degan.

Aslini olganda esa, musulmonlar Payg‘ambar (a.s.)ga ergashadi, mujtahidlarga taqlid qiladi xolos. Ulamolarning tutgan yo‘llari haqida mashhur muhaddis Zahabiy: «Biz, to‘rt imom (Abu Hanifa, Molik, SHofeiy, Ahmad), ikki Sufyon (Sufyon Savriy va Sufyon ibn Uyayna), Avzoiy, Dovud Zohiri, Ishoq ibn Rohuvayh va boshqa imomlar haq yo‘lda bo‘lganlar, deb ishonishimiz lozim. Ular o‘zlarini haqda aytilayotgan ayb (gap)lardan pok bo‘lib, u gaplarga e’tibor qaratilmaydi. Boshqa mujtahid muayyan bir mazhabga ergashishi shart... Ikki haram imomi (Juvayniy) ta’kidlaganidek, sahoba va tobeinlarga ergashib bo‘lmaydi, chunki ularning mazhabi yozilmagan va shakllantirilmagan. Qozilik masalalari va fatvo berishda to‘rt mazhabdan boshqasiga taqlid qilinmaydi», degan. Boshqa bir olim Tojuddin Subkiy shunday yozadi: «Ushbu to‘rt mazhab (hanafiy, molikiy, shofeiy, hanbaliy), Alloh rahmati ila, e’tiqodda bir bo‘lgan. ularning izdoshlaridan ayrimlari mo‘‘taziliylar va mujassimaga qo‘shilib ketganlariga qaramasdan, uarning mutlaq ko‘pchiligi haqiqatga rioya qilganlar...». «Ahli sunna val-jamoa» olimlari to‘rt mazhabdan biriga taqlid qilish shart ekani borasida ixtilofga bormaganlar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, islomdagi fiqhiy mazhablar musulmonlarning birligini saqlashga va omma xalqning diniy ishlarni amalga oshirishidagi qiyinchiliklarini oldini olishga xizmat qilgan. Biroq mazhablarni inkor qilish g‘oyalari musulmonlar oldiga turli shubhalarni solib sof islom g‘oyalarini inkor qilib jamiyatda ixtilofli vaziyatni keltirib chiqarishga harakat qilmoqda.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Islomda ilk bo‘linish qaysi yili bo‘lib o‘tgan?
2. Fiqhiy mazhablarning paydo bo‘lishiga qanday omillar bo‘ldi?
3. Imom Abu Hanifa kim va u qanday mazhabga asos soldi?
4. Mazhabsizlik da’vo qilayotgan g‘oyalarning qanday salbiy oqibatlar bor?

Mustaqil ish mavzulari

1. Islom tarixida ixtiloflar va ularning xal etilishi.
2. Fiqhiy mazhablar tarixi.
3. Hanafiy mazhabi manbalari.
4. Salafiylik va uning tarixi.

Adabiyotlar

1. Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. To‘ldirilgan nashr. Mas’ul muharrir Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: SHarq, 2014. – 536 b.
2. Aminov H., Primov S. Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari. – Toshkent: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011. – 160 b.
3. Muhammad Anvar Badaxshoniy. Aqidatut-tahoviya sharhining talxiysi. – Toshkent: 2015. – 448 b.
4. Ochildiev O., Rahimjonov D., Muhamedov N. Va boshq. Dinshunoslik asoslari (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. – 320 b.
5. Mo‘minov A., Yo‘ldoshxo‘jaev H., Rahimjonov D., va boshq. Dinshunoslik. – Toshkent: Mehnat, 2004. – 296 b.

6- mavzu: Missionerlik va prozelitizm: tarix va bugun, targ‘ibot usullar.

Reja

1. Missionerlik va prozelitizmning mazmun-mohiyati.
2. Missionerlik faoliyatida ijtimoiy tabaqalar bilan ishlash strategiyasi.
3. Diniy sektalar va ular faoliyatining oqibatlari.
4. Missionerlikka qarshi kurashning huquqiy-amaliy asoslari.

Tayanch tushunchalar:

Missionerlik, prozelitizm, sektalar, diniy sektalar, diniy tashkilotlar, iegovo shohidlari, ettinchi kun adventistlari, missiya, Bibliya jamiyati.

1. Missionerlik va prozelitizmning mazmun-mohiyati. Missionerlik so‘zi asli lotincha bo‘lib, «yuborish», «vazifa topshirish» degan ma’nolarni anglatadi.

Missionerlik bilan yonma-yon ishlatiladigan prozelitizm esa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri biron bir dinga ishongan fuqaroni o‘z dinidan voz kechishga va o‘zga dinni qabul qilishga qaratilgan harakatlarni anglatadi. U o‘z mohiyatiga ko‘ra missionerlikning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, dunyodagi umumiylar missionerlarning 2/3 qismini xristian missionerlari tashkil etadi. Dastlabki xalqaro xristian missiyalari, 1910 yilda SHotlandiyaning Edinburg shahrida paydo bo'lgan edi. Bugungi kunda yuzlab shunday maqomga ega missiyalar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularni yanada rivojlantirish, etarli moddiy, ma'naviy va inson resurslari bilan ta'minlash juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Odatda, xalqaro missiyani tashkillashtirishda ma'lum bir konfessiyaning barcha shaxobchalari qatnashadi. Masalan, tashkilotning nashriyoti uni tegishli adabiyotlar bilan ta'minlasa, tadqiqot markazi muayyan mamlakat aholisi, uning hayot tarzi, urf-odatlari, zaif tomonlari haqidagi ma'lumotlarni yig'ish va diniy adabiyotlarni mahalliy tillarga tarjima qilish bilan shug'ullanadi. Missiyani moddiy-moliyaviy ta'minlashda ishlab chiqarish tuzulmalarining, missioner kadrlar tayyorlash va ko'ngilli homiylarni topishda missionerlik bazalarining ahamiyati beqiyosdir. Mana shunday kuch va tayyorgarlik bilan xalqaro missiya istalgan mamlakatda tegishli targ'ibot-tashviqot ishlarini samarali tashkil etishiga shubha qilmasa ham bo'ladi.

Ayni damda, missionerlik faoliyati bilan faol shug'ullanishga harakat qilayotganlar orasida bahoilar, krishnachilar bilan bir qatorda yangi paydo bo'lgan sektalar borligini ham ta'kidlash zarur. Sekta bu – faqat o'zini haq din, insonlarni najotga etkazuvchi deb da'vo qiladigan, aslida esa muayyan siyosiy va iqtisodiy maqsadlarni ko'zlaydigan guruh hisoblanadi. Psixologlar mazkur sektalarni «ommaviy ijtimoiy-psixologik qirg'in quroli» deb ta'riflaydilar.

Diniy sekte deganda ma'lum bir dindagi rasmiy aqidalarga zid ravishda ajralib chiqqan yoki mavjud dinlar va konfessiyalarga umuman aloqasi bo'limgan holda din bayrog'i ostida faoliyat ko'rsatadigan guruhlar tushuniladi. Bugungi kunda missionerlik faoliyati bilan asosan turli sektalar shug'ullanadi. Hozirgi kunda taxminan 5000 ta sektaning faoliyati aniqlangan. Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimiz bilan chegaradosh bo'lgan davlatlarda «Bogorodichiy sentr», «Serkov ob'edineniya», «Serkov Iisusa», «Serkov Novogo Zaveta», «Beloe bratstvo», «Bojestvennyy orden Pervogo Angela», «Farxat ata», «Dianetika» kabi yuzlab diniy sektalar faoliyat olib bormoqda. Iblisga ibodat qilishga asoslangan «Satanizm» sektasi ham ayrim qo'shni respublikalarda keng tarqalmoqda. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, o'ta xavfli bo'lgan mazkur sektaning Rossiyada 100 ming, Er yuzida 5 milliondan ortiq tarafldori bor.

Mazkur sektalar aholining diniy bilimlari pastligidan foydalanib, oxiratning yaqinligi bilan qo'rqitish hamda asosan yoshlar va moddiy ahvoli nochor bo'lganlar ichida tashviqot olib borish yo'li bilan o'z tarafdarlarini ko'paytirishga harakat qilmoqda.

2. Missionerlik faoliyatida ijtimoiy tabaqalar bilan ishlash strategiyasi. Missionerlar makon va zamonga moslashgan holda o'z uslub va vositalarini doimiy takomillashtirib kelganlar. So'nggi vaqlarda ular ma'lum bir ijtimoiy qatlamni ajratib olib, maqsadli ish olib borishga intilmoqdalar. Jumladan, missionerlar asosiy e'tiborni aralash millat vakillaridan iborat

oilalarning a'zolari, ilgari hech bir dinga e'tiqod qilmagan, og'ir xastalikka, judolikka, moddiy qiyinchilikka duch kelgan, axloq tuzatish muassasalaridan chiqib kelgan, ya'ni moddiy va ma'naviy ko'makka muhtoj kishilarga qaratmoqdalar.

Ziyolilarning turli qatlamlari ichida san'at sohasi xodimlari, kutubxonachilar, o'rta maktab o'qituvchilari, turli idoralar xizmatchilari faol missionerlik targ'iboti ob'ekti sifatida tanlanayotganini ham qayd etish lozim. Bunday yondashuvda o'ziga xos mantiq bor. Masalan, prozelit san'atkor san'atning hissiy-emotsional ta'sir quvvatidan foydalanib, e'tiqodiy bosim o'tkazishda yuqori samaradorlikka erishishi mumkin bo'lsa, e'tiqodini o'zgartirgan kutubxonachida esa «o'lja» sifatida tanlanganlar bilan yakka tartibda ishslash imkoniyati mavjud bo'ladi.

Missionerlarga tabiatan ishonuvchan, tashqi ta'sirga moyil bo'lgan va ayni paytda, hayotda sabr-bardoshli va fidoiy bo'lish bilan bir qatorda hamisha ma'naviy-ruhiy ko'makka, qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj sezadigan ayollarga ham alohida e'tibor bilan qaramoqdalar. Ularning maqsadi jamiyatda beqarorlikni keltirib chiqarish, ijtimoiy va milliy totuvlik asoslariga rahna solishdir.

Qayd etilgan misollar ham missionerlik ob'ekti sifatida tanlanayotgan qatlamlar doirasini munta zam ravishda kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Missionerlikda yoshlarga alohida e'tibor berilishining sabablari. YOshlarning faol ijtimoiy kuchga aylanib borayotgani bugungi kunda ularning turli mafkuraviy ta'sir va tazyiqlarning asosiy ob'ektiga aylanishiga olib keldi. Bunda ularning jamiyatning hali etarli tajribaga ega bo'lmasan, tashqi ta'sirlarga tez beriluvchan va ayni paytda, eng harakatchan qatlami ekani inobatga olinmoqda.

Missionerlikning taniqli nazariyotchisi Patrik Djonstoun talaba yoshlarni missionerlik faoliyatining asosiy ob'ekti deb qarab, o'zining «Dunyo operatsiyasi» kitobida shunday yozadi: «Butun dunyoda universitet va kollejlarda 37 million talaba tahsil oladi. Ularning ko'plari 20 yildan so'ng yirik mansablarni egallahadi». Ushbu fikrlar missionerlarning jamiyatning ertangi kunini belgilab beradigan avlod ongini egallah, nazorat qilishni ko'zlab ish yuritayotganini anglash imkoniyatini beradi.

Xayriya yordamlari ko'rsatish ham missionerlikdagi eng qadimiylari va samarali usullardan biri hisoblanadi. Bunda turli tadbirlar uyushtirilib, ularga asosan yoshlar jalb etiladi. Beg'araz deya taqdim etilayotgan, aslida jamiyatning yordamga muhtoj qatlamlarini aniqlash va so'ngra ular bilan maqsadli ish olib borishni ko'zlaydigan bunday harakatlar hatto «Yangi yil», «Navro'z», «Xotira va qadrlash kuni» kabi xalqimizda keng nishonlanadigan bayramlar davomida ham g'arazli maqsadlarda amalga oshirilishi kuzatilgan. Missionerlar o'zlarini ko'rsatayotgan «yordamni» shu bayramlar ruhiga moslashtirishga ham harakat qilmoqda.

Uyma-uy yurib «Xushxabar» etkazish usulining o‘ziga xos xususiyatlari. Bu usul missionerlarga odamlar bilan kunning dolzarb masalalari haqida suhbatlashish, ularning dardlariga qiziqish bildirish va ushbu muammolardan chiqish yo‘llarini ko‘rsatib berishni taklif qilib, o‘z tashkilotlariga jalb qilishga asoslanadi. Bu missionerlikni amalgaga oshirishda eng yaxshi samara beradigan va katta mablag‘ talab qilmaydigan usullardan biri hisoblanadi. Masalan, ushbu usuldan faol foydalayotgan «Iegovo shohidlari» oqimi a’zolari, o‘zlarini go‘yoki, Iso Masih o‘z favoriyalariga buyurgan yo‘ldan foydalanayotganlarini da’vo qilib, muayyan hududda «tayanch nuqta»ni shakllantirish va unga suyangan holda yaqin qo‘snilor orasida uyma-uy yurib adabiyotlarni tarqatish, maktab o‘quvchilari va yoshlar orasida targ‘ibot ishlarini olib borishga alohida e’tibor bermoqda. Bunday maqsadli faoliyat natijasida iegovochilar soni yildan yilga ortib bormoqda va bugungi kunda dunyo bo‘yicha qariyb 7 millionni tashkil etmoqda.

Ta’lim-tarbiya sohasidagi missionerlikdan ko‘zlangan maqsadlar. Ta’lim tizimi bosqichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tufayli g‘oya va qarashlarni singdirishdagi tadrijiylik ta’minlanadi. SHu bilan birga, talim jarayonida amalgaga oshirilgan targ‘ibot natijalarini bevosita tekshirib ko‘rish va uni takomillashtirib borish imkoniyati ham mavjud. Bu kabi xususiyatlar missionerlarning ta’lim tizimiga alohida e’tibor bilan qarashini keltirib chiqarmoqda. Adventistlarning dunyo bo‘yicha 5000 dan ortiq o‘quv markazlariga, pyatidesyatniklikning eng yirik oqimlaridan biri – «Xudo assambleyalari» cherkovlari bir necha kollej va Bibliya maktablariga egalik qilayotgani ham aynan shu bilan izohlanadi.

Jumladan, O‘zbekiston istiqlolining dastlabki yillarida missionerlar turli volantyor tashkilotlar niqobi ostida mamlakatimiz ta’lim tizimiga kirib olishga uringanlari kuzatilgan. Ular yurtimizdagi mavjud ta’lim muassasalarida turli til, kompyuter, sport to‘garaklari tashkil etish niqobi ostida talaba va o‘quvchilar orasida o‘z dinlarini targ‘ib qilishga harakat qilgan.

SHuningdek, missionerlik tashkilotlari o‘z dinlarini targ‘ib qilishda audio, video va elektron mahsulotlar, gazeta va jurnallar, teledasturlar, internetda onlayn o‘quv kurslari tashkil etish yo‘llaridan ham foydalanmoqda. Ommaviylik, davriylik, o‘quvchilar auditoriyasining kengligi tufayli gazeta va jurnallar missionerlar tomonidan o‘z qarash va g‘oyalarini singdirish quroli sifatida qo‘llanilmoqda.

Diniy sektalar va ular faoliyatining oqibatlari. Mutaxassislarning fikricha, bugungi kunda dunyo bo‘yicha 5000 ga yaqin diniy sekta faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularga xos xususiyatlar haqida gap ketar ekan, ayrim sektalar muayyan konfessiya doirasida shakllanib, asosiy e’tiborni sobiq e’tiqoddoshlari orasida targ‘ibot olib borishga, ba’zi sektalar esa boshqa konfessiyaga mansub insonlar orasidan ham o‘z tarafdoqlarini shakllantirishga harakat qilishini ta’kidlash zarur.

ДИНИЙ СЕКТАЛАР ЎЗ МАҚСАДЛАРИГА ЭРИШИШ УЧУН АМАЛ ҚИЛАДИГАН ҚОИДАЛАР:

инсоннинг маънавий ва жисмоний камолатга эришишга бўлган
интилишидан фойдаланиш

аҳолининг диний билимлари пастлигидан фойдаланиш

охиратнинг яқинлиги билан қўрқитиш

асосан ёшлиар ва моддий эҳтиёжманд кимсаларни ўз
таъсирларига олиш

яширин фаолият олиб бориш ва секта ичida бўлаётган
воқеаларнинг кўпчиликка маълум бўлиб қолмаслигини қаттиқ
назорат қилиш

Ayni paytda, hech bir konfessiyaga mansub bo‘lmagan, muayyan shaxs – «ustoz», «yo‘lboshchi» yoki «rahnamo» tomonidan asos solingan va aholining duch kelgan ijtimoiy va konfessional qatlami bilan ish olib boradigan sektalar ham mavjudligini qayd etish lozim.

Afsuski, yuqoridagi kabi ko‘rinishlarda chiqadigan sektalar faoliyati natijasida bir qator salbiy, ba’zi hollarda fojiaviy hodisalar kelib chiqmoqda. Jumladan, o‘tgan asrning 70-yillarida AQSHning San-Fransisko shahrida Jim Jons ismli shaxs bir necha ming kishilik mahalliy protestantlarni o‘z ichiga olgan «Xalq ibodatxonasi» nomli jamoa tuzishga erishadi. Sekta asoschisining turli «qiliq»lari shahar jamoatchiligiga ma’lum bo‘lib qolgach, Jons «chirkinliklarga to‘la shahar»dan ketib, Gayana changalzorlarida «Xudo Podshohligi»ni qurish lozimligini e’lon qiladi.

1978 yili «Xudo Podshohligi»dagi holatni o‘rgangani borgan AQSH Kongressi komissiyasi sekta izdoshlari «podshohlikda» juda og‘ir sharoitlarda yashayotgani, ularga

qullardek munosabatda bo‘linayotgani, Jons barcha «banda»larini o‘ziga ibodat qilishga majbur qilganiga guvoh bo‘ladi. Kirdikorlari fosh bo‘lib qolganini bilgan sekta rahbari bir kunning o‘zida barcha izdoshlarini o‘z jonlariga qasd qilishga majbur qiladi. Oqibatda Jonsga ishongan 912 kishi halok bo‘ladi.

SHunga o‘xhash holat AQSHning Texas shtatidagi Ueyko shahridda Devid Koresh tomonidan adventislik zamirida shakllantirilgan «Dovud avlod» nomli sekta tarafdrorlari bilan ham sodir etiladi. O‘zini «Xaloskor» deb e’lon qilgan, jamoada o‘zining mutlaq hokimiyatini o‘rnatib, barchaga o‘z mulkidek munosabatda bo‘lgan sekta rahbari Ueyko shahridda qurilgan maxsus ranchoda izdoshlari bilan rohibona hayot kechiradi.

1993 yilda politsiya tomonidan uni qo‘lga olish bo‘yicha amalga oshirilgan tadbir davomida, qamalishni istamagan «payg‘ambar» o‘zi va barcha sekta a’zolari joylashgan ranchoni portlatib yuboradi. Oqibatda 100ga yaqin kishi, shu jumladan, 25 nafar bola halok bo‘ladi.

Bunday sektalar qatoriga 1992 yilda Xitoyda Lyu Xunchji tomonidan tuzilgan va 2 milliondan ortiq tarafdoi bo‘lgan «Falungun» sektasini ham kiritish mumkin. Lyu Xunchji faqat o‘zinigina zaminni halokatdan, kishilarni qiyinchiliklardan qutqaruvchi, jismoni va ma’naviy etuklikka boshlovchi, gunohlardan forig‘ qilishga qodir, deb hisoblaydi. Jannat faqat uning tarafdrorlarigagina nasib qilarmish. Oxirat bilan qo‘rqtish markazi o‘rinni egallagan Lyu Xunchji ta’limotiga ergashish 2000 dan ortiq kishining halok bo‘lishi, yuzlab odamlarning ruhiy kasallikka chalinishiga sabab bo‘lgan.

Buddizm doirasida shakllangan «Aum Sinrikyo»ning 1995 yilda Tokio metrosida tinch aholiga nisbatan gaz hujumi uyushtirishi oqibatida 12 kishi halok bo‘lgani, AQSHda paydo bo‘lgan «Osmon darvozasi» sektasi a’zolaridan 60 dan ortiq kishi o‘z joniga qasd qilgani, Ugandada yuzaga kelgan «Xudoning o‘nta buyrug‘ini qayta tiklash harakati» sektasi qurbanlari soni 1000 dan ziyodni tashkil etgani ham bunday sektalar faoliyatining mudhish oqibatlaridan dalolat beradi.

Hozir ayrim rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan yoki norasmiy faoliyat yuritayotgan noislomiy diniy jamoalarning vakillari tomonidan ham missionerlik faoliyati amalga oshirilishi kuzatilmoxda. Missionerlar aksariyat holatlarda o‘z jamoasiga jalb qilishda turli o‘qish kurslarini ochib, o‘z diniga targ‘ib qilish, xorijga o‘qishga yoki ishga jo‘natish, yoz faslida bolalarni dam olish lagerlariga jalb qilish, hayriya yordam ko‘rsatish, bepul tibbiy yordam berish va gazeta, jurnal, kitoblar tarqatish kabi usullardan foydalanmoqda. Ularning diniy ta’limotida Davlat ramzlarini humat qilish, Konstitutsion burchni bajargan holda harbiy xizmat o‘tash, jamoat ishlarida qatnashish man etilgan. Bunday holat xalqimiz uchun noan’anaviy bo‘lgan diniy jamoa va sekta vakillarining maqsadi jamiyatimiz a’zolarini fuqarolik faolligini so‘ndirish va qaram

qilib olishga yo‘naltirilganidan yaqqol dalolat beradi. SHuningdek, ayrim noislomiy diniy jamoalarda ushbu jamoaga a’zo bo‘lgan shaxs bilan oila qurishi, jamoadan tashqaridan kelayotgan barcha ma’lumotlarni yolg‘on va zararli deb bilish belgilab qo‘yilgan, ba’zilarida oila qurish umuman ma’qullanmay, ular daromadlarining deyarli barchasini ushbu jamoa rahbariyatiga topshirishi lozim. Ushbu faktlar mazkur diniy jamoalardagi tartib shaxs, oila va jamiyat uchun naqadar zararli ekanini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, yuqoridagi kabi sektalar, missionerlik tashkilotlari faoliyatiga chek qo‘yish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bir qator mamlakatlarda sektalar va missionerlar faoliyati natijasida jabr ko‘rganlarga moddiy va ma’naviy ko‘mak berish maqsadida maxsus markazlarning tuzilgani, afsuski, yuqoridagi kabi holatlarning ko‘payib borayotgani va xatarli ko‘lam kasb etib, jamiyatdagi ijtimoiy-ma’naviy muhitga o‘ta salbiy ta’sir ko‘rsatayotganini kuzatamiz.

4. Missionerlikka qarshi kurashning huquqiy-amaliy asoslari. O‘zbekistonda mustaqillikning ilk yillardanoq missionerlik va prozelitizmning salbiy oqibatlarga olib kelishini hisobga olgan holda bu borada tegishli qonuniy asoslar ishlab chiqildi. Qonunlarda missionerlik harakatlari taqiqlandi.

Ma’lumki, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonun (yangi tahriri) kishilarining vijdon erkinligini huquqiy kafolatlash bilan birga diniy tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirishga xizmat qiladigan hamda davlat va din munosabatlarini tartibga soladigan muhim hujjat hisoblanadi. Qonunga binoan «Bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm), shuningdek boshqa har qanday missionerlik faoliyati man etiladi. Ushbu qoidaning buzilishiga aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortiladilar» (5-modda, 3-band).

Mazkur moddadan kelib chiqib, «O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi»ga noqonuniy diniy xatti-harakatlarning oldini olish bilan bog‘liq bir qator moddalar kiritilgan. Jumladan:

- diniy mazmundagi materiallarni tarqatish maqsadida qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish yoki tarqatish;
- diniy yig‘ilishlar, ko‘cha yurishlari va boshqa diniy marosimlar o‘tkazish qoidalarini buzish;
- O‘zbekiston Respublikasida g‘ayriqonuniy nodavlat notijorat tashkilotlari, oqimlar, sektalar faoliyatida qatnashishga undash;
- nolegal diniy faoliyat bilan shug‘ullanish;
- diniy tashkilotlar rahbarlarining mazkur tashkilotlar ustavini ro‘yxatdan o‘tkazishdan bosh tortishi;

- dindorlar va diniy tashkilotlar a'zolari tomonidan bolalar va o'smirlarning maxsus yig'ilishlari, shuningdek diniy marosimiga aloqasi bo'lman mehnat, adabiyot va boshqa xildagi to'garaklar hamda guruhlarni tashkil etish va o'tkazish;
- bir konfessiyaga mansub dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm) va boshqa missionerlik faoliyati;
- maxsus diniy ma'lumoti bo'lmay turib va diniy tashkilot boshqaruvi markaziy organining ruxsatisiz diniy ta'limotdan saboq berish, xuddi shuningdek xususiy tartibda diniy ta'limotdan saboq berish bilan bog'liq harakatlar sodir etilganda belgilangan eng kam ish haqining tegishli miqdoridagi jarima solinishiga yoki belgilangan muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'lishi haqidagi qoidalar mustahkamlab qo'yilganini ta'kidlash zarur.

Amaldagi qonunchiligidan ko'ra, muayyan hollarda birinchi marta qonunni buzgan shaxs yoki tashkilotga ma'muriy jazo qo'llaniladi. Agarda o'sha shaxs yoki tashkilot shundan keyin ham qonunni buzishda davom etsa, unga endi jinoyat kodeksidagi choralar qo'llaniladi. Masalan, «O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi» normalariga ko'ra, «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi»ning yuqorida qayd etilgan bandlaridagi harakatlar ma'muriy jazo qo'llangandan keyin yana sodir etilsa, bu «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi»da belgilanganidan ko'ra og'irroq jazolar qo'llanishiga olib keladi.

SHu bilan birga, «O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi»da «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi»da nazarda tutilmagan bir qator harakatlar uchun ham jazolar belgilanganini qayd etish zarur. Jumladan:

- voyaga etmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish;
 - voyaga etmagan bolalarni ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o'rnnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o'qitish;
 - dindorlardan majburiy yig'im undirish va soliq olish;
 - diniy ta'lim olishda hamda fuqaro dinga nisbatan, dinga e'tiqod qilish yoki e'tiqod qilmaslikka nisbatan, ibodat qilishda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka nisbatan o'z munosabatini belgilayotgan paytda majburlash bilan bog'liq diniy faoliyat yuritish;
 - g'ayriqonuniy jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlarni qonunga xilof ravishda tuzish yoki ularning faoliyatini tiklash;
 - g'ayriqonuniy jamoat birlashmalari yoki tashkilotlari faoliyatida faol qatnashish bilan bog'liq harakatlar belgilangan eng kam ish haqining tegishli miqdorida jarima solinishiga yoki belgilangan muddatga axloq tuzatish ishlari, yoki qamoq yohud ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilab qo'yilgan.

Mamlakatimizda missionerlik va prozelitizmning oldini olish, ayniqsa yoshlarni bunday zararli oqimlar domiga tushib qolishlarining oldini olish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirishni taqozo qilmoqda. Bu vazifani muvaffaqiyatli hal etishda yosh avlodni hozirgi davrda mamlakatimizda din sohasida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, yaratilgan imkoniyatlar bilan muntazam asosda tanishtirib borish muhim ahamiyatga ega.

SHu bilan birga, qiziqishlari, bilim darajalarini inobatga olgan va differensial yondashgan holda yoshlarning din, shu jumladan, xalqimiz asrlar davomida e'tiqod qilib kelgan islom dini haqidagi bilimlarni va milliy-diniy an'analar asoslarini sog'lom asosda egallashlariga ko'maklashish ham bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bunday bilimlar ob'ektiv bo'lishi, voqelikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi va o'z mohiyatiga ko'ra, Vatan va millat manfaatlari bilan uzviy bog'liq bo'lmog'i kerak. YOshlarimizning missionerlikning mohiyati haqida xolis va etarli bilimga ega bo'lishlari unga qarshi immunitetni shakllantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Tahlillar hech bir mintaqa, hech bir davlat bunday tahdiddan xoli emasligini ko'rsatadi. Bunday holatlarning oldini olish uchun esa missionerlikning mohiyatini to'g'ri va chuqurroq anglash, uni bartaraf etish yo'lida maqsadli, tizimli va tadrijiy faoliyat olib borish zarur bo'ladi. Egallangan bilimlar qanchalik xolis va chuqur bo'lsa, uning zamirida yuzaga keladigan baholar, qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo'ladi. SHakllangan qadriyatlar tizimi esa turli tahdidlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Missionerlik va prozelitizm so'zlarining mazmun-mohiyati nimada?
2. Missionerlik tashkilotlari asosan qanday maqsadlarni ko'zlaydi?
3. Zamonaviy sektalar tomonidan missionerlik faoliyatini olib borishda qanday uslublardan foydalanilmoqda?

Adabiyotlar

1. Missionerlik: kecha va bugun. - Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008. - 64 b.
2. SHermuhammedov K., Karimov J., Najmiddinov J. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. – Toshkent: «Movarounnahr» nashriyoti, 2016. – 224 b.
3. Missionerlik: mohiyat, maqsadlar, oqibatlar va oldini olish yo'llari. - Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2017. - 200 b. (A.Achiliev bilan hammualliflikda).

7- mavzu:Diniy ekstremizm va terrorizm: mafkura va amaliyat, qarshi kurash strategiyasi

Reja

1. Ekstremizm, aqidaparastlik va mutaassiblikning mazmun-mohiyati.
2. Terrorizm tushunchasi va uning asosiy belgilari.
3. Islom niqobidagi ekstremizmning g‘oyaviy ildizlari.
4. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari.

Tayanch tushunchalar:

Ekstremizm, diniy ekstremizm, fundamentalizm, mutaassiblik, aqidaparastlik, terror, terrorizm, xalqaro terrorizm, firqalar, xorijiyalar, soxta salafiyalar

1. Ekstremizm, aqidaparastlik va mutaassiblikning mazmun-mohiyati. Diniy ekstremizm va terrorizm kabi hodisalarning ildizlari uzoq tarixga borib taqalsa-da, ular hech qachon ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot uchun bugungidek tahdid solmagan. Zero, hozirda diniy ekstremizm va terrorizm global xarakterga ega bo‘lib, dunyoning barcha mamlakatlari hamda mintaqalariga birdek xavf solmoqda. SHunday ekan, uning oldini olish va unga qarshi kurashish insoniyatning istiqboliga daxldor masalaga aylandi.

Ekstremizm (lotincha – «aql bovar qilmas darajada», «haddan oshish») jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga zid radikal qarashlar va harakatlarni anglatadi. Ularga diniy tus berish esa, diniy ekstremizmga olib keladi.

Diniy ekstremizm – jamiyat uchun an’anaviy bo‘lgan diniy qadriyatlar va aqidalarni rad etish, ularga zid g‘oyalarni aldov va zo‘rlik bilan targ‘ib qilishga asoslangan nazariya va amaliyotni anglatadi.

Ekstremistik qarashlarni barcha dinlarda, buddaviylik, xristianlik, islomdagi turli oqimlarda uchratish mumkin. Masalan, mutaxassislar katolik cherkovining erkin fikr yurituvchi, hukmron feodal-katolik cherkovi aqidalarini rad etuvchi kishilar – papa hokimiysi dushmanlarini ta’qib qilish uchun XIII asrda tuzilgan va minglab odamlarning qurbon bo‘lishiga olib kelgan inkvizitsiya faoliyatini ham ekstremizmning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida baholaydilar. Ammo hozirda islam dini niqobi ostidagi diniy-siyosiy harakatlar a’zolari tomonidan turli jinoyatlar sodir etilayotgani jamiyat xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda.

Fundamentalizm – (lotincha – «asos») tushunchasining ma’nosи muayyan ijtimoiy hodisaning dastlabki ko‘rinishini anglatadi.

Diniy fundamentalizm – «ma’lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo‘l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin», degan fikrni ilgari surish

ta’limotini anglatadi. Istilohda aqidaning o‘zgarmasligini himoya qiladigan, muayyan diniy e’tiqod shakllanishining boshlang‘ich davrida belgilangan barcha yo‘l-yo‘riqlarni qat’iy va og‘ishmay bajarilishini talab qiladigan diniy oqimlarni ifodalashda qo‘llaniladi.

«Fundamentalizm» atamasi aslida xristian dini bilan bog‘liqdir. Fundamentalizm iborasi birinchi bor I Jahon urushi arafasida vujudga kelgan protestantlikdagi ortodoksal oqimlarni ifodalash uchun ishlatilgan. Bu oqim 1910 yildan keyin shu nom bilan atala boshlagan. Fundamentalistlar xristianlikning an‘anaviy aqidalariga, ayniqsa Bibliyaning mutlaqo mukammalligiga ishonishni mustahkamlash, uni so‘zma-so‘z sharhlashga qat’iy rioya qilishni talab qildilar. Bu oqim keyinchalik Amerikada keng tarqalib ketdi. 1919 yili Filadelfiyada Jahon xristian fundamentalistlari assotsiatsiyasiga asos solindi.

XX asrning 70-yillaridan boshlab, bu so‘z islomga nisbatan qo‘llanila boshladi. Bunda «fundamentalizm» atamasi – Qur‘on va hadislarni so‘zma-so‘z talqin etuvchi, ilk islomga qaytishga qaratilgan aqidalarni targ‘ib qiluvchi diniy-konservativ ruhdagi yo‘nalishga nisbatan ishlatildi. Buning natijasida jahon matbuotlarida islam niqobidagi mutaassib jangarilarni «fundamentalistlar» deb atash ham odat tusiga kirdi.

SHunday ekan, ekstremizm yoki fundamentalizmni faqat muayyan din bilan bog‘lash mutlaqo asossiz. Xususan, islam dini, u bilan bog‘liq turmush tarzi va qadriyatlar majmui hech qachon ekstremistik tuzilmalarining go‘yo din va musulmon jamoasi ravnaqi yo‘lida amalga oshirayotgan terrorchilik xurujlarining asosiy sababi sifatida qaralishi mumkin emas.

Islam shiorlaridan tanlab foydalanadigan, dinding asl mohiyatini buzib talqin qiladigan ekstremistik tuzilmalar xuddi yuqoridagi kabi go‘yoki, keng xalq ommasi bilan uzviy birlik mavjudligini ko‘rsatish, aslida esa jamiyatda tartibsizlik va parokandalikni yuzaga keltirish uchun mablag‘ yig‘ish, asosiy tahdid manbai sifatida odamlar ongini egallah, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali hokimiyatga erishishdek ehtiyojlarini qondirish maqsadini ko‘zlaydi.

Hozirgi davrda ko‘plab ekstremistik uyushmalar va mutaassib harakatlar turli dinlar, shu jumladan, islam, xristianlik, yahudiylilik dirlari ta’limotlaridan foydalanmoqdalar.

Aqidaparastlik (arab. – «aqida» – «ishonch», «biror narsani ikkinchisiga bog‘lash») muayyan sharoitda, biron-bir g‘oyaga qat’iy ishonib, uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda, ko‘r-ko‘rona qo‘llash yoki shunga urinishni anglatadi. U muayyan qonun va qoidalar ta’sir doirasini sun’iy kengaytirishga urinishda yorqin namoyon bo‘ladi.

Mutaassiblik (arab. – «g‘uluv ketish», «chuqur ketish») o‘z fikr-mulohaza va dunyoqarashi to‘g‘riligiga o‘ta qattiq ishonib, boshqa diniy e’tiqodlarga murosasiz munosabatda

bo‘lishni anglatadi. Mutaassiblik barcha davrlarda turli din va yo‘nalishlar orasida keskin nizo va to‘qashuvlar kelib chiqishiga sabab bo‘lgan.

Ayni paytda, dunyoviy va diniy bilimlarning sayozligi, sof diniy tushunchalarning asl mazmunini bilmaslik ham diniy mutaassiblik g‘oyalarning tarqalishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu jarayonning eng xatarli jihatni dinni siyosiy lashtirish vositasida hokimiyatga intilish, dindan odamlar orasiga nifoq solish, qo‘poruvchilik ishlarini amalga oshirish va g‘arazli manfaatlarni ro‘yobga chiqarishda foydalanishga urinishlarda namoyon bo‘lmoqda.

Demak, diniy ekstremizm kelib chiqishining birinchi va asosiysi sababi bu – mutaassib fikr va qarashlarning paydo bo‘lishidir. Mutaassiblik diniy ekstremizm va terrorizmga zamin tayyorlaydi. SHu o‘rin qayd etish joizki, ko‘p manbalarda «aqidaparastlik» so‘zi hozirgi voqelikdan kelib chiqib «mutaassiblik» so‘zi bilan almashtirilgan holda istefoda etilmoqda.

2. Terrorizm tushunchasi va uning asosiy belgilari. Terrorizm (lotincha – «qo‘rqitish», «vahimaga solish») – aholining keng qatlamlarida vahima va qo‘rquv uyg‘otish, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali davlat hokimiyatini egallash maqsadiga qaratilgan jinoiy faoliyatdir.

Terror – ommaviy va siyosiy maqsadlarga erishish uchun zo‘ravonlikdan hamda zo‘ravonlik qilish bilan tahdid solishdan muntazam foydalanishdir. SHunday qilib, «terror» dushmani jismoniy zo‘ravonlik yo‘li bilan qo‘rqitish, hatto uni jismonan yo‘q qilishni anglatadi. «Terrorizm» esa terror amaliyotidir. Bu ikki tushunchani shu tarzda chegaralash maqbul bo‘lsa, u holda terrordan kelib chiqqan terrorizm aslo yangi hodisa bo‘lmay, bugungi kungacha asrlar qo‘ynidan etib kelgan, deb hisoblash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida «terrorizm»ga quyidagicha ta’rif berilgan: «Terrorizm – xalqaro munosabatlarni murakkablashtirish, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzish, xavfsizligiga putur etkazish, urush va qurolli mojarolar chiqarish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, aholini qo‘rqitish maqsadida davlat organini, xalqaro tashkilotni, ularning mansabdor shaxslarini, jismoniy va yuridik shaxsni biron bir faoliyatini amalga oshirishga yoki amalga oshirishdan tiyilishga majbur qilish uchun zo‘rlik, kuch ishlatish, shaxs yoki mol-mulkka xavf tug‘diruvchi boshqa qilmishlar yoxud ularni amalga oshirish tahdidi, shuningdek, terrorchilik tashkilotining mayjud bo‘lishini, ishlab turishini, moliyalashtirilishni ta’minalashga, terrorchilik harakatlarini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga ko‘maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag‘-vositalar va resurslar berish yoki yig‘ishga, boshqa xizmatlar ko‘rsatishga qaratilgan faoliyat».

YUqorida keltirilgan ta’riflarda terrorizmning nihoyatda muhim bir xususiyati – uning muayyan siyosiy maqsad yoki amaliy natijalariga emas, balki u yoki bu xuruj natijasida odamlar

orasida, ijtimoiy fikrda yuzaga keladigan xavotirli aks-sado, shov-shuvga erishishga qaratilgani ta'kidlangan. XX asrning 60-yillardan boshlab, terrorizmning mojarolarni keltirib chiqaruvchi hodisa sifatidagi salohiyati, butun-butun mintaqalar yo'nalishi turlicha bo'lgan terrorchi tashkilotlar va guruhlar faoliyat ko'rsatgan joylarga aylanib qoldi. Buning natijasida, terrorchilik harakatining ko'lamigina emas, balki metodlari ham o'zgardi. Uning eng dahshatli ko'rinishlaridan biri – o'zini avvaldan o'limga tayyorlagan terrorchi-kamikadzelar tomonidan amalga oshirilayotgan harakatlarni keltirish mumkin.

Musulmon mamlakatlarida terrorchi uyushmalar ommaviy bo'la olmagani uchun aholining keng qatlamlari nomidan harakat qilish taassurotini uyg'otish maqsadida diniy shiorlardan niqob sifatida foydalanadilar.

Demak, terror, terrorchilik faoliyati, terrorchi birgalikda bir butun hodisa sifatida terrorizmni tashkil etadi. Hozirgi davrda u global miqyos kasb etib, xalqaro terrorizm shaklini oldi.

«Xalqaro terrorizm» tushunchasi davlatlar, xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiya va harakatlarni beqarorlashtirishga qaratilgan siyosiy qo'poruvchilik faoliyatini ifodalaydi. U og'ir jinoyatlardan bo'lib, uzoq davom etgan jarayonlarning hosilasi hisoblanadi.

Xalqaro terrorizm fenomeni, ayniqsa, XX asr boshlarida avj ola boshladi, ya'ni xalqaro terrorizmga qarshi kurashda davlatlararo hamkorlikni yo'lga qo'yilishi o'tgan asrning 30-yillardan boshlangan. Masalan, 1934 yilda Madridda bo'lib o'tgan jinoyatchilikka oid qonunlarni unifikatsiyalashtirish muammolariga bag'ishlangan konferensiya terrorizmning «Aholini dahshatga solish va har qanday ijtimoiy tashkillashuvni yo'q qilish maqsadida biror bir vositani qo'llash» degan ma'nodagi ta'rifi qabul qilinishiga erishilgan. 1937 yilda 20dan ortiq davlat terrorizmning oldini olish va bunday harakatlar uchun jazolash haqidagi Konvensiyani imzoladi.

Bugungi kunda terrorchilik uslublari ancha kengayganini ta'kidlash zarur. 1970-yillarda biror shaxs yoki siyosiy arbobga qarshi uyuştirilgan terror amaliyoti ko'proq uchragan bo'lsa, hozirda jamoat joylarida, samolyot, avtobus va poezdlarda portlashlarni sodir etish orqali ko'plab tasodify kishilarning qurbon bo'lishiga olib keladigan qo'poruvchilikni amalga oshirishga e'tibor berilmoqda. Ekspertlarning fikricha, bunday harakatlar birinchi navbatda nobud bo'lganlardan ko'ra, uning guvohlariga qaratilgan.

Xalqaro terrorchilik harakatlarining asosiy belgilari:

- xalqaro huquq himoyasidagi ob'ekt yoki sub'ektlarga qarshi qaratilgani;
- davlatlar chegaralarini buzish orqali amalga oshirilishi;
- a'zolari ikki yoki undan ortiq davlat fuqarolari, shu jumladan, yollanma shaxslar bo'lgan ekstremistik guruhlar tomonidan sodir etilishi;

- ekstremistik guruhlar tarkibida qo‘poruvchilik harakatlari bo‘yicha xorijlik yo‘riqchilarning qatnashishi;
- ekstremistik guruh a’zolarining boshqa davlatlar hududida tashkil etilgan maxsus lagerlarda tayyorgarlik ko‘rishi;
- tayyorgarlik ko‘rish va qo‘poruvchilikni sodir etishda xorijiy davlatlar va ekstremistik uyushmalar yordamidan, xalqaro tus olgan noqonuniy qurol-yarog‘ savdosi va narkobiznesdan keladigan moliyaviy manbalardan foydalanilishi.

Muayyan mamlakat hududida sodir etilgan terrorchilik xurujida qayd etilgan u yoki bu belgilarning bo‘lishi, unga xalqaro maqom berilishi va shundan kelib chiqib, unga mos choralar ko‘rilishiga olib keladi.

3. Islom niqobidagi ekstremizmning g‘oyaviy ildizlari. Islom niqobi ostida paydo bo‘lgan ekstremistik harakatlar tarixiga e’tibor beradigan bo‘lsak, ularning ildizlari uzoq o‘tmishga, hatto islom tarixining bиринчи asriga borib taqalishini ko‘rish mumkin. Uning ilk vakillaridan biri sifatida 657 yili xalifa Ali (r.a.) askarlaridan ajralib chiqqan, o‘zlarini haqiqiy musulmon, saflariga qo‘shilmaganlarni «dindan qaytgan» deb e’lon qilib, ularga qarshi murosasiz kurash olib borgan «xorijiylar» (arabcha—ajralib chiqqanlar, isyonchilar) diniy-siyosiy oqimi faoliyati fikrimizning isboti bo‘la oladi.

Xorijiylig yo‘nalishi va ta’limoti. Xalifa Usmon ibn Affon (r.a.) (644-656) davriga kelib islom jamoasi ichida fitnalar paydo bo‘ldi. Usmon (r.a.)ga uyuştirilgan suiqasd (656 y.) ham ana shu siyosiy kurashlarning natijasi edi. Xalifa o‘ldirilgach, uning o‘rniga Ali ibn Abu Tolib (r.a.) (656-661) saylandi.

657 yil (37 hijriy)da SHomning (Suriya) shimoli-sharqida joylashgan Siffin mavzesida xalifa Ali (r.a.) qo‘smini bilan u erner hokimi Muoviya (r.a.) qo‘smini o‘rtasida «Jamal voqeasi»dan bir oy o‘tib, to‘qnashuv sodir bo‘lgan. Ushbu to‘qnashuv 656 yil uchinchi xalifa Usmonning (r.a.) o‘ldirilishi munosabati bilan Ali (r.a.) va Muoviya (r.a.) tarafдорлари o‘rtasidagi keskin qarama-qarshiliklar sabab bo‘ldi. Marhum xalifaning yaqin qarindoshi bo‘lgan Muoviya (r.a.) xalifalik taxtini egallagan Ali (r.a.)dan aybdor jinoyatchilarni jazolashni talab qilib, shundan so‘nggina Ali (r.a.)ga bay’at qilishni ma’lum qildi. Jang to‘qqiz kun davom etdi. Ali (r.a.)ning qo‘li baland kelib turganda, Muoviya (r.a.) tarafдорлари hiyla ishlatdilar. Ular Amr ibn Oss (r.a.) ko‘rsatmasi bilan katta nayzalar uchiga yangi ko‘chirilgan Mushaf varaqlarini ilib, Qur’on bilan hukm chiqarishni talab qildilar. Muoviya (r.a.)ning janjalni sulh orqali hal qilish haqidagi taklifini Ali (r.a.) qabul qilgach, jang to‘xtatildi. Ali va Muoviya (r.a.)lar o‘rtasida hijriy 37 yil safar oyining 15 kuni (mil. 657 yil 8 sentyabr)da sulh tuzildi. Mazkur «Siffin» jangi musulmonlar uchun juda katta yo‘qotish bo‘ldi. Unda hammasi bo‘lib to‘qson ming musulmon halok bo‘ldi. Aynan «Jamal» va «Siffin» janglari musulmonlar o‘rtasida dastlabki bo‘linishlar va

turli firqalar kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Ahli sunna va-l-jamoa e’tiqodiga ko‘ra, sahobiylar orasida yuz bergan bu vaziyatlarda ular ayblanmay, ularning bari haqni izlagan mujtahidlar hisoblanadilar. Umumiy qoidaga asoslanib, ulardan qaysi birlari to‘g‘ri ijтиҳод qilgan bo‘lsalar, ikki ajr, xato ijтиҳод qilgan tarafga esa bir ajr beriladi.

Xalifa Ali (r.a.) bilan Muoviya (r.a.) o‘rtasidagi tuzilgan bitimdan Kufa yaqinida turgan 12 ming kishidan iborat qo‘shtinning bir qismi norozi bo‘ldi. Ular «hukm chiqarish faqat Allohning iznidadir», degan shior bilan qo‘shtinni tark etib, Kufa yaqinidagi Harura qishlog‘iga ketdilar. Bu firqaning Kufadagi «xypyj» (bo‘ysunmaslik) voqeasi ularning «xavorij» (qarshi chiquvchilar) nomini olishlariga sabab bo‘ldi. Bu voqeа Harura qishlog‘ida yuz bergenligi bois avvaliga ularni «haruriylar» deb ham ataganlar. Ular o‘zlarini «SHuroт» (Jonlarini Alloh yo‘lida tikkan kishilar) deb nomlaganlar. YAna ularning «Muhakkima» («hukm Allohning iznida» deguvchilar) degan nomlari ham bo‘lgan.

Xorijiylar o‘zlariga Abdulloh ibn Vahb ar-Rosibiyni amir etib saylab, Ali (r.a.) va Muoviya (r.a.)ni yo‘q qilish payiga tushdilar. Xalifa Ali (r.a.)ni 661 yilda xorijiy Abdurrahmon ibn Muljam o‘ldirgach, xorijiylar ikki firqaga bo‘linib, biri Iroqda qoldi, ikkinchisi Arabiston yarim oroliga ketdi. Umaviylar davrida xorijiylarga qarshi keskin kurash olib borildi. CHunki ular Umaviylar davlatiga katta xavf solardilar. Bu davrda xorijiylar kuchayib, Kirmon, Fors, YAmoma, Hadramavt, Toif va YAman kabi shahar va o‘lkalarni egalladilar.

Hokimiyat Umaviylardan Abbosiylar sulolasiga (749-1258) qo‘liga o‘tganidan keyin ham bu toifa bir muddat o‘z kuchini yo‘qotmadi. Biroq Abbosiylar uzoq vaqt ularga qarshi uzlusiz olib borgan kurashlaridan so‘nggina xorijiylar inqirozga yuz tutdi.

Demak, islomda dastlab paydo bo‘lgan firqa «xorijiylar»dir. «Xorijiylar» o‘z talqinlaridagi «sof» islom qoidalariiga qat’iy rioya qilish tarafdori edi. Aynan ular o‘z qarashlari va faoliyatiga qo‘shtilmaganlarni imonsizga chiqarish, ularga qarshi «jihad» olib borish haqidagi g‘oyalarni ishlab chiqib, terror uslubini qo‘llash orqali hukmdorlarni jismonan yo‘q qilish amaliyotini boshlab bergan edi. Bunday g‘oyalar kelib chiqishiga ko‘ra hokimiyat uchun kurashning zo‘ravonlikka asoslangan usullaridan bo‘lib, minglab kishilarning halok bo‘lishiga olib kelgan. O‘z davrida ular bilan bahs munozara qilish, ularning fikrlariga raddiya berish, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish maqsadida Abdulloh ibn Abbos (r.a.) ularning huzuriga jo‘natilgan edi. Abdulloh ibn Abbos asosan ularning «Allohning hukmi» borasidagi xato qarashlariga raddiya bergan. Natijada jami olti minglik xorijiylardan ikki ming nafari zalolat aqidalaridan qaytarilgan.

VII asrning ikkinchi yarmida xorijiylar orasida rahbarlarining ismi bilan ataladigan bir necha firqalar paydo bo‘ldi. Ana shunday mutaassib firqalar orasida eng murosasiz va shafqatsiz jamoa nomini olgan Nofi’ ibn Azraq (v.685y.) boshchiligidagi «Azraqiyalar» oqimi alohida o‘rin egallaydi. Azraqiyalar gunohi kabira (katta gunoh) qilgan barcha musulmonlarni «kofir» deb,

ularning ta’limotiga qo‘shilmagan kishilarga qarshi jihod e’lon qilish, hattoki, qariya, ayol va bolalarning qonini to‘kishni halol, deb bilganlar.

IX asr oxirida Janubiy Iroqda yuzaga kelgan qarmatiylar namoz, ro‘za, zakot, haj kabi amallar farz qilinmagani, Qur’on oyatlarida masjid qurish yoki u erda yig‘ilish haqida hukmlar yo‘q, degan da’vo bilan masjidlarga borishni man qilish darajasigacha borgan edi. Harakat o‘z nomini uning asoschisi Hamdon ibn al-Ash’asning laqabi Qarmat so‘zidan olgan bo‘lib, uning ma’nosini manbalarda turlicha «kalta oyoq» yoki «qizil ko‘z» kabi ma’nolarda ifodalangan. Islomdagi mavjud qoida va tartiblarning mohiyatini buzib talqin qilish oqibatida ular hattoki, hajga keluvchilar Ka’baga sig‘inib, Allohga shirk keltirishmoqda, degan da’volar ostida 930 yilda Makkaga hujum qilib, uni talon-taroj qilib, hojilarning bir qismini qul qilishgan, bir qismini esa o‘ldirishgan. Ka’bani vayron qilib, qora toshni ikkiga bo‘lib, Bahraynga olib ketishgan, faqat 20 yildan keyin katta to‘lov evaziga u Makkaga qaytarib berilgan. Qarmatiylar islom tarixida o‘chmas dog‘ qoldirgan jinoyatlarni sodir etgan.

XI asr oxirida Eronda yuzaga kelib, maxfiy ravishda ish ko‘rgan «hashshoshiylar» (arabcha – hashish (nasha) chekuvchilar, giyohvandlar) terrorchilik oqimi esa hokimiyatni egallah maqsadida ularga xayrixoh bo‘lmagan hukmdorlarga suiqasd uyushtirish amaliyotini oldinga surgan edi. Uzoq vaqt hashshoshiylar ko‘plab hukmdorlarga tahdid solib turgan, hattoki, ayrim Evropa mamlakatlari rahbarlari o‘z xavfsizliklarini ta’minalash uchun ularga to‘lov to‘lashga majbur bo‘lgan. SHu bilan birga, «hashshoshiylar» zamonaviy terrorchilar tomonidan ham keng qo‘llanilayotgan, oddiy kishilar va yoshlarga giyohvand moddalarni iste’mol qildirib, o‘lsa shubhasiz jannatga tushishiga ishontirgan.

Diniy mutaassiblikka asoslangan ixtiloflar oqibatida cheksiz nizolar, kelishmovchiliklar, hatto qonli urushlar kelib chiqib, katta talofatlarga va jamiyatning inqiroz tomon yuz tutishiga sabab bo‘lgan. Buzg‘unchilik va zo‘ravonlikka asoslangan, e’tiqodiy birlikka tahdid solgan bunday oqimlar faoliyati o‘z davri ulamolari tomonidan qattiq qoralanib, sultonlar tomonidan ta’qib qilinganini alohida ta’kidlash lozim.

4. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. Din niqobidagi ekstremizm va u bilan bog‘liq terrorizm dunyoning 15 dan ortiq mamlakatlariga alohida tahdid solmoqda. Er kurrasining turli qitalarida joylashgan bunday mamlakatlarni shartli tarzda bir necha guruhga bo‘lish mumkin.

Birinchi guruhga mansub SHimoliy Afrikada joylashgan ayrim arab mamlakatlari, jumladan, eng katta arab davlati bo‘lgan Misr Arab Respublikasi uchun diniy ekstremizm bilan bog‘liq terrorchilik harakatlari haqiqiy muammoga aylandi. 1970-1980 yillarda bunday jarayon Tunisni ham qamrab oldi. Mazkur mintaqada joylashgan yana bir arab davlati – Jazoirdagi diniy-ekstremistik tashkilotlarning qo‘poruvchilik faoliyati tufayli o‘n minglab begunoh insonlar halok

bo‘lgan bo‘lsa, radikal oqimlar Sudanda ichki ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning mutlaqo izdan chiqishiga, Darfur mintaqasining dunyoning eng fojiali nuqtalaridan biriga aylanishiga sabab bo‘ldi.

Ikkinchi guruhga Osiyo qit’asida joylashgan yana bir necha arab davlatlarini kiritish mumkin. Turli-tuman siyosiy, iqtisodiy va diniy-mafkuraviy sabablarga ko‘ra, Falastin hududlari, Suriya, Iroq Respublikasi diniy ekstremizm bilan bog‘liq terrorchilik harakatlaridan katta talafot ko‘rmoqda. Ayniqsa, Suriya davlatining iqtisodiyotiga 5 yillik urush 255 milliard AQSH dollari miqdorida zarar keltirdi. Mamlakatning o‘nlab shaharlaridagi 2 milliondan ziyod bino va inshoatlar poydevorigacha yo‘q qilingan, neft-gaz qazib chiqaruvchi quvvatlarning ko‘p qismi «ISHID» jangarilari qo‘lida qolmoqda. SHu sababli, 85% suriyaliklar qashshoq holatga tushib qolgan. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, Suriyani tiklash uchun yiliga 100 milliard AQSH dollari lozim bo‘ladi. SHundan keyingina 9 yil ichida davlat 2010 yilgi darajaga chiqishi mumkin. Suriyaning sobiq Bosh vaziri va hozirda BMTning iqtisodiy va ijtimoiy Komissiyasi ijroiy kotibining o‘ribbosari bo‘lgan Abdulloh al-Dardoriy aytishicha, 2010 yili Suriyaning yalpi ichki mahsuloti 62 milliard AQSH dollariga teng bo‘lgan. Ammo, fuqarolar urushidan so‘ng yalpi ichki mahsuloti 27 milliard AQSH dollariga tushib ketgan. Faqatgina ishlab chiqarish maydonlarining o‘zi 90% vayron qilingan. Turar-joy binolarining yarmi esa buzib tashlangan.

Diniy-ekstremistik faoliyatning uchinchi o‘chog‘i Janubi-SHarqiy Osiyo mintaqasida joylashgan deyish mumkin. Ushbu xatarning olovli nafasi, ayniqsa, Pokiston, Indoneziya, Malayziya hamda Hindiston va Filippinning ayrim hududlarida o‘zining halokatli oqibatlarini namoyon etmoqda. Boshqacha aytganda, qadim-qadimlardan buddaviylik, hinduiylik, islom va boshqa dinlarga e’tiqod qiluvchilar tinch-totuv yashab kelgan ulkan hududda ham ekstremizmning qo‘poruvchilik salohiyati o‘zini ko‘rsatmoqda.

Islom mafkura sifatida musulmonlarni birlashtiruvchi kuchli omil bo‘lib kelgan. Asrlar davomida turli ijtimoiy tabaqalar va millatlarni qamrab olishi natijasida, bugungi kunda islom o‘z rivojlanishida katta qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Islom dini doirasida yuzaga kelgan turli qarama-qarshiliklar oqibatida jangari millatchilik va diniy ekstremizmga asoslangan siyosiy kuchlar va ittifoqlar paydo bo‘lmoqda.

Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash olib borishda kompleks va tizimli, shu jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy va mafkuraviy chora-tadbirlarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Albatta, bunday chora-tadbirlarni qo‘llash katta vaqt, tegishli reja va yirik mablag‘lar talab qiladi.

Diniy ekstremizmga qarshi kurashda xalqaro birdamlik va kelishuvlar ham katta ahamiyatga ega. Xususan, o‘z hududida diniy ekstremistlar va terrorchilar faoliyatiga yo‘l ochib

bermaslik, ularga yordam ko'rsatmaslik va siyosiy boshpana bermaslik hayotiy-amaliy ahamiyatga ega.

Arab – muslimon davlatlari ichida Misr Arab Respublikasi birinchi bo'lib terrorizm muammosiga 1940-yillarda, «Musulmon birodarlar»ning o'z faoliyatida ishontirish usullaridan radikal terrorchilikka – davlat, politsiya va armiyaning ko'zga ko'ringan arboblarini jismonan yo'q qilish yo'liga o'tishi natijasida duch keldi. Ushbu davlatning diniy mutaassiblikka qarshi kurashdagi bir necha o'n yillik tajribasi radikal diniy guruhlarga xayrixohlik bilan qarash, ularni pinhona rag'batlantirish ekstremistik harakatlarning yanada faollashuviga, yangilarining paydo bo'lishiga imkon yaratishini ko'rsatadi.

Musulmon mamlakatlarining diniy ekstremizmga qarshi kurash strategiyasi umuman olganda, har bir davlatning o'ziga xos xususiyatlari va ustuvor yo'nalishlaridan qat'i nazar, bilvosita va bevosita qarshilik ko'rsatish usullarini o'z ichiga oladi.

Bilvosita choralarga rasmiy diniy tashkilotlar bilan hamkorlik, zo'ravonlikka qarshi kurashda diniy arbob va muassasalarning ahamiyatini oshirish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy chora-tadbirlarni amalga oshirishga yordam beradigan dasturlarni kiritish mumkin.

Bevosita qarshilik ko'rsatish o'z ichiga huquqni muhofaza qilish idoralari tomonidan ko'rildigan choralarni, aksilterrorchilik qonunlarini qabul qilish, ulardan keng foydalanish kabi tadbirlarni oladi. SHu o'rinda, masalan, Misr qonunchiligi diniy asosda partiyalar tashkil etishni taqiqlashini ta'kidlash joiz. Bundan tashqari, davlat noqonuniy ravishda qurol saqlaganlar, zo'ravonlikni targ'ib etuvchilar, radikal guruhlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlovchilarga nisbatan qattiq ma'muriy-jinoiy choralarni qo'llashini ham qayd etish lozim.

1990-yillarda zo'rlik va terror harakatlarining kuchayishi esa Misr hukumatini «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi qonun kabi, bir qator yangi huquqiy hujjatlarni qabul qilishga majbur qildi. Bunday maxsus Qonunning qabul qilinishi xavfsizlik idoralariga ko'proq erkinlik berish va ular olib borayotgan faoliyatning samaradorligini ta'minlash bilan bog'liq edi.

Musulmon mamlakatlari diniy ekstremizm va zo'ravonlik muammolarini ilmiy va keng qamrovda echish bo'yicha amaliy ishlarni tashkil etmoqda. Jumladan, ilmiy-tekshirish institutlari va strategik markazlarda bu muammoning ilmiy-tizimli tahliliga katta e'tibor berilmoqda. Bu jarayonda har bir mamlakatda muayyan o'ziga xosliklar kuzatilishi, tabiiy, albatta. Masalan, Indoneziyada ekstremizmga qarshi olib borayotgan kurashda ekstremistlarning yirik vakillari, jumladan, qamoqda bo'lgan Abu Bakar Bashir tomonidan tashkil etilgan «islom maktablari»ni yopish choralari ko'rilib qilayotgani bunga misol bo'la oladi. SHuningdek, 2002 yilda Bali orolida sodir etilgan va 200 dan ortiq kishining umrini xazon qilgan portlashlarning tashkilotchilaridan

biri Imom Samudra tomonidan yozilgan va jangarilik g‘oyalariga boy bo‘lgan kitoblarni bosish va tarqatish man etilganini ham qayd etish zarur.

Bunday harakatlar hozirda hukumat va ulamolarning diniy ekstremizmga qarshi birgalikda olib borayotgan ishlarining bir qismi sifatida qaralmoqda. Umuman olganda, Indoneziyada «Politsiya ishtirokida kuchga va musulmon ulamolarining faol ishtirokida mafkuraga tayanib ish olib borish – ekstremizmga qarshi kurashning ikki fronti» sifatida e’lon qilinganini ta’kidlash lozim. Radikal qarashlarga qarshi kurash bo‘yicha etakchi musulmon ulamolari ishtirokida guruh shakllantirilgani ham bu yo‘lda amaliy ishlarga o‘tilganining isboti bo‘la oladi.

Diniy ekstremizm va terrorizm muammosi bilan duch kelayotgan musulmon mamlakatlari ushbu masalani turli xalqaro forumlarda ko‘tarish bilan dunyo jamoatchiligi diqqatini uni hal etishga qaratib kelmoqda. SHuningdek, radikal kayfiyatdagi mutaassiblar yashayotgan davlatlar bilan xavfsizlik sohasida hamkorlik qilish va jinoyatchilarni almashish bo‘yicha ikki tomonlama kelishuvlarni imzolashga ham alohida e’tibor berilmoqda. Jumladan, arab davlatlari o‘rtasida xavfsizlik sohasidagi siyosatni tartibga solish va terrorizm muammosini arab davlatlari Ichki ishlar vazirlari majlislarining dolzarb mavzusiga aylantirish yo‘lidagi harakatlar ham shu yo‘nalishdagi ishlarning uzviy qismi hisoblanadi.

Dinni quroq qilib olgan bunday ekstremistik harakatlar bugun umuman kishilik jamiyati hayotiga jiddiy tahdid solmoqda. Zamonaviy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash davlatlarning doimiy e’tiborini, uning oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan ko‘p qirrali siyosatni amalga oshirishda o‘zaro hamkorlik va sobitlikni talab etadi. SHakllanib, keng tarmoq otgan terrorizmga qarshi kurashmagan davlatlar zaiflashib, o‘z xalqi va mamlakati osoyishtaligi va barqaror rivojlanishini xavf ostida qoldiradi.

Mavzu bo‘yicha savollar

1. Ekstremizm, aqidaparastlik va mutaassiblik tushunchalarining mazmuni nima?
2. Terrorizmning mohiyati va uning xalqaro miqyos kasb etishining sabablari nimada?
3. Diniy mutaassiblikning ilk paydo bo‘lishi qaysi davrga borib taqaladi?
4. Musulmon dunyosining diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash tajribasining ahamiyatli jihatlarini keltiring.

Adabiyotlar

1. Diniy mutaassiblik: mohiyat, maqsadlar va oldini olish yo‘llari / A.Hasanov, O.YUsupov, K.SHermuhamedov, U.G‘afurov, J.Karimov. – Toshkent: Movarounnahr, 2013. – 160 b.
2. Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. To‘ldirilgan nashr. Mas’ul muharrir SHayx

Abdulaziz Mansur. – Toshkent: SHarq, 2014. – 536 b.

3. Ilmdan boshqa najot yo‘q / A.Abdullaev, N.Hakimova, SH.Jo‘raev, J.Karimov. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2015. – 156 b.

4. SHermuhammedov K., Karimov J., Najmiddinov J. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. – Toshkent: «Mavarounnahr» nashriyoti, 2016. – 224 b.

8- mavzu: Yangi diniy harakatlar va sektalar

Reja:

- 1.Dunyoning konfessional manzarasi
- 2.Xristianlik doirasida yuzaga kelgan noan’anaviy oqimlar
- 3.Islom dini doirasida yuzadagi diniy harakat va oqimlar
- 4.Hinduiylik zamirida yuzaga kelgan oqimlar.

Tayanch tushunchalar:

Din, Konfessiya, Sekta, Diniy tashkilot, Missionerlik, Xarizmatika, Xristianlik, Islom, Buddaviylik, Hinduiylik, Xitoy dinlari, O‘zbekistonidagi diniy konfessiyalar, Diniy tashkilot, Mormonlar, Krishnani anglash jamiyati, Iegovo shohidlari, Bahoiylik, Bobiylik, Noan’anaviy dini oqim, Ahmadiya

1. Dunyoning konfessional manzarasi. "Konfessiya" so‘zi (lotincha – "confessio") o‘zbek tiliga aynan tarjima qilinganda “e’tiqod qilish”, degan ma’noni anglatadi. Umuman olganda, diniy konfessiya deganda muayyan diniy ta’limot doirasida shakllangan va o‘ziga xos xususiyatlarga ega e’tiqod va ushbu e’tiqodga ergashuvchilar jamoasi tushuniladi. Bir din doirasida yuzaga kelgan bo‘lsa-da, aqidalar borasida farqlanadigan jamoalar ham diniy konfessiyalar jumlasiga kiradi.

SHuni inobatga olgan holda, mutaxassislar hozirgi kunda dunyoda taxminan 1000 dan ortiq diniy konfessiyalar mavjud, deb hisoblaydi.

SHuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, islom dinida bunday holat kuzatilmaydi. Hech qaysi mamlakatda hanafiy mazhabi alohida, boshqa mazhablar alohida konfessiya sifatida ro‘yxatdan o‘tmaydi. Masalan, O‘zbekistonda ham bir necha shia jamoalari bo‘lishiga qaramay, ular o‘zlarini alohida diniy konfessiya hisoblamaydilar.

Din jamiyat hayotining tarkibiy qismi sifatida kishilarning ijtimoiylashuviga, ularning turmush tarzini tashkil etish va tartibga solishga xizmat qiluvchi me’yoriy omillardan biri bo‘lib

kelgan. Dinning bunday roli uning tarixan shakllangan o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. CHunki, din, birinchidan, umuminsoniy axloq me’yorlarini o‘ziga singdirib olib, ularni hamma uchun majburiy xulq-atvor qoidalariga aylantirgan; ikkinchidan, odamlarning bahamjihat yashashiga ko‘maklashgan; uchinchidan, odamlarda ishonch hissini mustahkamlagan hamda hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni engib o‘tishlarida kuch bag‘ishlagan; to‘rtinchidan, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan-avlodga etkazishga yordam bergen va shu yo‘l bilan madaniyat rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Bugungi kunda dinga bo‘lgan qiziqishning kuchayib borishi globallashuv jarayonlarining o‘ziga xos in’ikosi deyish mumkin. Zero, globallashuv dunyoni bir butun va yaxlit qila borishi bilan bir qatorda, uning hosilasi sifatida alohida olingen millat va jamiyatlar darajasida o‘z-o‘zini anglashga bo‘lgan intilishning chuqurlashuviga ham zamin yaratmoqda. Bu jarayonlar o‘z navbatida inson ma’naviyatining uzviy qismi bo‘lgan dinning mohiyatini tushunish, uning inson va jamiyat hayotidagi o‘rnini anglashga bo‘lgan e’tiborning kuchayishini keltirib chiqarmoqda. SHu bilan birga, dinga bo‘lgan qiziqishning kuchayishi bugungi kunda kishilik jamiyatni oldida turgan muammolar, insonning ularni hal qilish yo‘llari haqidagi o‘y-izlanishlari, dunyoviy va diniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’milagan holda bugungi kunning og‘ir va murakkab savollariga to‘laqonli javob topishga intilishi bilan bog‘liq ekanini ham alohida qayd etish lozim.

Mutaxassislar ma’lumotlariga ko‘ra, XX asrning ikkinchi yarmida xristianlik, buddaviylik, islom va boshqa dinlar doirasida yuzlab sektalar paydo bo‘lgan. Bu shunday jarayonlar kelajakda davom etishi mumkinligini taxmin qilish imkonini beradi.

Yangi diniy harakatlar deganda XX asrning 70 yillarida Evropa va AQSHda tarqalgan noan’anaviy diniy guruhlar va oqimlar nazarda tutiladi. Tadqiqotchilar bunga an’anaviy dinlardagi inqiroz davri sabab bo‘lganligini ta’kidlaydilar. YADH liderlari jamiyat kayfiyatidagi o‘zgarishlarni, bu “o‘tkinchi dunyo”ning nuqsonlarini fosh qilib, o‘zlarini “xaloskor”, yuksak axloqli “haqiqqatgo‘y” sifatida ko‘rsatdilar. YADH to‘riga ko‘proq yoshlari ilindilar. YADH qat’iy ta’limotga ega bo‘lmagan tashkilot bo‘lib, uning faoliyati lider roli bilan belgilangan.

Liderlar an’anaviy diniy qadriyatlarga qarshi tashviqot ishlarini olib borganlar. Diniy hayot maxsus ishlab chiqilgan tartib qoida va nizomlar orqali amalga oshirilgan. YADHlarning ba’zilari dunyoning turli burchaklarida o‘z bo‘linmalariga ega bo‘lgan, biznes bilan shug‘ullanuvchi yirik xalqaro korporatsiyalarga aylandi. YADHlar meditatsiya amaliyotini keng qo‘llaydilar, tashkiliy jihatdan piramida shaklida boshqariladi. YADHlarning aksariyati noqonuniy faoliyat yurituvchi, kriminal tashkilotlardir. (Aum Sinrikyo (Tokio metrosi 10/5000 zah.), Quyosh ehromi (fransiya va Kanada) va b.). Diniy ta’limotlarni buzib talqin qiluvchi harakatlarga:

- protestantlarning “ikkilamchi” birlashmali – Iogov shohidlari, Oxirgi kun avliyolari Iso Masih cherkovi (mormonlar), Masih serkovi (Boston harakati);
- soxta xristian harakatlar – Mun birlashtirish cherkovi, Vissarion oxirgi Ahdi cherkovi, Oq birodarlar;
- sayentalogik kultlar – Xristian ilmi, Ron Xabbard sayentologiya markazi, Kloneyd, Oq ekologlar harakati;
- neo- va kvaziorientalistik maktablar va kultlar – “Tirik axloq”(Agni yoga), Krishnani anglash jamiyati, Transsidental meditatsiya, Aum-Sinrekyo, Saxadja-yoga va b.);
- YAngi majusiy tashkilot va kultlar – “Runvira” ukrain milliy e’tiqodi cherkovi, Rossiya jarangli kedrlari, Omsk “qadimgi diniy e’tiqodiga qaytish kulti” va boshqalar kiradi.

Sekta so‘zi, eng umumiyligi ma’noda, muayyan diniy, siyosiy yoki falsafiy qarashlarga ergashuvchilar guruhini anglatadi. Diniy sekta deganda ma’lum bir dindagi rasmiy aqidalarga zid ravishda ajralib chiqqan yoki mayjud dinlar va konfessiyalarga umuman aloqasi bo‘lmagan holda din bayrog‘i ostida faoliyat ko‘rsatadigan guruhlar tushuniladi. Bugungi kunda har ikkala yo‘nalishga mansub bo‘lgan ko‘plab sektalar faoliyat ko‘rsatmoqda. Mutaxassislar ularning sonini taxminan 5000 atrofida, deb baholaydilar.

Zamonaviy voqelik diniy-ekstremistik xarakterdagi sektalarning inson ongi va qalbi uchun kurash yo‘lidagi faoliyatining jonlanishi kuzatilayotganini ko‘rsatmoqda. Xususan, ma’lumotlarga ko‘ra, bizga qo‘shti bo‘lgan davlatlarda "Bogorodichiy sentr", "Serkov ob’edineniya", "Serkov Isusa", "Serkov Novogo Zaveta", "Belo bratstvo", "Bojestvennyiy orden Pervogo Angela" kabi o‘nlab diniy sektalar noqonuniy ravishda faoliyat olib bormoqda. "Satanizm" deb ataladigan sekta ham keng tarqalgan. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, o‘ta xavfli bo‘lgan bu sektaning Rossiyada 100 ming, Er yuzida 5 milliondan ortiq tarafdarlari bor.

Ular aholining diniy bilimlari pastligidan foydalanib, oxiratning yaqinligi bilan qo‘rqitish hamda asosan yoshlar va moddiy ahvoli nochor bo‘lganlar ichida ish olib borish yo‘li bilan o‘z tarafdarlarini ko‘paytirishga harakat qilmoqdalar. Bunday sektalarga asos solgan "avliyo"lar o‘z izdoshlarini aldash yo‘li bilan ularning mol-mulklariga egalik qilishga urinmoqdalar.

YAshirin faoliyat olib borishi, sekta ichida bo‘layotgan voqealarning ko‘pchilikka ma’lum bo‘lib qolmasligining qattiq nazorat qilinishi, ular faoliyatidan jamoatchilikning bexabar qolishini keltirib chiqarmoqda.

Ugandadagi "Oxirat kuni" sektasi boshliqlarining faoliyati bunga misol bo‘ladi. Oxiratni 1999 yilning 31 dekabriga "belgilagan" ushbu sekta rahbarlari o‘z tarafdarlarini mol-mulklarini sotish, tushgan mablag‘ni ularga berishga va shu yo‘l bilan gunohlardan forig‘ bo‘lishga chaqirgan. Qiyomatning 2001 yil 1 yanvarga "ko‘chirilishi" sekta rahbarlariga nisbatan shubha

uyg'onishiga olib kelgan. SHundan so'ng rahbarlar Kanungu qishlog'ida 500 dan ortiq o'z tarafdarlarini aldab bir joyga to'plab, ustlaridan yopib binoga o't qo'yib yuborishgan. Ommaviy axborot vositalari xabarlariga ko'ra, tezkor tadbirlarni o'tkazgan politsiya yana to'rt joyda ommaviy qabrlarni topgan. Umuman bu sektaning qurbanlari 1000 ortiq bo'lgani qayd qilingan.

Jahon xristianlarini birlashtirish yo'lidagi Muqaddas Ruh assotsiatsiyasi (Assotsiatsiya Svyatogo Duxa za ob'edinenie mirovogo xristianstva (ASD-OMX) bo'lib, Mun San Men birlashtirish cherkovi, Birlashtirish harakati, munchilar (unisty) kabi nomlar bilan ham ataladi.

Tarixi: BCH asoschisi Sun Myung Men 1920 yilda SHimoliy Koreyada mahalliy presbyterian cherkoviga e'tiqod qiluvchi dehqon oilasida tug'ilgan. Maktabda o'qish davrida u pyatidesyatniklar yig'inlarida qatnashardi. 1936 yili Pasxa bayramida unga "vahiy" keladi: Iso Masih unga ko'ranib, uni taxminan 2000 yil avval boshlagan missiyasini yakunlash uchun "tanlangan"ini aytgan. Ma'lumotlarga ko'ra, bu voqeа sodir bo'lganda osmondan: "Sen insonlarni halokatdan qutqarasan, sen Masihning ikkinchi bor zoxir bo'lishisan!". SHu voqeа sabab u o'z ismining birinchi bo'lagi - Sun (ajdarho)ni -San (nur taratuvchi (svetyashiyusa)ga o'zgartirdi va bu bilan u o'zini "ilohiy" kelib chiqishini bildirdi. SHu yo'l bilan yangi "payg'ambar"- Mun San Men vujudga keldi.

Munchilarning ta'kidlashlaricha, bo'lg'usi payg'ambar YAponiyada elektrik kasbini egallagan, ammo u o'z iste'dodi bilan muhandis diplomini olishi ham mumkin edi. Biroq u "ilohiy yo'l"ni tanlashni afzal bilgan.

Ikkinci jahon urushi tugagandan keyin Mun 1948 yilda ma'naviy buzuqligi, "jamoat tartibini buzganligi" uchun 100 kunga, keyinroq esa ikki xotinga ega bo'lganligi uchun 5 yilga qamalgan. 1950 yil kuzda u Janubiy Koreyaga o'tadi va 1954 yilda o'z tashkilotiga asos soladi.

1957 yilda uning muallifligida Muqaddas kitoblarga "Bibliya"ga qo'shimcha ravishda "Ilohiy prinsiplar" ("Bojestvennye Prinsipy") nomli kitobini chop etadi.

1955 yilda Mun 10 dan ortiq ayollarning nomusiga tajovuz qilishda ayblanib sudga tortilgan.

Ayblarni yumshatish, janjallarga barham berish uchun o'sha ayollardan biri Seuldag'i "Rixva" universteti talabasi 18 yoshlik Xak Xok Djaga 1960 yilda uylanadi ("svadba agnsev").

To'y sovg'asi sifatida "payg'ambar" o'z rafiqasiga "olamni yaratuvchi ona" ("mat mirozdaniya") unvonni-titulini beradi va "Ilohiy prinsiplar"ni sovg'a qiladi.

1976 yildan boshlab BCH bir necha bor moliyaviy masalalar bo'yicha janjalli voqealarga sabab bo'lgan. 80-yy. Boshlarida dunyo bo'ylab BCHning 150 dan ortiq korporatsiyalari bo'lib, ularga turli sohalarga oid korxonalar qarashli bo'lgan. Korxona xodmlari past maosh olib, yuqori daroma olishga rozi bo'lishgan. Emishki, daromadlar BCHni yuksaltirishga ishlataligan.

AQSH sudi Munni 625000 \$lik Nyu Yorkdagi uyini soliq deklaratsiyalarda qayd etmagani, soliqlardan qochganlikda ayblagan. 1982 yil iyulida uni 18 oy qamoq jazosi va 25 000 doll.shtrafga solgan. Advokatlar say-harakatlari tufayli Mun 1 yildan so‘ng ozod etilgan. (Munning pullari BCH tashkiloti hisobiga tegishli bo‘lgani uchun soliqlardan ozod deyishgan).

1992 yilda Mun o‘zini yangi insoniyatning “Haqiqiy Ota”si deb e’lon qilgan, 1993 yilda “Yangi Ahd davri” tugab, “Ahdning yakuniy davri (“era Zaversheniya Zaveta“) boshlanganini bildirgan.

Munchilar to‘liq va yakuniy haqiqatga “Haqiqiy Ota ” orqali erishaladi. Mun va uning xotini yaqinda “Iso Masih”ga rafiqqa topishgan va Iso Masih ularga ko‘rinib minnatdorchilik bildirgan. Munchilarning ommaviy nikoh tantanalari “Unashtirish” marosimi munchilarning ammaliyotida markaziy o‘rinda turadi.

U 2 qismidan iborat: “muqaddas vino” marosimi va “muqaddas nikoh”.

Ushbu marosimlar vino orqali unashtirilayotganlar odamzotning “birinchi gunohi”dan poklanib, yangi “haqiqiy” hayotni boshlashlarini anglatadi. Nikoh marosimidan avval “unashtirish” bo‘lib o‘tadi. Bo‘lg‘usi kelin-kuyovlar o‘z juftlarini topishni Mun va uning tajribali mintaqaviy liderlariga to‘lig‘icha ishonadilar. Ayrimlar o‘z juftini nikoh tantanasidan bir necha kun avvalgina taniydlar.

“Muqaddas vino” yoki “Nasabni o‘zgartirish” marosimi orqali munchilar Mun va uning oilasi bilan qarindoshlik rishtalarini bog‘laydilar. Mun ta’rificha: “Bu marosimlar shayton dunyosidan saqlovchi va “Haqiqiy ota-onalar”ga yaqinlashish bo‘yicha o‘ziga xos “emlash” vositasidir. Vinoda 21 bitta unsur (element) va “Ota va Ona”ning qoni jamlangan bo‘lib, uni iste’mol qilgan inson o‘z ajdodlaridan voz kechadi.

Boshqa bir ma’lumotlarga qaraganda, ushbu ichimlik tarkibiga Mun va xotinining boshqa narsalari ham solinadi.

Aým sinrikyo (sanskritcha “olam”) haqiqati ta’limoti; ingliz tilida «Supreme truth», ya’ni “oliy haqiqat» deb tarjima qilingan (2000 yildan boshlab Alef nomi bilan faoliyat yuritmoqda (somiy tillar alifbosidagi 1 harfi bo‘yicha)) — yangi diniy, sinkretik, terroristik, ekstremistik, totalitar, destruktiv sekta bo‘lib, vadjrayana buddizmi asosida Yaponiyada vujudga kelgan.

Sektaga yaponiyalik Syoko Asaxara 1987 yili asos solgan, u 1995 yilda Tokio metrosidagi zaharli gazlar portlatishni uyushtirgandan so‘ng mashhur bo‘lib ketgan.

Hozirda sekta terroristik tashkilotlar ro‘yxatiga kiritilgan. Evropa Ittifoqi, Kanada, Moldaviya, Rossiya, AQSH va boshqa davlatlarda faoliyati ta’qiqlangan. Aum sinrikyodan Rossiyada 24000, Yaponiyada 6600 kishi jabrlangan. 1990 yillarda Aum Sinrikyoning Nyu York, Bonn, SHri Lankada markazlari faoliyat yuritgan. 1986 yilda uning tashkilotiga diniy tus

berildi va u «AUM Sinsen-no-kay» («Ma’naviy rivojlangan va notabiiy kuch quvvatga ega kishilar jamiyatiga deb ataldi.

SHu yili Asaxara Ximolayda «butunlay azoblardan qutilib, Nurlanishga erishdi», tashkiloti 1987 yilning iyulidan Aum sinrikyo degan nom oldi va butun mamlakat bo‘ylab bo‘linmalariga ega bo‘ldi.

1989 yil avgustidan sekta diniy tashkilot sifatida tanildi. U Yaponianing oliy tabaqadagi universitetining talabalarini o‘ziga jalb qilib, ikkinchi nom - « elita vakillari dini» oldi.

1995 yil 20 martda «Aum sinrikyo»ning 10 ta a’zosi tomonidan terroristik akt sodir etilgan. Ular Tokio metrosida zarin zaharli gazi yordamida gazli portlatish sodir etishgan.

Natijada 12 kishi vafot etgan (13; 18; 27), o‘nlab kishilar zaharlangan, 1000 kishining ko‘rish qolbiliyati pasaygan. YAralanganlarda tananing ayrim a’zolarida paralich, so‘zlash qobiliyatining yo‘qolishi, tayanch harakat a’zolarining shikastlanishi, ko‘r bo‘lib qolish holatlari ham uchragan. Ushbu aktga Asaxara o‘zi buyruq bergen (rad etsada).

Ularning fikricha, Oxirzamon kelishi va YAxshilik va YOmonlik o‘rtasidagi oxirgi urush kutilmoqda va urushda barcha “gunohkorlar” qirib tashlanadi. Politsiyachilar tomonidan sekta markazlari tekshirilganda kimyoviy va biologik qurollarning komponentlari (sibir yarasi (sibirskaya azva) va Ebola virusi) topilgan. Bundan tashqari Zairdan keltirilgan Mi 17 harbiy vertolyoti bo‘lgan. Kimyoviy zax ira zarin tayyorlash orqali 4 million kishini o‘ldirishga etadigan bo‘lgan.

Oq birodarlik tashkiloti (OBT) eng janjalkash sektalardan biri bo‘lib, Nyu Eyj harakati bilan o‘zaro bog‘liq. Uning g‘oyalarida ham Baliq erasi (Iso Masih davri) yakunlanib, Vodoley erasi, ya’ni er yuzida Illohiy boshqaruv davri boshlanishini da’vo qiladilar.

Asoschisi va yaqin yillarga qadar rahbari YUriy Krivonogov tex.f.n.,m Kievning nevralgiya va psixiatriya institutida ishlagan, ko‘plab yangi g‘oyalar muallifi, inson shaxsiyatiga ta’sir o‘tkazish masalalariga qiziqqan (KGB bilan aloqa bo‘lgan)

O‘z qiziqishlari o‘laroq biroz muddat Krishnani anglash jamiyatiga a’zo bo‘ladi va turli uslublarni o‘rganadi. U “Atma” nomli “Qalb instituti”ni ochadi va “Znanie” nashriyoti orqali ko‘plab risolalar chop etadi. Krivonogov ko‘p shaharlarda ma’ruzalar o‘qib yuradi va Dnepropetrovskda bo‘lg‘usi xotini Mariya Svigunni uchratadi va to‘y arafasi uni erdag‘i “Xudo” deb e’lon qiladi.

Krivonogov o‘zini turli avliyolar nomi bilan atab chiqqan (Ioann Predtech, Payg‘ambarlar YOqub, Nuh, Ioann Krestitetl, Tutanxamon, knyaz Vladimir, v.h) va oxiri YUoann Svami ismida to‘xtagan. Mariya ham dastlab Xudoning onasi, keyin Ota Xudo, O‘g‘il Xudo, Muqaddas Ruhga aylangan, nihoyat Mariya Devi Xristos nomini olgan. Mariya o‘zini erkak jinsiga nisbatan

ishlatiladigan “on” so‘zi bilan murojaat qilgan. U er yuzida uch yarim yil yashab 144 ming eng e’tiqodli kishilarни “haqiqiy e’tiqodlilar”ni jamlashi kerak bo‘lgan.

Bu kishilar yusmalianning yangi xalqi bo‘lishi kerak edi. (YUSMALOS bu “YUoann Svami Mariya Logos” abriviaturasi, shuningdek Jus malos “yovuzlik qonuni” ma’nosi bor). YUsmalos “olamni qutqarish” missiyasi 1990 yil 1 iyuldan 1993 yil 24 noyabrga qilib belgilangandi.

Erdan oxirgi bo‘lib bu er xotin ketishi, ularni chormixlashlari lozim bo‘lgan. Jasadlar uch kun ko‘chada turib, uchinchi kuni qayta tirishlari va osmonga ko‘tarilishlari kerak edi. O’sha kuni Oxir zamon bo‘lib, er yuzi vayron bo‘lishi, insoniyat halokatga uchrashi, keyin esa yusmalos xalqi erda yangi hayotni boshlashi, ular jannatda qolgan do‘zaxda bo‘lishi ta’kidlangan.

Belgilangan sanada Kievda bir necha ming tarafdorlar yig‘iladilar. Albatta, Oxir zamon bo‘lmadi. Kievdagи muqaddas Sofiya ibodatxonasi oldida to‘polon uyushtirildi.

Ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning keskinlashib ketishi, ochlik, fuqarolar urushlari, ommaviy epidemiyalar, spidning tarqalishi yuqoridagi kabi sektalarning keng yoyilishiga olib kelmoqda.

Umuman olganda, bunday sektalarning barchasi insonning ojizligi, ma’naviy va jismoniy kamolotga erishishga bo‘lgan intilishi, kishilar hayotda duch keladigan qiyinchiliklardan o‘zlarining g‘arazli maqsadlari yo‘lida shaxsiy boylik orttirish niyatida foydalanadilar.

Mavjud diniy ta’limotlar, ulardagi muayyan qoidalarni davr talabiga moslashtirish, boshqacha aytganda, modernizatsiya qilish jarayoni ham davom etmoqda. Masalan, xristianlar amalga oshirgan inkvizitsiya va salb yurishlari xato bo‘lganini tan olib, Rim Papasi hatto, rasman kechirim ham so‘radi. 1992 yilda Papa Ioann Pavel II o‘z paytida Erning Quyosh atrofida aylanishi haqidagi qarashlarni yoqlagani uchun cherkov tribunali tomonidan tavba qildirilib, o‘z qarashlaridan voz kechishga majbur qilingan Galileo Galileyning haq bo‘lganini tan olib, barchadan uzr so‘ragani ham bunga misol bo‘la oladi.

SHuningdek, mavjud dinlarning tarqalish hududida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘layotganini ta’kidlash zarur. Masalan, o‘tgan asrda asosan xristianlar yashab kelgan Evropada bugungi kunda 20-25 million atrofida musulmonlar istiqomat qilmoqdalar. Jumladan, Buyuk Britaniyada - 3 million, Germaniyada - 5 million, Fransiyada - 6-7 million islomga e’tiqod qiluvchi fuqarolar yashamoqda. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, hozirda aynan islom e’tiqodchilari soni eng tez ko‘payib borayotgan din hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, islomning yillik o‘sish sur’ati 6,4 foizni tashkil etib, 1989 yildan 2011 yilgaqadar musulmon aholi soni SHimoliy Amerikada - 25, Afrikada - 2,15, Osiyoda-12,57,

Evropada-142,35, Avstraliya va Okeaniyada-257,01 foizga ko‘paygan. Faqat Lotin Amerikasida islomga e’tiqod qiluvchilar ulushi 4,73 foizga kamaygan.

Bunday o‘zgarishlar, bir tomondan, globallashuv keltirib chiqarayotgan odamlar migratsiyasi natijasida, ikkinchi tomondan, kishilarning buddaviylik, ko‘pgina hollarda va asosan islomni ongli tarzda qabul qilishi bilan bog‘liq.

SHuningdek, aholisi an’anaviy ravishda buddaviylik va islomga e’tiqod qilib kelgan o‘lkalarda xristianlikni yoyishga intilish kuzatilmoqda. BMT ma’lumotlariga ko‘ra xristianlikning o‘sish ko‘rsatkichi yiliga 1,46 foizni tashkil qiladi. Mazkur jarayon ayrim xristian tashkilotlari va yo‘nalishlarining faol missionerlik harakati natijasida sodir bo‘lmoqda.

Qayd etilgan mulohazalar bugungi kunda ham dunyoning diniy manzarasida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘layotganidan dalolat beradi. Diniy konfessiyalar manzarasi rang-barangligini O‘zbekistonda rasman ro‘yxatdan o‘tib faoliyat yuritayotgan diniy konfessiyalar misolida ham ko‘rish mumkin. Xristianlikka mansub bo‘lsa-da, yurtimizdagи 11 ta yo‘nalishning har biri o‘zini alohida diniy konfessiya, deb hisoblashi fikrimizning isboti bo‘la oladi.

Noan’anaviy diniy tashkilot yoki oqim deganda bir mintaqa, hudud aholisi uchun begona bo‘lgan, muayyan tarixiy sharoit yoki ijtimoiy vaziyat sababli o‘sha erga kirib kelgan yoki kirishga harakat qiladigan dinlar tushuniladi.

XIX asr o‘rtalari XX asr boshlariga kelib Evropa, Amerika va Osiyo qit’alarida "payg‘ambarlik" va "armageddonizm" epidemiyalari avj oldi. AQSHda 1840 yillarda "millerizm" nomi ostida paydo bo‘lgan harakat tez orada boshqa hududlarga ham tarqaldi. Natijada, aksariyat yirik dinlar doirasida yangi, "islohotchi" oqimlar yuzaga keldi.

Ulardan, xristianlik doirasida "Iegovo shohidlari" va "Mormonlar"ni, islom dini doirasida "Bahoiylar", "Ahmadiylar" va "Qora musulmonlar"ni, hinduiylik doirasida "Xalqaro Krishnani anglash jamiyat"ni sanash mumkin.

Iegovo shohidlari (yoki YAhve guvohlari) yo‘nalishiga 1873 yilda CHarlz Teyz Rassel (1852-1916) tomonidan asos solingan. Yo‘nalishning diniy ta’limoti uning etti tomlik "Muqaddas YOzuvni o‘rganish" kitobiga asoslanadi.

CH.Rassel vafotidan keyin tashkil otgarahbarlik qilgan Iosif (Djozef) Franklin Ruzerford iegovochilikka "armageddon" (ya’ni, go‘yoki, oxirzamonda Iso boshchiligidagi iegovochilar va SHayton boshchiligidagi jinlar qo‘shini o‘rtasida bo‘lib o‘tadigan jang) tushunchasini kiritdi. SHuningdek, u har yili iegovochilarning xalqaro konferensiyalarini o‘tkazishni, 50 ga yaqin kitob muallifi sifatida targ‘ibot ishlarida radio va grammo-plastinkalardan foydalanishni yo‘lga qo‘ydi.

"Iegovo shohidlari" Uchlik haqidagi aqidani rad etishadi, lekin boshqa yo'naliishlar kabi uning barcha ko'rinishlarini izohlashadi. Ular xudoning o'z shaxsiy ismi bor, bu ism "Iegovo"dir va u barcha narsalarning asosi va yaratuvchisi, deb hisoblaydilar.

Iegovochilar Iso Xudoning O'g'li bo'lgan deb e'tiqod qilsa-da, uning Xudo bo'lganini inkor qilishadi. Ularning ta'limotiga ko'ra, Iso Iegovo tomonidan yaratilgan yagona insondir, qolgan barcha insonlar Masih orqali yaratilgan. Muqaddas Ruh - Xudoning ko'rinas kuchi bo'lib, u dunyo yaratilishida qatnashgan. Iso Golgofa tog'ida xochga emas, balki ustunga mixlangan deb hisoblaganlari sababli bu ramz ishlatilmaydi.

Iegovo butun insoniyat tarixida 144 ming kishini tanlab olgan, ular o'lgandan so'ng to'g'ridan-to'g'ri tiriladi va osmon podshohligiga o'tib ketishadi. Hozirgi kunda o'sha tanlangan 144 ming kishi, ya'ni "kichik poda"dan (imoni mustahkam va din yo'lida ko'p xizmat qilgan) 11 mingtasi tirik, deb e'tiqod qilinadi. Qolgan imonlilar, ya'ni Iegovo shohidlariqa qo'shilgan "qo'ylar"ga (oddiy dindorlar) Er yuzida abadiy jannatda yashashlari va'da qilinadi.

"Iegovo shohidlari" faqatgina Iso Masih o'limini eslash kechalari bilan bog'liq bayramni nishonlaydilar. SHu kuni jamoa a'zolari qarindosh va tanishlarini uylariga taklif qilishadi. Dasturxonda Isoning tana va qonining ifodasi deb bilinadigan xamirturishsiz non va qizil, quruq vino bo'lishi shart.

"Iegovo shohidlari" diniy tashkiloti qat'iy markazlashgan xarakterga ega. Uning diniy-ma'muriy markazi - Boshqaruv korporatsiyasi hisoblanadi. U 15 kishidan iborat bo'lib, Bruklinda (AQSH, Nyu-York) joylashgan. Boshqaruv korporatsiyasining 90 dan ortiq filiallari dunyoning turli mamlakatlarida targ'ibot ishlarini olib boradi. Xristianlikning ko'zga ko'ringan vakillari iegovochilarning xristianlik bilan hech qanday umumiyligi yo'q, degan fikrdalar.

Markaziy Osiyoda "Iegovo shohidlari" diniy tashkilotining birinchi jamiyatlari 1950 yillarda paydo bo'lган va norasmiy ravishda faoliyat ko'rsatib kelgan. Bugungi kunda respublikamizda "Iegovo shohidlari"ning 1 ta tashkiloti rasman ro'yxatga olingan.

"Iegovo shohidlari" missionerlikka katta e'tibor beradi. Jamoa paydo bo'lgan davrdan boshlab, asosan uyma-uy yurish va adabiyotlar tarqatish bilan o'z izdoshlarini ko'paytirishga harakat qiladi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda iegovochi missionerlarning soni 700 mingdan ortiq kishini tashkil etadi. Jamoa rahbariyati tomonidan missionerlarni tayyorlash ishlariga katta ahamiyat beriladi. AQSHning Nyu-York shahrida, jamoaning bosh ofisi bilan bir joyda "Galaad" nomli missionerlar tayyorlash markazi mayjud. Ushbu markazda tashkil etilgan besh oylik kurslarda butun dunyodan kelgan missionerlar tahsil olishadi.

Missionerlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash va adabiyotlarni nashr etish uchun "Qo'riqchi minora", "Bibliya" va "Risolalar jamiyat" tuzilgan. Ushbu jamiyat korporatsiya deb atalib, bosh qarorgohi tashkilot asosiy binosi bilan bir joyda, AQSHning Bruklin shahrida

joylashgan. Korporatsiyani etti direktordan iborat boshqaruv kengashi boshqaradi va ular korporatsiya prezidentini saylaydilar.

Hozirgi kunda "Iegovo shohidlari" 230 dan ortiq mamlakatda faoliyat olib boradi va dunyo bo'yicha 111 ta mintaqaviy vakolatxonalarga ega.

Iegovochilar missionerlikni o'ziga xos tarzda va tizimli tashkil etganlar. Mutaxassislar fikricha, "Iegovo shohidlari" o'z tarafдорларини шакллантиришда жалб этишнинг 80 дан ортиқ усулдан фойдаланадилар. Йумладан, ular o'z da'vatchilarining овоз охангларida тинчлантриш ва mehr tuyg'ulari bo'lishiga alohida e'tibor beradilar. Iegovochilar missionerlikni:

- o'z qarashlariga zarracha bo'lsa ham qiziqish bildirgan odamlarni qidirib topish va so'ng ularni ta'limotni qabul qilishga tayyorlash;
- da'vat qilinayotgan odamning ongiga "Bibliya" kurslari va uning matnini o'rGANISH orqali diniy ta'limotni singdirish;
- prozelitlarni suv bilan cho'qintirish;
- ularni missionerlik faoliyatiga tayyorlash kabi to'rt bosqichda amalgalashadi.

Iegovochilikning o'ziga xos jihatlaridan yana biri shuki, unda har bir a'zo missionerlik faoliyatida qatnashishi shart. Йумладан, jamoa rahbariyati tomonidan har bir a'zo oyiga 10 soatdan 150 soatgacha missionerlik faoliyatiga sarflashlari talab qilinadi. Jamoa a'zolari qancha ko'p vaqtlarini missionerlikka sarflaganlariga qarab tashkilot ierarxiyasida ko'tarilib boradi. So'nggi paytlarda iegovochilar maktab o'quvchilari va yoshlar orasida targ'ibot ishlarini olib borishga intilish kuchli namoyon bo'layotganini ta'kidlash zarur. Ана shunday maqsadli faoliyat natijasida iegovochilar soni yildan-yilga ortib bormoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, hozirda iegovochilar soni dunyo bo'yicha qariyb 7 millionni tashkil etadi. Ularning bosh tashkiloti tomonidan adabiyotlar nashr etish, cherkovlar faoliyatini ta'minlashga ketadigan sarf-xarajatlardan tashqari missionerlarning kundalik xarajatlariga yiliga 100 million AQSH dollariga yaqin mablag' sarflanadi.

Mormonlar. Mazkur oqimga 1830 yili Nyu-York (AQSH) shahrida Jozef Smit (1805-1844) ismli shaxs tomonidan asos solingan.

Smit 1823 yilda Vermont shahridagi SHeron o'rmonida kambag'al va bechora tarafдорларига Moroni nomli bir farishtaning o'ziga vahiy olib kelganini da'vo qiladi. Unga ko'ra Moroni, Smitga Nyu-Yorkdagi Kumora tepaligiga ko'milgan, qadimgi Misr tilida yozilgan oltin lavhlar va ularni tarjima qilish uchun Urim va Thummin toshlarini keltirib bergan.

Jozef Smit matnlarni o'qigani va farishta yordamida tarjima qilganini e'lon qiladi va uni nashr ettiradi. SHunday qilib, 1830 yilda "Mormon kitobi" bosib chiqarilgan. Kitobdagagi buyruqqa binoan yangi bir cherkov qurilgan. Bu cherkov, "Iso Masihning oxirgi kun azizlari

cherkovi" deb nomlangan. Uning tarafdorlari esa shundan so'ng "Mormonlar" deyila boshlangan.

Mormonlar e'tiqodiga ko'ra, amerikaliklar isroil qabilalaridan kelib chiqqan va qizil oq tanlilardan tashkil topgan. Iso tirliganidan keyin oq tanlilar orasida faoliyat olib borgan, lekin uning cherkovi qizil tanlilar tomonidan vayron qilingan. Oxirgi oqtanlilar XV asrda yashagan Mormon bilan uning o'g'li Moronidir. Lavhlarni ana o'shalar ko'mgan va ularni Smit topib olgan.

Smit 1831 yilda yangi Quddusning Kirtlandda (Ogayo shatati, AQSH) qurilishiga doir vahiy organini aytgan. Tarafdorlar sonini orttirish maqsadida mormonlar faol ravishda missionerlik bilan shug'ullanganlar.

Siquvga olingan Mormonlar, Kirtlandni tashlab Missuriga; u erda ham ayni holga duch kelgach esa Illinoisga ko'chishga majbur bo'lishadi. 1840 yilda botqoqzor o'rnida Navu shahrini qurib o'z markazlarini shu erda tashkil etadilar.

Omadli kechgan bir-ikki yildan keyin Smit "Mormon kitobi"da aksi yozilgan bo'lishiga qaramasdan, yangi bir "vahiy"ga asoslanib, ko'pxotinlilikni targ'ib qilgan va o'zi bu ishni boshlab bergen. Uning bu fikriga jiddiy qarshiliklar bo'lган, natijada Smit ukasi va taraforlari bilan qamoqxonaga tashlangan. Qisqa bir muddatdan keyin ular mahbuslar tomonidan o'ldirilgan.

Smitdan keyin mormonlarga Brijman YAng boshchilik qildi. U o'limi ortidan 178 ta xotin va 49 ta bolani qoldirib ketdi. Mormonlar YUtada "Buyuk tuz ko'li" qirg'og'ida, "Tuz ko'li shahri" hozirgi Solt Leyk Siti shahrini qurbanlar. Ular bu erda juda ham kuchayib ketganlar va ulkan mormon ibodatxonasini barpo etishgan.

"Iso Masihning oxirgi kun azizlari" sifatida o'zlariga baho beruvchi mormonlarning e'tiqod asoslari J.Smit tomonidan tartibga solingan. CHerkov boshlig'i "rais" deb nomланади.

Mormonlar Ota-Xudo, Iso Masih va Muqaddas Ruh bilan bog'liq e'tiqodni tan oladilar. Ularga ko'ra, Injil Xudoning so'zidir, uni, xato qilmaslik sharti bilan tarjima qilish mumkin. Mormon kitobi ham Xudoning so'zidir. Iso Masihning qayta tirilish joyi Amerika qit'asidir. YAngi Quddus Amerikada quriladi; shaxsan Isoning o'zi uni boshqaradi, dunyo yangilanadi va xuddi jannatdek ko'rinish oladi. Iso ming yillik saltanat quradi va unga imon keltirganlar, yordamchi bo'lган (mormon) lar najot topadilar.

Ular cho'qintirishda suvgaga bo'ktirish usulini qabul qilganlar. Ulug'likda oldinga siljishni va hatto, ilohiylikkacha yuksalishni e'tirof qiladilar. E'tiqod asoslari orasida joy olgan ko'p xotinga uylanish 1895 yilda V.Vudraft tomonidan bekor qilingan. Prichaщenie ya'ni "Poklanish" marosimi, sigaret va aroq harom bo'lgani sababli faqatgina non va suv bilan amalga oshiriladi.

Mormonlar missionerlik faoliyatini olib boradilar va ushbu faoliyat butun dunyoga tarqalganligini ham aytib o'tish joiz. Mormonlar nazdida har bir a'zo ikki yil missonerlik qilishi kerak. Missionerlik faoliyati bugungi kunda 4000 dan ortiq ayol va erkak mormon tomonidan olib borilmoqda. Ularning aksariyatini yoshlar tashkil qiladi va ular o'z hayotlarini missionerlik uchun bag'ishlagan.

Bugungi kunda mormonlar dunyoning 160 mamlakatida faoliyat olib borib, taxminan 30 ming cherkov va 12 million izdoshlariga ega. Rasmiy xristianlik mormonlarni "adashgan oqim" sifatida e'tirof etadi.

Bahoiylik – XIX asrda Eronda bahoiylik yo'nalishi zamirida vujudga kelgan diniy yo'nalish. SHerozlik Sayid Ali Muhammad (1819-1850) 1844 yilda Bob (arabcha "eshik"), ya'ni yangi davrga "eshik" nomini olib, yaqin orada "Xudo elchisi"ning namoyon bo'lishi, kishilarga yangi davrning asosiy qonunlari va nizomlarini in'om etishini targ'ib qila boshlagan.

Bobning yirik izdoshlaridan biri Mirza Husayn Ali Nuriy (1817-1892) 1863 yilda Bob bashorat etib ketgan xudoning elchisi uning o'zi ekanini e'lon qiladi va Bahoulloh, ya'ni "Allohnинг jilosi" nomini oladi. Ushbu yo'nalishning nomi ham Bahoullohning nomidan olingan.

Bahoulloning "Kitobi Aqdas" ("Eng muqaddas kitob") va "Kitobi Iqon" ("Mustahkam ishonch kitobi") asarlari bahoiylik ta'limotining asoslarini tashkil etadi. Yo'nalish asoschisi o'ziga islom dini e'tiqodiga ko'ra, olamlarning YAratuvchisi bo'lgan "Allohnинг jilosi" nomini qabul qilgan bo'lsa-da, bahoiylar aqidasiga ko'ra, bahoiylik mustaqil din, u biror bir dindan ajralib chiqqan sekta ham, mazhab ham emas, deb hisoblanadi.

Bahoiylik Hindiston, Uganda, Keniya, Eron, Misr, AQSH, Kanada kabi qator mamlakatlarda tarqalgan. Hozirgi vaqtida dunyoda bahoylarning 9 ta ibodat uyi, 200 ga yaqin milliy hamda bir qancha mahalliy diniy majlislari mavjud. Bahoylarning umumiy miqdori taxminan 6 million kishini tashkil etadi.

Bahoiylik ta'limotiga ko'ra:

- barcha dinlar bir ildizdan paydo bo'lgan va payg'ambarlar birodar hisoblanadi;
- Ibrohim, Muso, Iso va Muhammad payg'ambarlardan tashqari Budda, Zardusht, Krishna, Bob va Bahoulloh ham payg'ambar hisoblanadi. Bahoiylikda ular eng buyuk 9 ta payg'ambar sifatida e'tirof etiladi;
- xudo har ming yilda Er yuziga yangi payg'ambar tushiradi;
- jannat va do'zax, oxirat, shayton va farishtalar inkor qilinadi;
- hozirgi barcha dinlar bir-birini inkor qiladi, shuning uchun ham, ularni birlashtirish va insonlar orasidagi turli farqlarni yo'qotish lozim. Bahoiylar da'vosiga ko'ra, bunday birlashtiruvchilik vazifasini bahoiylik bajarishi lozim.

– Vatan, millat degan tushunchalar ma’nisiz hisoblanadi. Zero, ularning fikricha, Er yuzining hamma joyi Vatan hisoblanadi.

Bahoiylikda ruhoniylar yo‘q. Mahalliy jamoalarni yilda bir marotaba 21 aprel kuni yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanadigan 9 kishidan iborat Mahalliy diniy majlis boshqaradi. Bahoiylar yirik jamoasi mavjud bo‘lgan har bir davlatda Milliy diniy majlis saylanadi. O‘z navbatida Milliy diniy majlis vakillari 9 kishidan iborat bo‘lgan Umumjahon Adolat Uyi a’zolarini saylaydilar. Har besh yilda saylanadigan Umumjahon Adolat Uyi umumjahon bahoiylar jamiyatining faoliyatini boshqarib boradi.

Bahoiylikda har biri 19 kunlik 19 oydan iborat bo‘lgan diniy taqvim qabul qilingan. Har 19 kunda jamoaning barcha a’zolari ibodat qilish, jamoa bilan bog‘liq ishlarni muhokama qilish, o‘zaro birodarlik aloqalarini mustahkamlash uchun yig‘iladilar.

Kuniga uch marta Isroiuning Akka shahriga qarab ibodat qilinadi. Umumiylar ibodat duo o‘qish, meditatsiya hamda bahoiylikning asosiy kitoblari va jahon dinlari muqaddas kitoblaridan matnlar o‘qish orqali amalgalash oshiriladi. Har yili 2 martdan 20 martgacha bahoiylar kun chiqardan kun botgunga qadar ovqat va suvdan o‘zlarini tiyib, ro‘za tutadilar.

Bahoiyarning muqaddas ibodatxonasi Akka shahrida joylashgan. Xayfa shahri muqaddas shahar hisoblanib, dunyo bahoiylarining ziyoratgohi hisoblanadi. Bu erda Bob ibodatxonasi, 1957 yilda bahoiylikning rahbarlik organi sifatida tashkil etilgan Umumjahon Adolat Uyining qarorgohi joylashgan.

Ahmadiya (Qodiyoniya). Mazkur oqim XIX asrning oxirlarida Mirzo G‘ulom Ahmad Qodiyoniy tomonidan tuzilgan. Dastlab u asoschisining nomi bilan - "Mirzoiya", keyinchalik esa vujudga kelgan joyga nisbatan - "Qodiyoniya" deb nomlangan. Mirzo G‘ulomning 1900 yil 4 noyabrdagi bayonotiga binoan oxir-oqibat "Ahmadiya" nomini olgan.

Mirzo G‘ulom Ahmad 1840 yilda hozirgi Pokiston hududidagi Panjob viloyatining Gurdaspur mintaqasidagi Qodiyon qishlog‘ida tug‘ilgan. Otasining xohishiga binoan 1864 yilda Sialkot shahriga borgan va o‘scha erda bir muddat ishlagan. SHu paytda, u kundalik ishidan tashqari islam ilmlari hamda boshqa dinlar haqida va o‘zi bilan yaqindan munosabatda bo‘lgan missionerlardan xristianlik haqida ko‘pgina ma’lumotlar olgan, hinduiylar bilan munozaralarga kirishgan.

1876 yilda G‘ulom Ahmad Allohning huzuriga chiqqani va vahiy ola boshlaganini da’vo qilib chiqadi. 1880 yilda u o‘z ta’limoti asoslariga bag‘ishlangan "Barohini Ahmadiya" (Ahmad dalillari) nomli kitobining ilk ikki jildini nashrdan chiqarishga erishadi. Unda u islamni boshqa dinlardan himoya qilgan. SHu tufayli musulmonlar kitobdagagi "ilohiy ilhomlar", karomatlar, o‘z-o‘zini maqtashlarga, dastlab, uncha e’tibor bermaganlar. Uchinchi va to‘rtinchi jiddlarda esa G‘ulom Ahmad o‘ziga vahiy tushayotgani va payg‘ambar ekanini da’vo qilgan. SHuningdek,

ingliz hukumatini maqtab, hozirgi paytga kelib "jihod" tushinchasining o'rinsiz, hukmsiz holga kelib qolganini aytgan. Boshlanishda 50 jild bo'lishi rejalashtirilgan "Barohini Ahmadiya"ning 5 jildigina nashr qilingan.

1885 yili Mirzo G'ulom Ahmad o'zini o'zi yashab turgan davr (hijriy XIV asr) "mujaddidi" ekanini, 1888 yilga kelib esa insonlardan "bay'at" olib, alohida "jamoat" tashkil qilish haqida buyruq olganini e'lon qiladi. 1891 yilda u Iso ibn Maryamning tabiiy yo'l bilan o'lganini aytib va shundan kelib chiqib o'zini musulmonlar kutayotgan "Masih" va "Mahdiy" deb da'vo qilgan. 1904 yilning noyabr oyidan boshlab esa ochiqdan-ochiqo'zini musulmonlar uchun "mahdiy", xristianlar uchun "masih" va hindular uchun "krishna" deb e'lon qilgan.

Ahmadiylarga ko'ra barcha dinlar qandaydir xaloskorni kutadilar, uning kelishiga umid bilan yashaydilar. Agar kutilayotgan qutqaruvchi, bir odamda mujassam bo'lsa, dinlararo kelishmovchilik bartaraf etilib, birdamlik, hamjihatlikka erishilgan bo'lardi.

Mirzo G'ulom Ahmad 1908 yil 26 mayda Lahorda vafot etgan. Qabri Qodiyonga olib ketilgan va tarafdorlari uchun ziyoratgohga aylangan.

Mirzo G'ulom Ahmadning o'limidan keyin shogirdlari uning fikrlarini yig'ishda davom etdilar va natijada "Sinkretik Qodiyoniya-Ahmadiya harakati" yuzaga kelgan. Keyinchalik oqim "Qodiyon ahmadiylari" va "Lahor ahmadiylari" nomli ikki jamoaga bo'linib ketdi.

Dastlab, payg'ambarlikning Muhammad (s.a.v) bilan tugagani va qiyomatgacha undan boshqa payg'ambar kelmasligini tan olishini ta'kidlagan Mirzo G'ulom, 1901 yildagi "Juma xutbasi"da uning izdoshi bo'lgan Mavlaviy Abdulkarim Mirzo G'ulom Ahmadga nisbatan "nabiy" va "rasul" sifatlarining ishlatish mumkin deb e'lon qilgan.

Avvalroq, "Muhaddas" (xitob qilinib, gaplashilgan) deb nomlangan Mirzo G'ulom keyinchalik muhaddaslikni bir ma'noda juz'iy nabiylik sifatida baholagan; payg'ambarlikning butunlay tugaganini, lekin juz'iy nabiylikning qolganligini ochiq va oshkora aytgan.

Xalqaro Krishnanianglash jamiyati SHrila Bxaktivedanta Svami Prabhupada nomi bilan tanilgan asli hindistonlik Abxay Charan De (1896-1977) tomonidan tashkil etilgan. U 1947 yilda "Veda" falsafasi bilimdoni sifatida "Bxaktivedanta" (sanskr. "sodiqlik", "fidokorona xizmat") unvoniga sazovor bo'ladi. Sanskrit tilidan ingliz tiliga ko'pgina "Veda" matnlari, jumladan, "Bxagavadgita" ("Xudo qo'shiqlari")ni sharhlar bilan tarjima qildi. 1959 yilda 63 yoshida dunyodan voz kechishga ahd qiladi va Svami ("Aql va hissiyotlar egasi") unvoniga erishadi.

1965 yilda A.CH.Bxaktivedanta Svami AQSHga ko'chib o'tdi va "Xalqaro Krishnani anglash jamiyati"ga asos soldi. Bu davrda SHarq mistik ta'limotiga nisbatan katta qiziqish Krishnani anglash falsafasini targ'ib qilish uchun qulay shart-sharoit yaratdi va harakat tez rivoj topdi. Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda dunyoning turli burchaklarida ularning 150 dan ortiq ibodatxonalari mavjud.

Krishnachilik (vayshnavizm) odam qiyofasidagi xudo Krishna (Vishnu)ga e'tiqod qilishga asoslangan hinduiylikning ikki asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Krishnachilikning muqaddas yozuvlariga "Bxagavatgita"dan tashqari boshqa "Veda" matnlari ham kiradi.

Krishnachilik yakkaxudolikka, ya'ni yagona va mutloq xudo – Krishnani tan olishga asoslanadi. U abadiy, yaratilmagan va cheksiz shakllarga kirish qobiliyatiga ega. Krishnachilik ta'limotiga ko'ra, olam ruhiy va moddiy dunyoga bo'linadi. Insonning ruhi tanasiga nisbatan birlamchidir. Krishnachilar ruhni rivojlantirib ichki komillikka erishish va shu yo'l bilan xudoga qo'shilishni oliy maqsad, deb biladilar.

Har bir inson o'zida Krishnani anglash qobiliyatini rivojlantirishi mumkin. Buning uchun bir qancha harakat shakllarini o'z ichiga olgan va xudoga muhabbatni rivojlantirish hamda uni butunlay ruhiy anglashga sho'ng'ishga qaratilgan bxakta-yoga mashqlar tizimi ishlab chiqilgan. Ayni paytda, inson o'zini moddiy ehtiyojlardan xoli qilishi, go'sht, baliq, tuxum, mast qiluvchi narsalarning barchasi, jumladan, spirtli ichimliklar, tamaki, qahva, choy iste'mol qilish, nikohsiz jinsiy hayot kechirish va qimor o'yinlardan voz kechishi zarur, deb hisoblanadi.

Krishnachilikda meditatsiya deb ataluvchi, ibodatxonada o'tkaziladigan diniy marosimlar har kuni soatlab bajariladi. U maxsus harakatlar, Sankirtana – birgalikda xudo Krishnani "Xare Krishna, Xare Krishna, Krishna Xare, Xare, Xare Rama, Xare Rama, Rama, Rama, Xare, Xare" degan, maxamantra ("ozod bo'lishning buyuk qo'shig'i")ni kuylash bilan sharaflash amaliyotini qamrab oladi. Bularning hammasi, ularning ta'biricha, aqlni tozalash, fikrni tashqi dunyodan xalos etish, butun diqqat-e'tiborni xudoga nisbatan muhabbatga yo'naltirish uchun bajariladi.

"Xalqaro Krishnani anglash jamiyati"da o'z ergashuvchilarining mol-mulklarini jamiyat hisobiga xayr-ehson qilishlari hamda ibodatxonada ruhoniylik vazifasiga o'tishlari rag'batlantiriladi. Bu ta'limotni qabul qilgan har bir kishiga yangi - sanskritcha nom beriladi. Jamoa a'zolari sari, dxoti va boshqa hind milliy liboslarini kiyadilar.

Krishnachilar tomonidan missionerlik faoliyati o'tgan asrning 70-yillarida boshlangan. Ular tomonidan amalga oshiriladigan targ'ibotchilik harakatining o'ziga xos xususiyatlari qatorida ko'chalarda ibodat kiyimlarida yurib qo'shiqlar aytish va adabiyotlarini tarqatish, "Hayot uchun ozuqa" deb nomlanadigan, bepul oziq-ovqat tarqatish aksiyalari o'tkazilishini ko'rsatish mumkin. Bunday harakatlarning asosiy ob'ektlari sifatida odatda talabalar, mакtab o'quvchilari, qariyalar va mehribonlik uylarida istiqomat qiluvchilar tanlab olinadi.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar

1. "Konfessiya" atamasining mohiyati nimada?
2. "Sekta" so'zining mohiyati nimada?
3. Noan'anaviy diniy tashkilotlarning qanday xususiyatla ri mavjud?

4. YAngi diniy harakatlarning yuzaga kelishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
5. Iegovo shohidlari qanday tashkilot?
6. Mormonlarning boshqa xristian yo'nalishlaridan asosiy farqi nimada?
7. Bahoiylarning qiblasi qaysi shahar hisoblanadi?
8. Krishnani anglash jamiyatiga qachon va kim tomondan asos solingan?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. "Konfessiya" va "Din" o'rtaсидаги farqni ochib bering.
2. Dirlarning geografik tarqalishi haqida xaritalarni toping.
3. Dinlar izdoshlarining o'sib borishi tendensiyalari tahlili haqida ko'rgazmali slayd tayyorlang (MS Power Point).
4. Noan'anaviy dinlar yuzaga kelgan tarixiy va ijtimoiy- siyosiy omillarni atroflicha o'rghaning va gapirib bering.
5. G'arbda yangi sektalarning paydo bo'lishi sabablarini tahlil qiling.
6. Islom dini doirasida yuzaga kelgan oqimlarga an'anaviy ulamolarning fikri haqida ilmiy ish tayyorlang.

Adabiyotlar

1. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'-naviy-ma'rifiy asoslari. – T.: "Toshkent islom univer-siteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008.
2. Najmiddinov J. Missionerlik: kecha va bugun. - Tosh- kent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008.
3. Ochildev A., Najmiddinov J. Missionerlik: mohiyat, maqsadlar, oqibatlar va oldini olish yo'llari. - Tosh kent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009.
4. Mironov A., Babinov YU. Osnovy religiovedeniya: Rabo chaya kniga prepodavatelya i studenta. Ucheb. posobie. - M.: NOU, 1998.
5. Puchkov P., Kazmina O.E. Religii sovremennoogo mira. Ucheb. posobie. – Moskva: 1997.
6. Bag'rikenglik - barqarorlik va taraqqiyot omili / Mas'ul muharrir - A.Achildev. - T., 2007.
7. YOvqochev SH. Islom va siyosat. - T., 2011.
8. Sirojiddinov SH. Bag'rikenglik – dinlarning ma'rifiy asosi. - T., 2010.

9-mavzu: Kibermakonda din omili

Reja:

1. Kibermakon tushunchasi va uning mazmun-mohiyati.
2. Axborot urushi va uning mazmuni
3. Din niqobidagi mafkuraviy tahdidlarning namoyon bo‘lish shakllari.
4. Yoshlarni internet va ijtimoiy tarmoqlardagi axborot xurujlaridan asrashning dolzARB masalalari.

Tayanch tushunchalar:

Kibermakon, kibermakon va din, ijtimoiy tarmoqlar tahdidlari, axborot asri tahlikalari, internet tarmog‘idagi axborot urushi, global tarmoqdagi g‘oyaviy xurujlar oldini olish, barkamol avlodni mafkuraviy xurujlardan himoya qilish.

1. «Kibermakon» tushunchasi va uning mazmun-mohiyati. Kibermakon kompyuter tarmoqlari orqali amalga oshiriladigan muloqot maydonini ifodalovchi voqelik sifatida 1990 yildan boshlab keng miqyosida rivojlanib, takomillashib kelmoqda. Kibermakon tushunchasini dastlab kanadalik yozuvchi Uilyam Gibson 1982 yil «[Sojenie Xrom](#)» (« [Burning Chrome](#)») nomli hikoyasida yozadi.

Keyinchalik, Gibsonning 1990 yilda yozib tugatgan «Neuromancer» («Asabli manzaralar tasvirlovchisi», «Nervo-sochinitel») nomli texno-utopik fantastik trilogiyasida qo‘llagan. Bu asardagi kibermakon tushunchasi millionlab odamlarning jamoaviy sarob, xayolparastlikning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida tasvirlangan. Bu erda jamoaviy sarob yoki xayolparastlik inson ongida sub’ektiv psixologik holat sifatida namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy nuqtai-nazardan kibermakon deganda kompyuter tarmog‘i orqali bir-biri bilan bog‘langan va bir vaqtning o‘zida turli geografik nuqtada kesishuvchi har qanday mavjud kompyuterning grafik sifatidagi ma’lumotlariga o‘ralashib qolgan kishilar jamoasi tushuniladi.

Hozirgi davrda fan, texnika va asosan kompyuter taraqqiyoti mahsuli bo‘lgan kibermakon va uning boshqaruvchi qiyofasi «superkorporatsiya» texnologiyalarning insoniylikdan begonalashuvi natijasida din niqobidagi ijtimoiy va madaniy buzg‘unchilikni sodir etishga bo‘lgan urinishlar tobora kuchayib bormoqda. Jumladan, bugungi kunda kiberterrorchilik tuzilmalari o‘z g‘arazli maqsadlari yo‘lida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishga urinmoqda.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning «YUksak ma’naviyat-engilmas kuch» asarida quyidagicha ta’kidlangan: «Taassufki, ba’zan islom dini va diniy aqidaparastlik tushunchalarini bir-biridan farqlay olmaslik yoki g‘arazli maqsadda ularni teng qo‘yish kabi holatlar ham ko‘zga tashlanmoqda. SHu bilan birga, islom dinini niqob qilib, manfur ishlarni amalga oshirayotgan mutaassib kuchlar hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, g‘o‘r yoshlarni o‘z tuzog‘iga ilintirib, bosh-ko‘zini aylantirib, ulardan o‘zining nopl

maqsadlari yo‘lida foydalanmoqda. Bunday nojo‘ya harakatlar avvalo muqaddas dinimizning sha’niga dog‘ bo‘lishini, oxir-oqibatda esa ma’naviy hayotimizga salbiy ta’sir ko‘rsatishini barchamiz chuqur anglab olishimiz va shundan xulosa chiqarishimiz zarur».

«Kibermakon»da din niqobidagi «kiberhujum»lar tahdidi: din niqobi ostidagi ekstremistik saytlarda asosan davlat to‘ntarilishi va xunrezlik urushlari haqida gap boradi. Jumladan, bugungi kunda dunyoda eng katta xavf solib turgan ISHID guruhining internet kibermakonidagi axborot hujumi va tahdidini keltirib o‘tish mumkin. Ularda ISHID go‘yo Islom yo‘lida «qurban» bo‘layotgani aks etgan videolavhalar va fotosuratlar joylashtirilgan.

Terrorchilarning targ‘ibot-tashviqotlari kun sayin avj olib bormoqda. «Odnoklassniki», «Facebook», «Instagram», «Twitter», «VKontakte» ijtimoiy tarmoqlarida buzg‘unchilik va yot g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi yuzlab guruhlar mavjudligi fikrimizning yaqqol dalilidir. SHuningdek, Islom dinini noto‘g‘ri, qabih maqsadlarda talqin etish, dinga siyosiy tus berib, hokimiyatni qo‘lga kiritish hisoblanadi.

2. Axborot urushi va uning mazmuni. Insonlararo o‘zaro munosabatlardagi xar qanday ziddiyat – bu, axborotlar ziddiyatidir. Axborot har qanday qaror qabul qilish uchun eng muhim unsur bo‘lib, u nafaqat, to‘qnashuv paytida optimal xatti-harakatlarni amalga oshirish, balki, maqsadga yo‘nalgan faoliyatni boshqarish imkonini beradi. Tizim mavjudligi va barbos bo‘lishini belgilovchi omillaridan biri hisoblanadi.

Qadim davrlardan buyon axborotni o‘zaro urush va nizolar jarayonida hujum uyshtirish yoki himoyalanish resursi sifatida talqin etishga urinishlar bo‘lib keladi. Biroq hozirga kelib ilmiy doirada «axborot urushi» kategoriya sifatida rasmiylashdi. bunday urushlarning moxiyatini anglashga doir metodologik yoidashl’lar, nazariyalar shakllandi. «Bunday sharoitda, – deb yozadi NA.Kostin, – axborot dunyo sahnidagi tarixiy raqobat kechadigan sohaga aylanib, «axborot urushi» deb nomlanayotgan faol kurash shakli paydo bo‘lmokda».

Bugungi kunda axborot urushlari haqida ko‘p yozilmokda. Bu tushunchaning paydo bo‘lish tarixi, ilk marotaba ko‘llanilishi haqida turli, ba’zida bir-biriga zid fikr-mulohazalar mavjud. Ularga alohida ravishda to‘xtalmagan holda, bu boradagi ayrim nuqtai nazarlarga e’tiborni qaratish joiz. Manbalarda ta’kidlanishicha, «axborot urushi» atamasi ilk bor 1976 yi. «Boeing» kompaniyasi uchun tayyorlangan «Qurol tizimi va axboro urushi» deb nomlangan hisobotda Tomas Rona tomonidan ishlatilgan. Hujjatda mutaxassis axborot infratuzilmasi AQSH iqtisodiyotining muhim komponentiga aylanib borayotgan axborot sohasi ham urush, ham tinchlik holatlarida nozik, zaif tarmoq bo‘lib qolayogganini ta’kidlagan.

T.Rona tomonidan ilgari surilgan ushbu g‘oya harbiylar ommaviy axborot vositalari xodimlarida katta qiziqish uyg‘otdi, bu borada ilmiy tahlillar, intervyular, chiqishlar avj oldi.

1980 yillarga kelib esa jamoatchilikda axborotning maqsad hamda quroq, vosita sifatida namoyon bo‘lishi haqida yagona xulosa shakllandi.

«Sovuq urushi»ning nihoyasi va AQSH oldida yangi vazifalar paydo bo‘lishi bilan «axborot urushi» atamasi mudofaa vazirligi hujjatlari kiritildi. 1991 yil «Sahrodagi bo‘ron» operatsiyasi mobaynida axborot texnologiyalari ilk marotaba harbiy harakatlarning vositasi sifatida ishlatildi.

1996 yil Pentagon eksperti Robert Banker AQSH mudofaa kuchlarining XXI asr uchun yangi harbiy doktrinasiga bag‘ishlangan ma’ruza qiladi. Unda mutaxassis harbiy harakatlar teatrini an’anaviy harbiy makon hamda kibermakondan iborat ikki muhim asoslarda tashkil etish g‘oyasini ilgari surdi. Boshqacha aytganda, R.Banker raqib harbiy kuchlarini bostirish, neytrallashga qaratilgan an’anaviy harbiy konitsepsiyalarning tabiiy to‘ldiruvchisi sifatida xizmat qilishi zarur bo‘lgan «kibermanyovr» doktrinasini taklif etadi. SHu tariqa, quruqlik, dengiz, havo yo‘llaridan tashqari harbiy harakatlar tizimiga «infomakon» – axborot makoni ham qo‘shiladi. Bunday yangi shakl va mazmundagi urushlarda raqib tomonning axborot infratuzilmasi va ruhiyati asosiy ob‘ekt (nishon) bo‘ladi.

1998 yil oktyabrdagi AQSH mudofaa vazirligi «Axborot operatsiyalarining birlashgan doktrinasi»ni amalga oshirishga kirishdi. Aslida, ushbu doktrina avval «Axborot urushining birlashgan doktrinasi» deb nomlangan edi. Keyinchalik uning nomi o‘zgartirildi. Bunga sabab esa, «axborot operatsiyalari» va «axborot urushi» tushunchalarining o‘zaro munosabatiga oydinlik kiritish edi. SHu tariqa axborot operatsiyasi – o‘z axborot tizimlarini himoya qilish jarayonida raqib tomonning axborotni to‘plash, qayta ishlash, uzatish va saqlash borasidagi ishlarini murakkablashtirish maqsadida amalga oshiriladigan xatti-harakat; axborot urushi esa, qarama-qarshi tomonning siyosiy va xarbiy boshqaruvi tizimi hamda rahbariyatiga qaratilgan kompleks ta’sirlar, axborot operatsiyalari majmui, deb ta’riflandi. Bunday ta’sirlar orqali tinchlik va urush holatlarida raqib tomon rahbariyatini informatsion ta’sir o‘tkazayotgan tomonga maqbul qarorlar qabul qilishiga erishish maqsadi ko‘zlanadi.

Mutaxassislarning ta’kidlashlaricha axborot urushi milliy harbiy strategiyani ta’minlashda axborot borasida ustunlikka erishish maqsadida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni ifoda etadi. Bunda raqib tomon axborot tizimlariga ta’sir o‘tkazish bilan bir vaqtida o‘z axborot infratuzilmasi mustahkamlab boriladi.

Axborot sohasidagi ustunlik muayyan holat haqida axborotni uzlusiz to‘plash, qayta ishlash va tarqatish qobiliyatini anglatadi. Bunday qobiliyat, o‘ziga xoslik esa, raqib tomonaga xuddi shunday xatti-harakatlarni amalga oshirishda to‘sinqinliklar qilish, qarshiliklar ko‘rsatishda namoyon bo‘ladi. SHuningdek, axborot sohasidagi ustunlik harbiy holat haqida real tasavvurga, raqib xatti-harakatlarining aniq va interfaol manzarasiga ega bo‘lish imkonini beradi.

Bir so‘z bilan aytganda, bugungi kunga kelib, axborot sohasi ko‘plab davlatlar siyosatining ystuvop yo‘nalishiga aylangan. Bu borada davlatlar tomonidan axborot agressiyasidan himoya tizimi, ommaviy madaniyat ekspansiyaga qarshi chora-tadbirlar bilan bog‘liq keng ko‘lamdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ham axborot resurslaridan foydalanish, axborot almashinuvi va umuman, axborotlashtirishga doir qonun xujjatlari majmui shakllantirildi. Jumladan, «Axborotlashtirish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasida "Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan» – degan qoida o‘z aksini topgan.

Hozirda mazkur yo‘nalishdagi konunchilik amaliyoti boshqa davlatlar siyosatida ham keng o‘rin egallagan. Zero, axborot xurujlari avj olib, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’biri bilan aytganda, **«mafcura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko‘proq kuchga ega»** bo‘lgan bugungi kunda axborot sohasi bilan bog‘liq jarayonlarga alohida e’tiborni qaratish – inson, jamiyat va davlat ma’naviy-madaniy xavfsizligi va barqarorligining muhim shartidir.

3. Din niqobidagi mafkuraviy tahdidlarning namoyon bo‘lish shakllari. YOshlarning faol ijtimoiy kuchga aylanib borayotgani bugungi kunda ularning turli mafkuraviy ta’sir va tazyiqlarning bosh ob’ektiga aylanishiga olib keldi. Bunda ularning jamiyatning hali etarli tajribaga ega bo‘lmagan, tashqi ta’sirlarga tez beriluvchan va ayni paytda, eng harakatchan qatlami ekani inobatga olinmoqda.

YOshlarning turli oqimlarga kirib qolishlari sabablari qatorida ularning bilimlari, shu jumladan, diniy ilmlarni egallahsga bo‘lgan qiziqish va intilishi hamda ishonuvchanligi, birdaniga va hamma narsaga (boylik, shon-shuhrat, martaba va h.k.) ega bo‘lishga harakat qilishi, ilmiy tilda aytganda maksimalizm kabi ma’naviy-ruhiy omillarni alohida ajratib ko‘rsatish lozim. «Sen bu tashkilotga kirish yoki mana bu vazifani bajarish bilan alohida, har kimga ham nasib qilavermaydigan sharafli ishga qo‘l urgan bo‘lasan, kerak bo‘lsa, sen millat, din, insoniyatning xaloskoriga aylanasan!», – degan qarashlarni singdirish jarayoni aynan mana shu kabi xususiyatlarga alohida e’tibor berilayotganini ko‘rsatadi. «YOshlarning ongida qanday kayfiyat ustunligini aytsang, men senga keyingi avlodning tabiatni qanday bo‘lishini aytib beraman», - deb yozgan edi siyosiy arboblardan biri. SHu nuqtai nazardan qaraganda, diniy ekstremistik oqimlar ham jamiyatning ertangi kunini belgilab beradigan avlod ongini egallah, nazorat qilishni ko‘zlab ish yuritmoqda deyish mumkin.

Ayniqsa, g‘oyalar kurashi avj olgan bugungi kunimizda yoshlар ma’naviyatiga tajovuz solayotgan tahdidlar qatorida, dinni niqob qilib, diniy qadriyatlarimizni oyoqosti qilishga

urinayotgan ekstremistik va missionerlik harakatlarining faoliyati jiddiy tashvish uyg'otmoqda. SHuning bilan birga, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga urinish ba'zan mudhish holatlarning yuz berishiga olib kelmoqda.

Davlatimiz kelajagi hisoblangan yosh avlod tarbiyasiga yurtimizda doimo alohida e'tibor bilan qaralgan. Mamlakatimizda sog'lom va ma'naviy boy, intellektual rivojlangan, axloqan etuk, jismonan baquvvat avlodni tarbiyalash hamda voyaga etkazish maqsadida 2000 yilni «Sog'lom avlod yili», 2001 yilni «Onalar va bolalar yili», 2008 yilni «YOshlar yili», 2010 yilni «Barkamol avlod yili», 2014 yilni «Sog'lom bola yili» va 2016 yilni «Sog'lom ona va bola yili» deb e'lon qilingani ham buning yana bir yorqin hayotiy-amaliy ifodasi bo'ldi. Bu borada yurtimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, «... farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi».

Zero, jismoniy tarbiya bolani jismonan baquvvat, kuchli, sog'lom etib tarbiyalasa, ma'naviy tarbiya orqali unda yuksak axloq, ezgulik, insonparvarlik, shijoat, rahmdillik va mehnatsevarlik sifatlari shakllanadi. Ma'naviy tarbiya farzandning o'zligini saqlashga, uning botiniy olamini ma'rifiy boyitishga xizmat qiladi. Buyuk alloma, vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy aytganidek, «Inson tabiatning eng oliy zoti, kamolotidir, inson zoti barcha hayvonlardan yuqori turadi. Insonga katta sharaf ko'rsatilgan – unga aql-zakovat va kuch berilgan. SHu sababdan, insonning ma'naviy olami uning oldiga qo'yilgan vazifalarga mos bo'lishi uchun u yuksak axloqli, bilimli, ma'rifatli bo'lmog'i darkor». Demak, farzand tarbiyasi avvalo, uning ma'naviy poydevori qanchalik mustahkamligi bilan belgilanadi. Darhaqiqat, go'zal xulq ila tarbiyalangan bola hayotda aql-idrok bilan ish tutadi, imon-e'tiqodida sobit turadi, erkin va mustaqil fikrlaydi, har xil aldovlarga uchmaydi hamda g'arazli tashviqotlarga berilmaydi.

Ayni paytda, bir haqiqatni alohida qayd etish lozim. Ota-bobolarimiz dini bo'lmish islom har doim odamlarni o'z-o'zini idora etishga, yaxshi xislatlarni ko'paytirib, yomonlardidan xalos bo'lishiga chorlagan, og'ir sinovlarga bardosh berishga, yorug' kunlarga intilib yashashga da'vat qilgan, bir so'z bilan aytganda, xalqimiz uchun ham imon, ham axloq, ham ma'rifat bo'lib kelgan. Hozirda ham bu ma'rifat odamlarga ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat bag'ishlab, o'zaro mehr-oqibatlilik tuyg'ularining kamol topishiga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash nafaqat bir davlat yoki mintaqa, balki jahon hamjamiyati uchun eng dolzarb masalaga aylandi. SHu jumladan, bizning yurtimizda ham begunoh kishilarning qoni to'kilishi, obod joylar vayron bo'lishi, aholi o'rtasida vahima, parokandalik kelib chiqishining oldini olish maqsadida bu kabi ishlarni amalga oshirmoqchi bo'lganlarga qarshi qat'iy kurash olib borilmoqda.

Hozirgi kunga kelib mintaqada, xususan, O‘zbekistonda diniy-ma’rifiy sohaning rivojlanishi diniy mutaassiblik xavfining oldini olishda muhim omil bo‘lib qolmoqda. Ammo g‘arazli kuchlar ham o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida yangi-yangi uslublarni, hiylanayranglarni o‘ylab topishlari ham tabiiy. Bu kabi salbiy holatlarning paydo bo‘lishi va rivoj topishiga yo‘l qo‘ymaslik esa doimiy xushyorlikni talab etadi.

Ming afsuski, diniy savodi past bo‘lgan ayrim kishilar o‘zlarini islom dinining jonkuyarlari qilib ko‘rsatuvchi, aslida esa, hokimiyatni egallashni maqsad qilib qo‘yan turli oqim vakillarining quruq va’dalariga aldanib qolmoqdalar, hatto, o‘zlarini qurbon qilishgacha etib bormoqdalar. Johillik ham mutaassib oqimlarning g‘arazli niyatlarini amalga oshirishiga zamin yaratadigan omillardan biriga aylandi. Mamlakatimiz hududiga yashirin tarzda olib kirilayotgan ekstremistik ruhdagi adabiyotlar, internet tarmoqlarida tarqatilayotgan materiallardan ta’sirlanayotgan va to‘g‘ri yo‘ldan adashayotganlarning borligi ham buni tasdiqlaydi. O‘zini portlatish orqali begunoh kishilarning halok bo‘lishiga, qanchadan-qancha bolalarning etimga aylanishiga sabab bo‘ladigan jafokorlik ham jaholatning o‘ziga xos ko‘rinishidir. Darhaqiqat hozirgi kunga kelib diniy ekstremistik tashkilotlar keng tarmoqli tizimga aylanib ulgurdi. Bu chuqur o‘ylangan strategiyaning bir qismidir. Bunday kuchlar yoshlarimiz ongi va qalbini zabit etish maqsadida har qanday qabih yo‘llardan foydalanishga urinmoqda.

YUqoridagi mulohaza va dalillar, diniy ekstremizm va mutaassiblikning asl qiyofasini ochib berib, mazkur harakatlarning nafaqat dunyoviy qonun-qoidalar, balki islom dini asoslariga ham zid ekanini ko‘rsatadi. SHunday ekan, bunday oqimlarga qarshi murosasiz kurash, terrorchilik harakatlarini amalga oshirayotgan mutaassib kuchlarning islom diniga mutlaqo yot, begona ekanini har tomonlama asoslash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda farzandlarimiz dunyoning eng o‘tkir, faol, uddaburon, Vatanparvar yoshlariga aylanishi, ularni fidoiylik, vatanparvarlik, tadbirkorlik, millatparvarlik, sadoqatga o‘rgatish ko‘p jihatdan ota-onalarga ham bog‘liq. Bu borada, albatta, ota-onaga yordam berishda butun jamoatchilik – mahalla faollari, diniy ma’rifat va ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchi, profilaktika noziri, Xotin-qizlar qo‘mitasi va «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati kabi tashkilotlarning joylardagi mas’ullari birgalikda faol ishlashlari kerak.

Respublikamizda qaror topgan tolerantlik muhitini afkor ommaga ob’ektiv ko‘rsatib berish, e’tiqod erkinligi sohasida O‘zbekistonda olib borilayotgan siyosatni keng targ‘ib qilish, diniy-ekstremistik oqimlar tomonidan targ‘ib qilinayotgan vayronkor g‘oyalarga qarshi islom manbalariga asoslangan ilmiy raddiyalar berish, diniy mutaassiblik tamoyillarining jamiyatga tahdidi, uning zamiridagi g‘arazli geosiyosiy maqsadlar, ularni amalga oshirayotgan buzg‘unchi

kuchlarning kirdikorlarini fosh etishga qaratilgan ishlanmalar yaratish yoki ularni aholi orasida targ‘ib etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, har bir insonning o‘z ishini sidqidildan amalga oshirishi, loqaydlik, beparvolikning oldini olishi, yon-atrofida bo‘layotgan voqeа-hodisalarga hushyorlik bilan qarab, Vatan tinchligi yo‘lida sergak va ogoh bo‘lib yashashi, yoshlарimizning ongu qalbini jaholatdan, yot va zararli g‘oyalar ta’siridan himoya qilish, ajdodlarimizga armon bo‘lib qolgan, biz erishgan mustaqillik va tinchlik-osoyishtalikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylashning muhim omili hisoblanadi. Buni hech qachon unutmasligimiz, tinchlik uchun doimo o‘zimizning bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etib yashashimiz lozim.

4. YOshlarni internet va ijtimoiy tarmoqlardagi axborot xurujlaridan asrashning dolzarb masalalari. Internet fan-texnika taraqqiyoti natijasi, madaniyat evolyusiyasining hosilasi hisoblanadi. Hozirgi kunda hayotimizni internetsiz tasavvur qilish juda mushkul. Ayniqsa, yoshlар hayotida global tarmoqning o‘rni tobora oshib bormoqda. Internet dunyoning turli nuqtalarida yashovchi odamlarning o‘zaro muloqotini hamda axborot almashinuvini mukammal darajada osonlashtirdi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, dunyo bo‘yicha internetdan eng ko‘p foydalanuvchilar aynan 21 dan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlар hisoblanar ekan.

YUrtimizda ham Internet tizimi rivojlanib, undan foydalanuvchilar safi jadal sur’atlar bilan kengayib bormoqda. So‘nggi o‘n yilda global tarmoqdan foydalanuvchilar o‘n barobarga oshgan. Tarmoq orqali axborot izlash, qabul qilish, uzatishning juda qulay va ommabopligi undan foydalanuvchilar sonining tobora ortib borishini ta’minlamoqda. Mamlakatimizda 2007 yilda internetdan foydalanuvchilar soni (mobil internet foydalanuvchilari bilan qo‘sib hisoblaganda) bir millionni tashkil etgan bo‘lsa, 2016 yil yakunida bu ko‘rsatkich o‘n ikki milliondan oshdi.

Internet yoshlар ongi va hissiyotlariga, tafakkur tarziga, xulq-atvorlariga ta’sir ko‘rsatishda katta imkoniyatlarga ega. Internetning bugungi kundagi rivoji yoshlarga g‘oyaviy ta’sir o‘tkazishning miqyosi va ko‘laming keskin darajada o‘sishiga olib keldi.

Globallashuvning ijobiy va salbiy tomonlari bo‘lgani kabi, internet tarmog‘i ham shunday xususiyatlarga ega ekanini unutmaslik zarur. Albatta, global tarmoq – ulkan resurs. Biroq, bu resursdan kim va qanday maqsadlarda foydalanishi ham juda jiddiy masalalar sirasiga kiradi. Xususan, ma’lumotlarda keltirilishicha, bugungi kunga kelib, internet tarmog‘ida ma’naviy-axloqiy tubanlikni targ‘ib etuvchi sahifalarning soni bir necha yuz millionni tashkil etgan.

Ushbu fakt va raqamlar internet sanoati rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kishilarning axborotlarga nisbatan juda ehtiyojkorlik, ogohlilik va ziyraklik bilan munosabatda bo‘lishlarini taqozo etadi. Boshqacha aytganda, kishilarimizda, ayniqsa, yoshlарimizda axborot iste’moli madaniyatini shakllantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Aynan shu taraqqiyot vositasidan ustamona foydalanib, qalblarni zabit etishda diniy omilning roli yuqori. SHuning uchun ham turli diniy-ekstremistik va terrorchi uyushmalar o‘z g‘oyalarini targ‘ib qilishda internetni eng samarali vosita sifatida qo‘llamoqda.

Bunda diniy-ekstremistik oqimlar o‘z maqsadlarini amalga oshirish uchun zamonaviy axborot kommunikatsiyalaridan keng foydalanish, internet orqali turli tillarda targ‘ibot olib borish va puxta ishlangan strategiya asosida virtual jamoatlar tuzish asosiy vazifaga aylangan. Masalan, bugungi kunda bir necha yirik terrorchi tashkilotlar o‘z saflariga faol tarzda ijtimoiy tarmoqlar orqali asosan 17-35 yosh oralig‘ida bo‘lgan kishilarni yollamoqda. Bunda psixologik ta’sir samaradorligini yanada oshirish maqsadida ijtimoiy tarmoq a’zolarining sahifalari, qo‘yilayotgan rasmlar, sharh va izohlar hamda olib borilayotgan suhbat mavzularini puxta o‘rganadi va shu asosda «nishon»ga olingan shaxsga mavzuga oid materiallar internetning Facebook, Odnoklassniki, VKontakte, Telegram, Twitter, WhatsApp kabi keng auditoriyaga ega bo‘lgan ijtimoiy tarmoqlar orqali (yozma xabar, matn, fotosurat, stiker rasmlar, audio-video rolik) jo‘natiladi va o‘zaro aloqa yo‘lga qo‘yiladi.

YOshlar orasida mutaassiblikka yo‘g‘irilgan bunday forumlarning tobora ommalashuvi hamda ularda turli ko‘rinishdagi buzg‘unchi «fatvo»larning berib borilishi muammoning naqadar jiddiy ekanini namoyon etadi. CHunki dunyo aholisining asosiy qismini yoshlar tashkil qiladi. YOshlar katta kuch hisoblanadi. Ularning endi shakllanib kelayotgan ongiga nimani singdirilsa, o‘sha toshga o‘yilgan naqshdek muhrlanadi. SHuning uchun ham radikal oqimlar aynan yoshlarni tuzog‘iga ilintirishga harakat qiladi. Ulardagi ishonuvchanlik, kuch-g‘ayrat, qiziqqonlik ularning maqsadini amalga oshirishda qo‘l keladi.

Ming afsuski, bunday manfur kuchlar asosan ilm va ma’rifatdan yiroq, sof diniy tushunchalarning asl mazmunini bilmagan kishilarni, asosan yoshlarni jalb etishga intilib, ijtimoiy tarmoqlar orqali «jihod», «takfir», «shahidlik», «hijrat» tushunchalarini noto‘g‘ri talqin etgan holda o‘z Vatanlarini tark etishga urinmoqda. SHuningdek, ayrim kimsalar tomonidan maqsadli ravishda islom mohiyatiga zid bo‘lgan turli xil asossiz axborotlar, manbasi aniq bo‘lmagan diniy tusdagi xabarlar yoki kishilarni vahimaga soluvchi foto va videolavhalar keng targ‘ib etilmoqda. Bunda ba’zi yoshlarning axborot vositalari orqali tarqatilayotgan milliy va diniy qadriyatlarimizga zid bo‘lgan xabarlar, aniq manbasi ko‘rsatilmagan, asossiz axborot va ma’lumotlarga ishonib qolishayotgani, mulohaza qilmasdan ko‘r-ko‘rona qabul qilayotgani undan ham keskin oqibatlarni keltirib chiqarmoqda.

Bugun axborot iste’mol qilinadigan tovarga aylangan ekan, har bir inson o‘zida uni iste’mol qilish madaniyatini tarbiyalashi lozim. YOshlar shaxsiy xarakterdagi axborot himoyasi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, o‘zi foydalanayotgan salbiy axborotlardan himoyalana olishi zarur. Ana shu maqsadda 2011 yildan boshlab, Toshkent islom universiteti

bakalavriat va magistraturaning barcha yo‘nalishlarida «Axborot iste’moli madaniyati» nomli maxsus kursning o‘qitilishi joriy etildi.

Axborot iste’moli madaniyati, eng umumiy ma’noda, axborot oqimidan inson manfaatlari, kamoloti hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ma’lumotlarni qabul qilish, saralash, tushunish va talqin etishga xizmat qiladigan bilimlar, qobiliyat va malaka tizimini anglatadi.

Inson o‘zida bunday madaniyatni tarbiyalashi uchun u yoki bu axborotni eshitar ekan, hech bo‘lmaganda «Bu axborotni kim uzatayapti?», «Nima uchun uzatayapti?» va «Qanday maqsadda uzatayapti?» degan savollarni o‘z-o‘ziga berishi, unga asosli javob topishga harakat qilishi kerak.

SHundagina turli g‘oyalar ta’siriga tushib qolish, taqdim etilayotgan ma’lumotlarga ko‘rko‘rona ergashishning oldi olinadi. SHakllangan axborot iste’moli madaniyati milliy manfaatlarimiz va qadriyatlarimizga zid bo‘lgan xabar, ma’lumotlarga nisbatan o‘ziga xos qalqon rolini o‘taydi, shaxs dunyoqarashi va xulqidagi sobitlikni ta’minalashga xizmat qiladi.

YOsh avlodda bu jihatlar shu darajada shakllangan va qaror topgan bo‘lishi lozimki, ular virtual makonda umummiliy manfaatga xizmat qiladigan, uning taraqqiyotiga yordam beradigan axborotni tanlay olsin. Axborot iste’moli madaniyatiga ega yoshlar, salbiy va noxolis axborotlar ta’siriga tushib qolmaydi, chunki ularda bunday axborotlarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitet shakllanadi.

«Kimki axborotga ega bo‘lsa, u, dunyoga egalik qiladi», degan fikr bugungi kunda barcha tomonidan e’tirof etilgan. SHunday ekan, bugungi kunda yoshlarda axborot olami imkoniyatlaridan oqilona foydalanish malakasini shakllantirish hayotiy-amaliy ahamiyatga ega.

Darhaqiqat, islom dini ko‘rsatmalarida ham naql qilingan biror xabarga ishonishdan avval uni tekshirib, aniqlab olish talab etiladi. Jumladan, Qur’oni karimda shunday deyiladi: **Ey, mo‘minlar! Agar sizlarga biror fosiq kimsa xabar keltirsa, sizlar (haqiqiy ahvolni) bilmagan holingizda biror qavmga aziyat etkazib qo‘yib, (keyin) qilgan ishlaringizga pushaymon bo‘lmasligingiz uchun (u xabarni) aniqlab (tekshirib) ko‘ringiz!** (*Hujurot*, 6).

Bu haqida Qur’oni karimning yana bir oyatida insonlar uchun muhim ko‘rsatma kelgan bo‘lib, unda ham turli vositalar orqali olinayotgan xabar va ma’lumotlarga ko‘r-ko‘rona ergashishdan qaytariladi: **(Ey, inson!) O‘zing (aniq) bilmagan narsaga ergashma! CHunki quloq, ko‘z, dilning har biri to‘g‘risida (har bir inson) mas’ul bo‘lur (javob berur)** (*Isro*, 36). Demak, inson ko‘rgan, eshitgan har bir ma’lumotiga ishonishi, unga ergashishi oqibatida Alloh oldida ham so‘raladi.

Payg‘ambar Muhammad (alayhis-salom)dan rivoyat qilingan bir necha hadislarda ham shunday deyiladi: «*Xabarni tekshirish Allohdan, (unda) shoshqaloqlik qilish shaytondandir*»,

deganlar. SHuningdek, *Abu Hurayra (r.a.)dan rivoyat qilingan boshqa bir hadisda esa, Rasululloh (alayhis-salom)*: «*Kishining yolg‘onchi ekanligiga uning eshitgan har bir narsasini gapiraverishi kifoya qiladi*» deganlar.

Demak, har bir olingan ma'lumotni tekshirib, asosli yoki asossiz ekanini aniqlamay turib, o'sha ma'lumotga qarab ish tutish islom mohiyatiga ko'ra, shayton yo'liga kirish hamda yolg‘onchi bo'lib qolish bilan barobar bo'ladi. CHunki bunda xabar tarqatayotgan kishining g‘arazli maqsadini amalga oshirishiga zamin yaratib qo'yiladi.

SHunday ekan, dunyoning turli mintaqa va hududlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ziddiyatli to'qnashuvlarga teran qarash hissini oshirish, har qanday ko'rinishdagi tahdidlarga qarshi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, ayniqsa bu borada kelajagimiz hisoblangan yosh avlodni, bir so'z bilan aytganda har birimiz uchun muqaddas bo'lgan oilamizni din niqobi ostidagi yot g'oyalar ta'siridan asrash uchun bor kuch va imkoniyatlаримизни safarbar etishimiz lozim.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Kibermakon tushunchasining mazmun-mohiyati haqida ma'lumot bering.
2. Din niqobi ostidagi mafkuraviy tahdidlar qanday shakllarda namoyon bo'lmoqda?
3. Nima uchun internet olamidagi buzg'unchilar asosan yoshlarni o'z to'rlariga ilintirmoqda?
4. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda qaysi jihatlarga alohida e'tibor qaratish kerak?

Adabiyotlar

1. Diniy mutaassiblik: mohiyat, maqsadlar va oldini olish yo'llari / A.Hasanov, O.YUsupov, K.SHermuhamedov, U.G‘afurov, J.Karimov. – Toshkent: Movarounnahr, 2013. – 160 b.
2. Qo'shaev U. Axborot iste'moli madaniyati. – Toshkent: «Extremum-Press» nashriyoti, 2013. – 44 b.
3. Tulepov A. Internetdagи tahidlardan himoya. Mas'ul muharrir A.Hasanov. – Toshkent: Movarounnahr, 2016. - 672 b.
4. SHermuhammedov K., Karimov J., Najmiddinov J. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. – Toshkent: «Movarounnahr» nashriyoti, 2016. – 224 b.

Seminar mashg'ulotlari uchun materiallar

1-mavzu: Dinshunoslik faniga kirish

Vaqti – 2 soat	Talabalar soni 15-20 nafar
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Munozarali seminar
Seminarda muhokama uchun savollar	1. “Dishunoslik” fanining predmeti. 2. “Dinshunoslik” fanining tamoyillari, ularni o‘rganish uslublari va boshqa fanlar bilan aloqadorligi. 3. Dinlar tarixini o‘rganishda Sharq va g’arb allomalarining yondashuvlari.
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi.	Ma’ruzada egallangan bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashrtirish.
Pedagogik vazifalar: -mavzu bo‘yicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash; -darslik bilan ishlash ko‘nikmalarini hosil qilish; -axborotlarni tahlil qilish va o‘z fikrini ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirish.	Talabaning o‘quv faoliyati natijalari: • «Dinshunoslik» fanining predmeti va «Din» tushunchasi mohiyatini aytib beradi hamda falsafiy mushohoda yurita oladi; • Dinshunoslik fanining asosiy tarkibiy qismlari va kategoriyalari, uning rivojlanish qonuniyatlarini sanab beradi va izoh beradi; • ajdodlarimiz e’tiqod qilgan ilk diniy qarashlar, ularning namoyon bo‘lishi va xususiyatlarini aytib bera oladi
O‘qitish uslubi va texnikasi	Munozarali seminar, suhbat, aqliy hujum
O‘qitish vositalari	Proektor, tarqatma materiallar, marker, skoch, mavzuga oid tarixiy xaritalar.
O‘qitish shakli	Jamoada va guruhlarda ishslash
O‘qitish sharoitlari	Guruhlarda ishslashga mo‘ljallangan auditoriya

Seminar mashg‘ulotining texnologik xaritasi

Bosqichlar vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O‘qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (20 min.)	1.1.Mavzu, uning maqsadi, o‘quv mashg‘ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi, ularning dolzrarligi asoslab beriladi (1-ilova)	1.1.Eshitadi, testlar va topshiriqlarga javob yozadi.
2-bosqich. Asosiy (50 min.)	<p>2.1.Talabalarga muammoli topshiriqnı o‘qib eshitiradi (2-ilova). Qo‘yilgan muammonni mazmunini tushuntiradi. Talabalar bilan birga mammoning mazmuni yuzasidan taklif etilgan varintalarни muhokama qiladi. Aniqlashtiradi va ulardan birida to‘xtaydi.</p> <p>2.2. Talabalarni 3 ta kichik guruhgа bo‘lib, ularga muammoli topshiriqlarni tarqatadi. Aqliy hujum tartib qoidalarini eslatadi. Baholash mezonlari yuzasidan ma'lumot beradi va o‘zaro baholash jadvalini tarqatib chiqadi (3-ilova).</p> <p>Guruhlardagi ishni boshlanishini e'lon qiladi.</p> <p>2.3. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Taqdimot jarayonida izoh beradi, chiquvchilarni xatolarini tuzatadi, talabalarni faol munozaraga chorlaydi, o‘zaro baholashni tashkil etadi.</p> <p>2.4. Muammoning echimi bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni va qiyinchiliklarni ajratib, yakun yasaydi. So‘nggi xulosani beradi.</p>	<p>2.1.Eshitadi, muammoning mazmuni yuzasidan takliflar beradi.</p> <p>2.2.Muammoli topshiriqnı echadi, T-sxema tuzadi va muammo echimi bilan bog‘liq jadvalni to‘ldiradi, taqdimotlarni tayyorlaydi, chiqishga tayyorgarlik ko‘radi.</p> <p>2.3.Taqdimot bilan chiqish qiladi.</p> <p>Faol munozara qiladi, savollar beradi, to‘ldiradi, boshqa guruhlarning taqdimotlarini baholaydi.</p>
3-bosqich Yakuniy (10 min.)	<p>3.1.Yakun yasaydi, talabalar e'tiborini asosiy masalaga qaratadi, o‘quv jarayonidagi talabalarning ijobiy tomonlariga to‘xtalib o‘tadi.</p> <p>3.2.Mustaqil ta'lim uchun topshiriq beradi: keyingi mavzuni insert metodi asosida tayyorlash, munozaraga va o‘zaro savollarga tayyorlanish topshirig‘ini beradi.</p>	<p>Eshitadi, savollar berib, o‘z fikrlariga aniqlik kiritadi.</p> <p>Referat mavzularni tanlaydi.</p>

Muammoli topshiriq

“Dinshunoslik”fanining mazmuni, mohiyatini teran anglash, tushunib olishda, uning muhim qonuniyatlarini ishlab chiqarishda unga hos bo‘lgan quydagi uslublarning alohida o‘rin tutishini ta’kidlab o‘tmoqlik lozim bo‘ladi:

- Dialiktik-falsafiy.
- Tarixiy-mantiqiy.
- O‘xshatish va taqqoslash.
- Kuzatuv.
- Induktiv va dediktiv.
- Tajriba o‘tkazish.
- Sotsialogik tadqiqot (so‘rov, anketa to‘ldirish)
- Nazariy.
- Izohlash.
- Tahlil qilish uslublari va boshqalar.

“Dinshunoslik” ijtimoiy-gumanitar fan bo‘lganligidan, u shu yo‘nalishdagi bir qator fanlar, xususan tarixiy, falsafa, satsiolagiya, siyosatshunoslik, dinshunoslik, Milliy istiqlol g‘oyasi singari fanlar bilan o‘zaro uzviy va mantiqan yaqin, ular bilan bog‘lanib ketgan. Garchi mazkur fanlarning o‘z prepredmeti, o‘rganish ob'ekti bo‘lishligiga qaramay, ularga hos o‘xshashlik, mushtarak jixatlar ko‘pdir. “Dinshunoslik” fanining asosiy bosh vazifasi mustaqil O‘zbekistonimizning porloq ertasi,kelajagini buyod etadigan har tomonlama etuk, yuksak ma’naviyatli, ilmil, ma’rifatli komil insonlarni tarbiyalab, voyaga etkazishga munosib hissa qo‘shishdir.

Topshiriq: “Dinshunoslik” fanining yoshlarning vatanparvar, barkamol avlod etib tarbiyalashdagi o‘rni va roliga baho bering, “Yuksak ma’naviyat engilmas kuch” iborasiga izoh bering, “Manaviyat asoslari” ijtimoiy-gumanitar fan bo‘lganligidan, u shu yo‘nalishdagi bir qator fanlar, xususan tarixiy, falsafa, satsiolagiya, siyosatshunoslik, dinshunoslik, Milliy istiqlol g‘oyasi singari fanlar bilan o‘zaro uzviy va mantiqan yaqin, ular bilan bog‘lanib ketganligini isbotlang

Uslubiy tavsiyalar

1. Xal qilish yo‘llari

1.Muammoga izoh bering.

2.”Din” atamasiga, “Dinshunoslik” fanining predmeti, maqsad va vazifalariga, uning sovet davridagi o‘rganilish holatiga izoh bering, ijobiy va salbiy tomonlarini ochib

bering (turli grafikli organayzerlardan foydlaning: “Nimaga?”, “Qanday?”, “Baliq skeleti” sxemalari va boshqalar).

3.T-sxemadan fodalangan holda yuqoridagi nazariy metodologik asoslarni izohlab bering.

4. “Dinshunoslik”fanining mazmuni, mohiyatini teran anglash, tushunib olishda, uning muhim qonuniyatlarini ishlab chiqarishda unga hos bo‘lgan uslublarni sanab bering

5 “Dinshunoslik”fanini o‘rganishning boshqa ijobiy jihatlarini o‘ylab toping.

6.Muammoning echimi bilan bog‘liq umumiy xulosa keltiring.

7.Muammoning echimi bilan bog‘liq quyidagi jadvaldan foydalaning.

2. Muammoning echimi bilan bog‘liq jadval:

Muammo mazmuni	Yakuniy xulosa:	
Muammo osti echimi	yechim tarkibi:	Xulosalar:

Testlar

4-5 ta to‘g‘ri javob – “qoniqarli”

6-7 ta to‘g‘ri javob – “yaxshi”

8-10 ta to‘g‘ri javob – “a’lo”

Baholash mezonlari

Guruh	yechim (Muammoli topshiriq)	Izoh (aniqlik, mantiqiylik)	Guruh faolligi (qo‘shimchalar, savollar)	Jami ballar	Baholash
	(1,5)	(1,5)	(1)	(4,0)	
1					
2					
3					

O‘QUV TOPSHIRIQLAR

Topshiriq

1-guruh. 1-topshiriq.

- Dinning ildizi pirovardini aniqlang.
- A) ijtimoiy-iqtisodiy, gnoseologik, psixologik.
- B) gnoseologik, psixologik, biologik.
- V) fiziologik, biologik, geografik.

“Din” so‘zining lug‘aviy ma’nosini va uning asosiy ta’riflarini yozing.

2-guruhi. 2-topshiriq.

- Dining jamiyatda bajaradigan ijtimoiy, ma’naviy, ruhiy vazifalarini aniqlang.
- A) Kompensatorlik, regulyatorlik, aloqa bog‘lashlik.
- B) Vorisiylik, meros mexanizmi.
- V) Integratorlik, kompensatorlik, regulyatorlik, legitimlovlik, aloqa bog‘lashlik, falsafiy-nazariy jihatlari.

Dining jamiyatda bajaradagin vazifalarini sxemalarda tasvirlang.

3-guruhi. 3-topshiriq.

- “Din” so‘zining ma’nosini aniqlang.
- A) G‘ofur
- B) Ishonch
- V) Adovat

Din tasnifini sxemada tasvirlang.

Talabalarning bilim va ko‘nikmalarini baholash mezonlari

Guruhi	1-topshiriq (-b)	2-topshiriq (-b)	3-topshiriq (-b)	Ball
I				
II				
III				

Maksimal ball – 5 ball, saralash – 3 ball

Takrorlash uchun savollar

- Dinshunoslik fani nimani o‘rganadi?
- Dinshunoslik qachon yuzaga kelgan?
- Din nima?

4. Dinning kelib chiqishi haqidaqarashlar mavjud?
5. Dinning jamiyat va kishilar hayotidagi ahamiyatini izohlang?
6. Dinlarning mazmun mohiyatiga ko‘ra qanday tasniflash mumkin?
7. Dinlarning qanday turlarini bilasiz?

Testlar

1. Dinshunoslik fanining asosiy vazifasi:

- A) Ilmiy-falsafiy dunyoqarashga asoslangan imon-e’tiqodni shakllantirish
- B) Dinni o‘rgatish va dunyoqarashni shakllantirish
- S) islom dini urf-odatlarini o‘rgatish
- D) dinga ishonuvchilarni tanqid etish

2. Din – bu:

- A) Xalqni yo‘ldan adashtiruvchi vosita
- B) Insonning xudo bilan o‘zaro munosabat usuli
- S) Tashqi olam kuchlarining kishi ongida biron-bir tarzda ifodalanishi
- D) Ahloqiy me’yor va potensiallar tizimi

3. Din – bu:

- A) Madaniy taraqqiyotning qonunuiyatli bosqichi
- B) Ruhoniylar tomonidan kiritilgan xayoliy dunyoqarash
- S) Kishilarga Olloh in’om etgan haqiqat
- D) Mo‘jizaviy kuchlarning inson bilmagan jihatlari

4. Dinning qanday ildizlari bor?

- A) Genetik, tarixiy, psixologik
- B) Gnoseologik, ijtimoiy, psixologik
- S) Ijtimoiy, biologik, ilohiy
- D) Afsonaviy, falsafiy, psixologik

5. Dinning funksiyalari (vazifalari) qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

- A) Ahloqiy, tarbiyaviy, mafkuraviy
- B) To‘ldiruvchilik, birlashtiruvchilik, o‘zaro aloqadorlik
- S) Tinchlik, do‘slik, tenglik, tabiatni muhofaza qilish
- D) Gnoseologik, antropologik, teologik, psixologik

6. Quyidagi dinlarning qaysi turkumi qadimiy dinlar sirasiga kiradi?

- A) Fetishizm, iudaizm, zardo‘shtiylik
- B) Totemizm, fetishizm, animizm, animatizm, zardo‘shtiylik

S) Sehrgarlik, islom, buddizm, xristianlik

D) Buddaviylik, xristianlik, islom

7. Fetishizm nimani ilohiyashtiradi?

A) Hayvonlarni

B) Odamlarni

S) Moddiy narsalarni

D) Parrandalarni

8. Animatizm nimani ilohiyashtiradi?

A) Ruhiy olamni

B) Jon va ruhni

S) Barcha tirik mavjudotlarni

D) Dengiz va tog‘larni

9. Totemizm nimani muqaddaslashtiradi?

A) Yirtqichlarni

B) Kiyik, bug‘u, burgut

S) G‘ayritabiyy mavjudotlarni

D) Qaldirg‘och, kabutar, bo‘ri, alvasti

10. Zardo‘shtiylik qaerda paydo bo‘lgan?

A) Xorazm vohasida

B) Eronda

S) Movarounnahrda

D) YAqin va O‘rtta SHarqda

Adabiyotlar

1. Dinshunoslik asos.lari.O‘quv qo‘llanma. / Ochildeev A. va b.. –Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. – 320 b.
2. Men A. Istorya religii. – M.: 1994.
3. Peter Anters. Religii sovremennosti. Istorya i vera. –M.: Progress-Traditsiya, 2001.
4. Radugin A.A. Vvedenie v religovedenie: teoriya, istoriya i sovremennye religii. – M.: 1996.
5. SHaxnovich M. Religovedenie.- M.: 2012.
6. Len Woods. Handbook of World Religions. Barbour Publishing, Ohio. 2008. – 266 p.
7. World Religions From Ancient History to the Present by Edward Geoffrey. - Facts On File Publications.New York, New York • Bicester, England..: 1984

2-mavzu: O‘zbekistonda davlatning din va diniy tashkilotlar bilan munosabati

Vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 15-20 nafar
O‘quv mashg‘uloti shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo‘yicha seminar mashg‘uloti
O‘quv mashg‘uloti rejasи	1 Xalaqaro huquqda din va e'tiqod erkinligi tushunchasi 2 Dinning dunyo xalqlari ijtimoiy hayotiga, axloqiy munosabatlariga, adabiyoti va san'atiga ta'siri. 3. Dunyoviy va diniy qadriyatlar
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i>	
Bu seminar mashg‘uloti jarayonida savollar va muammolar borasida suhbat o‘tkaziladi. Bu darsda “aqliy hujum” usulini ham qo‘llash mumkin. SHuningdek, test va masalalar echish mumkin.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> -mavzu bo‘yicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash. - darslik bilan ishslash ko‘nikmalarini hosil qilish; tahlil qilish.	<i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - Xalaqaro huquqda din va e'tiqod erkinligi farqlarini bilib oladi - Dinning dunyo xalqlari ijtimoiy hayotiga, axloqiy munosabatlariga, adabiyoti va san'atiga ta'siri xaqidagi tushunchalarni mustahkamlaydi; -Dunyoviy va diniy qadriyatlar farqlarini bilib oladi
O‘qitish uslubi va texnikasi	Blits-so‘rov, birgalikda o‘qiymiz, falsafiy esse, “axloqiy me’yorlar” so‘zlariga klaster, munozara.
O‘qitish vositalari	Ma’ruza matni, o‘quv qo’llanmasi, proektor, flipchart, marker, doska.
O‘qitish shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, individual va guruh bo‘yicha o‘qitish.
O‘qitish sharoitlari	Kompyuter texnologiyalari, proektor bilan ta’minlangan, guruhda dars o‘tishga moslashtirilgan auditoriya.

Seminar mashg‘ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O‘qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min)	<p>1.1. Mavzuni, maqsadi rejadagi o‘quv natijalarini e’lon qiladi, ularning ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi.</p> <p>Mashg‘ulot hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo‘llagan holda o‘tishni ma’lum qiladi.</p> <p>1.2. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda auditorianing tayyorgarlik darajasini aniqlaydi:</p> <p>Kasbiy odob masalasini bilasizmi?</p> <p>Ularning mazmunlarini ham bilasizmi?</p> <p>Mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishini e’lon qiladi.</p>	1.1. Mavzuni yozadi va savollarga javob beradi.
2-bosqich asosiy (60 min)	<p>2.1. Talabalarni 3 guruhga bo‘ladi, har biriga vazifa beradi (2-ilova).</p> <p>Kutilayotgan o‘quv natijalarini eslatadi.</p> <p>2.2. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (1-ilova).</p> <p>Baholash mezonlarini ham namoyish qiladi.</p> <p>2.3. Vazifani bajarishda o‘quv materiallari (ma’ruza matni, o‘quv qo‘llanma)laridan foy- dalanish mumkinligini eslatadi.</p> <p>Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi.</p> <p>2.4. Tayyorgarlikdan keyin taqdimotni boshlangani e’lon qilinadi.</p> <p>2.5. Talabalar javobini sharxlaydi, xulosa larga e’tibor beradi, aniqlik kiritadi.</p> <p>2.6. Talabalarga B.B.B usuli bo‘yicha ifodalangan jadvalni namoyish qiladi va ustunlarni to‘ldirishni aytadi.</p> <p>Tushunchalarga izohlarni to‘g‘rilaydi va savollarga javob qaytaradi.</p> <p>Guruhlar faoliyatiga umumiyl ball beradi.</p>	<p>2.1. O‘quv natijalarini taqdim qiladilar.</p> <p>2.2. Savollar beradi.</p> <p>2.3. Javoblarni to‘ldiradi.</p> <p>2.4. Jadval ustunlarini to‘ldiradi va muhokamada ishtirok etadi.</p>
3-bosqich YAkuniy (10 min)	<p>3.1. Mashg‘ulotni yakunlaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag‘batlantiradi.</p> <p>3.2. Mustaqil ish sifatida “Xozirgi zamonda buddaviylik” mavzusida “esse” yozishni topshiradi.</p>	<p>3.1. Eshitadilar.</p> <p>3.2 Topshiriqni oladilar.</p>

O‘quv topshiriqlar

Guruh bilan ishslash qoidalari

Guruh a'zolarining har biri

- o'z sheriklarining fikrlarini xurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar bo'yicha faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishslashlari lozim;
- o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin;
- yordam so'raganlarga ko'mak berishlari lozim;
- guruhnini baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;
- "Biz bir kemadamiz, birga cho'kamiz yoki birga qutilamiz" qoidasini yaxshi bilishlari lozim.

Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari (ball)

Guruh	1 topshiriq	2 topshiriq	3 topshiriq (har bir savol 0,3 ball)			Ballar yig'indisi
	(1,0)	(1,1)	1-savol	2-savol	3-savol	
1						
2						
3						

B.B.B. usuli asosida bilimlarni sinash uchun tarqatma materiallar

	Tushuncha	Bilaman "+", Bilmayman "-".	Bildim "+", Bila olmadim "-".
1	Zardushtiylik dinining kelib chiqishi tarixi		
2	Zardusht Sepitoma tarixiy shaxs sifatida namoyon bo'lishi		
3	"Avesto" muqaddas kitobida ko'rsatilgan falsafiy, tarixiy, ahloqiy masalalar		
4	"Avesto"ning YAsin qismida ko'rsatilgan iloxiy so'zlari.		
5	Milliy dinlar, ularning vujudga kelishi va		

	shakllanishi		
6	Induizm, janizm dinlari		
7	Daosizm,konfutsiylik,sintaizm, iudaizm dinlari		

Testlar

1. Yaponianing milliy dini qaysi din hisoblanadi?

- A) Buddaviylik
- B) Sintoizm
- C) Konfutsiylik
- D) Krishnaizm

2. Dirlarning farqi nimada?

- A) Turli yillarda ibodat qilinishida
- B) Mamlakatlarda turli millat vakillarining joylashganligida
- C) Diniy urf-odat va marosimlar amalga oshirilishida
- D) Jahonda tinchlik uchun kurashishida

3.Zardushtiylik dinining paydo bo‘lish va uning muqaddas kitobi...

- A) Movarounnaxrda ilgarigi dinning mayda bo‘limi, tasavvurla va ko‘p xudolikka asoslangan diniy e’tiqodlar asosida paydo bo‘lgan;
- B) Bu dinning asoschisi Zardusht hisoblanadi;
- C) Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi – «Avesto» 1200 bobdan iborat;
- D) Movarounnaxr iqlimi, geografik joylashganligi bu dinning kelib chiqishga sabab bo‘lgan;

4.Iudaizm nima va unga kimlar e’tiqod qiladi?

- A) Iudaizm jahon dini eramizdan avvalgi V asrda paydo bulgan;
- B) Iudaizm diniga ruslar, ukrainlar va Markaziy Osiyo xalqlari e’tiqod qiladilar;
- C) Iudaizm diniga yaxudiylar e’tiqod qiladilar, u monoteistik – yakka xudolikka asoslangan din, miloddan avvalgi ikkinchi ming yillik oxirida paydo bo‘lgan;
- D) Iudaizmning muqaddas kitobi «Injil» hisoblanadi;

5. Zardo‘shtiylik ta’limoti qanday asosiy aqidalarga tayanadi?

- A) Muqaddas kitobni e’zozlash, duolar o‘qish;
- B) Iymon keltirish, savob ishlarni bajarish;
- C) Fikrlar sofligi, so‘zning sobitligi, amaldorlarning insonparvarligi;

D) Zakot berish, qurbanlik keltirish, fikrning ezguligiga.

6. Milliy dinlar qaysi dinlar?

- A) Iudaizm (yahudiylik), Daosizm, Islom
- B) Provoslavizm, buddizm, protestantizm
- S) iudaizm, hinduizm, jaynizm, daosizm, sintoizm, konfutsiylik
- D) Buddaviylik, xristianlik, islom

7. Milliy dinlarning o‘xshashligi nimada?

- A) Har bir millatning o‘z diniga e’tiqodida
- B) Turli tillarda namoz o‘qilishida
- S) Ketma-ket paydo bo‘lishligida
- D) Hammasi ham ilohiy kuchga ishonishida

8. Iudaizm dini qaerda paydo bo‘lgan?

- A) Arabistonda
- B) Misrda
- S) Markaziy Osiyoda
- D) Evropada

9. Sintoizm dini qaerda paydo bo‘lgan?

- A) Xitoyda
- B) Yaponiyada
- S) Hindistonda
- D) Isroilda

10. Yaponianing milliy dini qaysi din hisoblanadi?

- A) Buddaviylik
- B) Sintoizm
- S) Konfutsiylik
- D) Krishnaizm

Baholash mezonlari

Guruh	Echim (BBB)	Izoh (aniqlik, mantiqiylik)	Guruh faolligi (qo'shimchalar, savollar)	Jami ballar	Baholash
	(1,5)	(1,5)	(1,0)	(4,0)	
1					
2					
3					

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2017
2. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008
3. Woods. Handbook of World Religions. Barbour Publishing, Ohio. 2008. – 266 p.
4. Dinshunoslik asos.lari.O'quv qo'llanma. / Ochildev A. va b.. –Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. – 320 b.
5. Gunnar Skirbekk, Nils Gilyo. Falsafa tarixi. –T.: SHarq, 2002.
6. Islom ziyosi o'zbegim siymosida. – T: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2005.
7. Men A. Istorya religii. – M.: 1994.
8. Peter Anters. Religii sovremennoosti. Istorya i vera. –M.: Progress-Traditsiya, 2001.
9. Radugin A.A. Vvedenie v religiovedenie: teoriya, istoriya i sovremennye religii. – M.: 1996.
10. Hasanboev O'. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: Diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo'nalishlari. – T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2014.88b.

3-mavzu. Markaziy Osiyo dirlari

Vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 15-20 nafar
----------------	-----------------------------

O‘quv mashg‘uloti shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo‘yicha seminar mashg‘uloti
O‘quv mashg‘uloti rejasи	<p>1.Dinning ilk shakllari</p> <p>2 Mahalliy diniy kultlar va tasavvurlar..</p> <p>3. Diniy muqaddas manbalar</p>

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:

Bu seminar mashg‘uloti jarayonida savollar va muammolar borasida suhbat o‘tkaziladi. Bu darsda “aqliy hujum” usulini ham qo‘llash mumkin. SHuningdek, test va masalalar echish mumkin.

<i>Pedagogik vazifalar:</i> -mavzu bo‘yicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash. - darslik bilan ishlash ko‘nikmalarini hosil qilish; tahlil qilish.	<i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: -Milliy dinlar va ularining farqlarini bilib oladi -Zardushtiylik dinining 3 ta asosiy aqidasi: ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal xaqidagi tushunchalarni mustahkamlaydi; -Zardushtiylik dinida ko‘rsatilgan ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi doimiy kurashning mohiyatini yoritib beradi;
O‘qitish uslubi va texnikasi	Blits-so‘rov, birgalikda o‘qiymiz, falsafiy esse, “axloqiy me’yorlar” so‘zlariga klaster, munozara.
O‘qitish vositalari	Ma’ruza matni, o‘quv qo‘llanmasi, proektor, flipchart, marker, doska.
O‘qitish shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, individual va guruh bo‘yicha o‘qitish.
O‘qitish sharoitlari	Kompyuter texnologiyalari, proektor bilan ta’minlangan, guruhda dars o‘tishga moslashtirilgan auditoriya.

Seminar mashg‘ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O‘qituvchi	talaba
1-bosqich.	1.1. Mavzuni, maqsadi rejadagi o‘quv natijalarini e’lon	1.1. Mavzuni

Kirish (10 min)	qiladi, ularning ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi. Mashg'ulot hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo'llagan holda o'tishni ma'lum qiladi. 1.2. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda auditorianing tayyorgarlik darajasini aniqlaydi: Kasbiy odob masalasini bilasizmi? Ularning mazmunlarini ham bilasizmi? Mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishini e'lon qiladi.	yozadi va savollarga javob beradi.
2-bosqich asosiy (60 min)	2.1. Talabalarни 3 guruhga bo'ladi, har biriga vazifa beradi (2- ilova). Kutilayotgan o'quv natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (1- ilova). Baholash mezonlarini ham namoyish qiladi. 2.3. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (ma'ruza matni, o'quv qo'llanma)laridan foy-dalanish mumkinligini eslatadi. Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi. 2.4. Tayyorgarlikdan keyin taqdimotni boshlangani e'lon qilinadi. 2.5. Talabalalar javobini sharxlaydi, xulosa larga e'tibor beradi, aniqlik kiritadi. 2.6. Talabalarga B.B.B usuli bo'yicha ifodalangan jadvalni namoyish qiladi va ustunlarni to'ldirishni aytadi. Tushunchalarga izohlarni to'g'rilaydi va savollarga javob qaytaradi. Guruhlar faoliyatiga umumiy ball beradi.	2.1. O'quv natijalarini taqdim qiladilar. 2.2. Savollar beradi. 2.3. Javoblarni to'ldiradi. 2.4. Jadval ustunlarini to'ldiradi va muhokamada ishtirok etadi.
3-bosqich YAkuniy (10 min)	3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. 3.2. Mustaqil ish sifatida "Hozirgi zamonda buddaviylik" mavzusida "esse" yozishni topshiradi.	3.1. Eshitadilar. 3.2 Topshiriqni oladilar.

O'quv topshiriqlar

Guruuh bilan ishslash qoidalari

Guruuh a'zolarining har biri

- o'z sheriklarining fikrlarini xurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar bo'yicha faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishslashlari lozim;

- o‘zlariga yordam kerak bo‘lganda so‘rashlari mumkin;
- yordam so‘raganlarga ko‘mak berishlari lozim;
- guruhn ni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;
- “Biz bir kemadamiz, birga cho‘kamiz yoki birga qutilamiz” qoidasini yaxshi bilishlari lozim.

Baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari (ball)

Guruh	1 topshiriq	2 topshiriq	3 topshiriq (har bir savol 0,3 ball)			Ballar yig‘indisi
	(1,0)	(1,1)	1-savol	2-savol	3-savol	
1						
2						
3						

B.B.B. usuli asosida bilimlarni sinash uchun tarqatma materiallar

	Tushuncha	Bilaman “+”, Bilmayman “-”.	Bildim “+”, Bila olmadim “-”.
1	Zardushtiylik dinining kelib chiqishi tarixi		
2	Zardusht Sepitoma tarixiy shaxs sifatida namoyon bo‘lishi		
3	“Avesto” muqaddas kitobida ko‘rsatilgan falsafiy, tarixiy, ahloqiy masalalar		
4	“Avesto”ning YAsin qismida ko‘rsatilgan iloxiy so‘zlari.		
5	Milliy dinlar, ularning vujudga kelishi va shakllanishi		
6	Induizm, janizm dinlari		
7	Daosizm, konfutsiylik, sintaizm, iudaizm dinlari		

Testlar

1. Yaponianing milliy dini qaysi din hisoblanadi?

- A) Buddaviylik
- B) Sintoizm
- C) Konfutsiylik
- D) Krishnaizm

2. Dirlarning farqi nimada?

- A) Turli yillarda ibodat qilinishida
- B) Mamlakatlarda turli millat vakillarining joylashganligida
- C) Diniy urf-odat va marosimlar amalga oshirilishida
- D) Jahonda tinchlik uchun kurashishida

3. Zardushtiylik dinining paydo bo‘lish va uning muqaddas kitobi...

- A) Movarounnaxrda ilgarigi dinning mayda bo‘limi, tasavvurla va ko‘p xudolikka asoslangan diniy e’tiqodlar asosida paydo bo‘lgan;
- B) Bu dinning asoschisi Zardusht hisoblanadi;
- C) Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi – «Avesto» 1200 bobdan iborat;
- D) Movarounnaxr iqlimi, geografik joylashganligi bu dinning kelib chiqishga sabab bo‘lgan;

4. Iudaizm nima va unga kimlar e’tiqod qiladi?

- A) Iudaizm jahon dini eramizdan avvalgi V asrda paydo bulgan;
- B) Iudaizm diniga ruslar, ukrainlar va Markaziy Osiyo xalqlari e’tiqod qiladilar;
- C) Iudaizm diniga yaxudiyilar e’tiqod qiladilar, u monoteistik – yakka xudolikka asoslangan din, miloddan avvalgi ikkinchi ming yillik oxirida paydo bo‘lgan;
- D) Iudaizmning muqaddas kitobi «Injil» hisoblanadi;

5. Zardo‘shtiylik ta’limoti qanday asosiy aqidalarga tayanadi?

- A) Muqaddas kitobni e’zozlash, duolar o‘qish;
- B) Iymon keltirish, savob ishlarni bajarish;
- C) Fikrlar sofligi, so‘zning sobitligi, amaldorlarning insonparvarligi;
- D) Zakot berish, qurbanlik keltirish, fikrning ezguligiga.

6. Milliy dinlar qaysi dinlar?

- A) Iudaizm (yahudiylik), Daosizm, Islom
- B) Provoslavizm, buddizm, protestantizm

S) iudaizm, hinduizm, jaynizm, daosizm, sintoizm, konfutsiylik

D) Buddaviylik, xristianlik, islom

7. Milliy dinlarning o‘xshashligi nimada?

A) Har bir millatning o‘z diniga e’tiqodida

B) Turli tillarda namoz o‘qilishida

S) Ketma-ket paydo bo‘lishligida

D) Hammasi ham ilohiy kuchga ishonishida

8. Iudaizm dini qaerda paydo bo‘lgan?

A) Arabistonda

B) Misrda

S) Markaziy Osiyoda

D) Evropada

9. Sintoizm dini qaerda paydo bo‘lgan?

A) Xitoyda

B) Yaponiyada

S) Hindistonda

D) Isroilda

10. Yaponyaning milliy dini qaysi din hisoblanadi?

A) Buddaviylik

B) Sintoizm

S) Konfutsiylik

D) Krishnaizm

Baholash mezonlari

Guruh	Echim (BBB)	Izoh (aniqlik, mantiqiylik)	Guruh faolligi (qo‘shimchalar, savollar)	Jami ballar	Baholash
					(1,5)
1					
2					
3					

Adabiyotlar

1. "Avesto kitobi - tariximiz va ma'naviyatimizning ilk yozma manbai" mavzuidagi ilmiy-amaliy seminar materiallari. - Toshkent, 2000.
2. Ashirov A. "Avesto"da meros marosimlari. - T., 2001.
3. Ishoqov M. Xalq dahosining qadimgi ildizlari va ilk kurtaklari. (Zardushtiylik, Zardusht va Avesto haqida) "Til va adabiyot ta'lifi" jurnali, 1992. № 2.
4. Markaziy Osiyo dinlari tarixi / Mas'ul muharrir - SH.YOvqochev. – T.: Toshkent Davlat sharqshunoslik insti tutsi, 2006.
5. Mahmudov T. "Avesto" haqida. - Toshkent, 2000.
6. Mo'minov A., Yo'ldoshxo'jaev H., Rahimjonov D., Ko-milov M., Abdusattorov A., Oripov A. Dinshunoslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif va-zirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan. – T.: Mehnat, 2004.
7. Sulaymonova F. SHarq va G'arb. – T.: 1997.
8. Boys M. Zoroastriys. Verovaniya i obychai / Per. s angl. I.M. Steblin-Kamenskogo. Poslesl. E.A. Grantovskogo. 2-e izdanie, ispravlennoe. - Sankt-Peterburg, 1994.
9. Vasilev L. Istorya religiy Vostoka. Uchebnoe posobie dlya vuzov. - 4-e izd. - M.: "Knijnyy dom "Universitet", 1999.
10. Gorelov A. Istorya mirovых religiy: uchebnoe posobie. - Moskva, Flinta: MPSI, 2006.
11. Struve V. Rodina zoroastrizma / Vostokovedenie, Mo skva-Leningrad, 1948.

4-mavzu. Islom ta'liloti asoslari

Vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 15-20 nafar
O'quv mashg'uloti shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha seminar mashg'uloti
O'quv mashg'uloti rejasи	1.Islom ta'liloti asoslari. 2.Islomdagi mazhablar va yo'nalishlar 3.Islomdagi oqim va yo'nalishlarning hozirgi kundagi

	ko‘rinishlari va ularning islom birligiga tahdidi.
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i>	
	Bu seminar mashg‘uloti jarayonida savollar va muammolar borasida suhbat o‘tkaziladi. Bu darsda “aqliy hujum” usulini ham qo‘llash mumkin. SHuningdek, test va masalalar echish mumkin.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> -mavzu bo‘yicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash. - darslik bilan ishlash ko‘nikmalarini hosil qilish; tahlil qilish.	<i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - Islom ta’limoti asoslari va ularining mohiyatini bilib oladi - Islomdagи mazhablar va yo‘nalishlar haqidagi tushunchalarni mustahkamlaydi; - Islomdagи oqim va yo‘nalishlarning hozirgi kundagi ko‘rinishlari va ularning islom birligiga tahdidi mohiyatini yoritib beradi;
O‘qitish uslubi va texnikasi	Blits-so‘rov, birgalikda o‘qiymiz, falsafiy esse, “axloqiy me’yorlar” so‘zlariga klaster, munozara.
O‘qitish vositalari	Ma’ruza matni, o‘quv qo‘llanmasi, proektor, flipchart, marker, doska.
O‘qitish shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, individual va guruh bo‘yicha o‘qitish.
O‘qitish sharoitlari	Kompyuter texnologiyalari, proektor bilan ta’minlangan, guruhda dars o‘tishga moslashtirilgan auditoriya.

Seminar mashg‘ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O‘qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min)	<p>1.1. Mavzuni, maqsadi rejadagi o‘quv natijalarini e’lon qiladi, ularning ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi.</p> <p>Mashg‘ulot hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo‘llagan holda o‘tishni ma’lum qiladi.</p> <p>1.2. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda auditorianing tayyorgarlik darajasini aniqlaydi:</p>	<p>1.1. Mavzuni yozadi va savollarga javob beradi.</p>

	Kasbiy odob masalasini bilasizmi? Ularning mazmunlarini ham bilasizmi? Mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishini e'lon qiladi.	
2-bosqich asosiy (60 min)	<p>2.1. Talabalarni 3 guruhga bo‘ladi, har biriga vazifa beradi (2- ilova).</p> <p>Kutilayotgan o‘quv natijalarini eslatadi.</p> <p>2.2. Guruhda ishslash qoidasi bilan tanishtiradi (1- ilova).</p> <p>Baholash mezonlarini ham namoyish qiladi.</p> <p>2.3. Vazifani bajarishda o‘quv materiallari (ma’ruza matni, o‘quv qo‘llanma)laridan foy- dalanish mumkinligini eslatadi.</p> <p>Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi.</p> <p>2.4. Tayyorgarlikdan keyin taqdimotni boshlangani e’lon qilinadi.</p> <p>2.5. Talabalar javobini sharxlaydi, xulosa larga e’tibor beradi, aniqlik kiritadi.</p> <p>2.6. Talabalarga B.B.B usuli bo‘yicha ifodalangan jadvalni namoyish qiladi va ustunlarni to‘ldirishni aytadi.</p> <p>Tushunchalarga izohlarni to‘g‘rilaydi va savollarga javob qaytaradi.</p> <p>Guruhanlarning faoliyatiga umumiy ball beradi.</p>	<p>2.1. O‘quv natijalarini taqdim qiladilar.</p> <p>2.2. Savollar beradi.</p> <p>2.3. Javoblarni to‘ldiradi.</p> <p>2.4. Jadval ustunlarini to‘ldiradi va muhokamada ishtirok etadi.</p>
3-bosqich YAkuniy (10 min)	<p>3.1. Mashg‘ulotni yakunlaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag‘batlantiradi.</p> <p>3.2. Mustaqil ish sifatida “Xozirgi zamonda Islom” mavzusida “esse” yozishni topshiradi.</p>	<p>3.1. Eshitadilar.</p> <p>3.2 Topshiriqlarni oladilar.</p>

O‘quv topshiriqlar

Guruh bilan ishslash qoidalari

Guruh a’zolarining har biri

- o‘z sheriklarining fikrlarini xurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar bo‘yicha faol, hamkorlikda va mas’uliyat bilan ishslashlari lozim;
- o‘zlariga yordam kerak bo‘lganda so‘rashlari mumkin;
- yordam so‘raganlarga ko‘mak berishlari lozim;
- guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;

- “Biz bir kemadamiz, birga cho‘kamiz yoki birga qutilamiz” qoidasini yaxshi bilishlari lozim.

Baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari (ball)

Guruh	1 topshiriq	2 topshiriq	3 topshiriq (har bir savol 0,3 ball)			Ballar yig‘indisi
	(1,0)	(1,1)	1-savol	2-savol	3-savol	
1						
2						
3						

B.B.B. usuli asosida bilimlarni sinash uchun tarqatma materiallar

	Tushuncha	Bilaman “+”, Bilmayman “-”.	Bildim “+”, Bila olmadim “-”.
1	Islom dinining kelib chiqishi tarixi		
2	Muxammad tarixiy shaxs sifatida namoyon bo‘lishi		
3	“Qur’он” muqaddas kitobida ko‘rsatilgan falsafiy, tarixiy, ahloqiy masalalar		
4	“Qur’он”da ko‘rsatilgan iloxiy so‘zlari.		
5	Mazhablar, ularning vujudga kelishi va shakllanishi		
6	Hanafiya, Molikiya, Shofiiya, Xanbaliya		
Cheklanishlari, kamchiliklari: bunday tipdagi portfolio faqat talaba faoliyati natijalari to‘g‘risida ma’lumot beradi. U talabaning shaxsiy rivojlanish jarayonini, uning turli sohalari bo‘yicha ijodiy faolligini, o‘qish uslubini va qiziqishlarini aniqlash imkonini bermaydi.

1-jadval

«Hujjatlar portfoliosi»ning namunaviy tarkibi sxemasi va undagi materiallarni baholash mezoni

Faoliyat sohalari	Komponentlar	Natijalar (ballar)
Blok A Olimpiadalar	Viloyat: g‘olib, shahar: g‘olib, tuman: g‘olib, OO‘Yu: g‘olib	5 4 3 2 1
Blok B Boshqa sertifikatlar	Qo‘srimcha ta’lim tizimi muassasalari, OO‘YU, jamoat fondlari, madaniy-ta’lim fondlarining tadbirlari va tanlovlari g‘olib. Fanlar bo‘yicha kurslar ishtirokchisi, OO‘YU yoki oliy o‘quv yurtlariaro ilmiy jamiyatlar a’zosi va b.	5 4 3 2 1

2.«Ishlar portfoliosi» - talabaning turli, jumladan ijodiy, loyihaviy, ilmiy-izlanish va boshqa sohalardagi ishlari, uning o‘quv va ijodiy faoliyatining asosiy shakl va yo‘nalishlari, ilmiy anjumanlar, tanlovlari, o‘quv oromgohlari, turli kurslardagi ishtiroki, turli amaliyotlar, sport va badiiy sohalardagi muvaffaqiyatlari aks etadi. Bunday portfolio talabaning ijodiy kitobi sifatida yuritiladi va talabaning turli sohalardagi ishlaring namunalari matn ko‘rinishida, elektron versiyalar, rasmlar, video yozuvlar shaklida ilova qilinadi.

Afzalliklari: Bunday tipdagi portfolio talabaning o‘quv va ijodiy faolligi dinamikasi, uning qiziqish yo‘nalishi, kasbga tayyorgarlik xarakteri to‘g‘risida keng tasavvur beradi.

Cheklanishlari, kamchiliklari: Portfolioning sifat jihatidan baholanishi yakuniy attestatsiya natijalarini to‘ldiradi, lekin talabaning umumiyligi ta’lim reytingida asosiy tashkil etuvchi bo‘lib hisoblanmaydi.

«Ishlar portfoliosi»ni to‘ldirishning namunaviy varianti

✓ **Loyiha ishlari.** Loyihaning mavzusi, qisqa mazmuni hamda ilova sifatida rasmlar, ishning bosma yoki elektron variantlardagi matnlari keltiriladi.

✓ **Tadqiqot ishlari va referatlar.** Referat mavzusi, hajmi (necha bet), illyustratsiyalar va b.

✓ **Texnik ijod.** Model, maket, asboblar. Aniq ishlar va ularning mazmuni (tuzilishi, ish prinsipi, texnik tavsifi) bayon etiladi.

✓ **Ijodiy faollikning boshqa shakllari.**

✓ **Elektiv kurs va fakultetlardagi ishtiroki.** Kurs nomi, muddati va o‘qish shakli ko‘rsatiladi.

✓ **Turli xil amaliyotlar.** Mehnat, ijtimoiy, til o‘rganish, pedagogik, malakaviy va b. Amaliyot nomi, joyi va davri yoziladi.

✓ **Qo‘srimcha ta’lim muassasalari va turli xil o‘quv kurslaridagi mashg‘ulotlar.** Ta’lim muassasasi yoki tashkilot nomi, o‘qish muddati va natijalari keltiriladi.

✓ **Olimpiada va tanlovdagi ishtiroki.** Tadbir nomi, o‘tkazilgan vaqt va talabaning natijasi qayd etiladi.

✓ **Ilmiy anjuman, seminarlardagi ishtiroki.** Tadbir mavzusi, tadbirni o‘tkazgan tashkilot, o‘quv muassasasi nomi va talaba ishtiroki shakli.

✓ **Sport bo‘yicha natijalari.** Sport musabaqalaridagi ishtiroki, sport razryadining mavjudligi.

✓ **Boshqa faoliyat turlari.**

3. Taqrizlar portfoliosi. Talabaning turli sohadagi faoliyati bo‘yicha o‘qituvchi, ota-onasi, kursdoshlari, qo‘srimcha ta’lim tizimi xodimlari va boshqa shaxslarning xulosalari, taqrizlari hamda talabaning faoliyati va uning natijalari bo‘yicha o‘z tahlillaridan iborat bo‘ladi.

Afzalliklari: Bu portfolio talabani o‘quv-tarbiyaviy va kelajakdagisi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni anglash darajasini kuchaytiradi hamda o‘z-o‘zini baholash mexanizmini yaratib beradi.

Cheklanishlari, kamchiliklari: To‘plangan materiallarni bir shaklga keltirish va hisobga olishning murakkabligi.

Taqrizlar portfoliosining namunaviy tarkibi:

✓ bajarilgan ishlar sifati bo‘yicha taqrizlar;

- ✓ qo'shimcha ta'lim muassasasining ijodiy guruhlaridagi ishlari, ilmiy-amaliy anjumanlardagi chiqishlari bo'yicha taqrizlar;
- ✓ talabaning o'z faoliyati bo'yicha xulosalari, baholari;
- ✓ keyingi faoliyati yoki keyingi bosqichdagi o'qishni qanday tashkil etish bo'yicha talabaning o'z xulosalari;
- ✓ amaliyotlar bo'yicha tavsiya xatlar;
- ✓ boshqa sohalar bo'yicha taqriz va xulosalar.

Yuqorida taklif etilgan portfolio modellarini tahlil qilgan va chuqur o'rgangan holda murakkab portfolio, ya'ni barcha modellarni birgalikdagi shaklida yoki oddiy, ushbu portfolioning bittasini yuritish mumkin.

Amalda portfolioning quyidagi turlaridan foydalanish mumkin:

4.«Portfolio-kollektor». Bu portfolio talaba muallif bo'lмаган materiallardan iborat bo'ladi. Bunga o'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan adabiyotlar, qo'llanma va ko'rsatmalar, elektron o'quv adabiyotlari, o'quv-vizual materiallar, maqolalar, lug'atlar yoki talabaning o'zi mustaqil topgan adabiyotlar hamda boshqa o'quv materiallari kiradi.

5.«Jarayon portfoliosi» talaba tomonidan o'quv, uslubiy, ilmiy-izlanish, ijodiy, axborot va ijtimoiy loyihalarni bajarish jarayonida erishgan bilimi va malakalarini mustaqil qo'llash malakasini namoyish qiladi. Portfolio talabaning loyihalash jarayonidagi barcha bosqichlarni: muammoni aniqlash, loyihani ishlab chiqish, loyiha bo'yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkil etish, texnologik bosqich (loyihani amalga oshirish), yakuniy bosqich, taqdimot va loyihani baholashni o'z ichiga olishi kerak.

6.«Ko'rsatkichlar portfoliosi» talabaning biror bir soha bo'yicha mahoratini va ko'rsatkichlarini jamlash hamda ko'rsatish maqsadida yaratiladi. Unga talabaning o'zi yoki ustozni tomonidan tanlagan eng yaxshi ijodiy ishlaridan namunalar qo'yiladi.

7.«Baholash portfoliosi» talabaning olgan bilimlari va malakasini nazorat qilish maqsadida tuziladi va u turli xil nazorat materiallardan: nazorat ishlari, testlar, sxemalar, krossvordlar va boshqa topshiriqlardan iborat bo'ladi. Baholash portfoliosi o'qituvchi tomonidan mustaqil tuziladi va uni rejalashtirilgan, maqsadga yo'naltirilgan natijaga erishish uchun o'z vaqtida talabalarga taqdim etishi talab etiladi.

8. «Yutuqlar portfoliosi» talabaning o'quv-tarbiyaviy jarayondagi eng yaxshi ishlari va yutuqlarini ko'rsatuvchi hujatlardan tashkil topadi. Bu portfolioga talaba o'z xohishi bilan o'zining eng yaxshi loyihalarini, olgan tashakkurnomalari, maqtov yorliqlari, diplomlari, taqrizlar va o'z faoliyatini namoyish qiluvchi rasmlarni kiritishi mumkin.

9. «Talabaning elektron portfoliosi» - e-Portfolio. Keyinga vaqtarda rivojlangan davlatlarida **e-Portfolio** deb nomlanuvchi «Talabaning elektron portfoliosi» keng

qo'llanilmoqda. Bu oddiy Word formatidagi papka bo'lmasdan, maxsus multimedia tizimida yaratilgan «portfolio» hisoblanadi. Talaba uni osonlik bilan to'ldirishi, tahlil qilishi, yangi materiallarni joylashtirishi, o'zi tanlagan axborotlarni boshqarishi mumkin.

e-Portfolioning uch xil shakli tavsiya etiladi:

- ✓ **Rivojlantirish portfoliosi- *developmental*** (rivojlanishning xususiy kompetensiyasi).
- ✓ **Erishgan yutuqlar portfolisi - *assessment*.**
- ✓ **Namoyish portfolisi – *showcase*.**

Rivojlantirish portfolisi (*developmental*) - shaxsiy yutuqlar va kamchiliklar refleksiyasi uchun qo'llaniladi. Bu bosqichda talaba va o'qituvchi o'rtasida o'zaro aloqa, munosabat, ta'sir asosiy rol o'ynaydi.

Erishgan yutuqlar portfolisi (*assessment*) - talabaning fan bo'yicha erishgan yutuqlari va bilimini aniq va to'g'ri baholash uchun xizmat qiladi.

Namoyish portfolisi (*showcase*) - o'quv kursini yakunida yaratiladi va talabaning olgan bilimlarini (tayyor kadr sifatida) potensial ish beruvchiga taqdim qilish yoki o'qishni davom ettirishga tavsiya etish maqsadida tashkil etiladi. Bu turli ko'rinishdagi ***Curriculum Vitae*** hisoblanadi.

e-Portfolio yuqorida keltirilgan uch variantning birgalikdagi ko'rinishida ham bo'lishi mumkin. Bunda multimedia axborotlardan ham foydalilaniladi.

e-Portfolio talabaning o'zlashtirishi va turli sohalardagi erishgan yutuqlari monitoringini yuritishning prinsipial yangi, refleksiyaga asoslangan vositasi bo'lib, talaba bilimi natijalarini ball tizimida emas, balki sifat jihatdan baholash imkonini beradi. **e-Portfolioni** yaratish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilgan, masalan **Angel** qobig'i.

«On-line-portfolio» turli ko'rinishda bo'lishi mumkin. Masalan:

- kursning umumiy saytida buning uchun maxsus ajratilgan bir qancha hujjatlar va materiallarni yuklash orqali talaba tomonidan tuzilishi mumkin;
- talabaning shaxsiy veb-varag'ini yaratish orqali tuzilishi va unga o'quv kursi bo'yicha o'z tushunchalari asosidagi hisobotlar kiritilishi mumkin.

Talaba portfoliosini baholash mezonlari

Talaba o'z-o'zini baholashda o'z faoliyatiga tanqid nuqtai nazaridan qarashi, nima uchun aynan ushbu bo'lim yoki mavzularni tanlaganligini o'zi mantiqan bilishi, bu uning ushbu fan bo'yicha umumiy bilimida qanday rol o'ynashi mumkinligini ifoda etishi kerak. «Portfolio»

yaratishdagi eng murakkab masala - taqdimotga loyiq materiallarni tanlash, ushbu materiallarga tushunarli tilda, ravon, mantiqan mazmunga boy va qisqa izoh yozish hisoblanadi. Materiallarni to‘g‘ri tanlash, ularga izoh yozish hamda uni ob‘ekiv baholashda quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

Talaba faoliyati bo‘yicha savollar:

- ✓ Portfolioga material tanlashda siz qanday ishlarni amalgalashda oshirdingiz?
- ✓ Nimaga erishdingiz, nimalarda qiyaldingiz?
- ✓ Portfolioda siz qiyalgan biror material bormi?
- ✓ Sizda portfolio yaratish bo‘yicha mos namuna bormi?
- ✓ Axborotlarni qanday tashkil qildingiz?
- ✓ Muammolarni qaytadan yorita olasizmi (topshiriqni yanada oddiyroq so‘zlar bilan)?
- ✓ Qaysi so‘zlar, iboralar bu erda ahamiyatliroq bo‘ldi, nima uchun?
- ✓ Muammoni qayta yoritish qanchalik ratsional bo‘ldi?
- ✓ Bu masala, muammo qanday savollarni keltirib chiqarishi mumkin?
- ✓ Siz ushbu savollarga yaqinroq savollar tuza olasizmi?
- ✓ Ushbu masalani yoki muammoni hal etishda siz uchun nimalar eng qiyin kechdi?
- ✓ Ushbu masalani, muammoni echish bilan siz qanday yangi bilimlarga erishdingiz?
- ✓ Hayotda ushbu masala, muammogo o‘xhash holatlar bo‘lishi mumkinmi?
- ✓ Siz tavsiya etgan javob ushbu muammo echimining yagona yo‘limi?
- ✓ Guruhiy ishlashga qanday munosabat bildirasiz?
- ✓ Mashg‘ulotda sizga nimalar yoqadi, nimalar yoqmaydi?
- ✓ Ushbu masala sizning fan bo‘yicha bilimlaringizni yanada ortdirishda foydali bo‘ladimi?

- ✓ Ota-onalar yoki taqrizchilarga savollar bera olasizmi?
- ✓ «Portfolio»dan sizning birinchi taasurotingiz qanday?

O‘qituvchi faoliyati bo‘yicha savollar:

- ✓ Talabaning «portfolio» materiallarini taqdimot qilishida sizni nimalar hayron qoldirdi, siz kutmagan holatlar bormi?
- ✓ O‘z ishingizdan faxrlanish hissi bormi?
- ✓ O‘z talabangizga kelajakda yordam berish uchun nimalar qilmoqchisiz?
- ✓ «Portfolio» materiali qanchalik aniq va mantiqan to‘g‘ri tashkil etilgan?
- ✓ «Talaba» o‘z portfoliosini qanchalik mustaqil yaratdi?
- ✓ «Portfolio»ni tuzishda sizdan tez-tez maslahat oldimi?
- ✓ «Portfolio»ni tuzishda o‘zi mustaqil qanday materiallar va texnologiyalardan foydalangan?

Talaba portfoliosini taqrizchi tomonidan baholashda yuqorida keltirilgan savollardan asos sifatida foydalanish mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganidek, talaba portfoliosini yaratishning turli xil yo'llari va usullari mavjud. U albatta ta'lim yo'naliishi yoki fanning xususiyatiga hamda portfolioning davomiyligiga (boshlanish va tugash vaqtiga) bog'liq bo'ladi.

Eng muhim va asosiy maqsad, talabani o'zining shaxsiy ishlarini, yutuq va kamchiliklarini o'zi ob'ektiv tahlil qila olishga, imkoniyat va qobiliyatlarini ko'ra olishga, qiyinchiliklarni engish va yanada yuqoriroq yutuqlarga erishish yo'llarini mustaqil aniqlay olishga o'rgatishdan iborat. Bunday holda talabaning o'quv jarayondagi o'z faoliyatiga mas'uliyati yanada ongli ravishda kechadi. Bu erda ota-onalar va xolis taqrizchilarning faol ishtirok etishlari juda muhim hisoblanadi. Natijada talabaning ma'lum soha bo'yicha ta'lim olishdagi ob'ektiv rivojlanishi o'qituvchiga ham, talabaning o'ziga ham yaqqol namoyon bo'ladi. Talabaning fan bo'yicha bilimini, qobiliyatini, intilishlarini va kelajakdagi rejalarini xolisona va to'g'ri baholash sharoiti yaratiladi. Talabada o'ziga ishonch yuzaga keladi.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLII VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI
FAKULTET**

KURS, GURUH
TALABASINING O'QUV

P O R T F O L I O S I
(namuna)

Boshlanish sanasi 201__ yil “____” _____

Tamom bo‘lish sanasi 201__ yil “____” _____

Toshkent - 201__ yil

1. PORTFOLIO EGASI TO‘G‘RISIDA MA’LUMOTLAR

Familiyasi _____

Ismi _____

RASM

Sharifi _____

Tug‘ilgan yili _____

Tug‘ilgan joyi

Yashash manzili _____

Aloqa telefoni _____

Elektron pochtasi _____

Fakultet nomi _____

Kurs _____ guruh _____

M₂O^c

Fakultet dekani _____

imzo

f.i.sh.

QISQACHA BIBLIOGRAFIK MA’LUMOT*

**Hayotiy hamda kasbiy maqsad va qiziqishlari to‘grisidagi ma’lumotlar*

MENING HAYOTIY SHIORIM:

FAN BO‘YICHA TALABANING ERISHGAN YUTUQLARI

Shaxsiy faoliyat natijalari tahlili: _____

Nimani o‘zlashtirish oson kechyapti: _____

Nimani o'zlashtirish qiyin kechyapti: _____

Qiyinchiliklar mohiyati nimada: _____

YOZUVLAR, MA'RUZALAR, UY VAZIFALARI*

*Fanning turli bo‘limlari bo‘yicha kamida 8 ta topshiriq beriladi, albatta bunda mustaqil fikrlash qobiliyati, fikrlarning originalligi hisobga olinadi, talaba bitta muammo yoki topshiriq echimining turli xil yo‘llarini ko‘rsatishi zarur.

NAZORAT VA MUSTAQIL ISHLAR*

Fan bo'yicha mazmuni	Mustaqil ta'limga oid bo'lim va mavzulari	Mustaqil ta'limga oid topshiriq va tavsiyalar
1)Dinshunoslik faniga kirish	O'zbekistonda mustaqillik yillarda buyuk allomalarning ilmiy-ma'naviy merosiga berilgan e'tibor	Referat, taqdimot tayyorlash
2)O'zbekistonda davlatning din va diniy tashkilotlar bilan munosabati	O'zbekistonda mustaqillik yillarda diniy ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar	Referat, taqdimot tayyorlash
3)Markaziy Osiyo dinlari	Jahon dinlari ibodatxonalarini arxitekturasi	Referat, taqdimot tayyorlash
4)Islom ta'limoti asoslari	Yurtimiz allomalarining islom ilmlariga qo'shgan hissalari	Referat, taqdimot tayyorlash
5)Islomdagi	O'zbekistondagi muqaddas	Referat, taqdimot

mazhablar va yo'nalishlar	ziyoratgohlar: Hakim at-Termiziy majmuasi va Qaffol ash-Shoshiy maqbarasi	tayyorlash
6)Missionerlik va prozelitizm: tarix va bugun, targ'ibot usullari	O'zbekistonda konfessiyalararo bag'rikenglikning tarixiy ildizlari	Referat, taqdimot tayyorlash
7)Diniy ekstremizm va terrorizm: mafkura va amaliyot, qarshi kurash strategiyasi	Universalizm va kosmopolitizm g'oyalarining yoshlar ma'naviyatiga ta'siri	Referat, taqdimot tayyorlash
8)Yangi diniy harakatlarning zamonaviy faoliyat uslublari	Yangi diniy harakatlarning zamonaviy faoliyat uslublari	Referat, taqdimot tayyorlash
9)Kibermakonda din omili	Globallashuv va sekulyarizatsiya jarayonlari	Referat, taqdimot tayyorlash
1-semestr bo'yicha		

*Kamida 3 ta mavzu bo'yicha 5-6 ta mustaqil ish tayyorlanadi

TESTLAR

- birdan-bir to'g'ri javobi bo'lgan yopiq topshiriqlar;
- bir necha to'g'ri javoblari nazarda tutilgan yopiq topshiriqlar;
- bitta so'z (yoki so'zlar) tushirib qoldirilgan gapdan tashkil topgan ochiq topshiriqlar;
- to'g'ri ketma-ketlikni aniqlash uchun topshiriqlar;
- o'zaro bog'liqlikni (muvofiglikni) aniqlovchi topshiriqlar;
- ayrim fanlar bo'yicha bilimlarning chuqurligini aniqlash bo'yicha topshiriqlari;
- qarama-qarshi munosabatlarni aniqlash testlari;
- chizmalar va sxemalarni tushunishga qaratilgan topshiriqlar;
- shakllar nisbatini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar;
- olingan axborotni o'zlashtirish darajasini aniqlash topshiriqlari;
- sinonimlar va antonimlarni farqlashga oid topshiriqlar;
- analogiya (aynan o'xshashlik)ga oid topshiriqlar;
- o'qilgan matnni tushunishga oid topshiriqlar;

- ko'rsatmalarни bajarishga oid topshiriqlar;
 - bilimdonlikni aniqlashga doir topshiriqlar;
 - tafakkurni aniqlovchi testlar;
 - orfografik testlar;
 - til masalalariga doir topshiriqlar va boshqalar.

AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

*Axborot texnologiyalari foydalanilgan kamida 2 ta misol, dasturiy material.

GURUHIY LOYIHALAR*

*Talaba ishtirok etgan har bir loyiha bat afsil yoziladi.

SIZNING SEVIMLI MAVZUINGIZ

*Talaba fan bo‘yicha o‘zi yoqtirgan mavzu yuzasidan batafsil ma’lumot beradi.

TALABA FAOLIYATI BO‘YICHA BAHOLAR

Nº	Potfolio doirasida bajarilgan ishlar	Ballar taqsimoti	O‘qituvchi yoki ekspertlar bahosi
1	Fan bo‘yicha talabaning erishgan yutuqlari	0-4 ball	
2	Yozuvlar, ma’ruzalar, uy vazifalari	0-4 ball	
3	Nazorat va mustaqil ishlar	0-6 ball	
4	Testlar	0-4 ball	
5	Axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi	0-4 ball	
6	Guruhiy loyihalardagi ishtiroki	0-4 ball	
7	Talabaning yoqtirgan mavzusi	0-4 ball	
Jami		0-30 ball	

Baholash mezonlari	
26-30 ball “a’lo”	Fanga oid nazariy bilimlarni to‘la o‘zlashtira olish. Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo’llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Tasavvurga ega bo‘lish.
22-25 ball “yaxshi”	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo’llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo‘lish.
17-21 ball “qoniqarli”	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Ma’lum bir tasavvurga ega bo‘lish.
0-16 ball “qoniqarsiz”	Fan bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni bilmaslik

Fan o‘qituvchisi

imzo

f.i.sh.

Kafedra mudiri

imzo

f.i.sh.

GLOSSARIY

1-mavzu

Atamaning o‘zbek tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning ma’nosi
Ma’rifat	Education	Просвещение	– bilish, tanish, ya’ni bilim demakdir.
Mentalitet	mentality	Менталитет	– insonning ijtimoiy-iqtisodiy madaniy dunyoqarashi.
Ma’naviy meros	Spiritual heritage	Духовное наследие	– Qadim zamonlardan beri ajdodlarimizdan bizgacha etib kelgan ma’naviy boyliklari-siyosiy, falsafiy, huquqiy va diniy qarashlar, ahloq-odob me’yorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san’at asarlari majmuidir.
Dialektika	Dialectics	Диалектика	(yunoncha “dialektike” – bahs yuritish san’ati) – tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarining o“zaro aloqadorligini o“rganuvchi ta“limot. Dialektika olam yagona va yaxlit, unda sodir bo“ladigan hodisalar, voqealar umumiy va o“zaro bog“lanishda, uzlusiz harakatda, ziddiyatli taraqqiyotda bo“ladi, deb hisoblaydi.
Etimologiya	Etymology	Этимология	(yunoncha “etymon” – haqiqat, chin, “logos” – fan) – biron bir so“z yoki atamaning kelib chiqishi, uning boshqa so“zlar bilan o“zaro yaqinlik aloqalarini o“rganuvchi fan sohasi.
Etnografiya	Ethnography	Этнография	(yunoncha “etnos” – xalq, “grapho” – yozaman) tarixning yordamchi fan sohasi bo“lib, xalqlarning urfodatlari, xo“jaligi va madaniyatini; xalqlar, etnik birlikning turli tiplari, ularning kelib chiqishi (etnogenezi), turmushi,

			tarixiy va madaniy munosabatlarini organadigan ijtimoiy fan. Etnografiya fani asosiy e“tiborni hozirgi xalqlarga qaratgan holda o“tmishda mavjud bo“lgan barcha etnik birliklarni ilmiy o“rganishni ham qamrab oladi.
An'analar	Traditions	Традиции	– jamiyat hayoti turli sohalarining moddiy va ma’naviy faoliyat shakllarining, kishilar o‘rtasidagi aloqalar va munosabatlarning avloddan-avlodga o‘tishi, ajdodlar hayoti belgilari va xususiyatlarining takrorlanish tarzi, dunyoda an'analar va urf-odatlarga ega bo‘limgan millat yoki elat yo‘q.
Vatan	Birthplace	Родина	– kishilarning yashab turgan, ularning avlod va ajdodlari tug‘ilib o‘sgan joyi, hududi, ijtimoiy muhiti, mamlakati.
Vatanparvarlik	Patriotism	Патриотизм	– kishining o‘zi, tug‘ilib o‘sgan, kamol topgan joy, zamin, o‘lkaga bo‘lgan mehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma’naviy-axloqiy hissiyotlari, fazilatlaridir.
Idealizm	Idealism	Идеализм	– moddiylikni inkor etib, olamning asosida rux yoki g“oyalar yotadi, dunyoning mavjudligi va rivojlanib borishida g“oyalar muhim rol o“ynaydi deb ta“kidlovchi falsafiy qarash va ta“limot. Idealizm materializmning aksidir.
Materializm	Materialism	Материализм	(lotincha “materialis” – moddiy) – olam moddiy, ongimizga bog“liq bo“limgan holda, obyektiv tarzda mavjud. Materiya birlamchi, hech kim tomonidan yaratilmagan, abadiy mavjud, tafakkur esa materiyaning xususiyatidir, olam va uning qonuniyatlarini

			bilish mumkin deb qarovchi falsafiy yo“nalish, oqim. Materializm idealizmga qarama-qarshi bo“lib, ular o“rtasida tarixda ko“p baxslar bo“lgan va u hozirda ham davom etmoqda.
Metodologiya	Methodology	Методология	(yunonca “methodos” – yo“l, usul, “logos” – ta“limot) – insonning amaliy va nazariy faoliyatini to“g“ri uyushtirish va tuzish to“g“risidagi ta“limot. Boshqacha qilib aytganda 1) ilmiy bilish metodlari va usullari to“g“risidagi ta“limot; 2) inson faoliyatining biron bir sohasiga qo“llaniladigan metod, usullar majmuasi.
Xronologiya	Chronology	Хронология	(yunoncha “xronos” – vaqt, “logos” – fan) – tarixiy taraqqiyot bosqichlari, voqealarning davriy ketma-ketligini o“rganuvchi tarixning yordamchi fan sohasi.
Dialektika	Dialectics	Диалектика	(yunoncha “dialektike” – bahs yuritish san“ati) – tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarining o“zaro aloqadorligini o“rganuvchi ta“limot. Dialektika olam yagona va yaxlit, unda sodir bo“ladigan hodisalar, voqealar umumiy va o“zaro bog“lanishda, uzluksiz harakatda, ziddiyatlari taraqqiyotda bo“ladi, deb hisoblaydi.
Meros	Heritage	Наследие	- insoniyatning har bir tarixiy bosqichda yashagan avlodlari tomonidan yaratilgan va keyingi avlodga etib kelgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklar majmuidir.
Millat	Nation	Нация	- «millat» so‘zi «o‘zak», «tub mohiyat», «negiz» degan ma’noni bildiradi.

Atamaning o‘zbek tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning ma'nosi
Suverenitet	Sovereignty	Суверенитет	(fransuzcha “souverainite” – oliv hokimiyat) – quyidagi mazmunlarda ishlatalidi: 1) Davlat suvereniteti – hozirgi davlatshunoslik fanida davlatning ichki va tashqi siyosatidagi to‘la mustaqilligi sifatida talqin etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat suvereniteti masalasiga alohida bob ajratilgan bo‘lib, uning 1-moddasida “O‘zbekiston – suveren demokratik respublika” deyilgan. 2) Xalq suvereniteti – xalqning davlatni boshqarishdagi to‘la hukmronligi, xalq hokimiyati, xalq boshqaruvi ma‘nolarini anglatadi.
Vijdon erkinligi	Freedom of conscience	Свобода совести	Fuqarolarning xar qanday dinga e’tiqod qilishi yoki hech qanday dinga e’tiqod qilmaslik bilan bog‘liq konstitutsiyaviy huquqi
Avtoritar siyosiy rejim	The authoritarian political regime	Авторитарный политический режим	(lotincha “autoritas” – hokimiyat, nufuz, e“tibor, obro‘) – ommani shaxsiy va davlat hokimiyatiga so‘zsiz itoat qildirish. Davlat boshqaruvdagi avtoritarizm bir kishi (monarx, diktator, dohiy)ning mustabid hokimiyatiga asoslanadi. Odadta avtoritar boshqaruv usuli demokratiya prinsiplariga zid hisoblanadi. Unda davlat rahbarining shaxsiy nufuzi, obro‘-e’tiboriga tayanib hokimiyat yuritiladi.
Fuqarolik	Citizenship	Гражданство	shaxsning biron bir davlatga huquqiy va qonuniy jihatdan tegishlilagini bildiruvchi atama. Muayyan davlatning fuqarosi ushbu davlat hududidagi xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘limgan shaxslardan o‘z huquqiy mavqeiga ko‘ra farq

			qiladi. Chunonchi, Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan siyosiy huquq va erkinliklar faqat fuqarolarga tegishlidir. Demak, shaxs fuqarolikni olishi bilan ushbu davlatdagi siyosiy huquqlardan foydalanish imkoniyatini ham oladi.
“Mustaqillik deklaratsiyasi”	Declaration of Independence	Декларация Независимости	O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi haqidagi dastlabki huquqiy hujjatlardan biri. “Mustaqillik deklaratsiyasi” 1990-yil 20-iyunda O‘zbekiston Oliy Kengashining II sessiyasida qabul qilingan bo‘lib, 12 banddan iborat. Ushbu tarixiy xujjatda o‘zbek xalqining davlat qurilishi tarixi, tajribasi, har bir millatning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi asosida davlat mustaqilligi ilk bor e“lon qilingan edi.
Missionerlik	Missionary	Миссионерство	Bir dinga e’tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targ‘ib q
Terrorizm	Terrorism	Терроризм	(lotincha “terror” – qo‘rquv, dahshat) – o‘z maqsadiga erishish yo‘lida ayrim shaxs, shaxslar guruhi yoki g‘ayridemokratik hukumat organlari tomonidan muholifat kuchlarini jismoniy kuch ishlatib qo‘rqitishdan tortib ommaviy jismonan yo‘q qilinishigacha boradigan umuminsoniy o‘ta xavfli jinoyat turi.
Kibermakon		Киберпространство	компьютер тармоқлари орқали амалга ошириладиган мулоқот майдонини ифодаловчи воқелик сифатида 1990 йилдан бошлаб кенг миқёсида ривожланиб, такомиллашиб келмоқда
Axborot urushi		Информационная война	инсонлараро ўзаро муносабатлардаги хар қандай зиддият – бу, ахборотлар зиддиятидир. Ахборот хар қандай қарор қабул қилиш учун энг муҳим унсур бўлиб, у нафақат, тўқнашув пайтида оптималь хатти-харакатларни

			амалга ошириш, балки, мақсадга йўналган фаолиятни бошқариш имконини беради. Тизим мавжудлиги ва барбод бўлишини белгиловчи омилларидан бири ҳисобланади
Internet		Интернет	фан-техника тараққиёти натижаси, маданият эволюциясининг ҳосиласи ҳисобланади. Ҳозирги кунда ҳаётимизни интернетсиз тасаввур қилиш жуда мушкул. Айниқса, ёшлар ҳаётида глобал тармоқнинг ўрни тобора ошиб бормоқда. Интернет дунёнинг турли нуқталарида яшовчи одамларнинг ўзаро мулоқотини хамда ахборот алмашинувини мукаммал даражада осонлаштириди. Статистик маълумотларга кўра, дунё бўйича интернетдан энг кўп фойдаланувчилар айнан 21 дан 30 ёшгача бўлган ёшлар ҳисобланар экан.
Diniy sekta	Religious sect	Религиозная секта	Маълум бир дингаги расмий ақидаларга зид равишда ажralиб чиқсан ёки мавжуд динлар ва конфессияларга умуман алоқаси бўлмаган ҳолда дин байроғи остида фаолият кўрсатадиган гурӯҳ.
Missionerlik	Missionary	Миссионерства	Бир динга эътиқод қилувчи халқлар орасида бошқа бир динни тарғиб қилиш билан боғлиқ назарий қарашлар ва амалий хатти-харакатлар мажмуюи.
Pyatidesyatniklar	Pentecostals	Пятидесятники	Протестантликдаги энг йирик йўналишлардан бири. Ўзларини Исо вафотидан 50 кун ўтгач Муқаддас Рух инъомига эга бўлиб, турли нотаниш тилларда гапира бошлаган ҳаворийларнинг издошлари, деб ҳисоблаганлари учун шу

			номни қабул қилғанлар.
Monofizitlar	Monophysites	Монофизиты	(Юонч — «якка, ягона», «табиат») рухоний Евтихий томонидан асос солинган христианликдаги илк йўналишлардан бири бўлиб, милодий V асрларда пайдо бўлган. Исо Масих худо ва инсон табиатида пайдо бўлган бўлса-да, кейинчалик унинг факат худолик табиати сақланиб қолган деган ғояни олға сурған. Ушбу йўналиш вакиллари 451 йилда Халкидонияда бўлиб ўтган Бутунжаҳон соборида куфрда айбланишган.
Diniy tashkilotlar	Religious organisation	Религиозные организации	Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг динга эътиқод қилиш, ибодат, расм-руsum ва маросимларни биргаликда адо этиш мақсадида тузилган кўнгилли бирлашмалари (диний жамиятлар, диний ўқув юртлари, масжид, черков, синагога, монастир ва бошқалар).

3-mavzu

Atamaning o‘zbek tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning ma'nosি
Animizm	Animism	Анимизм	(lotincha “anima” – rux, jon) – insonni o“rab turgan muhitda jonlar va ruxlarning mavjudligiga ishonish, go“yo ular kishilar, hayvonlarning hayotiga, tevarak atrofdag olam, buyumlar va hodisalarga, ularning o“zgarishlariga ta“sir etib, ularni boshqaradi deb hisoblash. Animistik tasavvurlar ibtidoiy davr odamlarida bundan taxminan 40-35 ming yil avval paydo bo“la boshlagan. Ibtidoiy

			kishilar narsalar, o“simliklarning joni bor deb tushunishgan. Rux esa egalaridan ajralgan holda ham mavjud bo“lib, u har qanday narsalarga ta“sir ko“rsatadi. Animizm tushunchasini birinchi bo“lib fanga nemis olimi Shtal 1708-yil kiritgan.
Дин	Religion	Религия	- араб тилидан олинган бўлиб, унинг луғавий маъноси “ишонч”, “эътиқод”дир. Дин муайян ташкилотлар, ҳис-туйғулар, тоат-ибодатлар ва диний ташкилотлар фаолиятлари орқали намоён бўлади.
Маънавий салоҳият	Spiritual potential	Духовный потенциал	– МС. ҳозирги глобаллашув, ўзаро турли-туман таъсирлар кучайган бир даврда, жамият, миллат ва давлатнинг энг муҳим таянчларидан ҳисобланади
Fetishizm	Fetishism	Фетишизм	(fransuzcha “fetiche” – but, sanam, tumor) – tabiatdagи jonsiz predmetlarga sig“inish. Unga ko“ra alohida buyumlar kishilarning o“z maqsadiga erishtirish, ma“lum voqeahodisalarни o“zgartirish kuchiga ega deb hisoblangan. Fetish ham ijobiy ham salbiy ta“sir kuchiga ega deb qaralgan.
Madaniyat	Culture	Культура	– ko“p qirrali va chuqur mazmunga ega tushuncha bo“lib, u jamiyat taraqqiyoti davomida insonlarning faoliyati tufayli qo“lga kiritgan barcha moddiy va ma“naviy yutuqlarining majmuasidir.
Magiya	Magic	Магия	(yunoncha “magiya” – sehirgarlik, afsungarlik) – ibtidoiy odamlarning diniy tasavvurlari majmuasi. Sehrujodu, kuf-suflar orqali tabiat va hayotdagи yaxshilik va yovuzlik kuchlariga, shayottonu-ibislarga ta“sir ko“rsatish amallari.
Matriarxat	Matriarchy	Матриархат	– ona urug“i davri. Urug“chilik

			tuzumining birinchi bosqichi. Matriarxat davri paleolit davrining soʻnggi bosqichida paydo boʻlib, u neolit vaeneolit davrigacha davom etgan.
Monoteizm	Monotheism	Монотеизм	(yunoncha “mono” – yakka, bitta, “theos” – xudo) – yakkaxudolik dini. Faqat bitta xudoga sigʼinuvchi, birgina xudoni eʼtirof etuvchi eʼtiqod shakli. Zardushtiylik, xristianlik, islom dinlari monoteistik dinlar hisoblanadi.
Politeizm	Polytheism	Политеизм	(yunoncha “poly” – koʻp, “theos” – xudo) – koʼpxudolik dini. Politeizm ibridoiy davr odamlariga xos boʻlib, unga koʼra har bir qabila yoki urugʼning oʼz xudosi va eʼtiqod shakli mavjud boʻlgan (fetishizm, animizm, shomonlik, totemizm va boshq.). Insoniyat jamiyatni taraqqiy eta borgan sari ibridoiy odamlar koʼp xudolikdan yakkaxudolik dinlariga oʼta boshlaganlar. Bu ishlab chiqaruvchi xoʼjalik shakllarining paydo boʼlishi natijasida ibridoiy jamoa tuzumining yemirilib, sinfiy jamiyat va davlatchilik bosqichiga oʼtish jarayoni bilan bir vaqtda sodir boʻlgan.
Sivilizatsiya	Civilization	Цивилизация	(lotincha “civilis” – fuqaro jamiyatni, harbiylarsiz va cherkovsiz hayot) – jamiyat erishgan moddiy va maʼnaviy taraqqiyot darajasi. insonga xos sunʼiy olamni moddiy va maʼnaviy jihatdan takomillashuvidagi muvaffaqiyatlari koʼrsatkichi. Insoniyat jamiyatining hayvonot olamidan asosiy farqi shundan iboratki, inson oʼz mehnat faoliyati, aql va zakovati bilan yaratgan sunʼiy

			dunyoda yashaydi. Tabiatda uy-joy, non, mashina, kitob va shu kabi moddiy va ma“naviy ne“matlar tayyor holda uchramaydi, ularni tabiat yaratmaydi. Ularni odam o“z mehnati va aql-zakovati bilan vujudga keltiradi. Jamiyatning taraqqiyot darajasi ana shu sun“iy narsalarning soni va sifati bilan belgilanadi. Tarix fani shu ma“noda sivilizatsiya – tarixiy taraqqiyotni o“rganuvchi fandir.
Totemizm	Totemism	Тотемизм	– biror urug“ yoki qabila ibtidosiga sig“inish e“tiqodi. Totem so“zi Shimoliy Amerikada yashaydigan Ojibva qabilasi tilida “uning urug“i” ma“nosini anglatadi. Uning mohiyati “odamlarning hayvonot va o“simlikning muayyan turlariga qarindoshlik aloqalari bor” deb e“tiqod qilishdir. Totem – biror urug“ yoki qabila ibtidosi, urug“ asoschisi, ajdod, urug“ jamoalari topinib, uni muqaddas tutgan hayvon.
Shamanizm (shomonlik)	Shamanism	Шаманизм	(tunguscha “shomon” – sehrgarlik) – sehrgarlik (afsun, magiya ma“lum bir natijalar olish uchun ilohiy kuchlarga ta“sir etish maqsadida amalga oshiriladigan ritual, urf-odatlar majmuasidir. Shomonlik e“tiqod shakli ibridoiy urug“chilik davrida paydo bo“lgan. Shamanizm urf-odatlari bilan maxsus odamlar – shamanlar, afsungarlar shug“ullanganlar. Odamlar ularning ruxlar bilan muloqotda bo“lish, ruxlarga jamoaning umid va niyatlarini yetkazish, ularning irodasini talqin qilish qobiliyatiga ega

			ekanliklariga chuqur ishonganlar. Afsungarlik maqsadlariga ko“ra quyidagilarga bo“linadi: 1) Zarar keltiruvchi yovuz afsungarlik; 2) Harbiy afsungarlik (bu dushmanga qarshi ishlatiladi); 3) Sevgi afsungarligi (undan “issiq” yoki “sovuj” qilish maqsadida ishlatiladi); 4) Tibbiy afsungarlik (undan davolash maqsadida foydalanish); 5) Ob-havo afsungarligi. Shamanizm hozirda ham zamonaviy dinlarda va turli xalqlar urf-odatlarida saqlanib qolgan.
Dao	Dao	Дао	– daosizm dinidagi olyi ilohiyot.
Da’vat	Call	Призыв	– (arab. «chaqirish») dinga targ‘ib qilish
Avesto	Avesta	Авеста	– o“rta fors tilidan “apastak” ya“ni “asos” deb tarjima qilinadi. O“rta Osiyoning ajralmas qismi hisoblangan Turonzamin hududlarida shakllangan qadimiy din – zardushtiylikning muqaddas kitobi. Unda o“zbek, tojik, turkman, ozarbayjon, fors, afg“on va boshqa xalqlarning ibtidoiy va qadimiy axloqiy tasavvurlari, koinot va yerdagi dunyoning yaratilishi bilan bog“liq tushunchalar, afsona va rivoyatlar, falsafiy-axloqiy qarashlar o“z ifodasini topgan.
Avesto tili	Zend	Язык Авесты	– zamonamizgacha yetib kelgan Avesto qislari milodning III- VII asrlarida tahrir qilingan. Avesto boblari “pahlaviy” – o“rta fors alifbosi asosida 48 ta belgili yozuvdan iborat bo“lgan. Zardushtiylik dini Ahmoniyilar saltanatining (mil. avv.VI-IV asrlar) davlat diniga aylantirilgan. Avesto matnlari miloddan avvalgi IV asrda to“planib, 21 kitob qilinadi. Abu Rayhon

			Beruniyning yozishicha “Podsho Doro ibn Doro xazinasida 12 ming qoramol terisiga tillo suvi bilan bitilgan bir nusxa bor edi. Iskandar otashxonalarini vayron etib, ularda xizmat qiluvchilarni oʻldirgan vaqtida uni kuydirib yubordi. Shuning uchun ham Avestoning 3/5 qismi yoʻqolib ketdi”. Sosoniylar (224-651) davriga kelib Avesto tili “oʻlik”, tushunarsiz boʻlib qolgan, ammo toʻplamda eski soʻzlar va tushunchalarning hammasi saqlangan. an.
Aximan	Ahriman	Ахиман	– zardushtiylik dinida zulmat, ochlik, oʻlim, gunoh va qabihliklar ilohi.
Axuramazda	Ahura Mazda	Ахурамазда	– zardushtiylik dining bosh xudosi. Ezgulik xudosi, insonga doimo yaxshilikni ravo koʻrvuchilohiy kuch.
Azarxurra	Azarhurra	Азархурра	– zardushtiylik dini ibodatxonalarida doimiy yonib turadigan muqaddas olov.
Azata	Azat	Азата	– Avestoga koʻra oʻsha zamon (miloddan avvalgi I ming yillik) jamoasining aʼzolari asosan azatalardan tashkil topgan. Erkin shaxs, ozod kishi maʼnosida ishlatalgan.
Dax’yu	Daxyu	Дахью	– Avestoda qabilalar ittifoqi. Daxʼyu shuningdek, viloyat, mamlakat maʼnosini ham anglatgan.
Gohlar (gatlar)	Ghats	Гаты	– Avestoning eng qadimgi qismi boʻlib, paygʼambar Zardushtning “muqaddas madhiyalari” va diniy nasihatlaridan iborat. Gohlarda Zardushtning arxaik (qadimgi) ibora va terminlari soʻzma soʻz Yasna kitobiga kiritilgan.
Govmard	Govmard	Говмард	(forscha “gov” – sigir, “mard” – odam, yigit) – zardushtiylik falsafasiga koʻra dastlabki yagona odam. Bu obraz qadimgi yunonlar mif (asotir)larida kentavr (boshi

			odam, tanasi buqa) tarzida uchraydi.
Kavi	Kavi	Кави	– Avestoda mamlakat sardori, mamlakatni idora qilgan shaxs. Ya“ni diniy va dunyoviy hokimiyat egasi.
Mitra	Miter	Митра	– zardushtiylik dinida quyosh va yorug“lik xudosi. Dehqonlar va chorvadorlar himoyachisi, hosil va ma“murchilik, to“kinsochinlikni ta“minovchi, Axuramazda bilan odamlar o“rtasidagi asosiy vositachi bo“lgan. Mitra jangchi yigit qiyofasida tasvirlangan.
Nana, nani, nanay	Nana	Нана	Zardushtiylarda hosildorlik xudosi.
Nmana	Nmana	Нмана	– Avestoda katta patriarchal oila jamoasi. Saqlanadigan maxsus bino.
Nous	Knaus	Hayc	– zardushtiylarda odam suyaklari solinadigan ostadonlar
Ostadon	Ossuary	Оссуарий	– zardushtiylarning dafn marosimiga tegishli odam suyaklari saqlanadigan sopol idish, sandiqcha.
“Pati”	Pati	Пати	– Avestoda “ota” ma“nosida ishlatilgan so“z. Oila boshlig“i nmanapati, urug“ oqsoqoli vispati, qabila boshlig“i zantupati, mamlakat sardori (hukmdori) dax“yupati deb yuritilgan.
Spitama	Spitama	Спитама	– Payg“ambar Zardusht urug“ining nomi.
Vara	Vara	Bapa	Avestoda chor atrofi mudofaa devorlari bilan o“ralgan mustahkamlangan qal“a-qo“rg“on. Dastlabki shahar, ilk shahar. Bu shahar o“troq dehqon va hunarmandlarni ko“chmanchi chorvadorlar hujumidan himoya qilish uchun qurilgan.
Varna	Varna	Варна	–zardushtiylikda g“animlar, zardushtiylarning dushmanlari yashaydigan yurtlar.
Videvdat	Videvdat	Видевдат	– Avestoning to“rt kitobidan biri. Videvdat Avestoning birmuncha yosh, lekin to“liq saqlangan kitobidir. U 22

			bobdan iborat bo“lib, unda “devlarga qarshi kurash” qoidalari haqida gap boradi.
Vis	Vis	Вис	– Avesto da urug“ jamoasi.
Visparat	Visparat	Виспарат	– Avestoning bizgacha yetib kelgan eng qadimgi qismlaridan biri. 21 kitobdan iborat bo“lib, unda zardushtiyarlarning bayramlar va diniy marosimlarda ijro etiladigan ayrim madhiyalari to“plangan.
Vishtasp	Vishtasp	Виштасп	– zardushtiylik diniga kirib, Zardushtga homiylik qilgan Eron viloyatlaridan biri Bahdi (Baqtriya) hukmdori.
Xanchamana	Hanchamana	Ханчамана	– Avesto kitobiga ko“ra ezgulik xudosi Axuramazda yaratgan mamlakatlarda oqsoqollar kengashi. Hozirgi tilimizda bu so“z “anjuman” tarzida saqlangan.
Xaoma	Haoma	Хаома	– zardushtiylik dinida muqaddas ichimlik. U zardushtiylik ibodatxonalar qoshida maxsus o“simliklardan tayyorlangan va ibodat kunlarida ichilgan.
Xara	Jara	Xapa	– zardushtiyarlarning muqaddas tog“i, dunyodagi eng baland cho“qqili tog“.
Xumo	Humo	Xymo	– baxt va boylik ilohasi. Ko“zga ko“rinmas jannat qushi. Zardushtiylar e“tiqodiga ko“ra Xumo qushi kimning boshiga soya solsa, o“sha kishi baxtli va boy bo“ladi deb hisoblashgan.
Yasna	Jasna	Ясна	– Avesto kitobining bizgacha yetib kelgan qadimgi qismlaridan biri. Yasna kitobi 72 bobdan iborat bo“lib, ulardan 17 tasi “Gohlar” payg“ambar Zardushtning “muqaddas madhiyalari”dan iborat.
Yasht	Yashta	Яшта	– Avesto kitobining bizga yetib kelgan eng qadimgi qismlaridan biri. Yasht kitobi 21 bobdan iborat bo“lib, unda yozuvsız

			zamonlardagi eroniq qabilalarning diniy tasavvurlari, afsonaviy qahramonlar va xudolarga bag“ishlangan madhiyalar to“plangan. U qadimgi qabilalarning og“zaki ijodi asosida paydo bo“lgan.
Zand	Zend	Зенд	– Avesto oyatlarining fors tilida bitilgan sharhlari.
Zantu	Zante	Занту	– Avestoda qabila jamoasi.
Zardusht	Zardush	Зардушт	– zardushtiylik dinining bosh islohotchisi. Tarixiy shaxs. Zardushtning tug“ilgan joyi aniq emas. Olimlarning taxminiy faraz qilishlaricha u Turonzamin viloyatlaridan birida, ya“ni Xorazm yoki Sug“diyonada kohinlar oilasida tug“ilib o“sgan. U Spitama urug“idan bo“lib, otasining simi Porushasp, onasining ismi Dug“dova bo“lgan. Taxminan miloddan avvalgi 630-553-yillarda yashab o“tgan. Dariy tilida “ushtra” tuya, “zarat” keksa sariq tuya ma“nosida. Zardusht – tuyachi, tuyachilar avlodidan degan ma“noni bildiradi. Zardusht o“z zamonasining iste“dodli shoiri, ilohiyot bilimdoni, faylasuf olimi bo“lgan. U yagona xudoga ishonishgina jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga ko“tara oladi, deb hisoblar edi. Zardusht 40 yoshiga to“lganda ezgulik xodosi Axuramazda nazariga tushadi va shundan boshlab Axuramazda dinining payg“ambariga aylanadi.
Chinvot	Chinvat	Чинват	– zardushtiylar e“tiqodiga ko“ra narigi dunyodagi qil ko“prik.

4-mavzu

Atamaning o‘zbek tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning ma’nosi
Islom ma’naviyati	Spirituality Islam	Духовность ислама	- insonning til, dil va amal birligini mujassam etgan, insonning ruhiy holati, nafs tarbiyasi, riyozat, poklik, axloqiy komillikka etishish yo‘li, insonni go‘zal axloq, pokiza qalb va latif ruh sohibi etadigan, oxir-oqibatda Allohga yaqinlikni ta’minlaydigan o‘ziga xos maslak va mafkura yo‘li
O‘zaro yordam	Helpness	Взаимопомощь	- o‘zaro ko‘maklashish, birbiriga madad berish, xomiylit ko‘rsatish.. O‘yo.ning moddiy va ma’naviy shakli mavjud. O‘yo.ning moddiy shakli o‘zgaga earz, moddiy buyum, mablaj va boshea zarur extiyojlar b-n yordam ko‘rsatishi
Bag‘rikenglik	Tolerance	Толерантность	- dunyodagi turli madaniyatlarni, o‘zini ifodalashni va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma – xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to‘g‘ri tushunishni anglatadi
Navro‘z bayrami	The holiday of Navruz	Праздник Навруз	(forschada “ navro‘z ” yangi kun ma’nosini anglatadi) – o‘zbek, tojik, ozarbayjon, fors, hind va boshqa xalqlarning qadimiy an’anaviy yangi yil bayrami.
“Bayt ul-hikmat”	House of wisdom	Дом мудрости	- “donishmandlar uyi”. Bag‘doddagi akademiya.
“Qubbatul islom”	Islam Dome	Купол Ислама	- buxoro shahri. Islom dining gumbazi.
“Ma’mun akademiyasi”	Mamun Academy	Академия Мамуна	- xorazmda tashkil etilgan akademiya.
“Ilmi nujum”	Astronomy	Астрономия	- astronomiya fani.
Rasadxonha	Observatory	Обсерватория	- observatoriya. Osmon jismlarini kuzatadigan ilmiy

			dargoh.
“Qur’oni karim	Koran	Коран	” - islom dinining muqaddas kitobi.
Xattotlar	Calligrapher	Каллиграф	– kitob ko‘chiruvchi husnixat egalari.
Din	Religion	Религия	- arab tilidan olingan bo‘lib, uning lug‘aviy ma’nosi “ishonch”, “e’tiqod”dir. Din muayyan tashkilotlar, histuyg‘ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlar faoliyatlari orqali namoyon bo‘ladi.
Ma’naviy salohiyat	spiritual potency	Духовный потенцил	– hozirgi globallashuv, o‘zaro turli-tuman ta’sirlar kuchaygan bir davrda, jamiyat, millat va davlatning eng muhim tayanchlaridan hisoblanadi
Ma’naviy tajovo‘z	Spiritual threat	Духовная угроза	– muayyan millat, jamiyat, davlatning tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan, siyosiy va konstitutsion to‘zumni zaiflashtirish va bo‘zishga yo‘naltirilgan, shaxs va jamiyat xavfsizligiga, ma’naviy, ruhiy dunyosiga tahdid soluvchi g‘oyaviy-nazariy qarashlar va unga asoslangan amaliyot majmui
Sog‘lom avlod	Healthy generation	Здоровое поколение	– 1) dard-kasaldan xoli avlod. 2) zararli ta’sirlardan, salbiy xislat, illat va shu kabilardan xoli, toza, pok avlod.; 3) mafkuraviy, ma’naviy jihatdan toza, sog‘lom fikrli avlod
Salohiyat	Potential	Потенциал	– bu iste’dodning bir turi bo‘lib, inson o‘zini muayyan tarzda unga keladigan ilhomni qabul qilishga tayyorlagandan so‘ng yuz beradigan sifatdir
Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar	Spiritual values nravtsekiye	Духовно-нравственные ценности	– ma’naviyatga va axloqqa daxldor bo‘lgan qadriyatlar. Fanda mavjud bo‘lgan tasniflardan biriga ko‘ra qadriyatlar moddiy va ma’naviy turlarga bo‘linadi. M.a.q. yoshlarni o‘zini o‘zi tarbiyalashga undaydi. Ular o‘scha qadriyatlar va ideallarga munosib bo‘lish uchun intiladilar

Atamaning o‘zbek tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning ma'nosi
Baytulloh	House of Allah	Дом Аллаха	– Makka islom dinining yagona markaziga aylanganidan keyin Ollohnning uyi – Ka“baga berilgan nom.
Fiqh	Jurisprudence	Правоведение	– islom huquqshunosligi, shariat qonun-qoidalarini ishlab chiqish bilan shug“ullanuvchi islom ilohiyotining bir sohasi
Hadis	Hadith	Хадис	– islom dini ta“limoti bo“yicha Qur“oni Karimdan keyin turadigan ikkinchi muqaddas manba
Hanafiya	Hanafi	Ханафия	– sunniylikdagi huquq mazhablaridan biri. Abu Hanifa an-No“mon (VIII asrda yashagan) asos solgan. Iroqda vujudga kelib, islom tarqalgan barcha mamlakatlarda jumladan Xuroson va Mavarounnahrda ham keng tarqalgan.
Jome' masjidi	Mosque	Соборная мечеть	– juma namozi o“qladigan masjid.
“Ikkinci muallim	The second teacher	Второй учитель	” – bilimli, ma“rifatli, fikr-mulohazalari va mantig“ining teranligi tufayli Sharqda Abu Nasr Forobiya (873-950) berilgan unvon. Aristotel (Arastu)dan keyingi ikkinchi muallim – “Muallim us-soniy”.
Kalom	Qalam	Калям	(arabcha – so“z, nutq) – ilohiyotning ilk shakli. Arab xalifaligida VIII asrda paydo bo“lgan. IX asrga kelib O“rtta Osiyoda ham keng tarqalgan. Kalom tarafdlorlari mutakallimlar deyilgan. Kalom asoschisi Abdulhasan al-Ash“ariy (873-935) mu“taziliylarga qarshi qattiq kurash olib borgan va o“z ta“limoti bilan sunniylik mazhabini mustahkmlagan. Mantiq va falsafadan foydalanib kalom ilmi bo“yicha o“z mazhabini yaratgan.
Ikona	Icon	Икона	– xristianlikdagi avliyolar portreti tushirilgan rasmlar. Ular

			cherkovlarda ibodat buyumi bo‘lib xizmat qiladi.
Molikiya	Malik	Маликия	Molik ibn Anas (721-795) tomonidan asos solingan sunniylikdagi huquq mashablaridan biri
Nirvana	Nirvana	Нирвана	– (sanskr. «so‘lish») buddizm va jaynizm diniy falsafalariga ko‘ra, ruhning sansara kishanlaridan to‘la ozod bo‘lishi va oliv maqomga erish
Qur’oni karim	Koran	Коран	– Qur“oni Karim Yer yuzi musulmonlarining dasturamali, diniy ahkomlar manbai. Muhammad Payg“ambarimiz 40 yoshga to“lgan vaqtlarida Haq taolo Jabroil alayhissalom orqali payg“ambarlik vahiyisini yubora boshlagan. Qur“oni Karimning birinchi oyati ham shu ondan nozil qilina boshlangan. Qur“oni Karimning sahifalarini jam qilish va to“liq kitob shakliga keltirish Muhammad Payg“ambar vafotidan keyin boshlanib, bu ish xalifa Usmon zamonida (644-656) yakunlanadi.
Sunna	Sunna	Сунна	– Muhammad Payg“ambarning ko“rsatmalari va oyatlari haqidagi hadislar, rivoyatlar.

6-mavzu

Atamaning o‘zbek tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning ma'nosи

Suverenitet	Sovereignty	Суверенитет	(fransuzcha “souverainite” – oliv hokimiyat) – quyidagi mazmunlarda ishlataliladi: 1) Davlat suvereniteti – hozirgi davlatshunoslik fanida davlatning ichki va tashqi siyosatidagi to‘la mustaqilligi sifatida talqin etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat suvereniteti masalasiga alohida bob ajratilgan bo‘lib, uning 1-moddasida “O‘zbekiston – suveren demokratik respublika” deyilgan. 2) Xalq suvereniteti – xalqning davlatni boshqarishdagi to‘la hukmronligi, xalq hokimiyati, xalq boshqaruvi ma‘nolarini anglatadi.
Vijdon erkinligi	Freedom of conscience	Свобода совести	Fuqarolarning xar qanday dinga e’tiqod qilishi yoki hech qanday dinga e’tiqod qilmaslik bilan bog‘liq konstitutsiyaviy huquqi
Avtoritar siyosiy rejim	The authoritarian political regime	Авторитарный политический режим	(lotincha “autoritas” – hokimiyat, nufuz, e“tibor, obro‘) – ommani shaxsiy va davlat hokimiyatiga so‘zsiz itoat qildirish. Davlat boshqaruvidagi avtoritarizm bir kishi (monarx, diktator, dohiy)ning mustabid hokimiyatiga asoslanadi. Odatda avtoritar boshqaruv usuli demokratiya prinsiplariga zid hisoblanadi. Unda davlat rahbarining shaxsiy nufuzi, obro‘-e’tiboriga tayanib hokimiyat yuritiladi.
Fuqarolik	Citizenship	Гражданство	shaxsning biron bir davlatga huquqiy va qonuniy jihatdan tegishlilagini bildiruvchi atama. Muayyan davlatning fuqarosi ushbu davlat hududidagi xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslardan o‘z huquqiy mavqeiga ko‘ra farq qiladi. Chunonchi, Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan siyosiy huquq va erkinliklar faqat fuqarolarga tegishlidir. Demak, shaxs fuqarolikni olishi bilan ushbu davlatdagi siyosiy

			huquqlardan foydalanish imkoniyatini ham oladi.
“Mustaqillik deklaratsiyasi”	Declaration of Independence	Декларация Независимости	O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi haqidagi dastlabki huquqiy hujjatlardan biri. “Mustaqillik deklaratsiyasi” 1990-yil 20-iyunda O‘zbekiston Oliy Kengashining II sessiyasida qabul qilingan bo‘lib, 12 banddan iborat. Ushbu tarixiy xujjatda o‘zbek xalqining davlat qurilishi tarixi, tajribasi, har bir millatning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi asosida davlat mustaqilligi ilk bor e“lon qilingan edi.
Missionerlik	Missionary	Миссионерство	Bir dinga e’tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targ‘ib q
Terrorizm	Terrorism	Терроризм	(lotincha “terror” – qo‘rquiv, dahshat) – o‘z maqsadiga erishish yo‘lida ayrim shaxs, shaxslar guruhi yoki g‘ayridemokratik hukumat organlari tomonidan muholifat kuchlarini jismoniy kuch ishlatib qo‘rqtishdan tortib ommaviy jismonan yo‘q qilinishigacha boradigan umuminsoniy o‘ta xavfli jinoyat turi.

7-mavzu

Atamaning o‘zbek tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning ma'nosi
Mutaassiblik	Fanaticism	Фанатизм	ma’lum bir <u>mafcura</u> va qarashlarga, ayniqsa, diniy-falsafiy, milliy va siyosiy sohalarda haddan ziyod, ko‘r-ko‘rona va hissiyotlarga berilib ergashish va ularga amal qilish. Qandaydir tushunchalarga, e’tiqodga yoki dunyoqarashga sodiqlikning eng so’nggi darajasi
Ekstremizm	Extremism	Экстремизм	siyosatda va mafkurada ashaddiy, favqulorra harakat va qarashlarga asoslanib faoliyat yuritish. E.ning siyosiy va diniy ko‘rinishlari yaqqol ajralib turadi. Siyosiy E. namoyandalari o‘zlarining g‘arazli maqsadiga erishish uchun kuch

			ishlatish usullaridan foydalanib, mavjud siyosiy tuzilmalarning barqaror faoliyat yuritishini buzish va yo‘qotishga harakat qiladi. Bu yo‘lda ekstremistlar va ekstremistik tashkilotlar "demokratiya" niqobi ostida balandparvoz shiorlar, chaqiriqlar bilan chiqib, terrorchilik va partizanlik harakatlarini qo‘llabquvvatlaydilar, qonunga rioya etmaslik, ish tashlashlar, tartibsizliklar chiqarishga urinadilar, odamlarni gijgijlaydilar, terror qilish usulidan foydalanadilar
	55-70 ball "qoniqarli": Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Ma'lum bir tasavvurga ega bo'lish.
	50-54 ball "qoniqarsiz": Fan bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni bilmaslik

Reyting baholash turlari

Nazorat shakllari	Maksimal ball	Umumiyl ball
1 Joriy nazorat	36	100
2 Oralig nazorat	34	
3 Yakuniy nazorat	30	

Joriy baholash		Maksimal ball	O'tkazish vaqtি
Joriy nazorat (20 ball)	MT (16 ball)		
Joriy nazorat darslarda aktiv ishtiroki va o'zlashtirish darajasi, mashg'ulot daftalarining yuritilish holati va mavzular bo'yicha vazifalarining bajarilishini e'tiborga olish orqali amalga oshiriladi.	Mustaqil ta'limni baholash topshiriqlarining portfoliosi (prezetatsiya, testlar, yozma ish variantlari, keys stadilar) orqali amalga oshiriladi	36	Semestr davomida

Oraliq baholash		Maksimal ball	O'tkazish vaqtি
Nº	Oraliq nazorat (20 ball)	MT (14 ball)	
I	Oraliq nazorat ma'ruza darslarida aktivligi, mashg'ulot daftalarining yuritilish holatini e'tiborga olish va oraliq nazorat nazorat ishining baholanishi orqali amalga oshiriladi.	Mustaqil ta'limni baholash topshiriqlarining partfoliosi (prezetatsiya, testlar, yozma ish variantlari, keys stadilar) orqali amalga oshiriladi.	34 Oraliq davomida (semestring 10-18 haftasi)

7. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

Asosiy adabiyotlar:

1. Dinshunoslik asoslari. O'quv qo'llanma / Ochildev A. va boshqalar. - Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. - 320 b.
2. Dunyo dinlari tarixi / tuzuvchilar: S.Agzamxodjaev, D.Raximjonov, N.Muxamedov va b. Toshkent: ToshDSHI, 2011. - 262 b.
3. Mo'minov A. Dinshunoslik. Darslik. - Toshkent: "Yangi asr" nashriyot-matbaa birlashmasi. 2004. -356 b.
4. Abduxoliqov J., Yuldasheva S. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma/ - Toshkent: "Oqituvchi" nashriyot birlashmasi. 2004. -214 b.
5. Len Woods. Handbook of World Religions. Barbour Publishing, Ohio. 2008. -266 p.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O'zbekistan Respublikasining Konstitutsiyasi. -Toshkent: O'zbekiston, 2014.-76 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - xar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
3. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yunalishi bo'yicha xarakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova // <http://www.lex.uz>
4. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008,- 176 6.
5. Qur'oni karim ma'nolari tarjimasি. Tarjima va izohlar muallifi Mansurov A. - Toshkent: Sharq, 2016.
6. Raximjonov D., Muratov D., Obidov R., M.Alimova. Xadisshunoslik (o'quv qo'llanma). - Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. — 268 b.
7. Shermuxamedov K., Karimov J., Najmuddinov J. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. -Toshkent: "Movarounnahr", 2016.-224 b.
8. Ochildeev A., Najmuddinov J. Missionerlik: mohiyat, maqsadlar, oqibatlar va oldini olish yo'llari (yuz savolga - yuz javob). -Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2017. - 200 b.
9. Hillary Rodrigues, John S. Harding. Introduction to the study of Religion. Routledge, USA, 2009. - 177 p.
10. Nizomiddinov H. Sharqiy Osiyo diniy-fapsafiy ta'limotlari va Islom / Nizomiddinov H.F., Xasanov A. - Toshkent: UzR FA davlat Adabiyot muzeyi, 2006. - 152 b.
11. P.Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. - Toshkent: Shark, 2014. 536 b.
12. Tulepov A. Internetdagi taxidlardan himoya: Yordamchi o'quv qo'llanma. Mas'ul muxarrir A.Xasanov. -Toshkent: "Movarounnahr", 2016. - 672 b.
13. Религиоведение: Учебное пособие. 4-е издание, исп. и доп. / Научный редактор д.ф.н., проф. А.В.Солдатов. - Спб.: Изд-во "Лань", 2003. - 800 с.
14. Xasanboev U. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo'naliishlari. -Toshkent: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2014. - 552 b.

Internet saytlari

1. <http://www.muslim.uz>-O'zbekiston musulmonlar idorasi
2. <http://www.islamcenter.uz>-Islamshunoslik ilmiy tadqiqot markazi
3. <http://www.ziyo.uz>-Rasmiy-diniy-ma'rifiy internet manzili

4. <http://www.ziyouz.uz>- Ziyo istagan qalblar uchun

Annotatsiya

Mazkur ishchi dastur davlat ta’lim standartlari va namunaviy o‘quv dasturi mazmuniga mos holda tuzilgan. “Dinshunoslik” fani jamiyat ma’naviy hayotida dinning tutgan o‘rni, uning turli shakllari, ta’limoti, yo‘nalishi va oqimlari, vijdon erkinligi, diniy bag‘rikenglik tamoyillari, diniy dunyoqarash, O‘zbekistonda din va diniy tashkilotlar faoliyati, diniy oqimlar, ma’naviy hayot, ma’naviyatning rivojlanish bosqichlari, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, shaxs ma’naviyatida milliy va diniy qadriyatlar uyg‘unligi masalalarini qamrab oladi.

TARQATMA MATERIALLAR

1-Mavzu. Dinshunoslik faniga kirish

Din ko‘p qirrali, murakkab va ziddiyatli ijtimoiy hodisani ifodalaydi. Din so‘zi o‘zbek tiliga arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, ishonch, inonish ma’nolarini bildiradi. E’tiqod ham arabcha bo‘lib, chuqur va mustahkam ishonch demakdir. Din va diniy e’tiqod fan shakllana boshlagandan falsafaning yetakchi mavzusi bo‘lib kelgan. Aynan dinga munosabatda, dunyoni bilishda faylasuflar idealistlar va materialistlar oqimlariga ajralib ketishgan.

Dunyoviy dinshunoslik bilishning dialektik usulidan foydalanib, dinning gnoseologik va ijtimoiy ildizlarini, uning mohiyatini, kelib chiqishi va rivojlanib borishini mufassal tahlil etib bergan. Dinning psixologik ildizi inson psixikasining xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib, u olamning odam ongida in’ikos etishi uchun imkon yaratadi.

Dinga ishonuvchining ratsional va hissiy elementlarini o‘z ichiga oluvchi bu ruhiy holatlari diniy o‘z - o‘zini anglash va o‘zini-o‘zi his etish vujudga kelishi uchun shart - sharoit va imkoniyat yaratadi. Ular muayyan ijtimoiy, avvalo salbiy omillarning ta’sirida, ro‘yobga chiqishi amalga oshishi mumkin. Bu omillar turli xil salbiy hislar paydo bo‘lishi uchun sababdir.



DINSHUNOSLIK FANINING PREDMETI

Dinshunoslik kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining muayyan bosqichida paydo bo'lgan barcha din shakllarining ma'naviy, ijtimoiy, gneseologik va psixologik ildizlarini, ularning ta'liloti va marosimlarini, ijtimoiy hayotdagi mavqeい va ijtimoiy funksiyalarini ilmiy ...

DINSHUNOSLIKNING TADQIQOT OB'EKTI



diniy munosabatlar, diniy ong, diniy tairiba

JAHONDAGI MAVJUD BARCHA DINLAR O'ZIGA XOS BIR QANCHА BELGILARGA EGA

Muayyan e'tiqod va ta'lilotning mavjudligi.
Har bir din dunyoni o'z nuqtai nazaricha izohlaydi va ishonuvchilarda muayyan e'tiqod shakllantiradi


Har bir din o'ziga xos marosim va rasm-rusumlarga ega

Diniy marosim va rasm-rusumlarning faqat belgilangan joylarda jamoa bo'lib bajarilishi. Masalan, yahudiy va xristian dinida ibodatning asosiy qismi faqat sinagoga va cherkovda bajariladi. Islom dinida erkaklar tomonidan namoz asosan jome' masjidlarida o'qiladi




DINLARNING TA’LIMOTIGA KO’RA TURLARI:


Dinlar ta'limotiga ko'ra ikki turga bo'linadi



DUNYODA KENG TARQALGAN DINLAR



Islomdagi yo'naliш, mazhab va oqimlar





Dinlar unga e'tiqot qiluvchilarning soni, miqyosi, o'zining ma'lum millat yoki xalqqa xosligi yoxud millat tanlamasligiga ko'ra turli guruxlarga bo'linadi

Urug' – qabila dinlari – totemistik, animistik tasavvurlarga asoslangan, o'z urug'idan chiqqan sexrgar, shomon yoki qabila boshlig'lariga sig'inuvchi dinlar. Ular millat dinlari va jaxon dinlari ichiga singib ketgan bo'lib, xozirda Avstraliya, Janubiy Amerika va Afrikadagi ba'zi qabilalarda saqlanib qolgan.

Millat dinlari – ma'lum millatga xos bo'lib, boshqa millat vakillari o'ziga qabul qilmaydigan dinlar. Ularga yaxudiylik (yaxudiy millatiga xos), xinduiylik (xindlarga xos), konfutsiychilik (xitoy millatiga xos), sintoizm (yaponlarga xos) kiradi.


Jaxon dinlari – dunyoda eng ko'p tarqalgan, kishilarning millati va irqidan qa'tiy nazar unga e'tiqod qilishlari mumkin bo'lgan dinlar. Unga Buddaviylik, Xristianlik va Islom dini kiradi.







2-Mavzu. O‘zbekistonda davlatning din va diniy tashkilotlar bilan munosabati

DINNING JAMIYATDA BAJARADIGAN VAZIFALARI







O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

01.05.1998 y.

“VIJDON ERKINLIGI VA DINIY TASHKILOTLAR TO’G’RISIDA”
(yangi tahriri)

1-MODDA. Ushbu Qonunning maqsadi.

Ushbu Qonunning maqsadi har bir shaxsning vijdon erkinligi va diniy e'tiqod huquqini, dinga munosabatidan qat'i nazar, fuqarolarning tengligini ta'minlash, shuningdek diniy tashkilotlarning faoliyatini bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solib turishdan iborat.

2-MODDA. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risidagi qonun hujjatlari.

Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risidagi qonun hujjatlari O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan, ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

Qoraqalpog’iston Respublikasida vijdon erkinligini va diniy tashkilotlar faoliyatini ta'minlashga oid munosabatlar, shuningdek Qoraqalpog’iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Agar O’zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O’zbekiston Respublikasining vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risidagi qonun hujjatlaridagidan boshqacha qoidalari belgilangan bo’lsa, xalqaro shartnomaga qoidalari qo’llaniladi.

3-MODDA. Vijdon erkinligi huquqi.

Vijdon erkinligi – fuqarolarning har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqidir.

Fuqaro o’zining dinga, dinga e'tiqod qilishga yoki e'tiqod etmaslikka, ibodat qilishda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka, diniy ta'lif olishga o’z munosabatini belgilayotgan paytda uni u yoki bu tarzda majbur etishga yo’l qo'yilmaydi.

Voyaga yetmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish, shuningdek ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o’rnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o’qitishga yo’l qo'yilmaydi.

Dinga e'tiqod qilish yoki o’zga e'tiqodlar erkinligi milliy xavfsizlikni va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, axloqi, huquqi va erkinliklarini ta'minlash uchun zarur bo’lgan darajadagina cheklanishi mumkin.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo’limgan shaxslar O’zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda vijdon erkinligi va diniy e'tiqod erkinligi huquqidan foydalanadilar hamda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun qonunda belgilangan tarzda javobgar bo’ladilar.

4-MODDA. Fuqarolarning dinga munosabatidan qat'i nazar teng huquqliligi.

O’zbekiston Respublikasi fuqarolari dinga munosabatidan qat'i nazar qonun oldida tengdirlar. Rasmiy hujjatlarda fuqaroning dinga munosabati ko’rsatilishiga yo’l qo'yilmaydi.

Fuqarolarning dinka munosabatiga qarab ularning huquqlarini har qanday cheklash va ularga bevosita yoki bilvosita imtiyozlar belgilash, dushmanlik va adovat uyg'otish yoxud ularning diniy yoki dahriylik e'tiqodi bilan bog'liq his-tuyg'ularini haqoratlash, diniy ziyoratgohlarni oyoq osti qilish qonunda belgilangan javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Hech kim diniy e'tiqodini ro'kach qilib qonunda belgilangan majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishga haqli emas. Qonunga muvofiq bajarilishi majburiy bo'lган bir vazifani diniy e'tiqodi tufayli boshqasi bilan almashtirishga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardagina yo'l qo'yildi.

5-MODDA. Dinning davlatdan ajratilganligi.

O'zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan. Hech bir dinka munosabatiga qarab ularning qonunda biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat turli dinlarga e'tiqod qiluvchi va ularga e'tiqod qilmaydigan fuqarolar, har xil e'tiqodlarga mansub diniy tashkilotlar o'rtasida o'zaro murosa va hurmat o'rnatilishiga ko'maklashadi, diniy va o'zga mutaassiblikka hamda ekstremizmga, munosabatlarni qaramaqarshi qo'yish va keskinlashtirishga, turli konfessiyalar o'rtasida adovatni avj oldirishga qaratilgan xatti-harakatlarga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat diniy konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo'llab-quvvatlaydi. Bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm), shuningdek boshqa har qanday missionerlik faoliyati man etiladi. Ushbu qoidaning buzilishiga aybdor bo'lган shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortiladilar.

Davlat diniy tashkilotlar zimmasiga o'zining hech qanday vazifasini bajarishni yuklamaydi, ularning qonun hujjatlariga zid bo'lмаган faoliyatiga aralashmaydi. Diniy tashkilotlar davlat vazifalarini bajarmaydi. Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatini hamda dahriylik targ'ibotiga oid faoliyatini mablag' bilan ta'minlamaydi.

O'zbekiston Respublikasida diniy mohiyatdagi siyosiy partiya va jamoat harakati, shuningdek respublikadan tashqarida tuzilgan diniy partiyalarining filiallari va bo'limlarini tuzishga va ularning faoliyat yuritishiga yo'l qo'yilmaydi.

Diniy tashkilotlar amaldagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishlari shart. Dindan davlatga va Konstitutsiyaga qarshi targ'ibot olib borishda, dushmanlik, nafrat, millatlararo adovat uyg'otish, axloqiy negizlarni va fuqaroviy totuvlikni buzishda, bo'hton, vaziyatni beqarorlashtiruvchi uydirmalarni tarqatishda, aholi o'rtasida vahima chiqarishda hamda davlatga, jamiyat va shaxsga qarshi qaratilgan boshqa xatti-harakatlarda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Terrorizm, narkobiznes va uyushgan jinoyatchilikka ko'maklashadigan, shuningdek boshqa g'arazli maqsadlarni ko'zlovchi diniy tashkilotlar, oqimlar, sektalar va boshqalarning faoliyati man etiladi.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga, mansabdar shaxslarga tazyiq o'tkazishga qaratilgan har qanday urinish, shuningdek yashirin diniy faoliyat qonun bilan taqiplanadi.

6-MODDA. Davlat organlarining va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining diniy tashkilotlar bilan o'zaro munosabat borasidagi vakolatlari.

Davlat organlari bilan diniy tashkilotlarning o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtirish hamda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish vazifasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita zimmasiga yuklanadi. Qo'mitaning huquqiy maqomi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Nizom bilan belgilanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat, tuman va shahar hokimliklari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tegishli hududlarda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi uchun qonun bo'yicha javobgardirlar.

7-MODDA. Ta'lif tizimi va din.

O'zbekiston Respublikasida ta'lif tizimi dindan ajratilgan. Ta'lif tizimining o'quv dasturlariga diniy fanlar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining dunyoviy ta'lif olish huquqi ularning dinga bo'lgan munosabatidan qat'i nazar ta'min etiladi.

8-MODDA. Diniy tashkilotlar.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining dinga e'tiqod qilish, ibodat, rasm-rusumlar va marosimlarni birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan ko'ngilli birlashmalari (diniy jamiyatlar, diniy o'quv yurtlari, masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, monastirlar va boshqalar) diniy tashkilotlar deb e'tirof etiladi.

Diniy tashkilot O'zbekiston Respublikasining o'n sakkiz yoshga to'lgan va O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashayotgan yuz nafardan kam bo'limgan fuqarolari tashabbusi bilan tuziladi.

Tegishli konfessiyaga qarashli diniy tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va yo'naltirib borish uchun ularning O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yagona markaziy boshqaruv organlari (bundan keyin markaziy boshqaruv organlari deb yuritiladi) tuzilishi mumkin.

Markaziy boshqaruv organi O'zbekiston Respublikasining kamida sakkizta hududiy tuzilmasida (viloyat, Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi) faoliyat ko'rsatayotgan, tegishli konfessiyalarning ro'yxatga olingan diniy tashkilotlari vakillari ta'sis yig'ilishi (konferensiyasi) tomonidan tuziladi.

Diniy tashkilotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida yoki uning joylardagi organlarida ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi va qonun hujjalarda nazarda tutilgan tartibda o'z faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

Tegishli diniy ma'lumotga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari diniy tashkilotlarning rahbarlari bo'lishlari mumkin. Diniy tashkilotlar rahbarligiga O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'limgan shaxslarning nomzodi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita bilan kelishib olinadi.

9-MODDA. Diniy o'quv yurtlari.

Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruva organlari ruhoniylar va o'zlariga zarur bo'lgan diniy xodimlar tayyorlash uchun diniy o'quv yurtlari tuzishga haqli. Diniy o'quv yurtlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilib, tegishli lisensiya olganidan keyin faoliyat ko'rsatish huquqiga ega bo'ladi.

Oliy va o'rta diniy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun fuqarolar O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq umumiylajburiy o'rta ta'lim olganidan keyin qabul qilinadi.

Diniy o'quv yurtlarida diniy fanlarni o'qitayotgan shaxslar diniy ta'lim olgan bo'lishlari va o'z faoliyatlarini tegishli markaziy boshqaruva organining ruxsati bilan amalga oshirishlari lozim.

Xususiy tartibda diniy ta'lim berish man etiladi.

10-MODDA. Diniy tashkilotning ustavi.

Diniy tashkilotning ustavi quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak:

- diniy tashkilotning nomi, turi, joylashgan manzili, qaysi dinga mansubligi;
- maqsadi, vazifalari va faoliyatining asosiy turlari;
- faoliyatni tashkil etish va tugatish tartibi;
- tuzilishi va boshqaruva organlari;
- mablag'lari manbai hamda ushbu tashkilot ichidagi, shuningdek undan tashqaridagi mulkiy munosabatlari;
- ustavga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish tartibi;
- ushbu diniy tashkilotga taalluqli boshqa ma'lumotlar.

Markaziy boshqaruva organlariga ega bo'lgan diniy tashkilotlarning ustavlari mazkur boshqaruva organlari bilan kelishilgan bo'lishi kerak.

11-MODDA. Diniy tashkilotlarni ro'yxatga olish.

Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruva organlarini ro'yxatga olish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan, boshqa diniy tashkilotlarni esa tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar, Toshkent shahar adliya

boshqarmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Diniy tashkilotlarni ro'yxatga olish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- diniy tashkilot tuzish tashabbuskorlari bo'lgan, yuz nafardan kam bo'limgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi imzolagan ariza;

- diniy tashkilotning ustavi;

- ta'sis yig'ilishining bayoni;

- tuzilayotgan diniy tashkilot joylashgan manzilni tasdiqlovchi hujjat;

- ro'yxatga olish yig'imi to'langani to'g'risidagi hujjat.

Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruvi organini ro'yxatga olish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- ta'sis yig'ilishi (konferensiyasi)ning raisi va kotibi imzo qo'ygan ariza;

- diniy tashkilotlar markaziy boshqaruvi organining ustavi;

- ta'sis yig'ilishi (konferensiyasi)ning bayoni;

- ta'sischilar vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar;

- rahbar organ joylashgan manzilni tasdiqlovchi hujjat;

- ro'yxatga olish yig'imi to'langani to'g'risidagi hujjat.

Diniy tashkilotlar hamda ularning markaziy boshqaruvi organlarini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza berilgan kundan e'tiboran bir oylik muddatda ko'rib chiqiladi.

Adliya organlari qo'shimcha materiallar talab qilib olishga hamda tegishli organlarning ekspert xulosasini olishga haqli. Bunday holda qaror ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza berilgan kundan e'tiboran uch oylik muddatda qabul qilinadi.

Diniy tashkilotning ustaviga kiritilgan qo'shimchalar va o'zgartishlar diniy tashkilotni ro'yxatga olish kabi tartib va muddatlarda ro'yxatga olinishi lozim.

Diniy tashkilotlar rahbarlarining tashkilot ustavini davlat organlarida ro'yxatdan o'tkazishdan bo'yin tovashi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortishga olib keladi.

Diniy tashkilotlarning faoliyati o'z ustaviga muvofiqligini nazorat qilish diniy tashkilotni ro'yxatga olgan organ tomonidan amalga oshiriladi.

Ro'yxatdan o'tmagan diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatishiga yo'l qo'ygan mansabdar shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

12-MODDA. Diniy tashkilotni ro'yxatga olishni rad etish.

Agar diniy tashkilot ustavining qoidalari va boshqa hujjatlari ushbu Qonun yoki O'zbekiston Respublikasi boshqa qonun hujjatlarining talablariga zid bo'lsa, uni ro'yxatga olish rad etilishi mumkin.

Diniy tashkilotni ro'yxatga olish rad etilganda rad etish asoslari ko'rsatilgan qaror yozma ravishda arizachilarga yuboriladi. Diniy tashkilot tuzish tashabbuskorlari ustavlarini qonun hujjatlariga muvofiq holga keltirganlaridan so'ng, ustavni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza bilan tegishli tarzda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga yoki uning joylardagi organlariga qaytadan murojaat etish huquqiga ega.

Diniy tashkilotni ro'yxatga olishni rad etilganligi yoxud adliya organlari tomonidan ushbu Qonun talablari buzilganligi ustidan sudga shikoyat qilish mumkin.

13-MODDA. Diniy tashkilotning faoliyatini tugatish.

Diniy tashkilotning faoliyati u o'zini-o'zi tarqatib yuborganda yoki ushbu Qonunning, shuningdek O'zbekiston Respublikasi boshqa qonun hujjatlarining qoidalari buzilgan taqdirda tugatilishi mumkin.

Diniy tashkilot faoliyatini tugatish to'g'risidagi qaror uni ro'yxatga olgan organ tomonidan qabul qilinadi. Ushbu qaror ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

14-MODDA. Diniy urf-odatlar va marosimlar.

Diniy tashkilotlar ibodat qilish yoki diniy rasm-rusumlar o'tkazish uchun qulay joylar tashkil etish va ularni saqlab turish, shuningdek ziyoratgohlarni saqlab turish huquqiga egadir.

Ibodat, diniy rasm-rusumlar va marosimlar diniy tashkilotlar joylashgan manzildagi ibodatxonalarda va ularga tegishli hududlarda, ziyoratgohlarda, qabristonlarda, zarur hollarda fuqarolarning ixtiyoriga binoan ularning uylarida o'tkaziladi.

Kasalxonalarda, gospitallarda, keksalar va nogironlar uylarida, dastlabki qamoq va jazoni o'tash joylarida ibodatlar va diniy rasm-rusumlar shu yerdagи fuqarolarning iltimoslariga binoan o'tkaziladi.

Diniy marosim va ibodat binolaridan tashqarida o'tkaziladigan ommaviy ibodatlar, diniy rasm-rusumlar va marosimlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining (diniy tashkilotlarning xizmatidilar bundan mustasno) jamoat joylarida ibodat liboslarida yurishlariga yo'l qo'yilmaydi.

Diniy tashkilotlar dindorlardan majburiy pul yig'implari va to'lovlar undirishga, shuningdek ularga nisbatan shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi choralarini qo'llashga haqli emas.

15-MODDA. Diniy tashkilotlarning mulki.

Diniy tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan sotib olingan yoki yaratilgan, fuqarolar, jamoat birlashmalari ehson qilgan (vasiyat qilib qoldirgan) yoxud davlat tomonidan berilgan, shuningdek chet elda joylashgan va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslarda olingan, o'z faoliyatlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan binolar, imoratlar, ibodat qilish

anjomlari, ishlab chiqarish, ijtimoiy va xayriya inshootlari, pul mablag'lari va boshqa mol-mulklar ularning mulki bo'lishi mumkin.

Diniy tashkilotlarning mulkiy huquqlari qonun bilan muhofaza qilinadi.

16-MODDA. Davlat mulki bo'lgan mol-mulkdan foydalanish.

Diniy tashkilotlar o'z ehtiyojlari uchun davlat organlari tomonidan shartnomada asosida beriladigan binolar va mol-mulkdan foydalanishga haqlidir.

Tarixiy va madaniy yodgorliklar ob'ektlari va buyumlarini diniy tashkilotlarga foydalanish uchun berish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Diniy tashkilotlar uchun yer ajratish hamda ibodat binolari qurish tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ruxsati bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

17-MODDA. Ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyati.

Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruvi organlari ustavdagagi maqsadlaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq, noshirlik, ishlab chiqarish, ta'mirlash-qurilish, qishloq xo'jalik korxonalarini va boshqa korxonalarini, shuningdek xayriya muassasalarini (yetimxonalar, kasalxonalar) ta'sis etishga haqlidir.

18-MODDA. Faoliyatini tugatgan diniy tashkilotlarning mol-mulkini tasarruf etish.

Diniy tashkilotlarning faoliyati tugatilgandan keyin ularga foydalanib turish uchun berilgan mol-mulk o'z egalariga qaytariladi.

Diniy tashkilotlarning faoliyati tugatilgan taqdirda, ularga qarashli mol-mulkka egalik qilish ularning ustavi va qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Kreditorlarning talablarini qondirish uchun undirish qaratilishi mumkin bo'limgan ibodatga oid mol-mulk ro'yxati diniy tashkilotlarning taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Huquqiy vorislari bo'limgan mol-mulk davlat mulki hisobiga o'tadi.

19-MODDA. Diniy adabiyot va diniy maqsadlarga mo'ljallangan buyumlar.

Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruvi organlari diniy maqsadlarga mo'ljallangan buyumlar, diniy adabiyotlar va diniy mazmundagi boshqa axborot materiallarini O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishlab chiqarishga, eksport va import qilishga hamda tarqatishga haqlidir.

Chet elda nashr etilgan diniy adabiyotlarni olib kelish va tarqatish, ularning mazmuni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ekspertizadan o'tkazilganidan keyin amalga oshiriladi.

Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruvi organlari tegishli lisenziya olganidan so'ng diniy ibodat buyumlarini ishlab chiqarish va tarqatish huquqiga faqat ular ega bo'ladilar.

Diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan matbaa nashrlarini, kino-foto-audio-video mahsulotlarini va shu kabi boshqa mahsulotlarni tayyorlash, saqlash va tarqatish qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortishga olib keladi.

20-MODDA. Diniy tashkilotlarning xayriya faoliyati.

Diniy tashkilotlar xayriya va mehr-muruvvat faoliyatini amalga oshirishga haqlidir.

21-MODDA. Diniy tashkilotlarda mehnatga oid huquqiy munosabatlar.

Diniy tashkilotlarda mehnat shartnomalari (kontraktlari) bo'yicha ishlayotgan fuqarolarga O'zbekiston Respublikasining mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari tatbiq etiladi.

22-MODDA. Diniy tashkilotlarning xalqaro aloqalari.

Diniy tashkilotlar muqaddas joylarni ziyorat qilish yoki boshqa diniy tadbirlarda ishtirok etish maqsadida qonun hujjatlariga muvofiq xalqaro aloqalar o'rnatish va olib borishga haqlidir.

23-MODDA. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik.

Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo'lgan mansabdor shaxslar, diniy tashkilotlarning xizmatidagilar va fuqarolar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladir.

3-mavzu. Markaziy Osiyo dinlari

Totemizm. Keyingi bir-ikki asr davomida fanda qilingan ajoyib kashfiyotlar tufayli dinning ilk shakllari 30-40 ming, balki 100 ming yillar muqaddam kelib chiqqanligi isbotlanibgina qolmay, hatto hozirgi davrda yashayotgan ayrim xalqlar turmushida ularning hamon saqlanib kelayotganligi aniqlandi.

Fetishizm. Afrika va qisman Avstraliya xalqlarining ko'pchiligidagi, G'arbiy Afrika qabilalarida har xil jonsiz buyumlarga sig'inish keng tarqalgan. Bunday diniy tasavvurlar fanda fetishizm (portugal tilida – "feytisho" – tumor, sehrlangan buyum, degan ma'noni anglatadi) deb atalib, eng qadimgi ibtidoiy din shakllaridan biri hisoblanadi. Fetishizm nihoyatda xilma-xil shaklda namoyon bo'ladi va din taraqqiyotining barcha pog'onalarida ibodatning muhim qismi sifatida dastlabki oddiy dinlardan to hozirgi murakkab dunyo dinlarigacha hammasida uchraydi.

Magiya (sehrgarlik). Totemistik tasavvurlar va fetishizm bilan bog'liq, nihoyatda keng tarqalgan ibtidoiy dinlarning yana bir turi magiya (sehrgarlik) urug'chilik tuzumi davrida muhim rol o'ynagan. Sehrgarlik ibtidoiy odamlarning



mashaqqatli og'ir hayotini noto'g'ri, soxta yo'l bilan bo'lsa-da yengillashtirishga yoki yovuzlikning oldini olishga qaratilgan tasavvurlardir.

Animizm. Ibtidoiy dinning tabiatga sig'inish va itoatgo'ylik shaklidagi taraqqiyoti ilk din shakllaridan biri hisoblangan animizmning rivojlanishi asosida ro'y bergan. Ingliz etnografi Eduard Teylor tomonidan kiritilgan bu nom (lotincha "anima" – jon, ruh degani) o'z mohiyati jihatidan ancha cheklangan va Teylor ta'riflaganidek, animistik tushuncha eng dastlabki din shakli hisoblanmaydi, chunki din taraqqiyotining dastlabki bosqichida jon haqida odam alohida tasavvurga ega bo'lman.

Shamanizm. "Shaman" tunguscha so'z bo'lib, "jazavalik kishi" degan ma'noni anglatadi. Bu so'z keyinchalik butun Sibirga, so'ngra Yevropaga tarqalib, xalqaro atamaga aylangan. Bu dinning ruhoniysi shaman hisoblanadi. Shamanlar o'z qavmlariga, odam yaxshi va yovuz arvoqlar panohida yashaydi, odamning sog'lig'i, baxti va taqdiri shularning qo'lida, deb tushuntiradi. Shamanlar odamlar va ruhlar o'rtasida go'yo vositachilik qila olish qudratiga ega bo'lgan kishilardir.

VEDALAR TO'RT YIRIK TO'PLAMDAN IBORAT

RIGVEDA	ATXARVAVEDA	SAMAVEDA	YAJURVEDA
"Madhiyalar vedasi"	"Afsun va jodular vedasi"	"Qo'shiqlar vedasi"	"Qurbanliklar vedasi"



Buddaviylik ta'limoti

BUDDAVIYLIKDAGI OQIMLAR


Xinayana (kichik doira) diniy yo'nalish sifatida mil.av. I asrda shakllangan. Xinayana tarafдорлари Budda tirikligida ishlab chiqilgan tartiblarni, ijtimo bo'lib najot topish usullari (sangxa)ni yoqlaydilar. Ular nirvanaga faqat buddaviylik ruhoniylari yetishishi mumkin deb hisoblashadi. Keyinchalik xinayanada juda ham murakkab va dabdabali ibodatlar, buddaviylikning muqaddas joylariga ommaviy ziyoratlar

Maxayana (katta doira) tarafдорлари Buddaga xudo deb qarashadi. Ular ruhiy kamolot ahdiga rioya qiluvchi va buddaviylikning axloqiy talablariga amal qilgan, roxiblarga in'omlar berib yordam ko'rsatuvchi har qanday kishi Nirvanaga yetishishi mumkin, degan fikrni ilgari surishadi. Bu esa buddaviylikning axloqiy qoidalariga mos keladi. Xuddi shuningdek, maxayana tarafдорлари buddaviylikka jannat haqidagi dogmani ham olib kirdilar. Bu Siddxartxaning tiriklik davrida yo'q edi. Umuman Budda xudo, jon, ruh haqida fikr yuritishdan ochgan. Uning uchun kamolot yo'li insonning axloqidadir.

Lamaviylik. Maxayananing eng muhim oqimlaridan biri hisoblanadi. U VII-XIV asrlarda Tibetda shomonlik asosida shakllangan buddaviylikning barcha aqidalarini qabul qilgan. "Lama" so'zi tibetcha bo'lib "eng ulug'" degan ma'noni bildiradi. Bu oqim mo'g'ullar, Rossiya hududidagi buryatlar, tuvaliklar va qalmiqlar orasida tarqalgan. Lamaviylikda dabdabali ibodatlar, muqaddas tomoshalar, maishiy rasm-rusumlar, xudolar g'azabini va yovuz ruhlar ziyon-zahmatlarini qaytarish uchun qilinadigan xatti-harakatlar, duo va qarg'ishlar ko'p.

Tantrizm, Szintu, Tyantay, Chan-buddizm, "Sof Zamin" oqimlari ham mavjud.


XRISTANLIKDA XUDO UCH KO'RINISHGA EGA



Pasxa bayrami	Salibga tortilgan Isoning mo'jizaviy tirilishi xotirasiga bag'ishlanadi. Pasxadan oldin bir hafta davomida pravoslavlар
---------------	---

	ro'za (post) tutadilar, toat-ibodat qiladilar
Isoning tug'ilishi bayrami (Rojdestvo Xristovo)	O'g'il Xudo Isoning ilohiy tug'ilishi nishonlanadi. Yevropada 25 dekabrda, Rossiyada 7 yanvarda nishonlanadi
Isoni cho'qintirish bayrami (Kreshenie Gospodnya)	Isoning lordan daryosida cho'qintirilganligi 6 yanvarda nishonlanadi
Ilohiy hushxabar bayrami (Blagoveshchanie)	Bibi Maryamga kelajakda ilohiy farzand ko'rishi to'g'risidagi hushxabarning ma'lum qilinganligi 25 martda nishonlanadi
Isoning Quddusga kirish bayrami (Vxod Gospodnya v Ierusalim)	Pasxa arafasidagi oxirgi yakshanba kuni Isoning Quddusga kirishi nishonlanadi
Isoning osmonga ko'tarilib ketishi bayrami (Voznesenie Iisusa)	Pasxadan keyin 40-kuni Isoning tirilib arshi a'loga ko'tarilishi nishonlanadi
Iso qiyofasining o'zgarishi bayrami (Preobrazhenie)	Isoning tog'da ibodat qilayotib, qiyofasi o'zgarganligi 6 avgustda nishonlanadi
Bibi Maryamning tug'ilishi bayrami (Rojdestvo Bojey materi)	Bibi Maryam – ilohiy onaning tug'ilishi 8 sentabrda nishonlanadi
Isoning salibga tiklash bayrami (Vozdvijenie kresta Gospodnya)	Isoning oyoq-qo'li mixlangan salibning topilishi 14 sentabrda nishonlanadi
Bibi Maryamni xotirlash bayrami	15 avgustda Bibi Maryamning hayot yo'lining nihoyasiga yetishi sifatida nishonlanadi

4-mavzu. Islom ta'limoti asoslari.



Sunniylikda iymon talablari

**Allohning yakkayu-yagonaligiga ishonish, faqat ungagina
sig‘inish, e’tiqod va ibodat qilish.**

Allohning farishtalariga ishonish

**Taqdirga, uning ilohiyligiga
ishonish.**

**Allohning barcha ilohiy,
muqaddas kitoblariga ishonish**

**Oxiratga qiyomat qoyim
bo‘lishiga ishonish**

**Allohning barcha
payg‘ambarlariga ishonish**

Qayta tirlishga ishonish.

апапанийи

Islomdagi asosiy oqimlar. Islom diniga amal qiluvchilar ma'lum sabablarga ko'ra uch yo'naliishga ajralganlar. Ulardan dastlabkisi xorijiylik (hozirgi davrda umuman yo'q bo'lib ketgan), keyingilari sunniylik va shialik. Bugungi kunda islom dini sunniylik va shialik yo'naliishida ketmoqda.

Xorijiylik (arabchada “chetga chiqqanlar”, “chiqish” ma'nosini bildiradi). Bu yo'naliish islomdagi ilk sekta hisoblanib, xalifa Ali bilan umaviylar o'rtasidagi kurash davomida VII asrda vujudga kelgan. Xalifalik uchun kurashda Ali Muoviya tarafdorlari – umaviylar bilan jangni oxirigacha olib bormay, g'alabaga yaqin qolganda ular bilan muzokara olib borishga ko'ngan. Alining bunday jur'atsizligi uning tarafdorlari noroziligiga sabab bo'lган. Ularning eng qat'iylari Alining o'ziga qarshi dushmanga aylanganlar, xorijiylar uyushmasini tuzib, Aliga ham, Muoviyaga ham qarshi kurash boshlaganlar.

Sunniylik deb, diniy qonun-qoida va tartibotlarga amal qilishda Qur'oni Karim va Payg'ambarimiz hadislari – “Sunna”ga birdek rioya qiluvchilarga aytildi. Sunna arabcha “odat”, “an'ana”, “xatti-harakat” degani. Sunniylik islomda izchil, sobitqadam yo'naliish hisoblanadi. Sunniylar barcha xalifalarni, jumladan, Abu Bakr, Umar, Usmon, Alilarni e'tirof etadilar. Shialar esa faqatgina Hazrat Alini haqiqiy xalifa sifatida tan oladilar. Sunniylar uchun Makka va Madina shaharlari muqaddas shaharlar hisoblanadi. Hokimiyat masalasida sunniylar – xalifalik, shialar – imomat tarafdori. Sunniylikda to'rtta: hanafiya, molikiya, shofi'iya, hanbaliya mazhablari bor. Hozirgi kunda yer yuzidagi 1,3 mlrd. musulmonlarning 92,5 foizi sunniylardir.

Shialik arabcha “guruh”, “tarafdar” degan ma'nolarni beradi. Shialik VII asrning ikkinchi yarmida guruuhlar o'rtasidagi hokimiyat uchun kurash oqibatida kelib chiqqan. Shialar Alidan boshqa barcha sunniy xalifalarni siyosiy hokimiyatni zo'ravonlik bilan qo'lga olganlar deb hisoblaydilar. Ali tarafdorlari u Payg'ambarning amakivachchasi va kuyovi bo'lgani uchun musulmonlarning boshlig'i bo'lishi kerak, uning vafotidan keyin esa bu lavozim uning avlodlariga meros bo'lib o'tishi kerak, deb chiqishgan. Shialar Hazrat Ali va uning avlodlaridan iborat 12 imom hokimiyatini tan olishgan.

5-mavzu. Islomdagi mazhablar va yo'naliishlar

Islomda yo‘nalishlarning vujudga kelishi. 632 yilda Payg‘ambar vafotidan so‘ng hokimiyat xalifalikka saylanganlar tomonidan boshqariladigan bo‘ldi. Birinchi xalifa Abu Bakr bo‘ldi. Ikkinci bo‘lib Umar ibn Xattob saylandi, so‘ng Usmon ibn Affon va Ali ibn Abi Tolib bo‘ldilar. Avvalgi ikki xalifa davrida xalifalikda ichki nizo va bo‘linishlar bo‘lmadi. Usmon xalifaligi davrining so‘nggi yillarida ichki nizolar paydo bo‘lib, xalifaga qarshiliklar kuchaydi. Oxir-oqibat bir to‘da odamlar Usmonni uyiga bostirib kiradilar va xalifani o‘ldiradilar. Xalifaning o‘ldirilishi xalifalikda urushini keltirib chiqardi va Ali ibn Abi Tolib xalifaligi davrida bunday nizolar kuchaydi. SHom voliysi Muoviya xalifaga qarshi chiqib tezroq xalifa Usmon qotillarini topib jazolash talabini qo‘yadi. Xalifa bu paytda avval ichki nizolarni tugatish bilan ishni boshlagan bo‘ladi. Bu ixtilof qurolli to‘qnashuvga olib keladi.

Bu to‘qnashuv 657 yili Iroqning Siffin degan joyida bo‘lib o‘tgani uchun jang nomi Siffin deb atalgan. SHunda davlat tuzumi masalasida Payg‘ambardan keyin xalifalik kimga o‘tishi kerak degan masalada uch toifaga bo‘linish yuz berdi.

Birinchi – xalifa Ali tarafdorlari bo‘lgan, xalifalik faqat payg‘ambar xonodonida meros sifatida o‘tishi kerak deb hisoblovchi guruh. Natijada ulardan shialik oqimi kelib chiqdi.

Ikkinci – xalifa Alining sobiq tarafodorlaridan tashkil topgan, uni Siffin jangidan keyin tashlab ketgan xorijiylar (ajrab chiqqanlar) guruhi hisoblanadi.

Uchinchi – «ahli sunna val jamoa» guruhi.

SHahristoni esa Payg‘ambar tiriklik vaqtidayoq sahobalar orasida tafovut boshlanganini aytadi.

Xorijiylar va shialar firqalaridan islomda bid’at, firqachilik va adashishlik boshlandi. Bunday firqalar asosiy ikki masalada paydo bo‘ldi: imomat (davlatga rahbarlik) va aqidada.

Fiqhiy mazhablarning paydo bo‘lishi. Islom dini tarqalgan hudud kengayib, turli millatlar va xalqlar shu dinni qabul qilganlaridan va uni o‘z hayotlari tarziga aylantirdilar. Diniy masalalarda turli qarashlarni paydo bo‘lishi va ularni hal qilish maqsadida musulmon olimlari katta rol o‘ynadi.

Muhammad payg‘ambar (a.s.) vafotlaridan keyin u kishining ishini xalifalar, sahobalar, so‘ng tobeinlar davom ettirdilar. Payg‘ambardan keyin u kishining ishini sunna asosida davom ettirganlar «sunniylar» yoki «ahli sunna val jamoa» nominini oldi. Payg‘ambar davrida biror masala yuzasidan savol paydo bo‘lsa, odamlar darhol shu holatni payg‘ambarga etkazib, o‘zlariga aniq javob olganlar. SHuning uchun bu davrda ixtiloflar bo‘lmagan. Sahobalar ko‘pchilikni tashkil qilgan vaqtida ham ixtilofli masalalarni tez va oson hal qilganlar, ammo sahobalar davri tugab borishi natijasida musulmonlar orasida turli ixtiloflar ko‘paydi.

Hijriy ikkinchi asrga kelib musulmonlar orasida shariatning turli masalalarni mustaqil echib bera oladigan olimlar paydo bo‘la boshladи. Ular turli masalalarni hal qilishda Qur‘on oyatlari va hadislarni sharh qilib, shu bilan birga sahobalarning qilgan ishlarini o‘rganib, o‘shalar asosida hukmlar chiqarib berdilar.

Olimlarning atrofida shogirdlari ko‘payib, ularning qarashlarini yozib, ommalashtirdilar. Buning natijasida mazhablar paydo bo‘ldi. SHu bilan birga ba’zi olimlarning qarashlari kengaymagani sababli ularning qarashlari mazhab darajasiga chiqqa olmadı.

Imom Abu Hanifa va hanafiylik mazhabi. Hanafiylik mazhabini asoschisi Abu Hanifa Nu‘mon ibn Sobit (699-767) bo‘lib, «Imomi A’zam», ya’ni eng buyuk imom laqabi bilan mashhur bo‘lgan. Mazkur mujtahid olim Kufa shahrida tug‘ilib shu erda vafot etgan.

Bu zot sunniy mazhablar asoschilari orasida yoshi eng kattasi hisoblanadi. Rivoyatlarga ko‘ra bobosi Sobitni hazart Ali oldilariga olib kelib, uning haqqiga duo qilishlarini so‘raydi. Hazrat Ali Sobitni o‘zi va surriyotiga barakot so‘rab duo qiladilar. Sobitning surriyotidan imom

Abu Hanifa mashhur bo‘lib ketdi. Imomning otasi Kufada ipak va jun mato tijorati bilan shug‘ullangan va imom Abu Hanifa ham keyinchalik shu ishni davom ettirgan.

Mazhabsizlik va uning oqibatlari. Bugungi kunda turli guruhlar tarafidan mazhablarni inkor qilish holatlari uchrab turibdi. Ular mazhabsizlik g‘oyasini ilgari surib, asosiy maqsadlari asrlar davomida amal qilinib kelinayotgan fiqhiy mazhablarni inkor qilish hisoblanadi.

Mazhabsizlik g‘oyasi deyarli 12 asrdan ortiq vaqt mobaynida yashagan minglab ulamolarning butun umrlarini sarflab olgan ilmlari va qoldirgan meroslarini, yozgan asarlarini bekorga chiqaradi. SHu bilan birga asrlar davomida amal qilinib kelinayotgan an‘analar noto‘g‘ri, ularga amal qilgan musulmonlar esa adashgan ekan degan xulosaga olib keladi. Bundan tashqari musulmonlar birligini xavf ostiga oladi. Zero Muhammad payg‘ambar (a.s.) hadislari: «*Allah ummatimni zalolatda jamlamaydi*», «*Musulmonlar yaxshi deb bilgan narsa Allohning huzurida ham yaxshidir*» (hadislarni Hokim Naysapuriy rivoyat qilgan), deyilgan. Mazhablar ham musulmonlarning birligi.

Olimlar butun umrini shariat ilmiga bag‘ishlab, undagi o‘ta nozik masalalarni o‘rganish uchun o‘nlab yil umrlarini o‘tkazganlar, Qur‘on va hadislarda uchraydigan va barcha insonlar tushunishi qiyin bo‘lgan joylarni fahmlash va tushunishga oson shaklga keltirib so‘ngi xulosalarni bergenlar.

Mazhabsizlik g‘oyasini soxta salafiyalar ilgari surmoqda. Ularning fikricha, fiqhiy mazhablar tomonidan ishlab chiqilgan qoidalarni to‘g‘ri tushunish usuli sifatida tan olinmaydi, balki shariat ahkomlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga tadbiq etish lozim deb hisolanadi. Boshqacha qilib aytganda, mazhabsizlarning da‘vosi bo‘yicha har bir kishi, o‘zi Qur‘ondan yoki hadisdan hukm olishi mumkin. CHunki mujtahidlarning xulosasi boshqalar uchun asos bo‘la olmaydi, har bir odam o‘zi fatvo berishi mumkin. Ularning g‘oyasiga amal qilinadigan bo‘lsa, barcha Qur‘on va hadisdan hukm olishga o‘tsa, jamiyatdagi boshqa sohalar izdan chiqib ketadi. CHunonchi tibbiyot, arxitektura va hokazo soha egalari ham o‘zları mustaqil tarzda Qur‘on yoki hadislarni o‘rganib o‘z masalalarini xal etishlari lozim bo‘lib qolar edi.

Sunniylidka


Mazhab nomi	Asoschisi	Amal qiluvchiları % da	Shariat qonunlarini qo’llashdagi xususiyati	Tarqalgan davlatlari
Hanafiya	Abu Hanifa (Imomi A‘zam)	47 %	Qur‘oni Karim, hadislari, ijmo va qiyos qo’llangan	Suriya, Turkiya, Markaziy

				Osiyo, Pokiston, Hindiston
Molikiya	Molik ibn Ounas	17 %	Qur'oni Karim va Hadislarni aqlga asoslangan holda talqin qilishga, tushuntirishga qarshi chiqqan	Liviya, Sudan, Nigeriya, Mavritaniya, Hijoz
Shofi'iya	Abu Abdulloh ash- Shofi'iy	27 %	Islom huquqi an'anaviy me'yorlar bilan bog'langan, Ijmodan keng foydalilanilgan	Misr, Suriya, Indoneziya, Malayziya, Filippin, Sharqiy Afrika
Hanbaliya	Ahmad ibn Hanbal	1,5 %	Huquq tizimi o'ta tor, shariat me'yorlariga qat'iy, hech bir o'zgarishsiz rioya qiladi	Saudiya Arabistoni

SOXTA HADISLAR TO'QILISHIGA SABAB BO'LGAN BIR NECHA OMILLAR

1. O'zlarini taqvodor zohid kishi deb bilgan ba'zilar odamlarni yaxshilikka targ'ib qilish, yomonlikdan qaytarish maqsadida hadis to'qiganlar. Odamlar esa ularning so'zlari va tashqi ko'rinishlariga ishonib, to'qigan narsalarini hadis deb qabul qilish.
2. O'z mazhablarining boshqalaridan ustun ekanligini isbotlash maqsadida turli hadislar to'qigan xorijiylar, shialar va shu kabi siyosiy va aqidaviy firqalar bo'lgan.
3. Har xil hadislar to'qib, musulmon va hadislarga zarar yetkazmoqchi ayrim islom dushmanlari harakati.
4. Hokimlar va podshohlarga yoqish uchun ularning ishlariga moslab yoki maqtal hadislar to'qigan ayrim imoni zaif kishilar qilmishi.
5. Odamlarga qiziqarli bo'lishi va ularning e'tiborini tortib tirikchilik qilish maqsadida turli hadislar to'qigan ba'zi qissachilar faoliyati.
6. Birorta ham shayx bilmaydigan hadislar to'qib odamlar orasida shuhrat qozonmoqchi bo'lgan kishilar harakati.

Toshkent shahri – islom madaniyatining poytaxti



TOSHKENT SHAHRI BUNDAY YUKSAK UNVONGA

O'zbekiston xalqining islom madaniyati, falsafasi, ilm-fani
rivojiga qo'shgan ulkan hissasi

islomga oid qo'lyozma
manbalarga
boyligi

tarixiy obida va me'morchilik
namunalariga cheksiz hurmat-
e'tibori

tufayli sazovor bo'ldi

6-mavzu. Missionerlik va prozelitizm: tarix va bugun, targ'ibot usullari

Missionerlikning oldini olishning huquqiy asoslari

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 31-moddasi quyidagilarni etirof etadi:
- ««Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson hohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinka e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qoyilmaydi».
- Vijdon erkinligi – fuqarolarning har qanday dinka e'tiqod qilish yoki hyech qanday dinka e'tiqod qilmaslik bilan bog'liq konstitutsiyaviy huquqidir. U inson huquq va erkinliklarining ajralmas qismi hisoblanadi. asosini tashkil etadi.



O'zbekiston Respublikasida davlat va din munosabatlari. Mustaqillik ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, jumladan, ma'naviy hayotdagi yangilanish jarayonini, tub o'zgarishlar davrini boshlab berdi. Dinga bo'lган munosabat tubdan o'zgardi: sobiq sovet tuzumining dinga ateistik hujumkorlik siyosatiga barham berildi, vijdon erkinligi qonun orqali kafolatlandi. Din va dunyoviy davlat orasidagi munosabat haqida gap ketar ekan, eng avvalo, *dunyoviy davlat tushunchasini anglab olish zarur*. Dunyoviy davlatning xususiyatlari quyidagicha:

- din davlatdan ajratiladi;
- din dunyoviy davlat ishiga, siyosatiga aralashmaydi;
- davlat diniy tashkilotlar zimmasiga hech qanday vazifa bajarishni yuklamaydi;
- davlat diniy tashkilotlarning davlat qonunlariga zid bo'limgan faoliyatiga aralashmaydi;
- fuqarolar uchun vijdon erkinligi e'lon qilinadi;
- biror dinga imtiyoz berilmaydi, barcha diniy tashkilotlarning qonun oldida tengligi ta'minlanadi;
- ta'lim tizimi dindan ajratiladi;
- diniy tashkilotlarning faoliyati davlat hisobidan mablag' bilan ta'minlanmaydi.

O'zbekiston dunyoviy davlat. Demak, dunyoviy davlatda amal qiladigan davlat va din munosabati tamoyillariga O'zbekistonda ham amal qilinadi. Birinchi navbatda dinning davlatdan ajratilishi tamoyilini, uning asosini ta'kidlash zarur. Bu haqda Konstitutsiyamizning 61-

moddasida shunday deyilgan: “**Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi**”. Mazkur moddada muhim qoidalar mustahkamlab qo’yilgan. Avvalo, diniy tashkilotlar qaysi konfessiyaga taalluqliligidan qat’i nazar, bir xil huquqiy maydonda faoliyat olib boradilar. Bugungi kunda respublikamizda 15 ta noislomiy konfessiyaga mansub 186 ta tashkilot emin-erkin faoliyat olib borayotgani buning amaliy ifodasıdir. Qolaversa, diniy birlashmalar faoliyatini tashkil etish ularning ichki ishi hisoblanadi va davlat nazoratidan xolidir.

